NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

MAQOLALAR TO'PLAMI

MILLIY ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

“ZAMONAVIY FILOLOGIK TADQIQOTLAR: NAZARIYA, AMALIYOT, INNOVATSIYA” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

SMART ACCESS

YO'NALISHLAR

1. Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslik rivojining asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari
2. Tarjima nazariyasi va amaliyotida milliylik va universallik muammolari
3. Chet tillarini o‘qitishda zamonaviy filologik tadqiqotlar va innovatsion axborot texnologiyalari
4. Alisher Navoiy ijodiyoti: tadqiq, talqin, mohiyat
5. Filologik tadqiqotlar: fanlararo munosabat va zamonaviy talqin

O'TKAZILISH SANASI

14.11.2025 — 14.11.2025

CONFERENCE.NIUEDU.UZ

MUNDARIJA

1-SHO'BA: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK RIVOJINING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

Navoiy innovatsiyalar universiteti 4

1-SHO'BA

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK RIVOJINING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ И ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ

MAJOR TRENDS AND PROSPECTS IN THE DEVELOPMENT OF MODERN LINGUISTICS AND LITERARY STUDIES

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TAʼLIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

“ZAMONAVIY FILOLOGIK TADQIQOTLAR: NAZARIYA, AMALIYOT, INNOVATSIYA” MAVZUSIDAGI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

Navoiy, 2025-yil 14-noyabr

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ НА ТЕМУ «СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ТЕОРИЯ, ПРАКТИКА, ИННОВАЦИЯ»

Навои, 14 ноября 2025 года

“MODERN PHILOLOGICAL RESEARCH: THEORY, PRACTICE,

INNOVATION” a Republican scientific-practical conference Navoi, november 14, 2025 year

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANINING TASHKILIY QO‘MITASI

Jurabek Yorqulovich Mavlonov – Navoiy innovatsiyalar universiteti rektori

	Rais:
Kamol Namozovich Kadirov	Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, professor
	A’zolar:
Alijon Bahodirovich Ergashev	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor
Shuhrat Jumaqulovich Xudoyorov	O‘quv ishlari va ilmiy-innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Nasiba Jumayevna Yarashova	Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
Nargiza Sa’dullayevna G‘ulomova	Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
Faxriddin Toshpo‘lotovich Rajabov	Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Nigora Nuriddinovna Sharipova	Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ra’no Maxmudovna Payzullayeva	Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Temur Abdimurotovich Hasanov	Xo'jalik ishlari va hisob boshqarmasi boshlig'i
Akmal Azamatovich Kurbonov	Raqamli axborot texnologiyalari (IT) markazi rahbari
Fayziyev Eldor	Matbuot va PR-xizmati bo'limi boshlig'i

TAHRIR HAY'ATI

M.N.Sanoyeva	Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
N.B.Kobulova	Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAQRIZCHILAR

N.Murodova	Navoiy davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Z.Mamadaliyeva	Jizzax davlat pedagogika instituti universiteti dotsenti, f.f.n.
G.Zaripova	Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti
M.Xalilova	Navoiy innovatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi

SO'ZBOShI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar jarayonida milliy-ma'naviy merosimizni dunyoga tanitish, buyuk ajdodlarimiz, xususan, Alisher Navoiy ijodiy tafakkuridan xalqimizni bahramand etish ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020-yil 19-oktyabrdagi "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash

to‘g‘risida”gi PQ-4865-sonli qarorida shunday ulug‘vor ifoda keltirilgan: “Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g‘oyalarning jahon tamaddunida tutgan o‘rnini hamda o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyati”ni inobatga olgan holda “yangi Uyg‘onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o‘zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o‘rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”. Darvoqe, Alisher Navoiy boy ijodiy merosini targ‘ib va tashviq qilish bugungi kunda dolzarb vazifa ekanligi, ulug‘ zot asarlaridagi ma’naviy-ma’rifiy hamda irfoniy masalalarning badiiy qimmati, ilgari surilgan umumbashariy g‘oyalarning tadqiqi jamiyatda ma’nan yetuk shaxsni kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilining shakllanishi, rivojlanishi va sayqal topishida, tom ma’noda, o‘zbek adabiy tilining asoschisi sifatida Navoiyning salmoqli o‘rni bor. Endilikda buyuk zot qoldirgan boy merosni, ulug‘vor g‘oyalarni o‘rganish barobarida ularni hayotga tatbiq etish hayotimizning asosiy a’moliga aylandi.

Respublika ilmiy-amaliy anjumaniga taqdim etilgan qimmatli materiallarda ulug‘ shoir dahosi, beqiyos tafakkur olami jahon va o‘zbek navoiyshunoslari nigohida ilmiy-falsafiy sifatlanib, Navoiy ijodiyotining tasavvufiy va ma’rifiy qatlamlari, Navoiy ijodi va tilshunoslik masalalari, zamonaviy ta’limda Navoiy ijodiyotining o‘rganilishiga keng ahamiyat berilgan.

Bashariyatning aql-idroki tarixni yaratuvchanlik, kashfiyotlar bilan boyitadi, tamaddunning yangi bosqichlarida yo‘l ochib beradi. Bu borada buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyos ekanligi, o‘lmas falsafiy g‘oyalari bilan kelgusi avlodlar, xalqlar, millatlar kamoloti uchun yana ko‘p va xo‘p xizmat qilishi anjuman materiallarida o‘z ifodasini topganligini ko‘rish mumkin.

Tashkiliy qo‘mita

BUYUK INSONPARVAR VA YUKSAK IDEAL SOHIBI

Assalomu alaykum hurmatli anjuman ishtirokchilari, muhtaram mehmonlar!
Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2024-yil

30-oktabr–1-noyabr kunlari Navoiy viloyatiga tashrifi doirasida 2025-yilni viloyatimizda “Alisher Navoiy yili” deb e’lon qilinishi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-son xatiga ko‘ra Navoiy innovatsiyalar universitetimizda tashkillashtirilayotgan “Zamonaviy filologik tadqiqotlar: nazariya, amaliyot, innovatsiya” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumaniga xush kelibsiz deymiz!

Asrlar osha yangi ma'no qirralarining kashf etilishi bilan Sharq mumtoz adabiyoti, jumladan, ulug' so'z san'atkori Alisher Navoiy ijodi mangulikka daxldorlik kasb etmoqda. Uning ko'lami kengligi va davrlar o'tishi bilan yangicha talqinlarga asos bo'la olishi bu ijodiy merosga qayta-qayta murojaat qilishni taqozo qilmoqda. 2025-yilning viloyatimizda "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilinishi butun viloyatimiz ahli tomonidan yuksak mamnuniyat va xursandchilik bilan kutib olindi. Shunga binoan, Alisher Navoiy ijodiy merosini bugungi kun talablari asosida o'rganish, asarlarini qayta nashr etish, xorijiy davlatlarda saqlanayotgan shoir qalamiga mansub va u yashagan davrga oid qo'lyozmalarning nusxalarini mamlakatimizga olib kelish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy asarlari – milliy ma'naviyatimiz, qolaversa, bashariyat tamaddunning eng mo'tabar durdonalari yanglig' g'oyat aziz va qadrli. Navoiy butun hayoti va faoliyatini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, turli urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag'ishladi, o'zbek adabiy tili va mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot pog'onasiga olib chiqdi.

Shoirning o'lmas asarlari betakror mazmun-mohiyat va yuksak badiiyatga ega bo'lib, umumbashariyat xazinasidan munosib o'rin olgan. Ularda **tarbiyaning shaxs kamoloti, el ravnaqi, yurt istiqbolida tutgan o'rni yuksak baholangan. Hazrat Alisher Navoiyning ham ma'no, ham suratda barkamol, ulug' ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lish bilan birga badiiy jihatdan yuksak darajadagi asarlari barcha zamonlar uchun dolzarb sanalgan.**

Alisher Navoiy o'zining o'lmas asarlarida yoshlarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalash yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib bergan. Navoiyning asarlari o'z davrining yirik ma'naviy sarchashmalaridan biridir. Uning asarlaridagi dono so'zlar, o'gitlar, maqolatlar, rivoyatlarning asosiy mazmuni mehnatsevarlik, odoblilik, go'zallikni sevish, zehnlik, ilm olish, hayotga va kishilarga, Vatanga muhabbat kabi buyuk fazilatlarni ulug'lashdir. Shoir nazdida yaxshi fazilatlar mujassamlashgan inson – chinakam insondir.

Millatimiz ma'naviy yuksalishi, yosh avlod qalbida komillik urug'larini o'sib unishida Navoiyga ehtiyoj nechog'lik muhimligini davr ko'rsatmoqda. Navoiy shunday buyuk zot ekan, uning tafakkur durdonalari bo'lmish boqiy asarlari zamonlar osha yashab kelayotgan ekan, bu ulug' merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, ma'naviyatini yuksalikka ko'tarishdan, insoniy fazilatlarini kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy

qurolga ega bo'lamiz. Ilm-fan, ma'rifat, ijod va ta'lim-tarbiyada, hayotni anglash va yaratuvchanlikda Navoiy merosi bizning suyangan tog'imiz, inongan bog'imizdir. Unga

qancha ko'proq suyanib, ruhan undan qancha chuqur zavq ola bilsak, dunyoni bilish, insonni tanish imkoniyati o'shancha kengayadi.

Navoiy insonning ichki dunyosi, tuyg'ulari, tafakkuri, odob-axloq kamolotini olamdagi ma'naviy borliqning quyosh yulduzi oyi, mevali daraxtlari, chiroyli gullariga taqqoslaydi. Inson xulqining go'zalligini faoliyatinning ko'rinishlariga, tabiat saxovatlariga, hodisalariga va boshqalariga taqqoslab, inson tabiatidagi o'zgarishlarni agar u salbiy bo'lsa, tabiatning kulfat keltiruvchi kuchlariga, ijobiy bo'lsa, tabiat go'zalliklariga qiyoslaydi.

Muhtaram yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "Bu mumtoz siymo jahon adabiyoti mezonlariga, zamon va tarix sinovlariga to'la javob beradigan durdona asarlar yaratib, nafaqat o'zbek, balki barcha turkiy adabiyotlar rivojiga beqiyos hissa qo'shgani ham yuksak hayrat va tahsinga munosibdir".

Bugun hazrat Navoiy orzu qilgan, asarlarida ilgari surilgan ezgu g'oyalar mamlakatimizda amalga oshmoqda. Bugun biz Yangi O'zbekistonning bunyodkorligi yo'lida Hazrat Navoiy ijodiy merosiga ma'naviy jihatdan ehtiyoj sezamiz. **Hazrat Alisher Navoiyning sharqona tarbiyaga oid qarashlari nainki ulug' mutafakkir yashab ijod qilgan davr yoxud bugungi kunda, balki uzoq istiqbolda ham hayotbaxsh manba bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.**

E'tiboringiz uchun tashakkur!

Jurabek Yorqulovich MAVLONOV, Navoiy innovatsiyalar universiteti rektori, siyosiy fanlar doktori, professor

BIRINChI ShO'BA: ALIShER NAVOIY IJODIYOTI: TADQIQ, TALQIN, MOHIYAT

O'ZBEK ShEVALARI LEKSIKASINI PARAMETRIK O'RGANISh TARIXIDAN

(Mahmud Koshg'ariy hamda Alisher Navoiyning leksikografik asarlari misolida)

J.ELTAZAROV,

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti direktori, professor, filologiya fanlari doktori

M.BOBOTAYEV,

mustaqil izlanuvchi, Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Turkiy tillar va shu jumladan, o'zbek tili shevalarining tarixiy leksikasi tilshunosligimiz tarixida har doim tizimli ravishda va o'z davrining leksikograflari ixtiyorida

mavjud bo‘lgan usullar hamda leksikogarfik parametrlar yordamida o‘rganib kelingan. Bu sohada, ayniqsa ulug‘ ajdodlarimiz – Mahmud Koshg‘ariy va Alisher Navoiyning qilgan xizmatlari diqqatga sazovordir. Har ikki mutafakkir ham turkiy tilning leksik qatlamlari haqidagi tadqiqotlarida o‘z davridagi lug‘atchilik an’analariga nisbatan ancha ilg‘or tekshirish usullaridan foydalangani hamda leksik birliklarni turli tamoyil va leksik parametrlarga asosan o‘rgangani ko‘zga tashlanadi.

Har ikki mutafakkir ham o‘z lug‘atlarida etimologik parametr, grafik parametr, morfologik parametr, dialektologik-areal parametr kabi yondashuvlardan foydalanib, qadimgi turkiy so‘zlarni ilmiy ta’riflab berganlar. Shu sababli tilshunosligimiz va dialektal lug‘atshunosligimiz tarixida Mahmud Koshg‘ariy hamda Alisher Navoiyning alohida o‘rni mavjud.

Kalit so‘z va jumlalar: Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, turkiy til, o‘zbek tili, dilaektologiya, leksikografiya, leksikografik parametrlar.

Abstract: The historical vocabulary of Turkic languages, including Uzbek dialects, has always been systematically studied in the history of our linguistics, using the methods and lexicographic parameters available to the lexicographers of their time. In this area, the contributions of our great ancestors – Mahmud Kashgar and Alisher Navoi – are particularly noteworthy. It is noteworthy that both thinkers used far more sophisticated research methods in studying the lexical layers of the Turkic language than the lexicographic traditions of their time, and studied lexical units based on different principles and lexical parameters.

Both thinkers scientifically described ancient Turkic words in their dictionaries, using approaches such as etymological, graphic, morphological, and dialectological-areal parameters. Therefore, Mahmud Kashgari and Alisher Navoi occupy a special place in the history of our linguistics and dialectal lexicography.

Keywords and sentences: Mahmud Kashgari, Alisher Navoi, Turkish language, Uzbek language, dialectology, lexicography, lexicographic parameters.

Turkiy tillar va shu jumladan, o‘zbek tili shevalarining tarixiy leksikasi tilshunosligimiz tarixida har doim tizimli ravishda va o‘z davrining leksikograflari ixtiyorida mavjud bo‘lgan usullar hamda leksikogarfik parametrlar yordamida o‘rganib kelingan. Bu sohada, ayniqsa ulug‘ajdodlarimiz – Mahmud Koshg‘ariy va Alisher Navoiyning qilgan xizmatlari diqqatga sazovordir. Har ikki mutafakkir ham turkiy tilning leksik qatlamlari haqidagi tadqiqotlarida o‘z davridagi lug‘atchilik an’analaridan ancha ilg‘or tekshirish

usullaridan foydalangani hamda leksik birliklarni turli tamoyil va leksik parametrlarga asosan oʻrgangani koʻzga tashlanadi.

1. **Mahmud Koshgʻariyning leksikografik tamoyillari va u qoʻllagan parametrlar.** Ma'lumki, turk dunyosida sheva va uni ilmiy oʻrganish dastlab XI asrda Mahmud Koshgʻariyning "Devoni lugʻotit turk", muallifi noma'lum "Attuhfa tuz zakiyatu fil lugʻatit turkiya" (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa) asarlari orqali boshlangan, desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Mahmud Koshgʻariy lugʻati turkiy tillar lerksikasi va semantikasini koʻp qirrali, chuqur oʻrganish hamda rivojlanish qonuniyatlarini kuzatish uchun qimmatli manbadir. Koshgʻariy oʻz davrida yashab oʻtgan turkiy qabilalar yashaydigan hududlarda boʻlib, ularning hayoti va turmush tarzi, urf-odat va an'analarini oʻrganib, tahlil qilgan, tilini tavsiflagan, turkiy sheva va lahjalarning oʻxshash va farqli tomonlarini tizimga solgan holda tahlil etgan. Qolaversa, Koshgʻariy lugʻatda ataylab etnolingvistik tadqiqotlar olib borganligi haqida muqaddimada shunday yozadi: "Men [soʻzlarning] asoslarini qoida va tamoyillarga koʻra tartibladim... Va har bir qabila uchun [soʻz] asoslari bilan cheklandim. ...Unda (asarda) ular (turklarning) tantanali va kundalik bayramlarda aytayotgan she'rlaridan namunalar hamda hikmat yoʻllarida qaygʻuda ham, shodlikda ham yaratgan, avloddan avlodga oʻtuvchi hikmatli soʻzlarini toʻpladim. Men unda (kitobda) eng koʻp qoʻllaniladigan narsalarning nomi va mashhur iboralarni toʻpladim,binobarin, kitob eng yuksak xususiyatlarga va gʻoyat nafislikka ega boʻldi"[1].

Boshqird turkologi T.M.Garipov ta'kidlaganidek, Mahmud Koshgʻariy keltirgan hamda qadimgi "turkiy lahja va shevalarga xos" leksika belgilari bilan izohlangan soʻzlardan faqat bir nechtasini "...Ural-Volga mintaqasiga mansub boshqirdlar, tatarlar, yamaklar yoki qipchoqlar (koʻpincha oʻgʻuzlar, suvarlar, yagʻmolar va boshqalar bilan birga) tiliga tegishli boʻlgan deb hisoblash mumkin. Zotan, bu leksemalarning deyarli barchasi hozirgi Ural-Volga tillarida aniq oʻz muqobillariga ega. Ulardan ba'zilari bir paytlar yoʻqolib ketib, keyin yangi topilgandek paydo boʻladi, bu esa ilmiy nuqtayi nazardan juda qimmatlidir[2]. Masalan, Mahmud Koshgʻariy tomonidan keltirilgan yamak, qipchoq, qay, tatar, jumullar tilidagi ***qat*** "rezavor, meva" soʻzi boshqird, qozoq va boshqa bir qator

[1] Кошғарий, Маҳмуд. Девону луғотит турк. I. – Т.: Фан, 1960. – Б. 35–36, 41.

[2] Гарипов, Т.М. Кыпчакские языки Урало-Поволжья. Опыт синхронической и диахронической характеристики. – М.: Наука, 1979. – С. 49.

tillarda faqat qoʻshma soʻzlar tarkibida uchraydi: boshq. *qaraxat,* qozoq. *karagat,* tatarchada *qarligan* – "smorodina".

A.K.Kurishjanovning yozishicha, Mahmud Koshgʻariy qipchoqlar tiliga oid deb koʻrsatgan barcha soʻzlar "...fonetik, grammatik va leksik jihatdan pirovardida umumiy turkiy soʻzlardan farq qilmaydi. Mahmud Koshgʻariyning lugʻatida keltirilhan boshqa turkiy tillarga xos boʻlgan koʻplab soʻz va shakllar eski qipchoq tiliga oid yozma yodgorliklarida ham uchraydi, ammo buning aksi boʻlgan hodisani ham inkor etib boʻlmaydi: baʼzan boshqa turkiy xalqlar tillariga doir yozma yodgorliklarida sof qipchoqcha belgilarni kuzatish mumkin. Hozirgi qipchoq tillarining ayiruvchi belgilariga aylangan ayrim fonetik xususiyatlar bundan mustasnodir"[1].

Yuqorida taʼrif etib oʻtilgan jihatlar tufayli Mahmud Koshgʻariyning "Devoni lugʻotit turk" asari oʻz davri uchun turkiy tillar leksikasi boʻyicha juda yuqori darajadagi nodir asar hisoblanadi va bu juda koʻp bora taʼkidlangan[2]. Jumladan, Mahmud Koshgʻariyning oʻzi tilda va lahjalarda boʻlgan farqlar xususida toʻxtalib quyidagilarni bayon qiladi: "Tub soʻzlarda oʻzgarishlar kam boʻladi. Soʻzlardagi oʻzgarish harflarda, baʼzi harflarning almashinuvida, tushib qolishidadir. Masalan,

-k bilan boshlangan ot va feʼllarning bosh harfini oʻgʻuz ham qipchoqlar alifga yoki

-***ch***ga aylantirishini koʻrsatib oʻtadi". Bu jihatlarni bir qancha *jelkin-musofi, jiligʻ suv-iliq suv, jinju-dur,marvarid* kabi misollarni keltirib, ularning oʻgʻuz va qipchoq lahjalaridagi farqli xususiyatlarini ochib beradi. Shuningdek, lahjalardagi fonetik oʻzgarishlarni koʻrsatib soʻz boshida **-m** harfi bilan boshlanuvchi soʻzlarni oʻgʻuz, qipchoq, suvorinlar **-b** ga aylantirib aytishini koʻrsatib buni *men bardim-ben bardum, moʻn-boʻn (shoʻrva)* kabi misollar orqali ifodalaganini koʻrishimiz mumkin[3]. Qolaversa, qomusiy olim turkiy tillar va shevalarini oʻrganar ekan quyidagi jihatlarni alohida taʼkidlaydi: "Men turklar, turkmanlar, oʻgʻuzlar, chigillar, yagʻmolar, qirgʻizlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini koʻp yillar kezib chiqdim, lugʻatlarini toʻpladim, turli xil soʻz xususiyatlarini oʻrganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni aniqlash uchun qildim… Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, oʻgʻuzlar, chigillar, yagʻmolar va qirgʻiz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo boʻldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim"[4]. Asarda yana shunday holatlar keltiriladiki, oʻsha davr turkiy urugʻ va qabilalari tilidagi baʼzi oʻzgarish va farqli jihatlarni hozirgi kunda ham kuzatishimiz mumkin. Yaʼni, Mahmud Koshgʻariy baʼzi soʻzlarni izohlar ekanu soʻzni u yoki bu turk qabilalarining ayrimlari ***a*** bilan, ayrimlari esa ***e*** bilan talaffuz qilishiga eʼtibor beradi. Bu holat yuqorida taʼkidlaganimizdek quyidagi misollarda namoyon boʻladi: *Men-man, yangi-yengi, tagida-tegida, kema-kama.* Koshgʻariy oʻsha davrda *"üy"* (sigir)

[1] Курышжанов А.К. Махмуд Кашгари о кыпчакском языке. Советская тюркология. 1972. №1. – С. 52–60.

[2] *Qarang:* Кононов А.Н. Махмуд Кашгарский и его "Дивану лугат ат-турк". - Сов. тюркология, 1972, № 1. – С. 5–21.; Тенишев Э. Р. Тюркская историческая диалектология и Махмуд Кашгарский // Советская тюркология. 1973. № 6. – С. 54–61.; Равшанов М. Идеографические описание в «Девону лугатит турк» // Материалы международной конференции, посвященной 930-летию «Девону лугатит турк». – Самарканд: СамГУ, 2002. – С. 46–47.

[3] *Qarang:* Кошғарий, Маҳмуд. Девону луғотит турк. I. – Т.: Фан, 1960. – Б. 35–36, 41.

[4] Кошғарий, Маҳмуд. Девону луғотит турк. I. – Т.: Фан, 1960. – Б. 44.

so'zini keng va tor lablangan unlilar bilan farqli talaffuz qilganini ko'rsatgan. Ko'rinadiki, bu xususiyat hozirgi o'zbek dialektlarida ham (Toshkent va Farg'ona) saqlanib kelinayotgani barchaga ma'lum. Bu hol Toshkent va Farg'ona dialektlaridagi farqlar o'sha davrdayoq (aynan bugungi holatda emas, o'zgarishlarga uchragan holatda) mavjudligini ko'rsatadi, shuningdek, ular umumxalq o'zbek tilining tashkil topishida ishtirok etgan asosiy lahja va shevalardan ekanini ham isbotlaydi. Shu bilan birgalikda tilimizda o'sha davr bilan bog'liq yana bir saqlanib qolgan boshqa bir xususiyatni ham namuna sifatida ko'rsatish mumkin. Bu xususiyat o'sha davr tili uchun xos bo'lgan va buni Koshg'ariy ***y*** tovushi bilan ***i*** tovushining almashishi sifatida ta'riflaydi. So'z boshida y- undoshining tushirilishi holati avvaldan borligi, lekin ***i*** lashish tarzi yangilik ekani aytadi va buni quyidagicha izohlaydi: ***"ilig'"*** so'zi aslida ***"yilig'"*** edi[1]. Shundan bilishimiz mumkinki, bu xususiyat hozirgi davrda ha ayrim sheva va lahjalarimizda nafaqat saqlangan, balki taraqqiy etganini ham ko'rishimiz mumkin. Bu jihat quyidagi misollarda o'z aksini topadi: *ilon-yilon, irik-yirik, igirmoq-yigirmoq* kabi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi ayrim dialektizmlar bilan solishtirsak, bu jihatlar aynan yuqorida keltirilgan fonemalar doirasidagina emas, balki boshqa fonemalar bilan ham qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin: Masalan, **evara** (ota farzandining farzandining bolasiga nisbatan) so'zini oladigan bo'lsak qipchoq lahjasiga oid aholi vakillari tomonidan **avara** shaklida muomalada ekanligini ko'ramiz[2], ammo "O'zbek xalq shevalari" lug'atida **avara** Andijon hududi aholi vakillari tomonidan **"arava"** ma'nosida va yana shu hududa "ovora bo'lmoq" ma'nosida qo'llanganligi kuzatiladi.

Mahmud Koshg'ariyning "Divon lug'at at-turk" asari murakkab va serqirra ensiklopedik xarakterga ega asardir. Musulmon Sharqida o'rta asrlarda mavjud bo'lgan lug'atchilikning an'ana hamda qoidalariga asosan tuzilgan bu lug'atda quyidagi leksikografik parametrlariga amal qilingani kuzatiladi:

Etimologik parametr: turkiy lahja va shevalardagi ba'zi etnonim (*qarluqlar va salarlar*), toponimlar (*O'zgan, Samarqand* shaharlari) etimologiyasiga oid ma'lumotlar

keltiriladi. Bu esa o‘sha davrdagi arab lug‘atlarida keng qo‘llangan amaliyotni aks ettirgan.

Grafik parametr: ilk o‘rta asrlardagi arab lug‘atchiligi an’analariga rioya qilgan holda so‘zlarning fonetik-grafik tarafini hisobga olgan holda DLT sakkiz bo‘limdan (Koshg‘ariyning ifodasiga ko‘ra - kitobdan) iborat qilib tuzilgan: 1. Kitâbü’l-Hamza). Unli tovush *(a, e, ı, i, o, ö, u, ü),* ya’ni boshida hamza bilan boshlangan so‘zlar bo‘limi. 2. Kitobu’s-Salim. Tarkibida *v* va *y* undoshlari bo‘lmagan, undoshlari tovush o‘zgarishlariga uchramagan so‘zlar 3. Kitobu’l-Muzaaf. Tarkibida bir xil turdagi ikki undosh bo‘lgan so‘zlar guruhi. 4. Kitobu’l-Misol. Bu so‘zlarning “*y*” undoshi bilan boshlanadigan bo‘limidir. 5. Kitâbü Zavati’s-salosa. O‘rtada *alif, vov, yo* uchliklaridan biri bo‘lgan so‘z bo‘limi. 6. Kitâbü Zavati’l-arbaa. *Alif, vov, yo* harflaridan biri bilan tugaydigan so‘zlar bo‘limidir. 7. Kitobu’l-G‘unna. Bu bo‘lim tarkibida tarkibida *ŋ* (burun sonori) va

[1] Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. I. – Т.: Фан, 1960. – 46-б.

[2] Ўзбекистн Миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006–2008. – Б. 26.

nch undoshli so‘zlar (*tang* “hayrat”, *ming* “ming son”, *singir* “asab”; *soqınç* “tashvish”). 8. Kitobu’l-Jam. Bu bo‘lim tarkibida *lç, lk, lp, lt; nç, nk, nt; rç, rk, rs, rt, rp; st, shtu* undosh guruhlari bo‘lgan so‘zlarning bo‘limidir (masalan,*o‘rtmen* “tom, yuza”, *ötünç* “qarz oluvchi”, *ko‘ko‘rchkun* “kaptar”, *yaltga* “biror narsani masxara qilish”) [1].

Morfologik parametr: “Devonu lug‘at-it-Turk”ga nazar tashlaganimizda, muallifning otlarga ustunlik bergani, keyin esa fe’llarni sanab o‘tgani ko‘rinadi. Boshqacha aytganda, bu o‘rinda muallif eng eski davrdan beri avval antik, keyinroq esa arab leksikografiyasida so‘z turkumlari paradigmasi asosida turuish bilan birga dunyodagi narsa, hodisa va jarayonlardagi axborotlarning aksariyatini tashuvchi ism[2] (ot) va fe’lga asosiy e’tiborni qaratish tamoyilidan foydalanishga urinayotgani ko‘rinib turibdi. Bu tasniflash usuli arab lug‘ati grammatikasida ham mavjud.

Dialektologik-areal parametr: lug‘atdagi yuzdan ortiq maqolalar “Rum diyoridan Mochingacha” bo‘lgan hududlarga, arab geografiyachilarining “yetti iqlimli dunyo”sining beshtasiga tarqalgan qadimgi turk tilining areal xususiyatlarini aks ettiradi, XI asrdagi Turk dunyosining dunyosining turli qismlarida turkiycha so‘zlarning talaffuzi va ishlatilishidagi farqlarni tushuntirishga yordam berdi.

Alisher Navoiyning leksikografik tamoyillari va u qo‘llagan parametrlar.

Mahmud Koshg‘ariyning lug‘atchilikda erishgan muvaffaqiyatlari undan to‘rt asr o‘tib Turkiy dunyoning boshqa bir mutafakkiri Alisher Navoiy tomonidan rivojlantirildi va takomilga yetkazildi.

Jumladan, Alisher Navoiy oʻzining tilshunoslikka oid “Muhokamat ul lugʻatayn” asarida turkiy va forsiy tilni bir-biriga qiyoslab, adabiy til xususiyatlarini tavsiflash bilan bir qatorda eski oʻzbek tili tarkibidagi “hoqoniy turkcha” hamda “xorazm turkchasi”[3] deb nomlangan ikki lahjani ajratib koʻrsatadi (bular taqriban hozirgi qarluq va oʻgʻuz lahjasiga toʻgʻri keladi). Shu bilan birga u turkiy tilning lugʻat tarkibida ism (ot) va fe’llarning ustivor maqomiga ham birinchilardan boʻlib oʻz e’tiborini qaratadi. Navoiyning bu asari 15-asrda, Temuriylar sivilizatsiyasi davrida Movarounnahr va Xurosonda amalda boʻlgan ikki adabiy til – eski oʻzbek (turkiy) tili va fors tilining leksik-grammatik taraflari va ifoda vositalarining muqoyasasiga bagʻishlangan edi. Navoiy bu asarni yozish bilan turkiy tilning oʻzining soʻz boyligi va leksik qatlamlari bilan oʻsha davrdagi yetakchi adabiy til - forsiy tildan hech ham qolishmasligini hamda uning ustun taraflarini koʻrsatib berdi[4]. Asarda turkiy va forsiy tillarning muqoyasasi 100 fe’l va 100 ism (ot)ga asoslangan holda amalga oshirilgani diqqatga sazovordir. Bu tilning leksik sathidagi birliklariga morfologik parameter asosida yondashish namunasidir va, buyuk ehtimol ila bu yondashuvni qoʻllash orqali muallif turkiy (oʻzbek) tilining soʻz

[1] Korkmaz, Zeynep. Kaşgarli Mahmud ve Divanu Lugati't Türk. Milli Kültür, C. 2, C. 10. Mart, 1981. – S. 15–19.

[2] Dîvânü lugāti’t-Türk > https://islamansiklopedisi.org.tr/divanu-lugatit-turk (August, 2024)

[3] Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. – T.: “Nodirabegim”, 2021. – B. 10–11.

[4] Qarang: *Devereux, Robert (tr.). Judgment of Two Languages; Muhakamat Al-Lughatain By Mir 'Ali Shir Nawāi; Introduction, Translation and Notes// The Muslim World, Volume 55, Issue 1, 1965. –pp.28-45; Hoberman, Barry.* Chaucer of the Turks - http://www.saudiaramcoworld.com/issue/198501/chaucer.of.the.turks.htm (март,2024);

yasash va lugʻat tarkibining boyish usullari jihatidan forschadan ustunligini koʻrsatish bu usulga murojaat qilgan.

Ma’lumki, Alisher Navoiy Temuriylar davlatining yirik fan va madaniyat markazlari boʻlgan Hirot, Samarqand va Mashhad kabi shaharlardagi madrasalarda ta’lim olgan edi. Temuriylar davrida, va undan keyin ham - to 19-asrning oxirlarigacha, yurtimizdagi madrasalarda til ta’limi, ayniqsa, arab tili grammatikasi chuqur oʻrgatilgan[13], shu sababli Alisher Navoiy arab lugʻatshunosligi an’analari bilan yaqindan tanish boʻlganligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Alisher Navoiy oʻz asarida avvalo soʻz ustida toʻxtaladi va soʻzning ma’no va shakli ayrilmas ekanligini aytadi, uning ma’no va mazmuni soʻzlovchining (“koʻngul”) inon-

ixtiyori va intellektual saviyasiga ko'ra nutqiy voqelanishiga ishora qiladi: "<…> so'z durredurkim, aning daryosi ko'nguldur va ko'ngul mazharedurkim, jomii maoniyi juzv va kulldur. Andoqki, daryodin gavhar g'avvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javharig'a ko'ra zohir bo'lur. Ko'nguldin dog'i so'z durri nutq sharafig'a sohibi ixtisos vasilasi bila guzorish va oroyish ko'rguzur va aning qiymati ham martabasi nisbatig'a boqa intishor va ishtihor topar <…>"[14]. Navoiyning so'zga ta'rifida an'anaviy Sharq mantiq va tilshunoslik fanlaridagi "javhar – tazohir" (substansiya va belgilar) tamoyilining ta'siri seziladi. Ammo "Muhokamatul lug'atayn"da Alisher Navoiy turkiy tilni ta'rif va tavsif etish uchun bu tildagi fe'l va ism turkumining o'ziga xos xususiyatlarini ta'rif etish yo'lidan boradi. Alisher Navoiy turkiy tilning lug'at tarkibi va ifoda–tasvir vositalarining boyligi va go'zalligini ko'rsatib berish uchun arab grammatikasining an'anaviy ta'rif-tavsif usullariga bosh urmaganining sababi ham shunda, chunki, turkiy tillarda ayni fe'l va ismdagi ma'noviy teranlik, yasalish usullari va shakllaridagi hayratlanarli rang-baranglik eng avvalo his etiladigan va ko'zga tashlanadigan tarafdir.

Chunonchi, Navoiy turkiy tilning fe'l turkumi tushuncha anglatadigan eng nozik ma'no qirralarigacha ochib ko'rsatishini qayd etadi: "<…> turk alfozi vozii asru ko'p vaqtda mubolag'a izhori qilib, juzviy mafhumot uchun alfoz vaz' qilibdurki, sohib vuquf kishi to zohir qilmas, inonsa ham bo'lmas. Andoqki: *quvormoq va quruqshamoq va usharmak va jiyjaymoq va o'ngdaymoq va chekrimak va do'msaymoq va umonmoq va sanmoq va igirmak va egarmak va o'xranmak va toriqmoq va aldamoq va argadamoq va ishanmak va iglanmak va aylanmoq va erikmak va igranmak va ovunmoq va qistamoq va qiynamoq va qo'zgalmoq va sovrulmoq va chayqalmoq va devdashimoq va qiymanmoq va qizganmoq va nikamak va siylanmoq va tanlamoq va qimirdamoq va serpmak va sirmamak va ganorgamak va sigriqmoq va sig'inmoq va qilimoq va yolinmoq va munglanmoq va indamak va tergamak va tevramak va qinggaymoq va shig'aldamoq va singramoq va yashqamoq va isqarmoq va ko'ngranmak va suxranmoq va siypamoq va qoralamoq va surkanmoq* <…> Bu yuz lafzdurki, g'arib maqosid adosida ta'yin qilibdurlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yasamaydurlarki, barchasi muhtojun

[13] Valihocayev B. Uluğ Bey devri medreseleri. –İstanbul: Feza, 2004 s. 11-24; Bıçakçı, Ahmet Salih. Bukharan Madrassahs: Usul-i Kadim // Reform Movements and Revolutsions in Turkistan: 1900-1924. –pp. 135-149.

[14] Навоий, Алишер. Муҳокаматул луғатайн / Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев // Асарлар. 15 томлик. Т.

14. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967, 105-б.

ilayhdurki, takallum chog'ida kishi anga muhtoj bo'lur <…>"[15]. Haqiqatan ham, turkiy tildagi fe'l asoslarining ko'pligi va yasalish usullarining xilma-xilligi bu tillarda fe'l kombinatorikasi juda katta o'lchamda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Turkiy tildagi fe'lning

ana shunday o‘ziga xos tarafiga keyinchalik A.Fitrat, A.Ismoiliy kabi tadqiqotchilar ham o‘z e’tiborini qaratgan edilar[16].

Ism (ot) turkumining o‘ziga xos taraflari xususida to‘xtalganda Navoiy turkiy tilda otlarning ma’no va shakl munosabatida “<…> tajnisomiz lafz va iyhomangiz nukta borki, nazmg‘a mujibi zeb va ziynat va boisi takalluf va san’atdur <…>”, deb ko‘rsatadi. Eski o‘zbek tilidagi omonimik qatorlar va bu omonimik qatorlar yordamida faqat turkiy she’riyatda mavjud bo‘lgan tuyuq san’ati maydonga kelganini (*“ot”,“it”, “sog‘in”, “tuz”, “ko‘k”, “ter”* kabi so‘zlari misolida , tabiiyki, omonimlardan biri fe’l yoki sifat tushunchasini anglatishi mumkin) anglatgan Navoiy bu bilan ism turkumidagi so‘zlarning tildagi maqomi yuksak ekanligiga urg‘u beradi[17]. Shuningdek, Navoiyning ism va fe’lga munosabatida klassik Sharq falsafasidagi “narsa va harakatning birlashuvi – hayot, ism va fe’lning uyg‘unlashuvi – nutqdir”, degan ontologik aqidaning ta’siri ham ko‘zga tashlanadi. Xullas, Alisher Navoiyning eski o‘zbek tilining lug‘at tarkibiga yondashuvlarida turkiy tildagi fe’l va ism turkumining roli mantiqli baholanadi. Bundan bilish mumkinki, Navoiy tillar va ularning tarqalishi haqida, odamlar yashashi uchun jamoa bo‘lib joylashuvida, bu jamoalarning muloqotida farqliliklar borligini aynan hozirgi kundagi sheva va lahjalarimizga nisbat deb bilishimiz mumkin. Zero, ulug‘ shoir va mutafakkirning o‘z so‘zlari bilan aytganda: “*Buning bilan turk tilining o‘tkurlik va nozikligini, yetuklik va kengligini... ko‘rsatdim. Xayolimga shunday keladiki, turk xalqining so‘z ustalari oldida ulug‘ vazifani bajardim, buning blan ular o‘z so‘zlari iboratlari haqiqatidan va o‘z til va lug‘atlari kayfiyatidan xabardor bo‘ldilar va forsigo‘ylarning nutq va so‘z bobida qilib kelgan ta’na va sarzanishlaridan qutuldilar. Ular ham shuncha mehnat va mashaqqatlar bilan yuzaga chiqarganim bu maxfiy ilmdan xabardor bo‘lsalar, umidim shuki, bu faqirni yaxshi duo blan yod qilg‘aylar va ruhimni aning bilan shod qilg‘aylar..*”[18]

Yuqorida tilga olingan asari bilan o‘zbek tili tarixida ilk marta turkiy tilning lug‘aviy boyligi va so‘z yasash kombinatorkasi yuqori ekanligini isbotlab bergan Alisher Navoiy o‘zi yaratib ketgan asarlari bilan tilimizning boy lisoniy imkoniyatlarini badiiy ijodida namoyon qildi. Shu sababli u qo‘llagan 26 mingdan ziyod so‘zlarning izohli lug‘atini tuzish ulug‘ shoir va mutafakkir yashagan davrdayoq boshlangan edi.

Alisher Navoiy o‘zbek (turkiy) tilning leksikasini tekshirishda ko‘proq leksik, morfologik va morfemik tamoyillarga e’tibor bergani va o‘zi tarafidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda ushbu parametrlarni ustivor qo‘llagani guvohi bo‘lamiz.

[15] Навоий, Алишер. Муҳокаматул луғатайн / Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев // Асарлар. 15 томлик. Т.

14. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967, 108-109- бб.

16 Fitrat. Əzbek tili qaьdalarь toğrusьda bir taçriba. Kitəb 1. Sarf. 6-inçi basma. - Səmərqand-Taşkent, 1930; Исмоили А. О философии узбекского языка (эссе) - http://turkolog.narod.ru/info/I407.htm (март, 2024)

17 Навоий, Алишер. Муҳокаматул луғатайн, 112-114-бетлар.

18 Навоий, Алишер. Муҳокаматул луғатайн / Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев // Асарлар. 15 томлик. Т.

14. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967, 112- б.

Xulosa. Turk dunyosida shevalarning leksikografik xususiyatlarini ilmiy oʻrganish dastlab XI asrda Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻotit turk”, keyinchalik yaratilgan noma’lum muallifning “Attuhfa tuz zakiyatu fil lugʻatit turkiya” (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa) asarlari orqali boshlangan. Mahmud Koshgʻariy lugʻati turkiy tillar lerksikasi va semantikasini koʻp qirrali, chuqur oʻrganish hamda rivojlanish qonuniyatlarini kuzatish uchun qimmatli manbadir. Bu lugʻatda olim etimologik parametr, grafik parametr, morfologik parametr, dialektologik-areal parametr kabi yondashuvlardan foydalanib, jami 8000 yaqin qadimgi turkiy soʻzlarni ilmiy ta’riflab bergan. Tilshunosligimiz va lugʻatshunosligimiz tarixida Alisher Navoiyning “Muhokamatul lugʻatayn”,

A. Navoiy asarlarining izohli lugʻati - ”Badoyi al-lugʻat”, “Abushqa” lugʻatida ham ana shunday yondashuvlarni koʻramiz.

Oʻzbek dilaektal leksikasini tarixiy planda oʻrganishda turkiy xalqlar orasidasn yetishib chiqqan ushbu ikki buyuk mutafakkirning alohida oʻrni bor hamda ularning leksikografik tadqiqotlari xususida keng planda kuzatishlar olib borish oʻzbek dilaektologiyasi fanining oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

АЛИШЕР НАВОИЙ ШЕЪРИЯТИДА МИФОЛОГИК ТИМСОЛЛАР ТАЛҚИНИГА ДОИР

УСМОН УРАЛОВИЧ ҚОБИЛОВ,

СамДУ профессори, филология фанлари доктори (DSc)

Аннотация. Ушбу мақола Алишер Навоий лирикасида мифологик тимсоллар бадиий талқини масаласига бағишланади. Унда шоир шеъриятида тасвир этилган мифик образлар талқинига эътибор қаратилади. Алишер Навоий қаламига мансуб “Хизру Масиҳ” радифли иккита ғазали мисол сифатида илмий таҳлил этилади.

Калит сўзлар: мумтоз шеърият, Алишер Навоий лирикаси, анъанавий тимсоллар, тавсиф ва тасвир, мифологик тимсоллар, образлар типи, ғазал жанри, радиф ва қофия, зоҳир ва ботин, ошиқ ва маъшуқа, бадиий талқин.

Ўзбек мумтоз шеъриятида мифологик тимсоллар тасвири масаласи оламшумул мавзулардандир. Гап шундаки, мумтоз шеър бадииятида бу характерли образлар талқини гарчи шеърий санъат деб юритилса-да, улар моҳият эътибори билан у ёки бу асар бадиий харитаси билан боғланган бўлади. Мисол сифатида Алишер Навоий ижодида сермаҳсул ўрин тутган шундай образлардан, айниқса, Мажнун, Жамшид, Фарҳод, Хизр, Масиҳ тимсолларини алоҳида қайд этиб ўтиш мумкин. Шоир муайян шеърида бу тимсолларга мурожаат этар экан, шеърнинг умумруҳида шу тимсол характерига ҳамоҳанг бир ҳиссиёт акс эттирилади. Шу маънода Алишер Навоий лирикасида Хизр ва

Масиҳ образлари талқинига кўп бора мурожаат этилган. Муҳими шоир ўзга бир ижод тажрибасида кузатилмаган тарзда бу тимсоллардан “радиф” сифатида ҳам фойдаланган. Шоир лирик девонларида “Хизру Масиҳ” радифли бири саккиз, иккинчиси етти байтдан иборат иккита ғазал учрайди. Бу икки ғазал маълум байтлари ташқаридан қаралганда бири иккинчисига мазмун, шакл ва бадиият жиҳатлардан яқиндек таассурот қолдиради. Аслида радиф баъзи тадқиқотларда таъриф этилганидек, қофиядан кейин такрорланиб келувчи сўз ёки сўзлар қатори эмас, балки классик шеъриятнинг ўзига хос бетакрор санъати эканлигини намоён этувчи поэтик қатламидир. Уни шеър маъно қирраларини ўзида жо этган кўп маъноли, шаклдош бадиий қурилма тарзида қабул қилиш лозим. Акс ҳолда таҳлил этилаётган матн ўз бадиий-эстетик жозибасини тўлиқ очмайди, асар оддий сўзлар қурилмасидан иборат бўлиб қолади. Чунки ҳақиқий мумтозликка даъво этилаётган ёки кўрилаётган асарда ҳар бир сўз ва унсур (детал) ўз бадииятига эга бўлмоғи керак. Бу ҳол айниқса “Хизру Масиҳ” сингари оригинал радифли ғазалларда яққол намоён бўлади. Масалан, шоирнинг “келмади” радифли ғазалини хотирга келтирсак, унда “келмоқ” феъли турли ҳиссий-фикрий ва фаолият жараёнларни ифодалашга хизмат қилганлиги кўринади. Худди шундай ушбу ғазаллардаги Хизр ва Масиҳ ҳам ҳар бир мисра ёки байтда бир поэтик маъно, бадиий вазифа билан намоён бўлади. Унинг қандай мазмун ифодалаганини эса ғазал қофиялари белгилаб беради. Ўз навбатида қофия ҳам фақат оҳангдошлик унсури бўлиб қолмасдан, асар маъно-моҳияти билан чамбарчас боғланиб кетади. Ҳар иккала ғазал “хат” ва “лаъл”ни Хизру Масиҳ афсонаю мўъжизалари билан қиёсан талқин этади. Маълумки, мумтоз шеъриятимизда “хат” ва “лаълу лаб” образлари Хизр, Масиҳ тимсоллари сингари ниҳоятда сермаҳсулдир. Мумтоз шеъриятда “хат”, “лаъл”, “юз”, “қош”, “зулф” каби образлар тасвир этилганда, одатда, уларнинг эгаси (маъшуқа) яширинган ҳолда “эй” ундови ёки “инг” эгалик қўшимчаси орқали ифода этилади. Бунда шеърхоннинг ўзи бадиий объектни уқиб олиши лозим бўлади.

Эй, хату жонбахш лаълингдин нишон Хизру Масиҳ, Балки бу икки уётидин ниҳон Хизру Масиҳ.

Ғазал матлаъсида "хат" ва "лаъл" таърифу тавсиф этилган бўлиб, ёри азиз образи эса ғазал мисралари тагқатламида акс этган, "хат" – Хизр, "лаъл" – Масиҳ эканлиги айтилган. Хат – луғавий маънода чизиқ, из, ёзув, хат маъноларини билдиради ва шеърий талқинда "лаб устидаги туклар", "янги чиққан мўйлаб" маъноларида ишлатилади. Булар тушунчанинг ташқи маъно ифодалари бўлиб, бадиий тимсол сифатидаги ботиний маъноси бутунлай ўзга бир руҳиятни юзага чиқаради. У "кибриёлик, буюклик мақоми, ҳақиқати муҳаммадия ёки вужуд мартабасига яқин бўлган руҳлар олами"га ишора

этади. Унинг луғавий шаклидаги чизиқ маъносидан келиб чиқиб эса маҳбуба юзига латофат ва назокат билан чизилган хатни билдириб, барча гўзаллик ва ҳусну жамол нуқталари жамланган хилқатни англатади. Хат ва юзни кўриш касратни ваҳдат деб билиш ҳолига тенглашади. Бу нисбатан ваҳдат ул-вужуд қарашини билдиради. Бунда ваҳдат кундуз бўлса, касрат кечадир. Яна бир талқинларга кўра, юз саҳифани, бошқача айтганда Мусҳафни, хат ундаги ёзувни ҳам англатиш вазиятлари учрайди. Гоҳида хат ғайб олами сифатида ҳам талқин этилади. Шу боисдан Хизрни ҳам хижолатда қолдиради. Шу каби "лаъл" тимсоли ҳам зоҳир ва ботин маъно ифодаларига эгадир. Айтиш лозимки, шеър бадииятида икки тушунча ички ўхшашлиги ҳамда боғлиқлиги жиҳатидан бир маъно ифодалаш хусусияти, шеърки мавжуд унинг ўлмас қонуниятларидан, шоирки бор унинг беназир маҳоратидан даракдир. Бунда ҳаётий ва бадиий мантиқ ниҳоятда теранлик касб этади. Хусусан, "хат" ва "лаъл" тимсоллари мувозий талқинида ҳам шундай шоирона маҳорат тақозо этилади. Ушбу ғазалда "хат"нинг "тук" шаклий маъноси Хизрнинг луғавий маъноси "кўкат" билан биринчи таққосдаёқ ўзаро ташқи уйғунлик касб этганлиги кўринади. Унда буюклик, руҳ ёки ғайб оламига ишора этилганда ҳам Хизр унга ҳақрост мажоз сурати бўла олади. Лаъл – арабча сўз бўлиб, луғавий маънода "қизил рангли тош", "қизил сиёҳ билан ёзилган чизиқ"ни билдиради. Шундан истиора сифатида қизил лабга нисбатан олинади, акс тасвир эса умуман бадиий мантиққа зиддир. Тошнинг "қизиллиги" билан лабнинг "қизиллиги" метафорик тарзда "лаъл"ни вужудга келтирганлиги ҳаётий ва бадиий мантиқ реаллашганлигига далилдир. Лаб иккиламчи маънода Масиҳнинг жонбахш нафасига менгзалиши эса ҳар томондан санъаткорлик намунаси саналади. У ботинан софлик, нозиклик, гўзалликка ишора этади. Лаъл тасвирда лабни ифода этар экан, лабнинг ички маъносига ҳам эътибор бериш талаб этилади. Лаб – ботиний маънода мавжудодга вужудий файз етказувчи раҳмоний нафас, ундан мақсад каломдир. Калом эса илоҳиёт оламидан нозил бўлган сўзларни англатади. У ошиқларга файз ва хушнудлик келтиради. Набийларга фаришта, валийларга илҳом орқали нузул этилади. Лаб – калом бўлса, унинг қизиллиги шу калом ғоят

сермаънолигига нисбатан қўлланади. “Лаълу лаб” бирикма тарзида ишлатилганда ҳам, алоҳида лаъл, лаб шаклларида тасвир этилганда ҳам, шу маънолар назарда тутилади. Хизр афсонавий сиймо, Масиҳ эса Руҳуллоҳ лақабли “нубувват хайли”дан. “Қиссас-ул анбиё”ларда Масиҳ сингари Хизр қиссаси ҳам алоҳида тасвир этилади. Маърифий шеъриятда ёр узвларига талмиҳ сифатида таққосланади. Ушбу ғазалларда бу икки сиймо ҳақидаги қарашлар “соф бадиий ранг”да тасвирланади. Мазкур ғазал байтида айтилишича, “хатдан нишон – Хизр, жонбахш лаълдан аломат эса Масиҳ. Хизр ва Масиҳ шу иккисидан, яъни хат

ва лаълдан уялганидан яшириниб олган”. Худди шунга ўхшаш талқин шоирнинг кейинги “Хизру Масиҳ” радифли ғазали матлаъсида ҳам келтирилади:

Эй, хату лаълинг қошида мунфаил Хизру Масиҳ, Не ёшунмоқдур, гар эрмаслар хижил Хизру Масиҳ.

Байтда “сенинг хат ва лаълинг қошида Хизр ва Масиҳ ҳижолатдадир. Агар Хизр ва Масиҳ хижолат чекмаганларида яшириниб юришларига ҳожат ҳам йўқ эди”, - деган тарзда фикр юритилган. Энди хату лаъл қошида Хизр ва Масиҳнинг “хижил бўлиши” бадиий талқиннинг чинакам дилбарлигидандир. Хизрнинг ер юзида, Масиҳнинг эса самода ғойиблиги ҳақидаги қарашларни “маъшуқа мўъжизакорлигидан ҳижолатда қолиш” деб тасвирлаш фақат донишманд шарққагина хос санъаткорликдан бошқа нарса эмас. Шу тариқа “хат” ва “лаъл” сирру синоати Хизру Масиҳ афсоналари билан типологик мутаносибликда талқин этила боради. Кейинги байтларда хат, лаб, Хизр, Масиҳ тимсоллари маконий тасвири тилга олинади. Бу ўринда энди “лаб” истиора тарзида эмас, балки ўз шаклида ишлатилган. Яъни, хат лаб устида, лаб эса юз устида жойлашгани каби Хизр оби ҳайвон, Масиҳ эса қуёш узра макон тутганлиги айтилади. Оби ҳайвон, айтайлик, инсониятнинг асрий орзулари натижасидаги қарашларидир. Бу тасвир Жамшиднинг афсонавий жомидаги майга ўхшаш талқиндир. Улар Шарқ шеъриятида ишқ шаробига қиёсланади. Лекин Қуёшнинг Масиҳга маконлиги талқини шеъриятнинг ўзига хос бадиий кашфиётидир. Чунки тафсир ва шарҳларда “Масиҳнинг қуёшга фанолиги” дарж этилмайди. Худди шундай қиёс тасвири иккинчи ғазалда ҳам битилган. Унга кўра, “Хизр оби ҳайвонга, Масиҳ қуёшга интилгани сингари хат лабга, лаб эса юзга туташ”лиги айтилади.

Хат лабинг узра, лабинг юз узрадур қилғон киби, Оби ҳайвону қуёш узра макон Хизру Масиҳ.

* * *

Хат лабингға муттасилдур, лаб юзинггаким эрур, Оби ҳайвону қуёшқа муттасил Хизру Масиҳ.

Бу байтларга келиб одатдаги тимсолларга юз, оби ҳайвон, қуёш образлари ҳам қўшилади. Улар ҳам навбатида зоҳир ва ботин маъноларга эга саналади. Масалан, “юз” – илоҳий ҳусн мазхари, тажаллий нурини англатса, Оби ҳайвон – тириклик суви, ҳаётбахш чашма маъноларида мажозан илоҳий сўз, нафас, ишқ чашмаси, муҳаббат булоғи сифатида талқин этилади, баъзан оби Искандар деб юритилади. Бу ҳолат Искандар ва Хизр тириклик сувини излаганлиги саргузашти билан боғлиқ. Бадиий талқинларга кўра, Қуёш тўртинчи осмондаги сайёра, нур манбаидир. Шеъриятда Масиҳ “нур-руҳ” тимсоли сифатида тавсифланади. Унинг самога юксалганлиги ва тўртинчи

осмон қуёш галактикасидан жой олганлиги талқини адабиётларда кўп учрайди. Шундан Қуёш Масиҳнинг макони, асл манбаи деб қаралиб, Шарқ шеъриятида ошиқ ва маъшуқа рамзларини ифодаловчи “булбул ва гул”, “парвона ва шамъ”, “най ва қамишзор”, “темир парчаси ва олов” жуфтликлари қаторидан ўрин олган ажойиб ўхшатиш ҳисобланади.

Ул ёшунғой зулмот ичра, бу фалакдин ёнмағай, Кўрсалар хатту лабингни ногоҳон Хизру Масиҳ.

Байтда таққослар давом эттирилиб, “Хизр ва Масиҳ сенинг хату лабингни ногоҳон кўриб қолсалар, бири зулматда яшириниб қолади, иккинчиси фалакдан қайтиб тушмайди”, – деган фикр баён этилган. Бу ўринда зулмат – оби ҳайвонга, фалак – қуёшга ишорадир. Кўринадики, “Хизру Масиҳ” радифлари ғазалнинг ҳар бир байтида бу сиймоларнинг бошқа-бошқа томонларини акс эттиради. Шу жиҳатдан биринчи ғазал учинчи байти кейинги ғазалдан фарқли бадиий манзара яратган. Навбатдаги байтларда эса яна бир-бирига яқин талқинларга дуч келинади.

Гар Масиҳу Хизр кўздин ғойиб ўлмишлар, не тонг, Сабзаву оби ҳаётингдур ҳамон Хизру Масиҳ.

* * *

Ўйлаким Хизру Масиҳ оллида сабза бирла су, Хаттингу лаълинг қошинда ўйлабил Хизру Масиҳ.

Бу ўринда “Масиҳ ва Хизр кўздан ғойиб бўлсалар ажаб эмас, чунки Хизру Масиҳ сенинг сабзаю оби ҳаётингдир”, - мазмунидаги фикрни уқиб олиш мумкин. Бунда сабза - “кўкат”, “яшиллик” маъносида Хизр сўзининг мазмунига нисбатан олинган. Оби ҳаёт ҳам Хизр тимсоли билан боғлиқ бўлса-да, бу ўринда Масиҳ тириклигига қиёсан ишлатилган. Шу мисраларга келиб “Хизру Масиҳ” бирикмаси тириклик тушунчасида бирлашади. Гарчи талқинларда Хизр абадий тирик сиймо бўлиб, набий ва авлиёларга мададкор сифатида эътироф этилса ҳам, анбиёлар

тарихида биргина Мусо билан бирга саёҳатидан ташқари ҳолатлар эътирофи кўзга ташланмайди. “Қиссас-ул анбиё”ларда Хизрнинг Масиҳ билан мулоқати ёки бирор саргузашти учрамайди. Ушбу ғазалларда Хизр ва Масиҳнинг ёнма-ён тасвири тириклик, жонбахшлик хусусиятлари билан бадиий мантиқ касб этган. Агар масала тарихий нуқтаи назаридан олинганда, радиф “Хизру Масиҳ” эмас, балки “Хизру Мусо” тарзида бўларди. Бу бир томондан тарихий ҳақиқат ва бадиий талқин масалаларидаги ўзига хосликни ҳам билдиради. Тириклик Хизрга ҳам, Масиҳга ҳам хос. Хизрнинг тириклиги оби ҳайвон воситасида бўлса, Масиҳники бевоситадир. Иккинчи ғазалда эса “Хизр ва Масиҳ қаршисида кўкат ва сув турганидек, сенинг хат ва лаълинг қошида Хизр ва Масиҳ шайдир”, - деган хулоса мавжуд.

Йўқ даминг, балким насими гулшанинг айлар саҳи. Бўлсалар муҳлик мараздин нотавон Хизру Масиҳ.

* * *

Чун Масиҳосо лабингдин Хизр умри касб ўлур. Бўлсалар андин, ажаб йўқ, мунфаил Хизру Масиҳ.

Мумтоз шеъриятдаги “йўқ оғиз” ёки “кўринмас бел” каби тасвирлар талқинлар илоҳий сирр назокатини англатади. Ушбу мисрадаги “йўқ дам”, яъни сезилмас нафас ҳам шундай талқиндир. Энди шу ерга келиб “лаб” тимсоли “дам”, “ел” билан вазифа алмашади. Демак, байтда “сенинг йўқ даминг, гулшанинг насими Хизру Масиҳни ҳалок айлайди”, - тарзида маъно ифодаланган. Иккинчи ғазалда эса “жонбахш лабингнинг (Масиҳосо лаб) касби боқий умр (Хизр умри) туфҳа этиш, бундан Хизру Масиҳ ҳижолатда қолсалар ажаб эмасдир” демоқда. Демак, биринчи байтда маъшуқ нафаси “ҳалок этувчи” бўлса, кейинги байтда “тириклик инъом этувчи”. Байтлараро боғлиқлик “абадий тирикни ўлдириш, мангу ўликни тирилтириш”, бошқача айтилганда, нафас – жон олувчи, лаб – жон бахшловчи. Кейинги байтларнинг ўзаро боғланиши ҳам шу нуқтада амалга ошади. Ошиқ аввало хатга, кейин лаълга ошуфта, аммо фақат лаългина ҳаёт инъомчиси, ошиққа жон бўлган шу икковидир. Бу байтда фикр Хизру Масиҳга қаратилган.

Хаттидин лаълиға еттим, лаълидин топтим ҳаёт, Ул икав бўлди манга, эй хаста жон, Хизру Масиҳ.

* * *

Лаблaрингдур Масиҳу Хизрға нутқу ҳаёт,

Ким эмишлар ишларига мустақил Хизру Масиҳ.

Иккинчи ғазалда тимсоллар лаъл-лаб, лаъл-лаб, лаб-лаб шаклида ишлатилган ва бу тасвир мақтаъгача давом этган. Ушбу байтда ҳам лаб сифатида

қўлланиб, маълум маънода тасвир ва фикр тўлқини юқорилашиб боради. Унда айтилишича, “лабдан Масиҳ ва Хизрга ҳаёт нутқи ёғилади. Кимки Хизр ва Масиҳ бу ишларини (тириклиги ва тирилтириши) ўзлари қилган десалар янглишадилар”. Олдинги байтда Хизру Масиҳлик ошиқ жонга қаратилган бўлса, энди бу сифатлар маҳбуб мўъжизалари эканлиги таъкидланади.

Солики фоний таважжуҳдин тараддуд айламас, Етсалар маҳвий шуҳуд бўлғай замон Хизру Масиҳ.

* * *

Сабзаи хат кўргузуб, жонбахш лабдин сўз дегач, Бўлдилар ул ҳайрат ичра музмаҳил Хизру Масиҳ.

Навбатдаги байтда “солик”, “фоний”, “таважжуҳ”, “маҳвий”, “шуҳуд” каби орифона тушунчалар қўлланади. Бунда ошиқ Ҳаққа юзланган ва фано

дайридаги илоҳсевар қалбни англатади. Яъни, “маъшуқа намоён бўлган он Хизру Масиҳ фанога юз тутгандек таважжуҳга тараддуд этаолмай қолади”. Бу ўринда ўзга бир маънода “маҳвий шуҳуд”ликни тажаллийга ишора дейиш ҳам мумкин. Иккинчи ғазал байтига назар ташланса, унда “ёри азиз яшиллик намоён этиб, жон берувчи лабдан сўз айтсалар, Хизру Масиҳ ҳайрат ичра қолиб маҳв бўладилар”, – деган маънони уқиш мумкин. Бу сатрлардаги “сўз” тушунчаси олдинги “маҳвий шуҳуд” сингари яна бир мазмунга кўра тажаллига нисбатни англанса, мантиқ байтлараро боғлиқликни таъминлайди. Ғазаллар мақтаъсида “дайр пири”, “муғбача” тимсолларига мурожаат этилган. Дайр – дунё, олам ва оламлар, май ишлатилганда майхона ҳам назарда тутилади. Дайр пири эса шу ўринлар раҳнамосидир. Муғбача асл маънода майхонада май ташувчи бўлиб, мажозан ишқ майи ва иймон маърифатини тарқатувчиларга рамзни ифодалайди. Айтиб ўтилганидек, оби ҳайвон - ишқ чашмаси, муҳаббат майига қиёс этилади. Шу жиҳатдан қаралса, “дайр пири ёрдам бериб муғбача май билан тирилтирди, сен бу икковини Хизру Масиҳ деб гумон қилишинг мумкин”, - деган умумий хулосага келинади. Бу ўринда муғбачанинг май билан тирилтириши Масиҳ мўъжизасига, дайр пирининг ёрдами Хизр мададига таққосланади.

Дайр пири қўлдабон, тирғузди майдан муғбача, Эй Навоий, бу иковни қил гумон Хизру Масиҳ.

* * *

Ўлди ҳажридин Навоий, тушсалар бу ҳажр аро, Тонг йўқ ўлмоқ бу сародин мунтақил Хизру Масиҳ.

Иккинчи мақтаъ ҳажр мавзуси талқини билан хотима топган. Яъни, “ошиқ (Навоий) ёр ҳажрида маҳв бўлди. Агар ҳижронга тушсалар, бу ҳажр саройидан Хизру Масиҳ ҳам ўтсалар ажаб эмас”. Ҳажр уйини дунё деб билсак, уни Хизр ва Масиҳ ҳам вақтики тарк этади. Бу “барча тирик жон ўлим шарбатини тотгувсидир”, - ҳадисига ишора ҳамдир. Лекин мумтоз адабиётда кўп бора талқин этиладиган ҳажр ва ҳижрон мавзуси тушкин, умидсиз, абсурд-бемаъно ҳолат эмас. Уни оромбахш висолга тайёргарлик фасли деб англамоқ лозим. Чунки Шарқ шоирлари, хусусан, Алишер Навоийдек даҳолар учун ҳаёт ва яшаш сингари моҳиятдан улуғ неъматнинг ўзи йўқ. Бу йўлда Хизр ва Масиҳ янглиғ ошуфта хату жонбахш лаъл завқи қалбу руҳият, онггу шуурни банд этишининг ўзи далилдир.

Хуллас, Ҳазрат Алишер Навоий ўз ижоди давомида доимо боқий мавзу ва тимсоллар талқинига мурожаат этган. Руҳий камолат, фазлу карам, маънавий бедорлик учун қайғуриб келган. Шу билан бирга Алишер Навоий ижодиётида Хизр ва Масиҳ тимсоллари типологик талқин этилиши шоир адабий мероси

бугунги кунларда ҳам Хизр янглиғ файзу баракот, маънавий мадад ва бедор дил, жонбахш руҳ бағишлаб турганлигини билдиради.

АДАБИЁТЛАР:

1. Аваназарова Обиджон. Мумтоз адабиёт намуналари учун тасаввуф луғати. – Тошкент: TAVFIQNASHR, 2025. – 458 бет.
2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2012 yil.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи том. Бадойиъ ул-бидоя. – Тошкент: Фан, 1987, 724 бет.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Иккинчи том. Наводир ун-ниҳоя. – Тошкент: Фан, 1987, 670 бет.
5. Алишер Раззоқов. Алишер Навоий шеъриятида тасаввуфий образлар поэтикаси. Монография. – Тошкент: Bookmany print, 2025. – 160 бет.
6. Носириддин Бурҳониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 240 б.
7. Нурмонов Ф. Хизр образи генезиси ва унинг ўзбек фольклоридаги талқини. Фил. фан. ном. дисс. авт. – Тошкент: 2007.– 25 б.
8. Қуръони карим. (Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). – Т.: Чўлпон, 1992, 544 бет.
9. Қобилов У.У. Илоҳиёт ва бадиият (Монография). – Тошкент: “Ниҳол” нашриёти, 2008 йил, 154 бет.

10. Қобилов У.У. Нубувват ҳақиқати – бадиий ижод руҳи (Монография). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2021 йил, 318 бет.

АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИ ҚЎЛЁЗМАЛАРИ – ДУНЁ КЕЗАДИ

АФТОНДИЛ ЭРКИНОВ,

Ўзбекистон халқаро Ислом академияси профессори, филология фанлари доктори

Навоий асарлари қўлёзмалари Ўзбекистондан ташқари хорижий мамлакатларда ҳам сақланиши бизга яхши маълум. Улар бутун дунё бўйлаб тарқалган. Қўлёзмалар Ашхобод, Берлин, Боку, Вена, Дублин, Душанбе, Ереван, Истанбул, Кобул, Кэмбриж, Лондон, Мюнхен, Нью-Йорк, Оксфорд, Париж, Санкт-Петербург, Теҳрон, Упсала, Қозон, Қоҳира, Ҳайдаробод каби шаҳарлардаги Шарқ қўлёзмалари фондларидан ўрин олган. Бу фахрланишга арзигулик ҳолат. Алишер Навоий ўз ижоди билан машҳурлиги ва унинг асарлари кирган қўлёзмлар жаҳон кутубхоналарида кенг тарқалганлиги ва сақланишнини ҳамма билади. Улкан адибмиз бор деймизу, аммо унинг шарқу ғарб кутубхоналаридаги ўша қўлёзмлари таркиби ҳақида ҳатто навоийшунослар ҳам кам маълумотга эгалар. Бунинг сабаблари кўп. Мақоламизда айни мавзудаги баъзи мулоҳазаларимизни билдирамиз.

Сўнгги йилларда бир қатор олимлар билан ҳамкорликда “Алишер Навоий асарлар бутунжаҳон феҳрести”ни тузиш йўналишида муайян ишлар амалга ошириляпти. Бунинг учун дунёнинг турли қўлёзма фондларига бориш ёки

хориждаги қўлёзмалар заҳираларида сақланувчи Навоий асарлар қўлёзмаларига оид маълумотлар тавсфиланган феҳрестларига суяниб маълумот тўплаш бўйича фаолият олиб борилмоқда. Бунда ижтимоий тармоқлардан ҳам керакли маълумотлар изланмоқда.

XX аср ўрталарида бундай ишларни проф.Ҳамид Сулаймонов (1910–1979) бошлаб берган эди: дунёнинг кўпгина кутубхоналаридан Алишер Навоий асарлари қўлёзмаларини излаб, топиб, уларнинг фотоларини Ўзбекистонга олиб келганди. Шулар ва ўзимиздаги бир қанча қўлёзмалар асосида Алишер Навоий “Хазойин ул-маоний” девони матнини 1960 йилдаёқ нашр эттирганди. Кейинги йилларда мазкур йўналиш бир қадар жонланди ҳамда бир қатор ишлар амалга оширилди. Айниқса, Навоий девонларининг фанга ҳозиргача маълум бўлмаган, Навоий ҳаётлиги чоғида кўчирилган қўлёзма нусхалари аниқланди. Айни йўналишдаги ишлар натижаси ўлароқ, 2018 йилдан бери мазкур сатрлар муаллифи “Алишер Навоий қўлёзмалари бутунжаҳон феҳрести”ни тузиш ғоясини илгари суриб келмоқда. Феҳрестни тузиш бўйича муайян ишлар амалга оширилмоқда.

Сўнгги йилларда Олим Давлатов, Ойсара Мадалиева ва Саидбек Болтабоевлар Навоийнинг, масалан, Эрондаги янги қўлёзмаларини аниқлаб, улар бўйича илмий тадқиқотларни амалга ошириб келяптилар. Ўзбекистон Фанлар Академияси Шарқшунослик институти катта илмий ходими, филология бўйича фалсафа доктори Ойсара Мадалиева "Бадоеъ ул-бидоя" асарининг Эрондаги Машҳад шаҳри кутубхонасида сақланаётган нусхасини, Туркиянинг Карабук университетида устозлик қилаётган ўзбекистонлик олим, филология бўйича фалсафа доктори Саидбек Болтабоев эса Теҳрон шаҳридаги Эрон Миллий кутубхонасидаги нусхасини аниқлади. Мана шу қўлёзмаларнинг Машҳаддаги нусхаси 1491 йили, Теҳрондагиси эса 906/1500-1501 йили кўчирилган. Алишер Навоий номидаги халқаро жамоат фонди раҳбари, филология бўйича фалсафа доктори Олим Давлатов Эронда сақлданувчи Навоий шеърлари мажмуасининг 1495 йили Темурий Бадиуззамон учун Султонали Машҳадий кўчирган нусхасини аниқлади.

Яна бир мисол: 2024 йили "Алишер Навоий. Терма девон (1501 йил, май) Тадқиқот ва матн" номли китобни нашр этилди. Бу китобда Эрон пойтахти бўлмиш Теҳрондаги Малек кутубхонасида сақланувчи Алишер Навоийнинг

130 та шеъридан таркиб топган кичик бир қўлёзма мажмуага оид илмий фикрлар ва шу шеърларнинг жорий ёзувимиздаги табдили матнлари келтирилган. Қўлёзма Алишер Навоий вафотидан тўрт ой ўтганидан сўнг – 906 йил, шаввол / 1501 йил, май ойи охирида кўчириб тугалланган. Мазкур мажмуа 1498 йили тартиб берилиши якунланган Алишер Навоийнинг тўрт девондан иборат «Хазойин ул-маоний»сидан сўнг тузилганлиги ва анча кичик ҳажмга эгалиги сабаб уни шартли тарзда «Навоий 1501 йил «Терма девон»и деб аташ мумкин. Ушбу «Терма девон» «Хазойин ул-маоний»дан танлаб олиб тузилган ва Навоий шеърларининг ҳозирча бизга маълум энг дастлабки (1501 йил) кичик бир тўплами эканлиги билан илмий қимматга эга. Демак, Эрон фондларидаги Навоий қўлёзмалари илмий жиҳатдан аҳамиятга эга эканлиги

мазкур қўлёзма орқали ҳам намоён бўлмоқда. Шу тариқа 2022-2025 йилларда Алишер Навоийнинг Эрон кутбхоналарида сақланувчи тўрт қўлёзмаси навоийшуносликка олиб кирилди.

Шуни ҳам таъкидлаш керакки, 2019–2022 йилларда Ўзбекистонга оид хориждаги маданий бойликларни тадқиқ этиш маркази томонидан А-ВМ-2019-15 рақамли "Ўзбекистонга оид хорижда сақланаётган маданий бойликлар реестрини яратиш, нодир қўлёзма асарларнинг факсимилесини нашр этиш" мавзусидаги лойиҳа доирасида "Ўзбекистонга оид хориждаги қўлёзма асарлар реестри" китобининг уч жилди нашрга тайёрланди ва чоп этилди. Уларда юртимизда яшаб

ўтган ўнлаб алломаларнинг хориждаги юзлаб қўлёзма асарлари рўйхати келтирилган. Жумладан, Навоийнинг дунё фондларидаги 600 қўлёзма асарлари ҳақидаги 2023 йилгача бўлган маълумотлар ҳам Тошкентда нашр этилган мазкур уч жилдга киритилган (Фурсатдан фойдаланиб, мазкур реестрни тайёрлаш ва Алишер Навоий қўлёзмаларини аниқлаш ва тавсиф этишда ҳамкорлик қилган, юқорида номи тилга олинган лойиҳа иштирокчилари – фалсафа фанлари доктори проф.Роиқ Баҳодиров, тарих фанлари доктори Ўктам Султонов, тарих фанлари номзодлари Дилшод Расулов, Саидакбар Муҳаммадаминов, филология бўйича фалсафа фанлари доктори Ойсара Мадалиева, илмий ходимлар Санжар Ғуломов, Ирода Қаюмова, Филипп Хуснутдинов ва Комила Бековаларга миннатдорчилик билдираман).

Реестрдаги Навоий қўлёзмаларига оид маълумотлар хорижий каталог ва бошқа турли манбалардан олинган. Улар хорижда эканлиги ва уларнинг қай даражада тўғри эканлигини текшириш имкониятимиз чекланганлиги сабабли улар реестрда асл манба, яъни аслият нашридагидек келтирган. Дейлик, Алишер Навоийнинг ҳар бир девони ўз номланишига эга ва бу номлар бизга яхши маълум. Бироқ биз маълумот олган манбаларда баъзан Навоийнинг муайян девони қисқагина “Девон” сўзи остида келтириб қўя қолинган. Эҳтимол, бу қўлёзмани тавсифлаган олимнинг Навоий девонлари ва уларнинг номлари бўйича етарлича маълумоти бўлмаганидан келиб чиққан. Шу сабабдан бундай номларни нашрларда келтирилган кўринишида қолдирдик. Вақти келиб, ўша “девон” номланиши остида Алишер Навоийнинг айнан қайси девони назарда тутилганлиги маълум бўлар.

Хулоса қилиб айтганда, Алишер Навоий қўлёзмалари бутунжаҳон феҳрестини яратиш анча мураккаб жараён бўлиб, бутун дунёдаги кутубхона ва музейлардан маълумот тўплаш вақт ва катта ҳаракат талаб этади. Алишер Навоий асарлари қўлёзмаларининг янги нусхаларини аниқлаш давом этмоқда.

АДАБИЁТЛАР:

1. Boltabayev S. Navoiy devonining shoir hayotligida ko‘chirilgan yangi topilgan nusxasi haqida // Alisher navoiy va Sharq renessansi (xalqaro simpozium materiallari). Toshkent, 2022. B. 438-466.
2. Derayati Mostafa (ed.). Fehrestvoreye dastneveshthoye Iron (DENA) (The Short Catalogue of Iranian Manuscripts). 12 Jild. Tehran: Library, Museum and Documentation Center of The Islamic Consultative Assembly, 2010.
3. Erkinov A. Alisher Navoiy devonlarining aniqlangan yangi nusxalari (2010–2024-yillar) // “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi 9-uluslararo konferansi materiallari. 2024-yil, 8-fevral. Toshkent-Bursa, 2024. B. 348-355.
4. Madaliyeva O. Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devonining Mashhad qo‘lyozmasi // Oltin bitiglar. – Toshkent, 2022 yil. 4-son. – B. 4-19.

5. Aydin Ş. İran Kütüphaneleri Türkçe Yazmalar Kataloğu. Istanbul: Timaş Yayinlari, 2008. S.85.
6. Алишер Навоий. Ғазалиёт девони (898/1492–1493 йил). Нашрга тайёрловчи О.Мадалиева. Тошкент: Фан, 2021.
7. Алишер Навоий. Оққуюнли мухлислар девони (1471 йил): табдил ва факсимил матн. Нашрга тайёрловчилар А.Эркинов, Р.Жабборов. Тошкент: Donishmand ziyosi, 2021.
8. Жўрабоев О. Навоий асарлари қўлёзма ва матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари // “Алишер Навоий ва XXИ аср” илмий-назарий анжумани материаллари. Тошкент: Тамаддун, 2016. Б. 32–38.
9. Сулейманов Х. Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. В трех томах. Диссертация доктора филологических наук. Том I-III. Ташкент-Москва, 1955-1961.
10. Ўзбекистонга оид хориждаги қўлёзма асарлар реестри/ The Register of Manuscripts Located overseas concerning Uzbekistan’s Cultural Heritage/ Реестр зарубежных рукописей, относящихся к Узбекистану. Том I-III. Нашрга тайёрловчилар Р.Баҳодиров, А.Эркинов, Ў.Султонов, Д.Расулов, С.Муҳаммадаминов, С.Ғуломов, О.Мадалиева, И.Қаюмова, Ф.Хуснутдинов, К.Бекова. Тошкент: Nashriyot uyi ”TASVIR“, 2020; 2024.
11. Эркинов А. “Алишер Навоий қўлёзмалари бутунжаҳон феҳрести” // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2018 йил, 9 февраль, 7-сон. – Б. 1, 4;
12. Эркинов А. “Алишер Навоий қўлёзмалари бутунжаҳон феҳрестини яратиш масаласи” // Alisher Navoiy. Xalqaro jurnal. 2022 йил, 1-қисм. Б.29-35.
13. Эркинов А. Алишер Навоий. Терма девон (1501 йил, май) Тадқиқот ва матн. Тошкент: Turon-Iqbol, 2024.
14. Эркинов А. “Алишер Навоий девонининг ноёб қўлёзмаси нашр этилади” (https://uza.uz/uz/posts/alisher-navoiy-devonining-noyob-qolyozmasi-nashr-etiladi_577671) (11.03.2024).
15. Boltabayev S. Nevâyî’nin türkçe divanlarinin en eski nüshalari // Trakya Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi, Cilt: 13, Sayı: 25, Ocak 2023. S. 111-123.
16. Эркинов А. “Бадоеъ ул-бидоя”нинг Навоий даврида кўчирилган ва янги аниқланган қўлёзмалари (1483 ва 1485 йиллар)” // Олтин битиклар. 2018 йил, 1-сон. Б.18-31.

МЕҲНАТ ВА ИЖОДКОРЛИК ҒОЯЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ҲАҚИДА АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЎРНИ

МАҲМУД РАВШАНОВ,

Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети профессори, филология фанлари доктори

Алишер Навоий мусаввирлик, наққошлик, сангтарошлик (тоштарошлик) ва меъморликнинг билимдони эканлиги адиб достонларида бадиий услубда акс этган. Бу санъат турлари шоир достонларининг умумий ғоявий-бадиий мазмунига сингдирилган ҳолда, асарда юз берувчи воқеалар билан уйғунликдаталқин этилади.

Бу масалалар, айниқса, “Фарҳод ва Ширин” ва “Сабъаи сайёр” достонларида кўпроқ сезилади.

“Фарҳод ва Ширин” достонида шоир чин севги ва вафо, дўстлик ва садоқат, меҳнат ва ижодкорлик, ватанпарварлик ҳамда қаҳрамонлик ғояларини тараннум этади. Достон ёшлар ва болаларга атаб ёзилмаган, лекин асарнинг кўпгина боблари болалар ва ёшлар ҳаётига, уларнинг тарбиясига

бағишлангандир. Шоир достонда Фарҳоднинг болалик чоғлариданоқ илм-ҳунарга, меҳнатга бўлган муҳаббатини зўр маҳорат ва чуқур самимият билан тасвирлаган. Бу Навоийнинг бола тароиясига ва унинг билим олишига катта эътибор билан қараганлигини кўрсатади. Фарҳод ёшлик чоғиданоқ жуда ақлли, зеҳнли бола бўлиб ўсади. У мактабда зўр ҳавас ва қунт билан ўқийди.

Табиийёт, математика, мантиқ каби фанларни тез орада ўрганиб олади[1.43-78].

Ёш Фарҳоднинг илмга бўлган ҳавас ва муҳаббатини сезган отаси унга билим беришни муносиб кўрди. Жаҳоннинг машҳур олимлари Фарҳодга турфа фанлардан сабоқ ўқитадилар. Натижада энг мураккаб ва пинҳоний илмлар унга ўз сир-асрорини тўлиқ намоён этади. У қунт ва чидам билан ўқиб, билимдон ва зукко инсон бўлиб етишади. Шоир Фарҳод ҳаётини бундай жонли лавҳаларда тасвирлаш орқали болалар тарбиясига алохида эътибор беришга чақиради, уларни ёшлигидан бошлаб ўқитиш зарурлигини, бунда ота-онанинг роли ниҳоятда катта эканлигини, болаларга дунёвий илмларни бериш муҳимлигини таъкидлайди. Фарҳод қайси фанни ўқимасин, уни дарров тушуниб олувчи қобилият эгаси сифатида тасвирланади:

АГАР БИР ҚАТЛА КЎРДИ ҲАР САБОҚНИ, ЯНА ОЧМОҚ ЙЎҚ ЭРДИ УЛ ВАРАҚНИ.

Не сўзниким, ўқиб кўнглига ёзиб, Дема кўнглики, жон лавҳига қозиб[4].

У даврда болалар қуруқ, ёдаки ўқитилар эди. Болалар ўзлари ёдлаган нарсаларининг маъносига тушунмас ҳам эдилар. Шундай бир вақтда Навоий болаларни илм-фанга қунт қилиш, ўқилган нарсанинг маъно-мазмунини тушуниб олишга ундар эди:

ЎҚИБ ЎТМАК, УҲИБ ЎТМАК ШИОРИ,

Қолиб ёдида, сафҳа-сафҳа бори. . .

Фарҳоднинг қунт қилиб, маъносини тушуниб ўқиши натижасида кўп илмларни эгаллаганлиги таъкидланади:

ЖАҲОНДА ҲОЛМАДИ УЛ ЕТМАГАН ИЛМ. БИЛИБ ТАҲҲИҲИНИ КАСБ ЭТМАГАН ИЛМ.

Шу тариқа Навоий болаларни илмни пухта эгаллашга чақириб, буюк педагог ҳамда мураббий сифатида уларни тарбиялаш ва ўстириш йўлларини кўрсатади. Бундан ташқари, достонда Фарҳод жисмоний томондан ҳам чиниққан йигит сифатида тасвирланади. У сувда сузиш, чавандозлик ва қиличоозлик сирларини меҳр билан ўрганади. Алишер Навоий ёшлигидан оошлаб илмга берилган, жисмоний томондан чиниққан Фарҳодни тасвирларкан:

ДЕМОН ҲАМ КЎНГЛИ ПОКУ, ҲАМ КЎЗИ ПОК,

Тили поку. сўзи поку, ўзи пок,— деб ҳар томонлама мукаммал, маънавий, жисмоний гўзал, етук йигит тимсолини беради. Шунингдек, Навоий Фарҳодни меҳнат ва ҳунарга зўр ҳавасли, сангтарошлик, рассомлик ва наққошлик ҳунарларини ҳам мукаммал эгаллаб олган йигит сифатида улуғлайди. Илм ва ҳунарни эгаллаган, жисмоний жиҳатдан чиниққан, меҳнатсевар Фарҳод камтарин, мазлумларга ғамхўр, соф дил, мард ва олижаноб, жасур инсон бўлиб етишади.

Фарҳод бошчилигида ва унинг бевосита фидокорона меҳнати натижасида катта канал (“Ҳаёт дарёси”) ва ҳовуз (“Нажот денгизи”) қазилади. Навоий Фарҳодни сувсиз ерларга сув чиқарган қаҳрамон, меҳнат соҳасида мўъжизалар кўрсатган баҳодир йигит сифатида таърифлайди. У илм ва ҳунарни омма манфаати учун хизмат эттириш лозим деб ҳисоблайди. Фарҳод Ширинни қидириб, Арманистонга борганда, Арман юртида тоғда канал қазиш учун қийналиб ишлаётган кишиларни кўради ва:

ҲУНАРНИ АСРАБОН НЕТКУМДИР ОХИР,

Олиб туфроққаму кеткумдир охир!— дея, ўз билими, ҳунар ва ғайратини ишга солади, канал қазувчилар машаққатини енгиллаштиради ва халқ ўртасида катта шуҳрат қозонади. Бу қаҳрамоннинг муҳим хислатлари ундаги қаҳрамонлик, халқпарварлик, ватанпарварлик ва дўстлик туйғуларидир. Фарҳод эл-юртнинг ободонлиги учун курашади ҳамда инсонларга офат келтирувчи душманларга қарши жанг қилиб, уларни мардона енгади. Бундан ташқари, Навоий Фарҳод, Ширин ва Шопур образлари орқали халқлар дўстлиги ғоясини илгари суради. Фарходнинг арман қизи Ширинни севиши ва эронлик Шопур билан дўстлашуви халқлар дўстлиги ғоясининг ёрқин намунасидир[2].

Навоий Фарҳоднинг жасоратини бадиий тасвир этар экан, унинг мамлакат ободонлиги ва тинчлиги, халқ фаровонлиги ва илм бобида қилган хизматларини чуқур мазмунли мисраларда уйғунлаштиради:

КИ ТО ОЛАМ, БИНОСИ БЎЛДИ БУНЁД,

Бу янглиғ қилмади иш одамизод.[4.]

Алишер Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достонида илгари сурилган юксак инсоний хислатлар, инсонпарварлик ғоялар ёш китобхонлар маънавиятига ҳам чуқур таъсир этади, уларнинг халқ, ватан учун керакли инсон бўлиб етишишларига хизмат қилади. Буюк шоир болаларнинг ўқиши ва тарбиясига доир фикрларини “Лайли ва Мажнун” достонида ҳам илгари сурган. Янги мактаблар бино қилиш ғояларини тарғиб қилган Навоий мактабларда ўғил болалар оилан оир қаторда қизларни ҳам ўқишини орзу қилади. Алишер Навоий ўзининг Фарход, Қайс, Искандар ва бошқа ижобий образларининг тароияланиш, таълим олиш борасидаги босиб ўтган йўлини, камолотга етиш босқичларини тасвирлаб, боланинг вояга етишида тарбиянинг алоҳида куч-қудратга эга эканлигини алоҳида уқтиради.

Шоирнинг 1500 йилда яратилган “Маҳбубул-қулуб” ("Кўнгилларнинг севгани") асари ижтимоий-сиёсий ва ахлоқий-таълимий қарашлари баён этилганлиги билан характерлидир. Навоий унда ижобий фазилатларнинг намоён бўлишида аввало улардаги ҳалоллик ва соддалик, самимийлик асосий омил эканлигини таъкидлайди ва бу меҳнатга муҳаббатнинг натижаси сифатида талқин этилади. “Маҳбуб ул-қулуб” 3 қисмдан иборат. Бунда Навоий донишманд ва мураббий, улкан маданият арбоби сифатида илм-фан, санъат ва адабиётнинг аҳамиятини тарғиб қилади, малакали, иқтидорли ўқитувчиларни, олимларни, шоирларни, санъаткорларни мақтайди, уларни ҳурмат қилишга ва қадрлашга чақиради/ Ўқиш ҳам, ўқитиш ҳам оғир ва масъулиятли иш, у қунт, ҳавас ва меҳнат талаб қилади, деб уқтиради Навоий. Бу ўринда у мураббийларнинг ҳалол хизматларини алоҳида таъкидлайди.

ҲАҚ ЙЎЛИДА КИМ СЕНГА БИР ҲАРФ ЎҚИТМИШ РАНЖ ИЛА,

***Айламак бўлмас адо онинг ҳақин юз ганж ила*.[4]**

Одоб ва ахлоқни кишининг олижаноб фазилати, деб баҳолаган Навоий, бу асарида шундай фазилатлари туфайли бахтиёр бўлган Муқбил ва одобсизлиги оқибатида бахтсизликларга йўлиққан Мудбир ҳақида ҳикоя келтиради. Бундан ташқари, “Маҳбубул-қулуб” нинг охирги қисми саховат ва ҳиммат, мурувват ва вафо, тил одоби кабиларга бағишланган. Шоир тил одобигаката эътибор бериб, кишиларни қисқа ва мазмунли, ўринли ва мантиқли сўзлашга, ёшларни яхши хулқ-одобли бўлишга, илм-ҳунар ўрганиш ва катталарнинг тажрибасини эгаллаб олишга чақиради. Алишер Навоий ўз асарларида халқ оғзаки ижодидан, айниқса, мақоллардан самарали фойдаланиш билан бирга, ўзи ҳам таълим-тарбиявий аҳамиятга эга бўлган мақолларга яқин бўлган бир қанча ҳикматлар яратди. Масалан:

ВАФОСИЗДА ҲАЁ ЙЎҚ, ҲАЁСИЗДА ВАФО ЙЎҚ ТИЛГА ИХТИЁРСИЗ —ЭЛГА ЭЪТИБОРСИЗ. ОЗ-ОЗ ЎРГАНИБ ДОНО БЎЛУР,

***Қатра-ҳатра йиғилиб дарё бўлур. Билмаганни сўраб ўрганган — олим, Орланиб сўрамаган — ўзига золим*.[4.23]**

Ҳар бир одам санъат, адабиёт ва бошқа тарбиявий мотивга илмий манбаларнинг асл намуналарини яратиш ижтимоий ҳаётнинг барча йўналишлари шунча ёруғ бўлади. Бир-бирига бефарқлик одамлар ўртасида ялписига бегоналашишга, турли шаклдаги ахлоқсизлик ғояларнинг авжланишига олиб келади.

Бу каби салбий иллатлардан сақланиш ва ҳимояланиш мотивлари эса бугунги кунда Шарқда ҳам, Ғарбда ҳам долзарб муаммо бўлиб тури бди. Инсониятнинг “оммавий маданият” хуружларидан эсон-омон ўтиб олишига Алишер Навоий сингари даҳоларнигина ишончли таянч бўла олади.

Башарият тарихидан бизга маълумки, даҳолар ҳар доим туғилавермайди. Икки-уч аср оралиғида бешта-олтита даҳо дунёга келади. Бунга мисоллар тарихий жараёнларда жуда бисёр. Бу каби мутафаккирларнинг сони бундан ошиб кетмаслигига бир қанча асос ва мотивлар бор.

Албатта, истеъдоли инсонлар ҳамма миллатда ҳамиша кўп бўлади. Аммо уларнинг аксарияти вақт ўтиши билан унитилади. Бутун инсониятга дахлдор буюк даҳоларнинг улуғворлиги, куч-қудратлари, маънавий юксакликлари замонлар ўтиши билан кўзга ташланиб боради ва уларнинг илмий-ижодий фаолияти барча

тарбиявий жабҳаларда ижобий ҳолатлар юзасидан ўрганилади ҳамда ўрганилмоқда.

Алишер Навоий шундай улуғворликка эга сиймолари сирасига киради. Уларнинг руҳи, қолдирган мероси нафақат туркий дунё, балки инсоният учун барча замонларда маънавий маёқ бўлиб қолади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Бертельс Е.Э. Навои и Джами. Избранные труды. –М.: Наука, 1965. –С. 112-113.
2. Захидов В. Мир идей и образов Алишера Навои. –Ташкент: Из-во художественной литературы Узбекской ССР, 1961.245 с.
3. Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. –Тошкент: Ўзбекистон, 1970.
4. Алишер Навоий “Хамса”.Тошкент. ғафур ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.1986. 423 б.

ALISHER NAVOIY - Oʻ‘ZBEK TILI ILMIY GRAMMATIKASINING ASOSChISI

NIGORA MURODOVA,

Navoiy davlat pedagogika instituti professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn” (“Ikki til muhokamasi”) asari bilan dunyo tilshunosligida mutlaqo yangi ilmiy yoʻnalish – komprativistikaga asos solganligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, asarda Alisher Navoiy turk tilining oʻziga xos xususiyatlarini sanab oʻtish bilan bir qatorda oʻsha davr xalqlari tilida keng qoʻllanilgan arab hamda fors-tojik tillarining xususiyatlarini ham alohida sanab oʻtgan.

Kalit soʻzlar: Komprativistika, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, turk tili, fors-tojik tili, arab tili.

Turkiy xalqlarning zabardast shaxsiyatlaridan biri boʻlgan Alisher Navoiy turk tili va adabiyotining taraqqiyotiga muhim hissa qoʻshgan buyuk adibdir. Chigʻatoy shevasini klassik nazm va nasr tili darajasiga olib chiqqan Alisher Navoiy turkiy xalqlar adabiyotiga oʻttizdan ziyod bebaho asar qoldirdi.

Alisher Navoiy turkiy tilni yuksak sanʼat tili darajasiga olib chiqishni koʻzlab, bu fikrni muntazam ilgari surgan va turk tiliga eʼtibor qozondirgan mutafakkir va davlat arbobi hamdir.

Sheʼrlarini turkiy va forsiyda yozgan Alisher Navoiy arab tilini ham mukammal darajada bilgan. Mashhur allomalardan Mavlono Jomiy uning nazm bobidagi

ustozlaridan edi. Mahmud Koshgʻariydan keyin turk tiliga katta xizmati singgan Alisher Navoiy turk tilini qoʻyib fors tilida ijod qilgan adiblarga atab yozgan "Muhokamat ul-lugʻatayn" nomli asarining yozilish tarixi xususida shunday deydi:

Bu nomaki yozdi qalamim tortib til, Tarixin aning jumodiyul-avval bil, Kunnung raqamini chorshanba qilgʻil, Toʻqqiz yuz yildin oʻtub erdi besh yil.

(MAT, 20 tomlik, 16-tom, 40-bet)

Ijodkor asarda turk tili bilan fors tilini qiyoslab koʻp oʻrinlarda turk tilining ustun ekanligini koʻrsatib bergan.

Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lugʻatayn" asarida oʻzbek tilining ilmiy grammatikasini, terminologiyasini, ilmiy stilistikasi, amaliy hamda amaliy stilistikasi masalalarini asoslab berilganligi, badiiy asar tilini, uning uslubini, badiiy xususiyatlarini badiiy vositalar ichida eng asosiy material boʻlgan til materiallari bilan bogʻlab oʻrganishning namunasini koʻrsatib berilishi, tilimiz boyligi va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi singari jihatlari X.Doniyorov tomonidan ishonarli ilmiy dalillar asosida yoritib berilgan.

Arab va fors tillarini mukammal bilan Alisher Navoiy mazkur tillarga xos ifodalarni turkona ifodaga mos holda qoʻllab tilning boyishiga xizmat qilgan. Umri davomida turkiy adabiyotni forsiy adabiyot darajasiga yuksalishi uchun betinim gʻayrat qildi. Turk ifoda uslubiga uygʻunlashtirgan forsiy ifodalar undan keyingi davrlarda "Navoiy tili" sifatida nomlangan alohida e'tirofga aylanib ulgurgan. Hazrat Navoiy asarlarining har bir satrida uning turkiy tilga boʻlgan favqulodda mehr-muhabbatini koʻrishimiz mumkin. Ma'lumki, adabiyotning tamalida til yotadi. Navoiy oʻzi qoʻllangan til bilan Markaziy Osiyo turkiy adabiyotga milliylik vasfini qozondirdi.

"Fors tili rasmiy til sifatida hukm surgan, Fors adabiyoti Mavlono Jomiy ta'sirida yuksaklikka koʻtarilgan va ziyolilar fors tilini oʻrganib bu tilda ijod qilishni afzal bilgan bir paytda Navoiyning turkchaning forschadan ortda qolar joyi yoʻqligini ta'kidlashi, turk tilida ham yuksak adabiyotni yaratish mumkinligini shaxsan oʻz asarlari bilan isbotlab berishi va yoshlarni turkiyda yozishga tashviq qilishini nazarda tutsak, bu xizmatning mahobati yanada aniq namoyon boʻladi."

"Muhokamat ul-lugʻatayn" turk tilining himoyasiga bagʻishlangan asardir. Adib bu asarida turk tilni fors tiliga qiyoslaydi. Turk tilining forsiydan ancha boy ekanligini ilmiy dalillab beradi.

Ulugʻ ijodkor umrining soʻngida yaratgan "Muhokamat ul-lugʻatayn" asarining ahamiyati beqiyosdir. Ona tili – turkiyda "Xazoyin ul-maoniy", "Xamsa" singari lirik va epik ijodiyotning mumtoz, buyuk namunalarini yaratib, Sharq adabiyotida Nizomiy,

Dehlaviy maqomiga ko‘tarilgan Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” misolida tilimizning badiiy imkoniyatlarini inkishof etadi. Asarga shoirning yarim asrdan ortiq turkiy til xazinasida amalga oshirgan ijodiy tadqiqotlari – nazmiy va nasriy kitoblarni vujudga keltirish tajribasidan kelib chiqib tartib beriladi.

Jumladan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy bundan besh asr oldin tillarning o‘zaro chog‘ishtirma tadqiqiga asoslangan “Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”) asari bilan dunyo tilshunosligida mutlaqo yangi ilmiy yo‘nalish – komprativistikaga asos solgan edi. Alloma ushbu asari orqali chog‘ishtirma tilshunoslikning tadqiq yo‘llari, tahlil usullarini ishlab chiqqan. Hozirga qadar ham zamonaviy tilshunoslikda ushbu ilmiy manbaning o‘rni, tahlil va tadqiq usullari katta ahamiyat kasb etadi.

Lingvistika tarixida Alisher Navoiy boshlab bergan yangi ilmiy yo‘nalishga asoslangan komprativistik tadqiqotlar Yevropada XIX asrning birinchi yarmiga kelibgina yaratila boshladi va bu tilshunoslik tarixida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik nomi bilan o‘rin egalladi. Hozirgi kunda bu yo‘nalish zamonaviy tilshunoslikning yirik sohalaridan biriga aylangan.

Hazrat Navoiy ilmiy tafakkurining gultoji hisoblangan ushbu tadqiqot o‘zbek fani tarixida ham tengsiz maqomga ega. Ushbu asar bizgacha yetib kelgan ilmiy ishlar orasida o‘zbek tilida yaratilgan birinchi sof lingvistik ilmiy-tadqiqot hisoblanadi. Kezi kelganda aytish kerakki, Nizomiddin Mir Alisher Navoiyga qadar turkiy tillar tadqiqiga bag‘ishlangan o‘nlab ilmiy asarlar yaratilgan. Biroq ular arab tilida yozilgan va ularning aksariyati o‘quv qo‘llanma xususiyatiga ega bo‘lgan.

Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”) asari bilan o‘zbek lafzida tilshunoslik bo‘yicha ilmiy ish yaratish uslubini, yozma ilmiy bayon texnikasini yaratib berish bilan birga, uning ilmiy atamashunosligini ham ishlab chiqdi. Shu jihatlari bilan bu asar o‘zbek va jahon fani uchun g‘oyat qadrli fundamental tadqiqotdir.

Navoiy o‘z asarida komprativistikaning tayanch usullarini ixtiro etgan. Chunonchi, u tillarning qanday birliklari va qatlamlari solishtirilsa, asosli ilmiy natijalarga erishish mumkinligini ham ko‘rsatgan. Asarda turkiy-o‘zbek va fors-tojik tillarini qiyosiy o‘rganish vositasida turkiy-o‘zbek tilining Sharqda mashhur bo‘lgan arab va fors-tojik tillari darajasidagi mavqeidan so‘z yuritiladi hamda ulardan, xususan fors-tojik tilidan farq qiluvchi xususiyatlari turli xildagi ko‘pgina misollar, jumladan “yuz lafz” (yuzta so‘z)ni keltirib, talqin qilish bilan isbotlanadi. Bu ma’no Alisher Navoiyning quyidagicha yozganlarida ham o‘z ifodasini topgan. “Turkiy va sort lug‘ati kayfiyati va haqiqati sharhida bu risolani jam’ qilib bitidim va anga “Muhokamat ul-lug‘atayn” ot qo‘ydum, to turk eli tili fasohatu

diqqati va balog'atu vus'ati… zohir qildim. Va xayolimg'a mundoq kelurkim, turk ulusi fasihlariga ulug' haq sobit qildimki, o'z alfoz va iboratlari haqiqati va o'z til va lug'atlari kayfiyatidin voqif bo'ldilar". (MAT, 20 tomlik, 16-tom, 40-bet).

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish o'rinliki, Alisher Navoiy turk tilining o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'tarkan, o'sha davr xalqlari tilida keng qo'llanilgan arab hamda fors-tojik tillarining xususiyatlarini ham alohida sanab o'tadi.

Bundan kuzatilgan maqsad turkiy tilning fasohati va balog'ati haqida ilmiy asoslangan mulohazalarni bayon etish bilan bir qatorda "turk nozimlari (shoirlari) o'z alfozlari bilan she'rg'a mashg'ulluq qilg'aylar va ko'ngul g'unchasi dog'idinki, pechlar chirmanibdur, bahor nasimidek anfos bila guldek ochilg'aylar". (MAT, 20 tomlik, 16-tom, 38-bet).

Demak, Alisher Navoiy turkiy tilning fasohati va lug'aviy boyligini dalillar bilan isbotlash vositasida turkiy tildagi adabiyot-she'riyatning yanada ravnaq topishi lozimligini ham nazarda tutgan. "Muhokamat ul-lug'atayn"da faqat qiyosiy tilshunoslik masalalaridan so'z yuritilgan emas, balki unda til tarixi, o'zbek adabiyoti tarixi, she'riy janr va badiiy san'atlar, fors-tojik adabiyoti namoyandalari asarlari va o'zi (Alisher Navoiy)ning ijodiga doir qimmatbaho mulohazalar ham mavjud.

Alisher Navoiyning qayd qilishicha, turkiy til va turkiy tildagi adabiyot tarixi o'zaro chambarchas bog'lidir. Shuning uchun asarda Hulokuxon, Amir Temur, Shohrux mirzo hamda Sulton Husayn Boyqaro zamonlarida turkiy tilning rivojlangani tufayli turkiy she'riyatning mavlono Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Muqimiy, Amiriy, Yaqiniy, Gadoyi, mavlono Lutfiy, Husayniy va o'zi (Alisher Navoiy) kabi zabardast siymolari maydonga kelganlarini alohida qoniqish bilan uqtirib o'tadi. Shuning bilan birga bu jarayonning Sulton Husayn Boyqaro-Husayniy tomonidan qo'llab-quvatlashi tufayli yanada rivojlangani ta'kidlanadi.

Navoiy asarlari tilida singarmonizm (tovushlar uyg'unligi) "temir qonun" sifatida amal qilinganini ko'rishimiz mumkin. Bu narsa tovushlar tizimini anglashga ham imkon beradi. Masalan, muallif keltirgan misollarda "yo'g'on" o'zak-negizli so'zlarga masdar ko'rsatkichining -maq varianti qo'shiladi: "qurug'samaq", "aldamaq", "qistamaq", "yalinmaq" singari; "ingichka" talaffuzli so'zlarga esa -mäk varianti qo'shiladi: "igirmak", "indamak", "surkanmak", "o'rtanmak" singari. Demak, Navoiy tilida orqa qator, "yo'g'on" a bilan old qator, "ingichka" ä ning har ikkovi mustaqil fonemalar sifatida ishlatilgan.

"Muhokamat ul-lug'atayn"da jonivorlarning harakatini anglatuvchi fe'llar bilan bog'liq qiziq bir misol bor. Asarning Anqara nashrida bu misol shunday berilgan: "Uy mungramagiga va ishak ingramag'ig'a va it tegishmag'ig'a va ulimag'ig'a lafz yo'qtur". Muhimi shundaki, ushbu jumla asarning To'pqopi qo'lyozmasida yo'q, Fotih

qo‘lyozmasida esa bor, nashrga o‘sha qo‘lyozmadan olingan. Yana bunda kelishik qo‘shimchalarining qo‘shilish tartibiga e’tibor qaratilsa, quyidagi holatga duch kelamiz: “tegishmak” so‘zi “ingichka” o‘zakli bo‘lishiga qaramay, unga qo‘shimchaning “yo‘g‘on” varianti qo‘shilmoqda: “tegishmag‘ig‘a”.

Alisher Navoiy eski o‘zbek adabiy tilini har tomonlama mukammal shakllantirdi, yanada sayqallashtirdi, uning geografik doirasini va xizmat qilish chegarasini kengaytirdi, bu tilda jahon adabiyotining xazinasiga durdona bo‘lib qo‘shilgan asarlar yaratdi, bu tilni o‘sha davrning eng barkamol tillaridan bo‘lgan arab va fors tillari darajasiga ko‘tardi.

Shunday qilib, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” ilmiy asari turkiy tilshunoslikning nodir yodgorligi bo‘lib, unda turkiy tilning o‘ziga xos xususiyatlari, uning buyuk ahamiyatga molik badiiy yodgorliklarni yaratishga qodirligi masalasi ilmiy asosda yoritilgan.“Muhokamat ul-lug‘atayn” asari o‘zbek navoiyshunosligida muhim o‘rin tutadi. Asar manbashunoslik va matnshunoslik sohasida bundan buyon yaratilajak ishlarda ham muhim manba bo‘la oladi.

ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 16-tom. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011 yil.
2. Doniyorov X. Alisher Navoiy – o‘zbek adabiy tilining asoschisi .- Samarqand: SamDU, 1985.
3. Doniyorov X., Sanaqulov U. Alisher Navoiy – tilshunos olim. – Toshkent: Fan, 1990.
4. Tojiboyeva M. Alisher Navoiy devonlarida so‘zning ikkilamchi ma’nosi // Adabiyot ko‘zgusi. - Toshkent, 2006.

M.KOSHG‘ARIY VA A.NAVOIY MEROSIDA TURKIY TIL TA’RIFI

BIBISH MUHSINOVNA JO‘RAYEVA, FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI, PROFESSOR

Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Buxoro viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari

Millat, yurt fidoyilari xalqni xalq, millatni millat sifatida shakllantiruvchi, uning yashash tarzini belgilab beruvchi til taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini hamma vaqt his qilib yashagan; yurt farzandi sifatida ona tiliga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, uning yashashi va taraqqiy qilishiga hissa qo‘shishdek muqaddas vazifani ado etishni o‘zlarining birinchi galdagi burchi deb bilgan.

Turkiy til XI asrda O‘rta Osiyoda, asosan, yerli xalq tomonidan ishlatib kelingan bo‘lsa-da, arab tilshunoslari bu til bilan ham shug‘ullana boshladi. Arablarning turkiy tilni

o'rganishi uchun yaratilgan "Devonu lug'otit turk" asarida buning sababini M.Koshg'ariy quyidagicha izohlaydi:

"Xudo davlat quyoshini turklar burchida yaratdi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni turk deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning xoqonlari qilib ko'tardi. Zamon ahlining ixtiyor jilovini shular qo'liga topshirdi, xalqqa bosh qildi, bularni to'g'ri yo'lga yurishga qodir qildi. Bularga qarashli kishilarni g'olib qildi. Ularga qarashli kishilar maqsadlariga yetib, beboshlar halokatidan qutuldi. Ularning (turklarning) o'qlaridan saqlanmoq uchun ularning xatti-harakatlarini mahkam tutmoq har bir aqlli kishiga loyiq va munosibdir. Bularga

yaqin bo'lish uchun **eng asosiy yo'l** – ularning tillarida so'zlashishdir, chunki ular bu tilda so'zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o'zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular o'z panohida turgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar.

Ishonchli bir buxorolik olimdan va nisoburlik boshqa bir ishonchli olimdan shunday eshitgan edim, ular bu so'zni payg'ambarga nisbat berib aytgan edilar, payg'ambar qiyomatning belgilari, oxir zamon fitnalari va o'g'uz turklarining xuruji haqida gapirganda, shunday degan edi: "Turk tilini o'rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi". Hadisning to'g'ri yoki to'g'ri emasligining javobgarligi aytgan kishilar gardaniga. Agar to'g'ri bo'lsa, turk tilini o'rganish vojibdir, hadis to'g'ri bo'lmagan taqdirda ham uni o'rganish zarurligini aql taqozo qiladi"[2, 43-44].

Turkiy til haqida M.Koshg'ariy tomonidan aytilgan ushbu fikrlar tilimizga berilgan dastlabki genial ta'rif bo'lib, sobiq sho'ro tuzumi davrida "Devonu lug'otit turk" asarining ommalashtirilmaganligi sabablaridan biri ham shunda edi.

XII asr olimi Ibn Mansur Marvarudiyning "Tarixi Muborakshoh" asarida aytilgan fikrlar ham M.Koshg'ariy qarashlariga hamohang va qaysidir ma'noda uni to'ldiradi (bu muallif O'rta Osiyodan, Marvarud qishlog'idan): "Turklarda (oliy) martabalar va darajalar bo'lmasa-da, ular shunday maqtovga sazovorli shuhratga egadirlarki, musulmon hokimlarining qudrati Alloh yordamida (faqat) turklar tufaylidir. Shu sababli Turkistondagi turklar boshqa xalqlarga nisbatan ustunlikka egadirlar... Bulardan biri shundaki, hech qaysi mamlakat kattaligi, kengligi jihatidan Turkistonga teng kela olmaydi. Turkiston xalqlarini boshqalardan ajratib turuvchi yana boshqa ayrim narsalar mavjud. Shulardan biri turk tili bo'lib, bu til arab tilidan keyingi eng yaxshi va ta'sirli tillardandir. Hozirda odamlarning turk tilini o'rganishga intilishining sababi shundaki, avvalgi zamonlarda amir va harbiy boshliqlarning ko'p qismi turklardan bo'lgan, hokimiyat ular qo'lida bo'lgan, har qanday foydali narsalar, oltin, kumushlar ham ularning qo'lida edi.., zodagonlar, amaldorlardan chiqqanlar va ularning o'g'illari turklar xizmatida bo'lgan. Yana, turklarda

yozuv bo‘lgan, ular osmon jismlari va uning sirlarini bilganlar, bolalarni savodga o‘qitganlar” [3, 28].

O‘rta asrlarda musulmon olamining Sharqida arab tili xalqaro til sifatida qo‘llanib, O‘rta Osiyoning dunyoga mashhur olimlari Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqalar ilm-fanning turli sohalarini qamrab oluvchi o‘z asarlarini arab tilida yozdilar. Hatto turkshunos olim M.Koshg‘ariy ham «Devonu lug‘otit turk» asarini ana shu tilda yozishga majbur bo‘ldi. Xalifalikka qaram bo‘lgan deyarli hamma mamlakatlarda ahvol xuddi shunday edi. Biroq X asrlarda «dariy» yoki forsiy deb atalgan til ham mavjud edi. Bu til, ayniqsa, somoniylar davrida yagona davlat tili sifatida madaniy hayotda, badiiy adabiyotda keng o‘rin egalladi. Shuni aytish mumkinki, forsiy til to XV asrgacha bir o‘lka va xalqlarning mushtarak adabiy tili sifatida keng qo‘llandi. G‘aznaviylar va Saljuqiylar davridayoq ular bosib olgan o‘lkalarda ham, jumladan, Kavkaz (Arron, qisman Gruziya, Armaniston)da, Hindistonning shimoliy qismlarida dariy-forsiy tili davlat tili va adabiy til sifatida e’lon qilindi. Ana shu siyosat tufayli

buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri N.Ganjaviy “Layli va Majnun” dostonining kirish qismida asarlarini o‘z ona tilida emas, balki fors tilida yozishga majbur bo‘lganini afsus bilan qayd etgan edi. O‘sha davrlarda forsiy tilni bilish va shu tilda so‘zlashish, ijod qilish jamiyatning yuqori tabaqasiga xos bo‘lgan «imtiyoz» hamda

«bilimdonlik» belgisiga aylandi. Bu an’ana hatto temuriylar davrida ham saqlanib qoldi. Shu paytga kelib, forsiy til hatto feodal aristokratiyasining so‘zlashuv tiliga aylandi. Har ikki temuriylar davlati – Xuroson va Movarounnahrda ham forsiy til hukmron edi.

XV asrda o‘zbek tilida original va tarjima asarlari yaratgan Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Amiriy, Gadoiy, Yaqiniy kabi iste’dodli shoirlar o‘zbek dunyoviy adabiyotini ravnaq toptirish bilan birga, o‘zbek adabiy tili taraqqiyotiga ham katta hissa qo‘shdilar. Biroq ular son jihatidan nihoyatda ozchilik edi. Navoiy «Majolis un-nafois» asarining ikkinchi majlisida tilga olgan va yoshlik chog‘ida ko‘rgan yoki gaplashgan 90 shoirdan 16 tasi turkiy tilda, shuningdek, fors tilida ham ijod qilgan. Asarning 3-majlisida tilga olingan 110 shoirdan faqat 3 tasi turkigo‘y bo‘lgan.

Bu til dag‘al, unda yuksak san’at asarlari yaratib bo‘lmaydi, degan fikrlarga uzil-kesil zarba berish, o‘zbek tilining yashirin qolib kelayotgan xazinalarini ochish va uni ilm ahliga, she’r muxlislariga tushuntirish o‘zbek xalqining buyuk farzandlari oldida muhim vazifa bo‘lib turardi. Xuddi shunday davrda A.Navoiy o‘z xalqining adabiyoti va adabiy tilini himoya qilish, rivojlantirishdek zo‘r davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim masalani ko‘tarib chiqdi va umrining oxirigacha o‘zbek adabiy tili hamda adabiyotini yuksak darajaga ko‘tarish uchun kurashdi. Badiiyat durdonalarini yaratishda turkiy tilning boshqa tillardan qolishmasligini shoir o‘z badiiy asarlari misolida amaliy, «Muhokamat ul-

lug'atayn» vositasida nazariy asoslab berdi. Hazrat Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn»da yozadi:

"Bu xoksorg'a sabo avoilidakim, og'iz huqqasidin biror gavhar zohir bo'la boshlar, ul gavharlar hanuz nazm silkiga kirmaydur erdikim, zamir daryosidin nazm silkiga tortilg'on gavharlar tab' g'avvosi sa'yi bila og'iz sohilig'a kela boshlamoq ko'rguzub erdi. Chun mazkur bo'lg'on qoida bilakim, ado topti – mayl forsiy sari bo'ldi. Ammo chun shuur sinnig'a qadam qo'yuldi, chun haq subhonahu va taolo tab'g'a g'arobat sari maylni zotiy va diqqat va dushvor pisandliqqa shuru'ni jibilliy qilib erdi, turk alfozig'a dog'i mulohazani lozim ko'ruldi – olame nazarg'a keldi, o'n sakkiz ming olamdin ortuq; anda zeb va ziynat sipehri tab'g'a ma'lum bo'ldi, to'qquz falakdin ortuq; anda fazl va rif'at maxzane uchradi, durlari kavokib gavharlaridin raxshandaroq va gulshane yo'luqti, gullari sipehr axtaridin duraxshandaroq; harimi atrofi el ayog'i yetmakdin ma'sun va ajnosi g'aroyibi g'ayr ilgi tegmakdin ma'mun. Ammo maxzanining yiloni xunxor va gulshanining tikani behad va shumor.

Xayolg'a keldikim, hamonoki, bu yilonlar neshi nashtaridin tab' ahli xiradmandlari bu maxzandin bahra topmay o'tupturlar. Va ko'ngulg'a andoq evruldikim, go'yo bu tikanlar sarzanishi zararidin nazm xayli guldastabandlari bu gulshandin bazm tuzgucha gul iliklay olmay yo'l tutupturlar" [1,12].

Shoir ijodining ibtidosini fors tilida boshlaganligi va bu o'sha davr uchun qoida ekanligini ta'kidlaydi. Ammo ijodi "o'smirlik" pallasiga yetganida, unda ijodga

bo'lgan mayl jiddiy tus olgan, Alloh taolo qalbida ijod nurlarini yolqinlantirgan paytda Navoiy ro'parasida bir **olam** bo'y ko'rsatadi: o'n sakkiz ming dunyo go'zalligidan ortiq unda zeb va ziynat; to'qqiz falakdan ortiq unda fazilat va yuksaklik; **xazina** namoyon bo'ladi: durlari yulduzlardan-da yarqiroq; **gulshan** yo'liqadi: gullari osmon yoritgichlaridan-da nurliroq.

Shoir o'zbek tilini go'zal, pari-paykar, huriliqolar yig'iladigan maskan – haramga mengzaydi. Haram atrofi el oyog'i yetishidan asralgan va g'aroyib ashyolari, mollari begona qo'li tegishidan himoyalangan. Ajoyibotlar, g'aroyibotlar jamuljam bo'lgan xazina-maxzanning ilonlari qonxo'r-xunxor va gulshanining tikanlari behad-u bisyor. Ilonlar nishi zahridan, nishtarining sanchilishidan qo'rqqan hushyor, aqlli, dono ijodkorlar maxzandan bahra topmay o'tibdilar va ko'ngulda shu narsa aylandiki, go'yo bu tikanlar ozoridan nazm ahli guldastamandlari, ya'ni ijod gulshanidan gul saralab, muxlislarga go'zal, dilkash guldasta taqdim etuvchi qalam ahli bu gulshandan kishi ko'nglini yashnatuvchi, junbushga keltiruvchi guldasta saralay olmay o'tib ketibdilar.

Shoir tili bilan aytganda, tilimizdagi ohori to'kilmagan so'zlar badiiy adabiyotga olib kirilmagan, ularning qo'llanilish o'rinlari belgilanmagan. Shu sabab bu tilda ijod qilish,

qalam tebratib, san’at namunasi yaratish tab’ ahli uchun mushkulot tug‘diradi. Ana shu qiyinchiliklar sabab ijod ahli xazinadan bebahra qolgan.

Hazrat A.Navoiy tomonidan bildirilgan bu mulohazalar M.Koshg‘ariydan keyin turkiy tilga berilgan ikkinchi genial ta’rif edi.

“Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tilning ilmiy, badiiy jihatdan o‘ziga xos jihatlariga e’tibor qaratilib, tilimiz martabasi belgilanganligi Navoiy dahosi tomonidan xalqqa in’om etilgan beqiyos tuhfa, o‘zligini anglash yo‘lidagi dadil qadam edi. Asarda bildirilgan fikr-mulohaza, ya’ni tahsin, alqov ona tilimizga atalgan madhiya bo‘lib, hozirga qadar har bir millat farzandini o‘z tili sir-u asroridan voqif etish barobarida uning ko‘nglini junbushga keltiradi, tiliga bo‘lgan mehr-muhabbatini orttiradi. Shoir tili bilan aytganda, “Turk ulusi fasihlarig‘a ulug‘ haq sobit qilindiki, ular o‘z alfoz va iboratlari haqiqati va o‘z til va lug‘atlari kayfiyatidin voqif bo‘ldilar va forsiygo‘ylarning iborat va alfoz bobida ta’n qilur sarzanishidin qutuldilar” [1. 24].

Xalqimiz “Erga bersang oshingni, Erlar silar boshingni” degan maqolni bejizga tarix zarvaraqlariga muhrlamagan. Zero, har bir qilingan yaxshi ish, ezgu amal o‘zining natijasini, albatta, beradi. Hazrat Mir Alisher Navoiyning o‘z ona tili va adabiyoti rivoji yo‘lida chekkan zahmatlari o‘zining totli mevasini berib kelmoqda. Har yili fevral oyida “Navoiyxonlik” tantanalarining tashkil qilinayotganligi, 2025-yil Navoiy viloyatida “Alisher Navoiy yili” deb e’lon qilinganligi, bugungi anjuman yo‘nalishlaridan biri ham A.Navoiy ijodiyoti tadqiq-u talqiniga bag‘ishlanganligi er xalqning mard o‘g‘loniga chuqur ehtiromi namunasidir.

Til – millatning borligini ko‘rsatib turuvchi, millatni millat sifatida shakllantiruvchi asosiy birlik. Odatda, tilning taqdirini ijtimoiy hayot bilan bog‘lashadi, ya’ni jamiyat bo‘lsagina u mavjud bo‘ladi, chunki til ijtimoiy xarakterga ega deb talqin qilishadi. Bu – oynaning bir tomoni. Ikkinchi jihatdan

e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ijtimoiy hayot tilning yashashi uchun qanchalik muhim bo‘lsa, millatning millat sifatida yashab qolishi uchun til birligi ham shu qadar ahamiyatli. Chunonchi, millatning o‘ziga xosligini namoyon qiluvchi milliy urf-odatlar: milliy muomala-munosabat, milliy marosim, milliy yashash tarzi, bir so‘z bilan aytganda milliy o‘ziga xoslik til bag‘rida umrguzaronlik qiladi. Shu bois millat saodati yo‘lida jon fido etgan A.Fitrat «Rahbari najot» asarida tilning yosh avlod hayot tarziga ta’siri masalasiga e’tibor qaratib yozgan edi: *«Suv qaysi rangdagi idishda bo‘lsa, o‘sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo‘lsalar, o‘sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar».* Chindan ham ona tili bilan birga insonda o‘zbekona milliy ruh, milliy muomala madaniyati, milliy ong, qisqasi, milliy o‘zlik shakllanadi.

Milliy tilimiz milliy nutqimiz, milliy ma’naviyatimiz va mafkuramizning tarkibiy qismi sifatida yuksalib boradi.

Har qaysi millat mavjudligining, rivojlanayotganligining asosiy belgisi bo‘lib faqatgina bir til xizmat qiladi, bu ham bo‘lsa so‘zlovchining o‘z ona tilidir. Xalqlarning o‘z madaniyatini bir tilda rivojlantirishga intilishi tabiiy hol bo‘lib, har bir madaniyatni faqat milliy til asosida erkin, mustaqil va tez sur’atlar bilan gullab-yashnatish mumkin – natijada o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan mustaqil haqiqiy milliy madaniyatli xalq jahon miqyosida juda katta obro‘ga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. А.Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Кошғарий М. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Уч томлик. I том. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти. 1960, – 500 б.
3. Хайруллаев М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. Т., 1994. 66 б.

MIR ALISHER NAVOIY ASARLARIDA RANGLAR JILOSI

DILOROM NIGMATOVNA YULDASHEVA FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI, PROFESSOR,

Buxoro davlat universiteti, O‘zbekiston, Buxoro

Annotatsiya. Turkiy olamning ma’naviy dunyosi shakllanishiga kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan ulug‘ allomalardan biri hazrat mir Alisher Navoiy ekanligi aksioma darajasidagi haqiqatdir. Bugun uning nomi, ijodiy merosining boqiyligi, badiiy ijod dahosi zamon va chegara bilmasligi ham faqat turkiylar uchungina emas, dunyo ahliga ayon. Ijodkor asarlarida qo‘llanilgan rang-tus sifatlari ham nihoyatda serjiloligi bilan ajralib turadiki, ularni o‘rganish, tahlilga tortish tadqiqotchi uchun ummondan dur terish bilan barobar.

Kalit so‘zlar: shoir mahorati, badiiy qiymat, sariq rangni ifodalovchi birliklar, qizil rangli qimmatbaho tosh, so‘zlar jilosi.

Annotation. There is no doubt that Hazrat Mir Alisher Navoi is one of the greatest scholars who exerted a powerful and effective influence on the formation of the spiritual world of the Turkic world. Today, his name, the immortality of his creative legacy, the unrivaledness of his artistic genius, and his transcendence of time and borders are known not only to Turks but to peoples throughout the world. The artist’s color schemes are also distinguished by their extraordinary originality, making their study and analysis for a researcher akin to searching for a bottomless ocean.

Key words: poetic skill, artistic value, units representing yellow color, red gemstone, interpretation of words.

Favqulodda iste’dod egasi, ilm-u amal shoir hazrat mir Alisher Navoiy qoldirgan ma’naviy meros faqat o‘zi yashagan davr uchun qimmatli bo‘lib qolmadi, balki shoir asarlarida yoritilgan masalalar ham, ularda qo‘llanilgan har bir so‘z, birikma yoki boshqa grammatik birliklar ham barcha davrlar uchun yetarlicha material bera oladigan tuganmas bebaho manbaga aylandi. Zero, bu ulug‘ pirning javohirot xazinasidan davlat boshqaruvi, ijtimoiy muammolar yechimi, o‘zlikni tanimoq, jism-u jon, surat-u siyrat tarbiyasi masalalaridan tashqari insoniyatning ma’naviy dunyosi, ruhiy tiynati negaki tashnalik sezsa, barchasini undan topa oladi. Hamma gap g‘avvoslikda. G‘avvosning hazrat ma’naviy ummonining tub-tubiga shung‘iy olishida. Umuman olganda, mutafakkir ijodkorning ilmiy, badiiy asarlari ijtimoiy turmushning har bir jabhasi uchun, shuningdek, falsafa, mantiq, siyosatshunoslik fanlari qatori adabiyotshunoslik, lisonshunoslik sohalari uchun ham metodologik manba vazifasini bajara olishi shubhasiz.

E’tiborimizni ijodkor asarlarida qo‘llanilgan ikki rang – sariq va qizil sifatlarining ifodasi tortdi. Zotan, hazrat mir Alisher Navoiy asarlarida rang-tus sifatlari o‘ziga xos tarzda qo‘llanilganligining guvohi bo‘lamiz. Jumladan, “Xamsa” tarkibida turuvchi “Sabbayi sayyor” dostonining XXI qismi boshlanishida shunday izoh bor:

Yakshanba kuni Bahromning quyoshdek ***zarbaft*** *libos kiyib,* ***gunbadi*** *zarnigorg‘a azm qilib, sarig‘ hullalig‘ hur bila bazmi aysh tuzub,* ***oltun*** *sog‘arda* ***asfar*** *may ichgoni, yo‘qkim, quyoshning* ***sarig‘*** *guli ochilg‘oni chog‘din oftob* ***zard****ig‘acha anga bir yilcha kechgoni* [2, 469-b.].

Keltirilgan parchada *sariq* rangi ma’nosini *zarbaft, gunbadi, oltun, asfar, zard* so‘zlari orqali ham ifodalaydi. Bu o‘rinda *zarbaft* (zardo‘zi) forsiy so‘z bo‘lib, ya’ni sariq rangdagi zar ip bilan tikilgan zarrang (to‘n), ya’ni sariq (libos) ma’nosini beradi. Siradagi *gunbadi, oltun, zard* so‘zlari ham, odatda, sariq rang ma’nosini beruvchi variant birliklardir. Shu o‘rida *gunbadi* so‘zi ma’nosiga e’tibor qarataylik. Shoir “Xamsat ul-mutahayyiriyn” asarida Abdurrahmon Jomiy vasfni bayon qilib quyidagi misralarni keltiradi:

Kim ***gunbadi*** *gardandayi oliy bunyod, To davrida ta’jilg‘a bo‘lg‘ay mo‘tod, Odamki bo‘lub xalifa yoydi avlod, Avlodida bir uyla xalaf bermas yod.*

Ma’nosi: (Yaratgan tomonidan) oliy holda bunyod qilingan (buni inson zoti qo‘li bilan yarata olmaydi) aylanib turuvchi gumbaz (ya’ni quyosh), Toki falakda shoshilishga odat qilib aylanar ekan (ya’ni bu yorug‘ olamda tiriklik bor ekan), Odam Yaratganning yerdagi xalifasi (odam ongli mavjudot sifatida Yaratganning yerdagi tajallisi) bo‘lib shu qadar zurriyot yoydiki, Avlodida Jomiy kabi zurriyoti bo‘lganligini yod qila olmaydi (ya’ni, insoniyat inson farzandlari orasida Jomiydek ulug‘ zot o‘tganini to‘la his etmaydi).

Demak, Abdurahmon Jomiy vasfi keltirilgan mazkur she'rning birinchi misrasida ishlatilgan *gunbadi* so'zi aylanib turuvchi gumbaz, ya'ni quyosh ma'nosida qo'llanilgan. Quyoshning nurlari, odatda, sariq rangda bo'lganligini hisobga olsak, yuqoridagi parchada ham *gunbadi* so'zi predmet nomi sifatida emas, sariq rang ma'nosida qo'llanilganligiga guvoh bo'lamiz.

Siradagi asfar (اصفر) arabcha so'z bo'lib, sariq demakdir. Shuningdek, asfar Sudan(Sharqiy Afrika)dagi (Nil daryosining o'ng irmog'i hisoblangan (uzoqdan sariq rangda ko'rinuvchi) daryo nomi; musulmon xalqlarida sariq rangli bo'lib tug'ilgan o'g'il bolalarga qo'yiladigan ism ham hisoblanadi.

Alxusus, shoir birgina parchada sarig' dominantasi atrofida shu rang ma'nosini beruvchi *zarbaft, gunbadi, oltun, asfar, zard* kabi beshta variantni qo'llaydi.

Shoir asarlarida qizil rangni bildiruvchi so'zlar miqdori 15 tadan ortiqligini kuzatamiz, jumladan, shu rang nomini beruvchi paradigmadan ***ol, surxr, ahmar, shingarf, lavn, alvon, humrat, rangi noriy, la'l, baxrom, shafaqrang, gulnoriy, yoqut, may*** kabi birliklar o'rin olgan.

Buni "Sabbayi sayyor" dostonining XXIII qismida boshlanishidagi izohdan kuzatamiz: *Bu bob seshanba kuni Bahromning* **gulnoriy** *qasrda o'tkazgan kun haqida, Sarlavhada qizil rangni anglatuvchn so'zlar birikmasidan mohirona foydalanilgan:* ***gulrang*** *libos,* ***gulnoriy*** *qasr,* ***shafaqrang*** *libosli quyosh (go'zal),* ***yoqutrang*** *qadah,* ***yoqut-u la'l*** *dori,* ***may*** *kabi so'zlardan qizillik ma'nosini ifodalovchi tanosub san'ati qo'llanilgan* [2, 472-b.].

Yana bir misol.

Ko'zum qizardi, ***qizil*** *ashk rangidin garchi*

Qizil *bo'lur su-yu, bo'lmas anga hubob* ***qizil*** [1, 198-b.].

Oshiqning ko'z yoshlari qon (qizil rangda) bo'lib oqyaptiki, uning ko'zlari qizarishi shundan.

Baytda qizil so'zi shu rang ma'nosini beruvchi paradigmada dominanta bo'lib keladi va ifodalanayotgan mazmunga nisbatan neytrallik kasb etadi, ya'ni belgi-xususiyatlar ifodasiga ko'ra oraliq holatda turadi. Shoir qizil rangiga eng yaqin variant sifatida arabcha tarixiy etimologik qatlamga xos *ol* hamda eroniy etimologik qatlamga oid *surx* so'zlaridan ham foydalanganligini kuzatamiz. Jumladan,

Bir qadah ***may*** *birla bo'ldi* ***surx****ro' ahli xumor, Kun aro go'yoki mahlul aylamish xammor* ***la'l****.*

Baytdagi *may, la'l* so'zlari ham, *surx* so'zi ham qizil ma'nosini bermaqda, ya'ni "Ahli mushtoq bir qadah qizil mayni ichib yuzlari surx (qizil) bo'ldi, go'yoki la'l (qizil rangli qimmatbaho tosh)ga aylanishdi".

Chu yozding subhig'a yorliq bosarg'a ***ol*** *tamg'asin,*

Shafaq*din hal qilib* ***shingarf*** *qilding, mehrdin xotam*[1, 206-b.]. Baytda qizil rang-tusining yana uch varianti qo'llanilgan.

Bo'ldi yer qonlari bila ***gulfom****, Ko'rki, gul faslidur ne xush ayyom.*

Do'stlar g'arq ***gul*** *aro to farq,*

Yana dushman bu nav' ***gul*** *aro g'arq* [2, 555-b.].

Keltirilgan masnaviy shakllaridagi gul so'zi ham qilil rang ma'nosida qo'llanilgan. Ya'ni "Do'stlar **gul**ga g'arq edilar (atroflari gul, bahor edi), dushmanlari ham **gulg**a g'arq yotardi (ammo farqi shu ediki, ular (dushmanlar) g'arq bo'lgan "gul"– qizillik ularning o'z qonlari edi)". Shoir iyhom san'atidan ustalik bilan foydalana olganligi tahsinga sazovor.

Yana bir o'rinda shoir "O'lmasun" radifli g'azalida oshiqning holatini shu rang bilan bog'lab yozadi:

Dema, ashking nega ***gulrang****-u ko'zung* ***gulfom*** *erur, Hech kimning yori* ***gulro'y****-u* ***gulandom*** *o'lmasun*.

Ya'ni, oshiqdan nega ko'z yoshlaring qon-u ko'zlaring qizil deb so'ramagin, zotan, hech kimning sevar yori gul yuzli-yu gul chehrali bo'lmasin.

Demak, 1-mazmunga ko'ra: Ma'shuqa shu qadar go'zal va, ayni paytda, bemehrki, bu oshiqning ko'zlaridan oddiy yosh emas, qizil qon oqishiga sabab bo'lmoqda (misrada go'zal g'uluv qo'llanilgan). Shoir baytda qon so'zini qo'llamaydi, biroq ***gulrang*** birligi bilan unga ishora qiladi. Qon oqayotgan ko'z ichi ham ***gulfom*** (qip-qizil);

2-mazmunga ko'ra: Ma'shuqaning yuzlari ***gulro'y****-u* ***gulandom*** (qizil, qirmizi tusda). Mashuqa yuzining rangi unga termulib turuvchi oshiqning ko'zlariga singib qolgan. Shundan mashuqaning yuzlaridan rang olgan sevguvchining ko'zlari ham, ko'z yoshlari ham qizil tusda.

Bayt, bir qaraganda, oshiqning ko'zlari mashuqaning jabridan qizargan, degan mazmunni bersa, ikkinchi tomondan, oshiq mashuqaga shu qadar maftunki, hatto go'zal yorning yuzlari rangi oshiqning ko'zlariga singib qolgan, degan iyhomni ifodalaydi. (Tabiatan, inson bir narsaga kiprik qoqmay uzoq termulib turganda ko'zlari qizarishi, avval, quruqlashib, keyin yoshlanishi mumkin.)

Tahlilga tortilgan misollarda qoʻllanilgan barcha oʻzlashma qatlamga xos sariq, qizil ranglarini ifodalovchi soʻzlar belgining ortiqligini koʻrsatish uchun xizmat qilgan. Demak, sifatning orttirma darajasi leksik usul bilan, shuningdek, oʻzga tillarga oid leksik birliklar orqali ham namoyon qilingan. Shoir Alisher Navoiyning soʻz ma'nosini juda teran mushohada etishi va ulardan nazmiy javohirlarida oʻrinli hamda ta'sirchan foydalana olishi kitobxonni qayta-qayta hayratga solaveradi. Shoir qizil, alvon, ol ma'nolarini beruvchi *lavn, humrat* soʻzlarini arab tilidan, forsiy tildan *may, la'lgun, maygun, lolagun, lolavor;* turkiydan *lolazor, lolayuz, shafaqrang* birliklarini olib qoʻllaydiki, bu shoirning boshqa tillarni ham oʻz ona tilidek oʻzlashtirganini dalillaydi.

Hazrat mir Alisher Navoiy oʻz asarlarining serjilo, purma'no va uslubiy jihatdang rang-barangligini ta'minlash uchun rang-tus ma'nosini beruvchi soʻz variantlaridan ham unumli va oʻrinli foydalana olgan. Bu esa, soʻz variantlarining

ifoda imkoniyati belgining ortiqligini koʻrsatib berishga xizmat qilishi bilan birga, uslubiy rang-baranglikni ham ta'minlagan.

ADABIYOTLAR:

1. Навоий Алишер. Наводируш-шабоб. 8-том. –Тошкент, 2006.–382 b.
2. Навоий Алишер. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдли. Еттинчи жилд.–Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 469-668.
3. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ (иборат аз 2 ҷилд) Ҷ. 1 А — Н (нашри дувум)/ Таҳрир: С. Назарзода, А. Сангинов, С. Каримов, М. Ҳ. Султон/. – Душанбе 2010.
4. Yuldasheva D.N. Sukut diskursning tarkibiy qismi sifatida (badiiy asarlar asosida): Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2024. – 73 b.
5. Yuldasheva D.N. Sukut nutqiy muloqot komponenti. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 164 b.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. –Тошкент: ЎзМЭ, 2005. – Б.277.

NAVOIYNING ILM HAQIDAGI MULOHAZALARI

TOHIR XOʻJAYEV,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Hamma davrlarda yoki ma'lum vaqtlarda tilimizda, xalq orasida koʻp ishlatiladigan soʻzlar boʻladi. Vatan, ona, til, ishq, ilm, bilim, hunar kabilar barcha davrning eng faol va hammaga tushunarli soʻzlardir. Keyingi yillar va ayni paytda ilm-fan, bilim soʻzini takror-takror eshitayapmiz. Bu – tabiiy. Vatan ravnaqi, millat kelajagi ilmga bogʻliqligi yanada oydinlashib bormoqda. Ilmga munosabat, uning ahamiyati, zaruriyati millat ziyolilarining

doimiy e'tiboridagi tushunchalardan biri. Xalqimiz ilmsevar, uning qadrini, mohiyatini yaxshi anglaydi. Xalq og'zaki ijodi asarlari, ayniqsa, maqol, ertaklarni eslab ko'raylik. Maqollardagi "Baxt belgisi – bilim", "Bilagi zo'r birni yiqar, Bilimi zo'r – mingni", "Ilm – aql bulog'i", "Ilm baxt keltirar, Bilim taxt keltirar", "Ilm – tubsiz quduq", "Ilm olish – nina bilan quduq qazish", "Ilmli odam – ilikli suyak", "Ilmsiz bir yashar, Ilmli ming yashar"[1] va hokazo. Xalqimiz orasida eng mashhuri "Ilm igna bilan quduq qazishdir", "Ilm igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli". Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham bir necha o'rinda ilm, bilim haqida gapirib o'tiladi. Bir maqolda "Qut belgo'si bilik" – "Baxt belgisi ilm va aqldir" deyilsa, she'rda "ilmli ,aqlli odamlarga yaxshilik qilib,so'zlarini tingla.Ilmlarini ,hunarlarini o'rganib amalga oshir"[2] deydi.Yana bir o'rinda o'g'liga nasihat qilib,"El-yurt orasida ulug' olim bo'l, ilmingni tarqat" degan jumla tilga olinadi (85-bet).

Ilm, bilim diniy bo'lsin, dunyoviy baribir ilm-da. Bu mavzuning eng ko'p ifodasini hadislarda kuzatamiz.Imom Buxoriyning "Al-jomi' as sahih" asarlarini o'qigan kitobxon buning tasdig'ini topadi. 1-kitobning "Ilm kitobi" qismida ellik

[1] O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: "Sharq", 2005. – 137-140-betlar.

[2] Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Uch tomlik. 1-tom. – Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960. 403-bet.

to'rt (1-54-boblar) bobida shu mavzu xususida fikr yuritilgan. To'g'ri, unda diniy ilm (Islom)ga e'tibor qaratilgan. Mohiyatan har qanday ilmni ham nazarda tutish mumkin. "Kimki ilm olgan bo'lsa, payg'ambar alayhissalomdan to'liq meros olibdir".[1] Hadislardagi ilm bilan bog'liq muhim fikrlar quyidagilar: "Kimki ilm istab qadam qo'ysa,Olloh taolo unga jannat yo'lini oson qilg'aydir" (32-bet), "Ilmga ilm olmoq yo'li birlan erishilg'aydir" (32-bet). "Yo rabbiy, ilmimni ziyoda qilg'aysen".Ba'zi hadislarda quyidagi mazmunlar singdirilgan: Ilm olib,o'rganib

,odamlarga o'rgatadi. Ammo o'zi amal qilmaydi. Bu –fosiq kishilar. Fosiq so'zining diniy sharhi ancha keng. "Navoiy asarlari lug'ati"da esa quyidagicha: "Fosiq a.Yomon ishlar qiluvchi,yomon yo'lga yuruvchi,buzuq,fisq ishlar bilan shug'ullanuvchi".[2] Ilm sir saqlanmaydi;ilmni berkitganni Olloh taolo qoralaydi; Uyalgan kishi ilm ololmaydi; Uyalgan va mutakabbir kishi ilm ololmaydi kabilar. Ilm, fan haqida gapirganda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlarini eslamaslikning imkoni yo'q. Bu tushunchalar X-X11 asrlar adabiyoti namunalarining ham eng muhim mavzularidan ekanligini ko'rsatadi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari X1 asr qomusi. Davr, ijtimoiy, siyosiy hayot, til, odob-axloq, davlatni boshqarish, insoniy muomala va munosabatlar, turli toifa kishilari, kasb va hunar egalari va boshqalar haqidagi mukammal doston. Unda eng ko'p tilga olingan masalalardan biri ilm, bilimdir. Dostonning bir o'rnida 14 bayt, boshqa bir

joyda 63 baytda bilim va unga yaqin tushunchalar xususida fikr yuritilgan. “Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik unda”.[3] Asarda bilim va ilm haqidagi baytlarda asosan quyidagi mulohazalar bayon qilingan: “Bilimsiz xor”; “Bilimlining murodi hosil”; “Bilimlini buyuk bil”; “Baxt,iqbol kaliti bilim erur”; “Kimyodur bilim”;”Bilimliga bilim tugal kiyim,osh”; “Bilim yaqin jigar-qarindosh”; “Bilim iforli havo”; “Bilim – nur”; “Bilimni buyuk bil”; “Bilimdur burunduk” va hokazo. Bularning izohi shart emas. Hammaga tushunarli. Maqsad ilmga intilish, bilimning inson hayotidagi ahamiyatini ko‘rsatish.

Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida ham ana shularga yaqin mulohazalar ko‘zga tashlanadi. Asarda alohida bir bob ilm, bilim haqida. Adibning bu boradagi fikrlari quyidagicha: “Bilik birla bilnur saodat yo‘li”; “Baholiq dinor ul biliklik kishi”; “Biliklik tishi (ayol) – er, johil er –tishi”; “So‘ngakka yiliktak eranga bilik”; “Biliklik er o‘lti – oti o‘lmagu” (ilmli kishi o‘lsa ham,nomi mangu qoladi); “Biliklik biringa biliksiz mingin” (ilmlining biri ilmsizning mingiga teng); “Biliklik kishi bilur ish o‘zin”; “Biliklik keraklik so‘zin so‘zlayur”; “Biliklik so‘zi pand-nasihat, adab”.[4]

Ilm, til, ma’rifat, millat taqdiri, Vatan ravnaqi kabi eng muhim masalalar jadidlar faoliyatining ham asosiy maqsadi edi. Bugun jadidlarga e’tibor hukumat darajasiga ko‘tarildi. “Jadid” gazetasi chop etila boshlandi. Jadidlarning xalqimiz

[1] Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis.Al-jomi’ as sahih. – Toshkent: Qomus-bosh tahririyati,1991. 32-bet

[2] Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. 641-bet.

[3] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig”. – Toshkent: “Akademnashr”, 2015. 28-bet.

[4] Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq// Navoiyning nigohi tushgan. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. 13-14-betlar.

ma’rifati yo‘lidagi jonbozliklari, fikrlari,qoldirgan merosi hammamizga ibrat. Shoir Iqbol Mirzoning “Jadidlar” nomli she’ri ular haqidagi tasavvurimizni yanada kengaytiradi. Xuddi mening yuragimdagi gaplar topib aytilgandek: “Olimlar juda ko‘p, Bitta Fitrat yo‘q”, “Muallimlar serob, Avloniylar yo‘q”, “Qani yurt deb o‘zini unutganlar”, “Ular g‘isht quygan, Biz tosh otamiz”, “Maishat,to‘y,hasham bosh maqsadimiz hamon”.

Ular maktab qurgan, biz uy quramiz, Ular g‘oya surgan, biz o‘y suramiz. Yoppa tomoshabin bo‘lib turamiz,

Jadidlar yetishmayapti, jadidlar… (“Jadidlar” gazetasi, 1-son.2024,1-

yanvar)

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Yoshlarga murojaat", "Ehtiyoji millat" maqolalaridagi mana bu fikrlar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Aksincha, zaruriyat ekanligini oydinlashtiradi. Uning asarlarida "ilm", "millat", "ilmi zamoniy", "o'qimoq", "maktab", "maorif", "til", "ta'lim", "ulum", "funun", "ulamo", "olim" kabi sozlar tez-tez ko'zga tashlanadi. Bular adib asarlarining asosiy mohiyatini ochib beradigan kalit so'zlardir. "Yoshlarga murojaat"da shunday yozadi: "Millatga xizmat ilm va oqcha ila bo'lur". "To'yga isrof qilinaturg'on oqchalarni o'qumoq yo'lig'a sarf qilsangiz!".[1] "Ehtiyoji millat" maqolsida ham mana bunday fikrlar bor: " Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur" (199-bet).Bunday fikrlarni jaded ijodkorlar asarlaridan ko'plab keltirishimiz mumkin.

Navoiy asarlarini o'qish asnosida bir mulohaza e'tiborimni tortdi. Shoir asarlarida qator masalalar qalamga olinadi. She'riyati, dostonlari, nasriy asarlaridagi bu masalalarni yaxlitlash, umumlashtirish, aniq tasavvur hosil qilish kerak. Navoiy asarlarida ishq, iymon, ilm, hunar, to'g'rilik, rostgoylik, odob, insof, insoniylik, hayo, vafo, saxiylik, mardlik, nafs, ta'ma, yolg'onchilik, zulm, baxillik kabilar xususida ko'p yozadi. Ular haqidagi barcha qarashlarni yig'ish, yagona manzara uyg'otish yaxshi natija beradi. Shoirning barcha asarlari o'qib chiqiladi. Har bir mavzu haqidagi fikrlari aniqlanadi. Ushbu maqolada shoirning ilm, bilim borasidagi mulohazalari bayon etiladi.

Navoiy asarlarini o'qir ekanmiz, "Xamsa", "Majolis un-nafois", "Holotlar"i va boshqalarda ilm-fanning bir necha turlari tilga olinadi. Sarf, navh, mantiq, kalom, fiqh, hadis, tafsir, she'r, muammo, ta'rix, nujum, advor, musiqiy, sanoyi', aruz, qofiya, tib, hikmat, ulumi g'ariba, falakiyot, insho, kimyogarlik, tarix, tasavvuf, qiroat ilmi va boshqalar. Navoiyning ilm haqidagi fikrlarini asarlari asosida ko'rib chiqsak. Dastlab she'riyatida qanday mulohazalar mavjudligini aniqlab olsak. Shoir she'riyatida "Ishq ilmi", "zohir ulum", "qiroat ilmi", "fiqh ilmi" degan jumlalar uchraydi. Navoiy boshqa asarlarida bo'lgani kabi din ilmiga, ayniqsa, fiqh ilmiga alohida e'tibor beradi. "Navodir ush-shabob"da ilmda bahs bo'lishi, ilm haqidagi suhbatlarda Olloh rahmati nozil bo'lishini aytadi:

Chu ushshoq ichra dermen darsi ishqin mehri tong ermas

[1] Mahmudxo 'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 1999. 169-bet.

Ki,derlar: ilm bahs aylar zamon rahmat bo'lur nozil.[1]

Sayyid Hasan Ardasherga bag'ishlangan tarkibbandda "Bahri urfon duri Sayyid Hasan" degan jumla, bir qit'asida qozining fiqh ilmini bilishi kerakligi: "Kerakkim fiqh ilmin bilsa qoziy" (514-bet) deya ta'kidlanadi. "Badoye' ul-vasat"da yuqoridagi fikrimizga dalil

bo'luvchi misra keltiriladi. “Ulumdin ashraf din ilmidur…” deb boshlanuvchi qit'asida shunday misralar bor:

Ilmi din kasb qilki,sud ermas, Charx mushkillarini hal qilmoq. Lekin ul ilm dog'i naf' etmas, Bilibon bo'lmasa amal qilmoq.[2]

Ilm – dunyo mushkillari, hayot muammolarini hal qiluvchi vosita. Uning foydasi ko'p. Lekin har qanday ilmning nafi unga amal qilganda bo'ladi. Ilm olib, ilmli bo'la turib unga amal qilmasa eng foydasiz ishdir. Bu fikrni Navoiyning yana boshqa asarlarida ham uchratamiz. Navoiyning yana bir muhim fikri, bir necha asarlarida qayd etilgani ilmli insonning payg'ambarlarga voris ekanligi, olimlarga kim hurmat ko'rsatsa, go'yo payg'ambarlarga ta'zim qilgandek ekanligini ta'kidlashdir. Gap din ilmi olimlari, haqiqiy ilm ahli haqida ekanligini nazarda tutish kerak. Shoir shunday yozadi:

Ulug'lardin nasib istar esang,kasbi kamol etgil, Nedinkim,anbiyog'a ilmliq inson erur voris.[3]

Ilm haqidagi fikrlar hadislarda ancha chuqur bayon qilingan. “Beshikdan qabrgacha ilm izla”, “Xitoyga borib bo'lsa ham ilm ol” kabilarni yaxshi bilamiz. Shu sabab ham Navoiyning hadislarga javoban yoki ularning mazmuniga mos ruhda yozilgan “Nazm ul-javohir”, “Arbain” asarlarida bunday fikrlarni uchratamiz. “Nazm ul-javohir” Hazrat Alining “Nasr ul-laoliy” asaridagi hikmatlarga javoban yozilgan ruboiylardan iborat asar. Navoiy Hazrat Alining ilm bilan bog'liq “Ilmning darajasi- sifatidadir”, “Ilmning zavoli – maqtanishdadir”, “Ilmning kamoli - muloyimlikdadir”, “Ilmli shohga zavol yo'qdir”, “Ilm majlisi - jannat bog'iga o'xshaydi” kabi hikmatlari mazmuniga mos ruboiylar yozadi.33-ruboiyda hammamizga tanish jumlani tilga oladi:

Ilm o'ldi sharaf din aro har oying'a, Bormoq bo'lur o'rgangali ani Ching'a…[4]

Boshqa ruboiylarda “Haq berdi ilm sarmoyasi” (152-bet), “Ilm ortuqkim,ikki jahon shohlig'i” (154-bet), “Hilmdadur ilm kamoli” (170-bet), “fiqh ilmlar ichra sharafli, faqihlar ummatning sarvari”, boshqa bir o'rinda “Har kimsaki, yo'q ilm anga ahmaq de oni, Majlisdaki ilm bo'lsa uchmaq de oni” deydi:

Kimki olim esa, nuqtada barhaq de oni, Gar bazm tuzar, bihishti mutlaq de oni, Har kimsaki, yo'q ilm anga ahmaq de oni,

Majlisdaki ilm bo'lsa uchmaq de oni. (173-bet)

[1] Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob.MAT. Yigirma tomlik. To'rtinchi tom. – Toshkent: “Fan”, 1989. 272-bet.

[2] Alisher Navoiy. Badoye' ul-vasat. MAT. Yigirma tomlik. Beshinchi tom. – Toshkent: "Fan", 1990. 500-bet.

[3] Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. MAT. Yigirma tomlik. Oltinchi tom. Toshkent: "Fan",1990.69-bet.

[4] Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir.MAT. Yigirma tomlik. O'n beshinchi tom. Toshkent: "Fan",1999.142-bet.

"Arba'in"- mashhur hadis vakillarining qirq hadisiga javoban yozilgan qit'alardir. Bu hadislar ham mavzu jihatdan rang-barang. Ilm haqida shunday hadis mavjud: "ilmda baxillik yo'q". Shu hadis mazmuniga mos tarzda Navoiy shunday yozadi:

Ey xiradmand olimeki, sanga Ilmdin ro'ziy ayladi sone'.

Kishi o'rgansa qilmag'il mahrum, Yoki naf' olsa bo'lmag'il mone'.[1]

Navoiy fikricha, haqiqiy olim o'z ilmini hech kimdan ayamaydi. Kim ilm talabgori bo'lsa, unga yordam beradi, bilimini mone' tutmaydi. Umuman, Navoiyning ilm, fanning turli sohalari haqidagi mulohazalari boshqa asarlarida ham atroflicha bayon qilingan. Ularni o'qish, anglash ilm fazilatlari va ahamiyatini yana bir bor chuqur his qilish imkonini beradi.

ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSI UCHUN SEMANTIK BAZANI YARATISHDA IKKI YONDASHUV

NARGIZA SA'DULLAYEVNA G'ULOMOVA, NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI DOTS. V.B., FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSC)

Annotatsiya. Korpus lingvistikasi jadal rivojlanib borayotgan soha bo'lib, juda ko'plab tadqiqot ishlari qilingan va amaliy natijalarga ham erishilgan. Korpusshunoslikdagi eng dolzarb masalalardan biri tabiiy tilni qayta ishlash bosqichlarida semantik tahlil hisoblanadi. Buning uchun korpus birliklari semantik teglanadi, semantik teglash tizimi yaratiladi. Maqolada Alisher Navoiy mualliflik korpusida Navoiy ijodiy merosini semantik teglashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti g'azallaridagi leksik birliklarning semantik tavsiflari va teglari bazasini yaratish masalalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: semantik teg, annotatsiya, korpusi, g'azal, lingvistik izoh, leksik borlik, fasetli klassifikatsiya

Tabiiy tildagi ma'lumotlarni semantik tahlil qilish tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP), tabiiy til texnologiyalari (Human Language Technology –

HLT) kabi bir qator yoʻnalishlarda koʻplab masalalarni hal etishda muhim sanaladi. Jumladan, til korpuslarida matnlardagi omonimlik, koʻp ma'nolilik, sinkretizm kabi hodisalarni aniqlash uchun leksik birliklar semantik teglanadi. Aynan mana shu xususiyati uchun semantik tadqiqotlarda korpuslardan foydalaniladi. Mazkur tadqiqotda til korpuslari uchun tegning ahamiyati, standart teglash jarayoni, semantik teg vositalari (semantic tagging tools), annotatsiya oʻrni va Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun semantik baza yaratishning ikki xil yondashuvi xususida soʻz yuritildi.

[1] Alisher Navoiy. Arba'in.MAT. Yigirma tomlik. Oʻn oltinchi tom. Toshkent: "Fan",2000.268-bet.

Jahon korpus lingvistikasida teg termini faol qoʻllanadi va korpus uchun uning ahamiyati beqiyos. Ma'lumki, korpus asosini matnlar tashkil etadi, matnlar esa turli leksik birliklardan tashkil topgan boʻladi. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da tilga xos barcha lisoniy va nolisoniy elementlar e'tiborga olinadi, chunki ular matn tarkibida uchraydi. Teg (ingl. tag – yorliq, belgi) global tarmoq tili – HTML (Hyper Text Markup Language – gipermatn belgilash tili)ning asosiy komponenti boʻlib, burchakli qavslar (<...>) ichiga olingan maxsus ajratilgan soʻz hisoblanadi, HTMLda teglar foydalanuvchiga koʻrinmaydi. HTML va XML ancha murakkab til SGML (Standart Generalived Marnup Language) ilovalari hisoblanadi. HTML – ma'lumotlarni koʻrsatish uchun ishlatilsa, XML (eXtensible Markup Language) – ma'lumotlarni saqlash va tartibga solish uchun ishlatiladi. Shunday qilib, SGML, HTML va XML – hujjatni belgilash tillari, teg esa ularning asosiy elementi hisoblanadi. Ulardan farqli holda lingvistik korpusdagi teglar matn elementlarini morfologik, sintaktik, semantik, stilistik, prosodik, anaforik va stilistik jihatdan maxsus belgilab oladi. XX asrning 70-yillaridan soʻz turkumlarini teglash (grammatik teg deb ham nomlanadi) (Part of Speech tagging – POST) Lankastr universitetida LOB korpusi uchun ishlab chiqilgan.

Matn birliklarini teglashdan maqsad matnni kodlash, ya'ni raqamli texnologiyaga matn birliklarini tushuntirishdan iborat. Natijada leksik va hatto noleksik birliklarni boshqarish mumkin boʻladi. Til korpusini boshqa turdagi matnlar massivi hisoblanmish tizimlardan farqlaydi va ahamiyatli qiladi, shuningdek, korpusning til oʻrganish, ta'lim jarayoni, ilmiy tadqiqotlar uchun zaruratini va natijalarning samaradorligini oshiradi.

Dastlab, *teg, teglash, annotatsiya, lingvistik izoh* terminlariga toʻxtalamiz. Turli lingvistik topshiriq / amalni bajarish uchun matnga lingvistik va ekstralingvistik ma'lumot berilgan boʻlishi lozim. Buning uchun mavjud matnning komponentlariga maxsus izoh (masalan, soʻz turkumi, uning mazmuniy ifodasi haqida ma'lumot) berilishi zarur hisoblanadi. Bu izoh matn ***annotatsiyasi*** *yoki* ***lingvistik izoh,*** maxsus belgilar esa ***teg*** (belgi, ishora) (rus. *razmetka*, ing. *tag*) deb ataladi. Matn birliklarini izohlash esa ***annotatsiyalash*** yoki *lingvistik izohlash* (*annotation*), har bir lingvistik birlikni ramzlash esa ***teglash*** (*разметка, tagging, mark-up)* deyiladi.

Masalan, ot turkumi “Ot” yoki “N”, sifat turkumi “Sif” yoki “Adj”, fe’l turkumi “F” yoki “V” tarzida teglanadi. Matnda esa ot turkumiga tegishli “*kitobim*” so‘zshakli *<Ot, n-b nom., birl., I sh., b. eg.q.>* kabi annotatsiyalanadi, ya’ni lingvistik izohlanadi. Teglash va annotatsiyalashning eng oddiy misoli – so‘z turkumlarini umumiy ramzlash va umumiy izohlash hisoblanadi [3, 231-b.]. Bu shunday ko‘rinishi mumkin:

Men oilam bilan faxrlanaman. (I am proud of my teacher.)

Izohlaymiz:

Men (olmosh) kasbim (ot) bilan (ko‘makchi) judayam (ravish) faxrlanaman (fe’l).

Teglar – matndagi xizmat belgilari hisoblanib, matnning o‘zi haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Korpuslarni teglash maqsadida bir qancha universitetlar matn parametrlarini qaysi jihatlariga ko‘ra teglash kerakligini tavsiflovchi tizimni ishlab chiqishdi. Tizim

XMLdan foydalanilanib, teglash, kodlash, indeksirlash mumkin bo‘lgan matnlarning turli xususiyatlari ro‘yxati hisoblanadi. Masalan, tizim matndagi iqtiboslar, turli o‘zgartirishlar, chet el so‘zlari, qisqartmalar, atoqli otlar, initsial, akronimlar va boshqalarni sanab o‘tadi. Hozirda korpuslarni yaratishga yo‘naltirilgan ko‘plab loyihalar (shu jumladan, Britaniya Milliy korpusi) TEI tavsiyalariga u yoki bu tarzda amal qilmoqda [7, 48-49-b.].

Raqamli texnologiyalar tilida teglar an’anaga muvofiq, burchakli qavslarda juft, ya’ni ochish va yopish holatida bo‘ladi. Masalan, <n> ochuvchi teg, </n> yopuvchi teg (axborot texnologiyalari va tabiiy tilni qayta ishlashdagi teg terminidagi aynanlik lingvistik ontologiyalar ahamiyatini namoyon etmoqda). Yopish tegi ochish tegida berilgan xabarning tugaganligini bildiradi. Fikrga yuqoridagi gap bilan misol keltiramiz: *<pron>Men </pron></N>oilam<N>*

<prep>bilan</prep ><V> faxrlanaman</V>. Gap boshidagi leksik birlik

<pron>Men</pron> olmoshi ekanligi haqida belgi berilgan. Semantik teglashda leksik birliklarning leksik-semantik guruhlari maxsus teglar yordamida belgilanishi e’tiborga olinadi. *Semantik teg* matndagi leksik birlikka mansub semantik guruhning maxsus belgisi, *semantik teglash* esa semantik guruh yoki kategoriyalarni maxsus belgilash hisoblanadi. *Semantik annotatsiya* (teg) – til korpuslari matnlaridagi so‘z yoki so‘z birikmasining ma’lum bir semantik kategoriya yoki undan ham kichikroq semantik guruh (leksik-semantik guruhi, semantik maydon va to‘da)ga mansubligini bildiruvchi, ma’noni maxsuslashtiruvchi belgi, izohlar majmui [2, 182-b.]. Korpusning semantik teglari so‘z ma’no(lar)ining spetsifikasi, ya’ni o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning

omonimlik, sinonimlik, antonimlik bilan bog'liq izohlar majmuini tuzish, so'zni kategoriyalash, semantik maydonga mansubligini belgilash, derivatsion xarakteristikasi, atash ma'nosi kabi belgilarni qamrab oladi. Shuning uchun semantik teglash korpusdagi so'zlarning ko'p ma'nolilik, omonimlik, sinonimlik xususiyatlarini hamda so'z ma'nosining ixtisoslashuvi [5, 36-b.], ularning ma'noviy guruhlarini aniqlash imkonini beradi va matndagi semantik muammolar (yuqorida ko'rsatilgan)ni hal qiladi.

Semantik teglashda yagona muayyan shakl bo'lmasa ham, harf, qisqartma, raqam va so'z yoki faqat raqamdan iborat kodlardan foydalaniladi. Kodlash va dekodlash – informatsiyani mashina (kompyuter) tushunadigan tilga o'tkazish va bunga teskari bo'lgan kompyuter tushunadigan tildan inson tushunadigan tilga aylantirish jarayoni [6, 19-b.].

Ma'lum bo'lganidek, semantik teglashda leksik birlikning muayyan semantik kategoriyaga mansubligi belgilanadi va shu asosda foydalanuvchiga uning semantik izohlari (leksik-semantik guruhi, semantik maydoni kabilar) ko'rsatiladi. Bunday holda semantik teglashda so'zning bir necha semantik maydonga mansubligiga ko'ra fasetli klassifikatsiya amalga oshiriladi. Masalan, o'zbek tilidagi *achchiq* so'zi omonim hisoblanadi. Har ikki omonim shaklida ham intensiv baho mavjud. Achchiq I omonimi o'z tarkibida uchta semantik guruhni mujassamlashtiradi, achchiq II omonim shakli esa bitta. Natijada *achchiq* so'zining to'rtta semantik guruhi yuzaga keladi va, o'z o'rnida, achchiq omonimi ushbu semantik guruhlarga kiradi, natijada fasetli tasnif yuzaga keladi (1.2.1-chizmaga qarang). Yana bir misol, *fikrladi*

so'zshakli III shaxs, birlik, o'tgan zamon, fe'lning tasdiq shakli, xabar mayli kabi grammatik guruhlar va tafakkur fe'li semantik guruhiga kiradi, mana shu holat fasetli tasnif hisoblanadi.

Ta'm

His

ACHCHIQ

ACHCHIQ I

Jismonan kuchli

ta'sir

Baho + intensivlik xususiyati

Ruhan kuchli ta'sir

- 1. chizma. "*Achchiq*" omonim so'zning semantik maydonga mansubligi fasetli klassifikatsiya ko'rinishida.

Navbatdagi Alisher Navoiy g'azallarida *gul* so'zining bir faseti *yor* tushunchasiga tutashadi, shuningdek, *mahbub* so'zi ham shu *yor* semantik maydoniga ega. Bundan gul so'zining turli semantik maydonlarga egaligi va *yor* semantik maydoniga boshqa leksemalarning ham bog'lanishi ko'rinadi. (1.2.2-chizmaga qarang)

MAHBUB

Hirotdagi qishloq nomi

yor

meva

zohir bo'lish

qon

o't

yashnamoq

yoshlik davri

DAM

GUL

- 1. chizma. *"Gul"* so'zining fasetli tasnifi.

Matnlarda uchraydigan omonim va polisemantik so'zlar bir necha ma'noviy guruhlarga kiritiladi. Masalan, rus tilidagi "*ключ*" so'zi omonim ham ko'p ma'noli so'z bo'lib, I. 1) narsa: *ключ от дверей* – eshikning kaliti; 2) texnik jihoz: гаечный ключ; 3) termin: музыкальный ключ. II. *ключ* – buloq. I raqami bilan berilgan

omonim 3 ma'noni ifodalaydi, II omonim esa suvning chiqish o'rniga nisbatan qo'llanib, hozirda omonimlikni kasb etgan. Ularning qaysi semantik guruhga mansubligi matnda anglatgan ma'nosidan anglashiladi.

Alisher Navoiy korpusida semantik bazani yaratish xususiy negizga, ya'ni mohiyatga ega. Ma'lumki, XV asr tili hozirgi o'zbek tilidan farq qiladi va bugungi kun o'quvchisi uchun ko'plab iste'moldan chiqqan yoki shakliy ifodasi boshqa holatga o'tgan

leksik birliklar mavjud. Ularni biz izohtalab so'zlar deymiz [1, 112-b.]. Bunday so'zlar izohini foydalanuvchiga aniqlashtirib bermasdan, uning semantik guruhi yoki semantik maydonini ko'rsatish mantiqsizlik hisoblanadi.

So'zlarning ma'noviy guruhlarini semantik teglashda *leksik birliklarning semantik guruhini maxsus teglar bilan belgilash* hamda *izohtalab so'zlarning semantik izohini ID kodlar bilan ochish* yondashuvi e'tiborga olinadi. Alisher Navoiy mualliflik korpusi matnlarining semantik bazasini yaratishda asosiy e'tibor izohtalab so'zlar bo'lganligi sababli, dastlab, birinchi yondashuv bo'yicha ishlar amalga oshirildi.

Alisher Navoiyni xalqqa yaqinlashtirish, uning bebaho ma'naviy merosini yosh avlodning ko'ngil mulkiga aylantira olish bir kunlik jarayon emas. Navoiyning ijod namunalarini o'quvchilar yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda tizimli o'rgatilishi sifatli ta'limga erishishning eng muvofiq yo'li hisoblanib, g'azallar matnida foydalanilgan so'zlarning murakkablik darajasi, qo'llanilgan so'z ko'lami, g'azalda ifoda etilgan g'oyani hisobga olib har bir g'azal uchun auditoriya yoshlarini belgilab, bazaga kiritishda ham maxsus kodlardan foydalanildi.

(Common

noun)

(NER)

atorli otlar turdosh otlar

mavhum

otlar (Abstract nouns)

ravish son fe'l (Verb) sifat qismni

(Adverb) (Numeral) (Adjective) bildiruvchi otlar

(Meronyms)

9

5

6

6

11

17

24

25

20

15

10

5

0

40

45

40

35

30

- 1. chizma. Alisher Navoiy mualliflik korpusida leksik-semantik guruhlar statistikasi.

Tadqiqotda mazkur paragrafning ilmiy hissasi shundaki, unda Alisher Navoiy kabi mumtoz ijodkorlarning mualliflik korpuslarining semantik bazasini yaratishda nafaqat standart teglash bo'yicha (2-yondashuv), balki hozirgi zamon foydalanuvchisi uchun tushunarsiz bo'lgan izohtalab so'zlarning ifodalayotgan kontekstual tushunchasini semantik tavsiflash (1-yondashuv) zarurligi ham asoslab berilgan. Ikkinchi yondashuvda bir so'zning semantik maydoni yoki semantik guruhlari aniqlanadi, buning natijasida qidiruvda semantik filtr ochiladi va samarali

qidiruv natijalariga erishiladi, g'azallarni semantik tahlil qilish imkoniyati oshadi; birinchi yondashuv asosida esa izohtalab so'zning kontekstual tushunchasi aniqlanadi. Natijada o'quvchida Alisher Navoiy g'azallarini o'qib tushunish kompetensiyasi shakllanadi. Bunday ikki yondashuv o'rta asrlar manbalarini o'rganish va tadqiq etishda ko'p qulayliklarni beradi. Ayniqsa, matnlarni o'qib, uni tushunib oluvchilar auditoriyasini kengaytiradi.

Semantik teg korpusda leksik birliklarning muayyan semantik maydonga tegishliligi yoki ma'noviy guruhga mansubligini namoyon etuvchi ko'rsatkichdir. Shunday holda leksik birliklar ustida turli tadqiqotlarni bajarish, ta'lim jarayonida leksik birliklarning ma'noviy ko'lamini ochish, omonimlik va ko'p ma'noli so'zlarni kontekstdan aniqlash imkonini beradi. Alisher Navoiy mualliflik korpusida esa foydalanuvchiga izohtalab so'zlarning kontekstual semantikasini interaktiv tarzda namoyon qilish va shuning yordamida Navoiy ijodini o'qiydiganlar auditoriyasini kengaytirish birlamchi vazifa qilib olingani bois, dastavval, g'azallarda mavjud izohtalab so'zlarga misrada anglatayotgan tushunchasi semantik tavsif tarzida ID kodlanib bazaga kiritildi va bu jarayon korpusda semantik bazani yaratishning asosiy mohiyatini tashkil etdi [4, 201-b.]. Ushbu tadqiqotda biz korpusshunoslikda mavjud standart teglash bilan bir qatorda Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun maxsus yondashuvni tatbiq etdik. Tajribadan ma'lum bo'ldiki, foydalanuvchi uchun Alisher Navoiy asarlarida so'zning kontekstda anglatayotgan muayyan tushunchasini bilish uning semantik maydonini aniqlashdan ko'ra zarur hisoblanadi. Shu bois Alisher Navoiy mualliflik korpusida </kontekstual tushuncha> tegi maxsuslashtirildi.

ADABIYOTLAR:

1. Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – P.111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD

RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences;

1. Abjalova M., Gulomova N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – P.182-

187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546;

1. Abjalova M. Task of tagging and annotation of corpus units. Modern Science and Research, 2(10), 2023. – P.231. https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/26055.

2. G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusining ijtimoiy-tarixiy ahamiyati. Karabuk davlat universiteti. Filologiya va madaniyat masalalari (ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami). – Turkiya, 2024. – B.201-209.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 236 б.
4. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B.160.
5. Захаров В., Богданова С. Корпусная лингвистика. – Иркутск: ИГЛУ, 2011. – С.48-49.

АЛИШЕР НАВОИ – ГЕНИЙ УЗБЕКСКОЙ И МИРОВОЙ ПОЭЗИИ, МЫСЛИТЕЛЬ И ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ДЕЯТЕЛЬ

Камол Намазович КАДИРОВ,

профессор Навоийского университета инноваций

Аннотация: В данной статье рассматриваются творчество Алишер Навои, о писателе узбекской и мировой поэзии**.** В произведениях, которого нашли выражение лучшие чаяния, чувства и мысли узбекского народа.

Ключевые слова и понятия: узбекская культура, Султан-Хусейн, мировоззрение Навои, литературное наследство Алишера Навои, сын своей эпохи, «Пятерица» («Хамса»), лучшие традиции письменной литературы.

Алишер Навои (1441-1501) - гений узбекской и мировой поэзии, мыслитель и государственный деятель. Произведения Навои, в которых нашли выражение лучшие чаяния, чувства и мысли узбекского народа, близки и до-роги людям. Имя Навои стоит рядом с именами таких корифеев литературы, как Пушкин, Шевченко, Руставели, Низами.

Общественная и политическая жизнь Средней Азии и Хорасана во вре-мена Навои была полна глубоких противоречий. В течение десятилетий, про-шедших со дня смерти Тимура (1336-1405), между его наследниками - Ти-муридами - не утихала борьба за власть, за расширение своих владений. Царевичи, управлявшие отдельными уделами, смотрели на них как на личные владения, не желали считаться с центральной властью.

В правление некоторых Тимуридов значительное развитие получили наука и искусство; поддерживались широкие связи с другими странами, в том числе с Китаем и Индией.

Не внесло существенных улучшений в жизнь государства и правление Султан-Хусейна (1469-1506), хотя проявленные им усилия к централизации власти

в целом имели прогрессивный характер. Феодальные войны к концу правления Султан-Хусейна столь ослабили его государство, что оно пришло в упадок и перешло к новым завоевателям.

В таких условиях с огромной силой прозвучал смелый и мощный голос Алишера Навои, провозгласившего, что в мире нет ничего ценнее Человека. Исходя из гуманистических принципов, Навои требовал справедливости, заботливого отношения к людям. Он, говорил;

Высоким званьем «Человек» достоин зваться тот, кто о народе никогда не оставлял забот.

Родился Навои в Герате, одном из крупнейших экономических и культур-ных центров Средней Азии и Хорасана второй половины XV в.

Семья Навои занимала видное общественное положение. Его отец, Кичкине-бахадур, получивший высокий государственный пост, происходил из служилых людей - канцелярских писцов, занятых составлением официальных бумаг и хранивших языковые традиции. Постоянные неустройства в полити-ческой жизни и ожесточенная борьба между престолонаследниками вынужда-ли семью Навои часто менять местожительство. Навои учился в Герате, и Самарканде, где получил всестороннее образование. Уже в юности он писал стихи по-староузбекски и по-персидски. Стихи, написанные на староузбекском языке, молодой поэт, носивший имя Низамаддин Алишер, подписывал псевдонимом «Навои», что значит «мелодичный», а стихи, написанные по-персидски,- прозвищем «Фани», т. е. «бренный». Позднее, будучи не только ученым и поэтом, но и государственным деятелем (в 1469 г. при Султан-Хусейне он стал хранителем печати, а затем первым министром - везиром), Навои боролся против феодальных междоусобиц, прилагал усилия к укреплению централизованной власти, к созданию условий для обеспечения мира. Обладая достатком, Навои расходовал большие средства на благоустройство Герата: строил школы, библиотеки, больницы, бани, оросительные каналы, покровительствовал ученым, писателям, живописцам.

Мировоззрение Навои отражало новые общественные требования, все более настойчиво звучавшие в устах передовых людей стран Востока и Запада. Люди все яснее сознавали, что результаты человеческого труда достойны восхищения всегда и повсюду, независимо от того, кем они созданы. Важно лишь, чтобы они были нужны людям, обогащали их, приносили пользу. И

государства должны жить по законам, защищающим интересы народа.

Навои писал в поэме «Стена Искандера» (перевод этой поэмы здесь и ниже В. Державина):

Где справедливый утвержден закон, Там бедствовать народ не принужден.

Никто не устоит перед пытливым взором, знанием, мастерством, сноров-кой человека, все настойчивее проникающего во все уголки вселенной, откры-вающего новые моря и земли.

Бывалый водолаз в пучине вод Из пасти у акулы перл возьмет.

Узбекская культура во времена Навои имела большие традиции. Но на пути ее развития стояли немалые трудности. Феодалы, грабившие и угнетав-шие народ, стремились к тому, чтобы использовать литературу в своих классовых целях. Литература на староузбекском языке, хотя и создавалась в течение нескольких веков и имела отдельных выдающихся представителей: (в их числе Хорезми, Дурбек, а также поэты XV в., Лутфи, Атаи), в целом была развита еще слабо. Литература феодальных дворов была пронизана чуждыми народу идеями, принижавшими человеческую личность; ее представители

часто ставили на первое место игру словами, видели смысл поэзии в изощренной форме, а не в содержании.

Алишер Навои не пошел по пути феодально-клерикальной литературы. Глубоко изучив историю литератур и философской мысли Востока и опираясь на устно-поэтическое творчество, он выступил как новатор, открывший перед литературой своего народа неизвестные ранее горизонты. Открыто подняв голос в защиту человеческих прав, Навои расширил содержание узбекской поэзии, придав ей широкое общественное звучание. Навои боролся за дальнейшее развитие родного староузбекского языка, он писал на нем вы-сокохудожественные произведения, которые, пройдя сквозь столетия, и сей-час волнуют сердца читателей.

Литературное наследство Алишера Навои огромно. Его перу принадле-жат десятки сочинений художественных, научных, философских. В своих про-изведениях Навои выступает как передовой человек, стоящий на высоте тог-дашних знаний не только в области философии, истории, поэтики, грамма-тики, риторики, но и космографии, точных наук, архитектуры, ирригации, а также музыки, живописи, книжного дела и т. д. Изображая в своих произве-дениях быт и нравы разных народов, Навои близок к современной ему дей-ствительности.

Наиболее значительной частью художественного наследия Навои являются свод его стихотворений «Сокровищница мыслей», известный также как «Чар диван», и собрание пяти поэм - «Пятерица» («Хамса»).

В «Сокровищница мыслей», в соответствии с этим названием, четыре поэтических книги: «Чудеса детства», «Редкости юности», «Диковины среднего возраста» и «Полезные советы старости». В «Пятерицу» входят поэмы: «Смятение праведных», «Лейли и Меджнун», «Фархад и Ширин»,

«Семь планет», «Стена Искандера». «Пятерица», насчитывающая более пятидесяти трех тысяч стихотворных строк, написана в предельно короткий срок - менее чем в три года (1483-1485).

Уже в лирике поэт предстает как человек, предпочитающий живое чело-веческое чувство мертвящим догмам средневековья. В одном из четверости-ший Навои писал:

Огнями ада не пугай меня, отшельник ледяной.

Не огорчай, суля мне рай, когда окончу путь земной! В аду о милой вспомню я - и в рай преобразится ад.

Рай станет адом, если ты в раю предстанешь предо мной. (Перевод *Н. Лебедева)*

Интересны в этом отношении кыт'а и туюги Навои. Кыт'а (буквально отрывок, фрагмент)-малая стихотворная форма, в содержании которой до-пускалась большая свобода. Часто кыт'а - афоризм, поэтому, очевидно, средневековые теоретики литературы определяют его и как «мудрость» (хик-мет). Правильность этого определения видна и из кыт'а Навои (переводы кыт'а С. Иванова):

Старайся этот мир покинуть так,

Чтоб без долгов расчесться с пережитым.

Запоминаются туюги - четверостишия, в которых рифмующиеся первая, вторая и четвертая строки содержат омонимические рифмы, одинаковые по звучанию, но разные по значению:

Соперник мой, как пес, хитер, нельзя его провесть. Придет ли от любимой весть - пронюхает про весть. (Перевод *С. Иванова)*

В период написания «Пятерицы» Навои находился в расцвете литератур-ного таланта. Он широко использовал свой жизненный опыт, а также фольк-лор и лучшие традиции письменной литературы. Вместе с тем «Пятерицей» поэт как бы отвечал на одноименные произведения своих предшественников, прежде всего уже известного нам Низами Ганджеви и Амира Хосрова из Дели. Тем самым Навои брал на себя трудную задачу.

Во вступлении к поэме «Фархад и Ширин» он так говорит об этом: Я с Низами бороться принужден.

Рукой схватив такую «Пятерню», В руке надолго ль силу сохраню? У всех трещали пальцы до сих пор,

Кто с Низами вступал в подобный спор. Быть надо львом, чтоб рядом сесть со львом, Тем более - чтоб в драку лезть со львом.

Иль не слоном таким же надо быть,

Чтоб с хоботом слоновым хобот свить? (Перевод *Л. Пеньковского)* Навои с честью справился с взятой на себя задачей. Его «Пятерица» -

высокохудожественное и совершенно самостоятельное, глубоко самобытное произведение, что подтверждает и сравнение сюжетной основы поэм узбек-ского поэта с поэмами «Пятериц» Низами, Амира Хосрова, а также старшего современника, духовного наставника и друга Навои - Абдуррахмана Джами и других поэтов.

Содержание «Пятерицы» необычайно богато.

В поэме «Смятение праведных» («Хайрат аль-абрар») Навои, обращаясь к государю, в ряде небольших рассказов жестоко бичует носителей общест-венного зла - несправедливых властителей и духовных лиц, осуждает взя-точничество, вероломство и хищничество. Передавая эпизод из жизни легендарного государя древнего Ирана Бахрама, поэт обрушивается на тиранов и их алчных слуг, грабящих и разоряющих крестьян.

Навои высоко ценил созидательный труд и осуждал тех, кто относится к результатам человеческого труда как захватчик и деспот, не считаясь с людь-ми, уничтожает принадлежащее им, грабит их. Навои говорит: «Со спокойной душой есть самую простую пищу благороднее, чем есть самую изысканную пищу, отнятую от других». Одна монета, полученная за труд, «ценнее, чем сто, полученных в подачку ни за что». Поэт призывает ценить человека за то, что он сделал хорошего, чем он помог людям:

По щегольству о муже не суди,

Ракушку по жемчужине суди.

В получившей широкую известность поэме «Фархад и Ширин» Навои воспевает дружбу и любовь между народами, выступает за свободу человече-ской личности, понимая ее как свободу от произвола тиранов и жестоких средневековых

законов, принижающих и оскорбляющих человеческое досто-инство. Поэту чужды чувства племенной или расовой исключительности. Прославляя чистоту человеческих отношений, поэма Навои в то же время является гимном труду. Именно трудовые подвиги Фархада, проложившего оросительный канал, названный «Рекой жизни», приводят его к цели - к Ширин, позволяют влюбленным преодолеть препятствия на пути к счастью.

Образы Фархада и Ширин, так же как и героев третьей поэмы «Пятери-цы» - «Лейли и Меджнун» - до наших дней популярны как в устной, так и в письменной литературе, а также в изобразительном искусстве Узбекистана и других республик Востока. В «Лейли и Меджнуне» Навои выступает против господствовавших в то время законов и обычаев, ставивших женщину в неравноправное положение и часто являвшихся причиной разлуки влюбленных.

Навои был сыном своей эпохи. Выступая как человеколюбец, отстаивая гуманистическое мировоззрение, он в то же время являлся сторонником взглядов, близких идеалу просвещенной монархии. В трактовке темы любви в

«Лейли и Меджнуне» он отдал дань суфийским (мистическим) воззрениям. Но все эти моменты не могли уничтожить действенности образов поэмы, зовушей на борьбу против феодальных устоев. Не к прошлому, а к будущему обращены слова поэта, воспевающего любовь Лейли и Меджнуна (Кайса):

Кто чистотою равен им, для тех Вовек любовь не превратится в грех.

Влюбленный должен чистым быть всегда:

Любовь желанью грязному чужда! (Перевод *С. Липкина)*

Высокими гуманистическими идеями, стремлением к самопожертвованию ради верности и добра пронизана и четвертая поэма -

«Семь планет». В этой поэме, содержащей занимательные сказочные сюжеты, Навои предстает перед нами как совершенный художник слова, создающий произведения во имя торжества правды и справедливости, как поэт, обогативший мировую литературу волшебными жемчужинами поэзии. Слово для него не самоцель; он осуждает пустую, бессодержательную игру в стихосложение.

Поэт должен, создавая свои произведения, развивать и совершенствовать свой талант во имя служения народу. Ради этой высокой цели Навои и создал свою поэму:

Центральным героем поэмы является легендарный древнеиранский госу-дарь Бахрам-Гур (Бехрам-Гур), образ которого, был опоэтизирован. Фирдоуси уделил

Бахрам-Гуру внимание в «Шах-намэ», Низами - в «Семи красавицах», Амир Хосров - в поэме «Восемь райских цветников» («Хешт бехишт»).

В этих замечаниях проявляется стремление Навои сделать более человечными образы своих героев. Навои критикует поэмы Низами и Амира Хос-рова с позиций реалистического понимания сюжета. В этих поэмах царевны, жены Бахрам-Гура, прибывшие из семи «поясов» земли, каждая в построен-ном специально для нее дворце, рассказывают ему сказки. Навои пишет, что захмелевшему Бахрам-Гуру было не до сказок, да и рассказывание сказок - не дело царевен.

Здесь Навои выдает Бахрама за идеального правителя, близкого взглядам самого поэта. Зато, когда его Бахрам забыл о народе, Навои жестоко осудил действия своего героя.

«Стена Искандера» посвящена Александру Македонскому, хотя в ней Навои, подобно Низами в «Искендер-намэ», не имеет целью воспроизвести исторический облик великого полководца древности. Для Навои Александр Македонский (Искандер) - идеальный государь, стремящийся к справедли-вости и счастью народов. Уже с первых дней царствования Искандер, по Навои, на два года освобождает подданных от подати - хараджа, заботится о бесперебойной торговле, для чего устанавливает сторожевые посты на ка-раванных путях, следит за базарными ценами, проверяет весы, наказывает тех, кто поднимает руку на беззащитного и притесняет народ.

Рассказывая о войнах Искандера, Навои допускает историческую услов-ность. Он далек от войн исторического Александра Великого, но близок к современной ему действительности, правдиво воспроизводя отдельные моменты сражений в Средней Азии и Хорасане в средние века.

Навои страстно любил жизнь и стремился к лучшему будущему. Он пи-сал, что «цветы жизни прекраснее всего», и все его помыслы были обращены к тому, чтобы избавить эти цветы от пагубной для них грязи.

Навои жил в век величайших географических открытий, в эпоху Воз-рождения. Это нашло живой отклик в его произведениях, особенно в «Стене Искандера».

Передовое гуманистическое мировоззрение Навои и высокие художественные достоинства его произведений обусловили им широчайшую популярность. Народ сложил о Навои легенды и предания, рассказы, полные жизнерадостности и остроумия. В них поэт обычно изображается не только как

человек, по своим достоинствам стоящий выше султана, но и как разоблачитель всего рутинного и злого, успешно выходящий из всякого рода трудных положений.

Народ знал и уважал Навои. Смерть поэта, наступившая 3 января 1501 года, была воспринята как народное горе.

Желание Навои сбылось: он стал одним из наиболее любимых писателей своего народа. Его произведения со всей наглядностью выявили богатство и гибкость грамматических форм староузбекского языка и показали, что на этом языке могут создаваться художественные произведения, ни в чем не уступающие шедеврам арабской и персидской литературы. Этот факт имел огромное значение для дальнейшего развития узбекской литературы.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Алишер Навои. Хамса. Пятерица. Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма -Т. 1986
2. История узбекской литературы. 4-5 том. -Т, 1994.
3. Узбекистон миллий энциклопедияси. -Т., 2002
4. Кошчанов М. Щедрость таланта. Статьи об узбекской литературе. - М., 1980. -С.300.
5. С.Садык. Новая узбекская литература. -Т., 2003.
6. Н.В.Владимирова. О развитии прозаического жанра в узбекской литературе// Преподавание языка и литературы, 2003. №5,6.

JALOLIDDIN RUMIY VA ALIShER NAVOIY G'OYALARIDAGI MUShTARAKLIKLAR

VASILA ERKINOVNA CHO'LIEVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti professori v.b., falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiy va Alisher Navoiy g'oyalaridagi mushtarakliklar tahlili etilgan bo'lib, ularning har ikkalasining ham falsafiy-irfoniy qarashlarida, hayot yo'llarida va ijodiy kamolotida bir qator bog'liqlik, umumiyliklar yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются общие черты в идеях Джалалуддина Руми и Алишера Навои, выделяется ряд связей и общих черт в философских и мистических взглядах, жизненном пути и творческом развитии обоих.

Abstract: This article analyzes the commonalities in the ideas of Jalaluddin Rumi and Alisher Navoi, highlighting a number of connections and commonalities in the philosophical and mystical views, life paths, and creative development of both of them.

Kalit so'zlar: irfon, tasavvuf, ruhiy kamolot, ma'rifat.

Ключевые слова: мистицизм, мистицизм, духовное совершенство, просветление.

Keywords: mysticism, mysticism, spiritual perfection, enlightenment.

Hozirgi kunda jahon afkor ommasi tomonidan muazzam Sharqning bir qator ijodkorlari ijodini o'rganish, qiyosiy tahlil etish va ularning falsafiy qarashlaridagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan tanishishga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Xususan, Abu Rayhon Beruniy, Abu ali Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Sa'diy Sheroziy va Alisher Navoiy kabi yetuk daholarning ma'naviy merosi jahonning durdona asarlari sirasiga kiritilmoqda. Xususan, Alisher Navoiy shaxsiga qiziqish, ijodini o'rganishga bo'lgan ishtiyoq necha asrlardan buyon insoniyatni unga bag'ishlab yangidan-yangi asarlar, ilmiy va ommabop risolalar, she'ru-dostonlar bitishiga sabab bo'lmoqda. Alisher Navoiy buyuk mutafakkir va davlat arbobi sifatida bir qator sara asarlari bilan fanning barcha sohalari taraqqiyotiga

o'zining munosib hissasini qo'shdi. Uning har bir asarlarida falsafa va tasavvuf namoyandalari haqida qimmatli fikrlar hamda ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Sharqning buyuk zabardast mutafakkirlaridan hisoblanmish Jaloliddin Rumiy va Alisher Navoiylarning tasavvuf olamidagi maqei beqiyosdir. Ularning har ikkalasining ham falsafiy-irfoniy qarashlarida, hayot yo'llarida va ijodiy kamolotida bir qator mushtarakliklarni ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan, har ikkala allomaning shajarasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning har biri toza palaklarda tub yozganligiga guvoh bo'lamiz. Jaloliddin Rumiyning ota nasabi Hazrat Abu Bakr Siddiq (r.a.)ga, ona nasabi esa payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga borib taqalishi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Alisher Navoiyning ota nasabi Amir Temurga borib bog'lanadi. Uning bobosi Amir Temurning o'g'li Umarshayx Mirzo bilan ko'kaldosh bo'lgan. Demak, har ikkalasi ham buyuklar avlodidandir.

Ikkinchidan, bu ikkala allomadaning hayot yo'llaridagi mushtaraklik shundaki, Jaloliddin Rumiyning ham, Alisher Navoiyning ham otasi o'z vaqtida shoh saroyiga yaqin va xos kishilardan bo'lgan. Jaloliddin Rumiyning otasi Bahovuddin Valad Muhammad Xorazmshoh saroyida obro'li va saroyning yaqin kishilaridan edi. Bu esa bevosita uning farzandlari yosh Jaloliddin va A'loiddinga yaxshi ta'lim-tarbiya olish hamda alohida e'tibor bilan ulg'ayishiga zamin yaratgan. Xuddi shunday, Alisher Navoiyning otasi Muhammad

G'iyosiddin ham temuriylar saroyi amaldorlaridan bo'lgan. Shu sababli, Alisher Navoiyda ham yaxshi ta'lim-tarbiya olish, alohida e'tibor bilan ulg'ayishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lgan.

Uchinchidan, ko'pgina manbalarda keltirilishicha, Jaloliddin Rumiy 5-6 yoshlarida savodini chiqaradi, o'tkir zehni, noyob qobiliyati bilan ko'pchilikning e'tiborini qozonadi. Alisher Navoiy ham juda yoshligidanoq, ya'ni, 3-4 yoshlarida savod chiqarganligi, o'tkir zehnli va iste'dodli bo'lganligi, o'z davrining mashhur shoirlari she'rlaridan, jumladan, o'sha davrlardayoq Jaloliddin Rumiyning "ramali musaddas" vaznida bitilgan masnaviylarini o'qib-o'rganganligi haqida o'zining mashhur "Majolis un-nafois" asarida ma'umot beradi.

To'rtinchidan, bu ikkala mutafakkirlarning kelajakda yetuk va zabardast siymolar bo'lib yetishishlari juda yoshligidanoq o'z zamonasining valiylari tomonidan bashorat qilinadi. Jaloliddin Rumiy buyuk Farididdin Attor bilan uchrashganida 14 yoshda edi. Shoir Bahovuddin Valadga qarata: "O'g'lingiz tez orada olamdagi barcha kuyganlar qalbiga otash soladi", deya ilohiy bashorat qilganligi Husomitdin Chalabiydan tortib Davlatshoh Samarqandiy asarlarida ham qayd etilgan. Alisher Navoiyning ham kelajakda yetuk zot bo'lib kamol topishi o'z davrining mashhur zotlari tomonidan ko'p bora e'tirof etilganligi haqida uning tarjimai holida ham ma'lumotlar berilgan.

Beshinchidan, Jaloliddin Rumiy ham, Alisher Navoiy ham buyuk tasavvuf allomasi Fariddin Attorni o'zlariga ma'naviy ustoz deb bilishgan. Ikkalasining ham ijodiy kamolotida Farididdin Attorning ta'siri juda katta hisoblanadi. Jaloliddin Rumiy Farididdin Attorning "Asrornoma" asarini umr bo'yi o'ziga hamroh qilgan

bo'lsa, Alisher Navoiy Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asaridan bir dam ayro tushmagan.

Jaloliddin Rumiyning mashhur "Masnaviyi ma'naviy" asarida Farididdin Attor shaxsi shunday e'tirof etiladi:

Gardi Attor gasht Mavlono,

Sharbat az dasti Shams budam no'sh.

Mazmuni: Mavlono Attor atrofida aylanib yurdi, ammo sharbatni Shams Tabriziy qo'lidan ichdi.

Jaloliddin Rumiy Farididdin Attorning "Asrornoma" asaridan qattiq ta'sirlangan va bu ta'sir kuchi uning falsafiy-irfoniy qarashlarida ham o'z aksini topgan. Alisher Navoiy esa Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari ta'sirida o'zining "Lison ut-tayr" asarini yaratgan.

Oltinchidan, Jaloliddin Rumiy ham, Alisher Navoiy ham fors tilini juda chuqur bilishgan va bu tilda samarali ijod qilishgan. Forsiy Qur'on deb e'tirof etiladigan " Masnaviyi ma'naviy" va deyarli barcha asarlarini Mavlono fors tilida yaratgan. Alisher Navoiy esa "Devoni Foniy" deb nomlangan forscha g'azallar devoni va " Sittai zaruriya", "Fusuli arbaa" nomli forscha qasidalar to'plamini yaratganligi barchamizga ma'lum.

Yettinchidan, Jaloliddin Rumiyning "Maktubot" asarida Mavlono o'z zamondoshlari bilan turli payt va hududda yozilgan yozishma maktublarini jamlagan bo'lsa, Alisher Navoiy ham o'z zamondoshlari, saroy va ilm ahli vakillari bilan yozishmalarini jamlagan holda "Munshaot" asariga tartib bergan. Bundan ko'rinadiki, har ikkala ijodkor ham maktubot janrida samarali ijod qilib, alohida asar bitishgan.

Sakkizinchidan, Sharqda "Layli va Majnun" dostoni syujeti asosida bir qancha asarlar, hikoyat va rivoyatlar yaratilganligi barchamizga ma'lum. Jaloliddin Rumiy o'zining "Masnaviyi ma'naviy" asarining birinchi daftarida "Xalifa Laylining ko'rgani hikoyati", uchinchi daftarida "Majnun Layli uyida yurgan itni o'pib erkalagani", to'rtinchi daftarida "Aqlning nafs ila jangi Majnunning nortuya ila olishuviga o'xshaydi" hikoyati, beshinchi daftarida "Majnunning xesh-aqrabolari unga Layli u qadar go'zal emas. Shahrimizda undanda ortiqroq go'zallar bor, bir nechtasini ko'rsataylik, o'zing tanlab ol, o'zingni ham qutqar, bizni ham deyishlari. Majnunning ularga javob bergani" kabi bir qator hikoyatlarida Layli va Majnun o'rtasidagi munosabat va mojarolarga to'xtalib, yuqorida qayd etilgan doston motivlari asosida qisqa-qisqa hikoyatlar qayd etilgan. Alisher Navoiyning "Xamsa" asaridagi 3 dostoni "Layli va Majnun" haqida bitilgan. Alisher Navoiy Jaloliddin Rumiydan farqli o'laroq Layli va Majnun haqida 1484 yilda katta hajmli doston yaratgan.

To'qqizinchidan, Jaloliddin Rumiy va Alisher Navoiy ma'naviy merosini tadqiq etar ekanmiz, ularning asarlarida keltirilgan syujetlarda ham mantiqiy bog'liqlik, izdoshlik an'analari borligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy ma'naviy" asarini 3-daftarida "Filning shaklu-shamoyili haqida ixtilof etishgani" hikoyati keltirilgan. Xuddi shu hikoyatni Alisher Navoiy

"Lison ut-tayr" dostonining " Ma'rifat vodiysining vasfi" maqolatida "Ko'rlar va fil" hikoyati nomi bilan keltirgan.

Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida 700 dan ortiq so'fiylar va tasavvuf namoyandalari haqida ma'lumot berar ekan, Jaloliddin Rumiy hayotiga, ijodiga doir ko'pgina muhim ma'lumotlarni keltirib o'tgan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida Jaloliddin Rumiyning nafaqat shaxsi va ijodiga doir, balki uning falsafiy-tasavvufiy qarashlariga ham oid ma'lumotlarni keltirib o'tib, shu orqali Mavlononing irfoniy fikrlariga ba'zi o'rinlarda ishtibohlar bog'laydi. Bir o'rinda Navoiy

shunday yozadi: “Alar der emishlar, men bu jism emasmanki, oshiqlar nazarida manzurmen, balki u zavqu xushluqmenki, muridlar botinida maning kalomimdan bosh urar. Alloh, Alloh chun ul damni totsang, g‘animat tut va shukr qilki, ul mendurmen”.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Alisher Navoiyning Jaloliddin Rumiy ijodiga, uning orifona fikrlariga va tasavvufiy-irfoniy qarashlariga chuqur ehtiromda bo‘lganligini uning bir qator asarlarida uchratishimiz mumkin. Bu esa Navoiyning jahon sahnidagi durdona asarlari yaratilishida, teran falsafiy fikrlari va dunyoqarashi shakllanishida qaysidir ma’noda Mavlono Jaloliddin Rumiyning ham ta’siri borligidan dalolat beradi.

NAVOIY ShE’RIYATIDA SARI’ BAHRINING O‘RNI

NIGORA SHARIPOVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Maqolada mumtoz poetikadagi ilmlar uchligining biri – ilmi aruzning Navoiy dostonchiligidagi imkoniyatlari, sari’ bahrining ilk dostonlar uchun maxsus vazn sifatida tanlanish sababiyati, didaktik dostonchilik strukturasini shakllantirishdagi o‘rni muhim qaydlar vositasida dalillangan.

Kalit so‘zlar: vazn, bahr, sari’, vasl, an’ana, badiiy mahorat.

Alisher Navoiy “Mezonul-avzon”da rajaz, ramal, munsarih, muzori’, mujtass va sari’ bahrlariga misollar keltirib, sari’ bahrining 2 turini e’tirof etadi:

- 1. *Sari’yi musaddasi matviyi mavquf; (* V V - |- V V - | - V ~*)*
  2. *Sari’yi musaddasi matviyi makshuf. (* V V - |- V V - | - V - *)*

Sari’ turli asliy ruknlar va ularning tarmoqlaridan hosil qilingan bahrlar sirasiga kiradi. Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a”da o‘ttiz ikki bahrni sanab o‘tadi va sari’ bahriga ham to‘xtalib, uning

mus-taf’-i-lun/ mus-taf’-i-lun/ maf’-u-lo-tu

- - v - / - - v - / - - - v ko‘rinishidagi vaznini qayd etib o‘tadi.[1]

Ahmad Taroziy keltirgan mazkur vazn sari’ bahrining solim shakli bo‘lib, prof. D.Yusupova sari’ning solim shakli turkiy adabiyotda uchramasligini, she’riyatimizdan uning faqat sari’yi musaddasi matviyi makshuf va sari’yi

[1] А.Тарозий “Фунун ул-балоға” // Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 2003 йил, 1-сон. – Б. 70.

musaddasi matviyi mavquf shakllaridan foydalanilganini ta'kidlaydi.[1] Shuningdek, Hakim Sanoiy "Xadoyiq ul-haqoyiq" dostonini xafifda, uning ijodiy ta'sirida bo'lgan Nizomiy esa "Maxzan ul-asror" dostonini sari'da yozganligini va bu bahr Alisher Navoiyga ham ma'qul kelganini aytadi.[2] Abu Abdulloh Xorazmiy "Mafotih ul-ulum"da bahr tushunchasiga ta'rif berib, bahrning to'qqizinchi turi sifatida sari'ni keltiradi va bu bahrning yetti xil variantini sanab o'tadi.[3]

I.Steblevaning yozishicha, klassik poeziyada "vazn konkret she'rning asosiy g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan va shuning uchun shoirlar tomonidan maxsus tanlab olingan".[4] Asarning kitobxon mehrini qozonishida, unda olg'a surilgan g'oyalarni mahorat bilan ifodalash, asarga mos keluvchi vazn tanlash, asarning boshidan oxirigacha bir maromdagi musiqiy silsilani yaratish muhim sanaladi. Sari' bahri ruknlari ravon va ohangdor, behad boy ma'nolarni ifodalashga imkon bergani uchun Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror"da sari'ning har ikki vaznidan foydalanadi. Shoir doston uchun bu bahrni bejizga tanlamagan. Birinchidan, bu – an'ana talabi edi. Navoiygacha bo'lgan barcha "Xamsa"larning ilk dostonlari sari'da yozilgan va Navoiy ham an'anani davom ettirgan. Ikkinchidan, doston uchun tanlagan bu an'anaviy bahr asarning g'oyaviy ruhiga mos tushgan, ravon, yengil uslubi asar mohiyatini kitobxonga yetkazib berish uchun qulaydir.

Muallifga dostonda falsafiy mushohadalar, pand-nasihat tarzidagi fikrlar, murakkab o'y va qarashlarni ifodalashda bu bahr juda qo'l kelgan. Soddalik, tushunarlilik, ravonlik muallif dunyoqarashini teran ifoda etishdan tashqari, kitobxonga badiiy-estetik jihatdan ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Sari' bahrining yana bir afzal tarafi – benihoya teran ma'noli so'z va iboralardan qofiya yasashga imkon berishidir.

"Hayrat ul-abror"da sari'yi musaddasi matviyi mavqufda yozilgan baytlar sari'yi musaddasi matviyi makshufda yozilgan baytlardan kamroq uchraydi. Odatda misra so'ngida cho'ziq unli, qator undosh bilan tugagan so'zlar yoki yopiq bo'g'in tarkibida cho'ziq o, o' unlilari kelsa, sari'ning shu bahri hosil qilingan:

Qil-di chu Ad-ham xa-la-fi tar-ki joh

- V V - | - V V - | - V ~

To-ji fa-no bo-shi-g'a qo'y-di I-loh

- V V - | - V V - | - V ~

Muf-ta-i-lun|muf-ta-i-lun|fo-i-lon [5]

Mazkur baytda birinchi va ikkinchi misralardagi birinchi, ikkinchi ruknlar *muftailun*, birinchi va ikkinchi misraning so'nggi ruknlari *foilon*dan hosil qilingan. Qisqa unlilar bilan

tugagan ochiq bo‘g‘inlar qisqa hijo, cho‘ziq unli – o bilan tugagan hamda yopiq bo‘g‘inlar cho‘ziq hijo hosil qilgan.

[1] Юсупова Д. Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Т.: Академнашр, 2020. – Б.141-142.

[2] Юсупова Д. А.Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. Фил.фан.ном.дисс. – Т. 2008. – Б 22-34.

[3] А.Хоразмий “Мафотиҳ ул-улум ”// Шарқ мумтоз поэтикаси. Ҳ.Болтабоев талқинида. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. – Б. 176-179.

[4] Стеблева И.В. Ритм и смысл в классической тюркоязычной поэзии. – М.: Наука, 1993. – С.131.

[5] Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. Ўн жилдлик. Олтинчи жилд. – Т.: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – Б.304. (Bundan keyin ushbu manbaga murojaat qilinganda qavs ichida asar nomi va sahifasini ko‘rsatish bilan kifoyalanamiz.)

Quyidagi baytning qator jihatlariga e’tibor qaratish lozim. De-ma yi-lon| aj-da-re-rur| ganjsanj

- V V - | - V V - | - V ~

Muz-ma-ra-ning |jav-fi-da yuz|tur-fa ganj

- V V - | - V V - | - V ~ [H.A. –B.195]

Bunda birinchi misrada vasl hodisasi kuzatiladi. “Vasl – (arabcha-“ulanish”) aruz tizimi asosida yaratilgan she’riy asarlarni ifodali o‘qish jarayonida vazn talabi bilan ayrim yopiq hijolar oxiridagi undoshni undan keyin turgan hamda unli bilan boshlangan hijoga qo‘shib talaffuz etish”[1]. Bu hodisa birinchi misrada *ajdar* va *erur*, ikkinchi misrada *muzmar* va *aning* so‘zlarida kuzatiladi. Aruzda musiqiylik, ritmik ketma-ketlik mavjud bo‘lib, bir so‘z ikkinchi bir so‘zga ulangan holda talaffuz qilinadi. Bunda aj-dar va muz-mar so‘zlarining ikkinchi bo‘g‘ini odatda cho‘ziq hijo sifatida olinishi kerak. Lekin bu so‘zlardan keyin kelgan *erur* va *aning* so‘zlari *ajdar* va *muzmar* so‘zlarining so‘nggi tovushi bilan vaslni yuzaga keltiradi. *Aj-da-re-rur, muz-ma-ra-ning* singari. Bu vazn talabi nuqtayi nazaridan ham, talaffuz me’yorlariga ham to‘la mos keladi. Biroq bu jihatga e’tibor qaratilmasa, bahrda rukn taqte’larida mos kelmaslik kuzatiladi. *Aj-da-re-rur* birinchi misradagi ikkinchi ruknni, *muz-ma-ra-ning* ikkinchi misrada birinchi ruknni hosil qilgan va har ikkalasi *muftailun* afoyilini shakllantirgan:

Aj-da-re-rur Muz-ma-ra-ning

- V V - - V V -

Muf-ta-i-lun Muf-ta-i-lun

Biroq vasl hodisasi e'tibordan chetda qoldirilsa, quyidagicha holat ko'zga tashlanadi:

Aj-dar e-rur Muz-mar a-ning

- - V - - - V -

Ko'rinib turibdi-ki, bu afoyil sari' ruknlari orasida uchramaydi.

Keyingi jihat, birinchi misraning so'nggi ruknida kelgan *ganjsanj* so'zi bilan bog'liq. So'zning *ganj* qismida qator undosh mavjud va odatda qator undoshli so'zlar o'ta cho'ziq hijo sifatida olinadi va misraning eng oxirida emas, bosh va o'rta qismida kelsa, bir cho'ziq va bir qisqa hijo bilan belgilanadi. Ba'zan bunday so'zlarning oxiriga qisqa *i* tovushini qo'shgan holda bir cho'ziq va bir qisqa bilan ifodalab, ikkita belgi bilan olishimiz mumkin – V. *Ganj* so'zi shuning uchun bir cho'ziq "–" va bir qisqa "V" hijo bilan berilgan. Agar shunday so'z misraning eng so'nggi qismida qofiya yoki radifning so'nggi hijosi sifatida kelsa, uni o'ta cho'ziq "~" belgisi bilan beramiz. *Sanj* so'zida shu hodisa kuzatilgan.

Sari' bahrida cho'ziq va qiska hijolarning misrada deyarli teng miqdorda kelishi o'zbek tili va talaffuz me'yorlari uchun ham juda qulay hisoblanadi.

Ber-di fa-no e-li-ga mul-ku ha-sham

- V V - | - V V - | - V -

Bo-di-ya-ning qat'-i-g'a qo'y-di qa-dam

- V V - | - V V - | - V - [H.A. –B.102]

Muf-ta-i-lun|muf-ta-i-lun|fo-i-lun

[1] Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – Б.44

SARI'YI MUSADDASI MATVIYI MAKSHUF

Bo'l-di mu-sal-lo-ni so-lib saj-da-soz

- V V - | - V V -| - V ~

Har qa-dam ay-lab i-ki rak'-at na-moz

- V V - | - V V - | - V ~

Muf-ta-i-lun |muf-ta-i-lun|fo-i-lon [H.A. –B.102]

SARI'YI MUSADDASI MATVIYI MAVQUF

"Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonidagi hayot va insonning undagi o'rni, hukmdor va xalq munosabatlari, yuksak insoniy fazilatlarning inson ma'naviy kamolotidagi ahamiyati, tarbiya va uning barkamol insonni kamol toptirishdagi roli singari umumbashariy g'oyalar, hayotiy hikoyalarni badiiy ifodalashda bu vaznlarning ohang imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalangan".[1] Vazminlik, sokinlik, bir maromdagi ohang va musiqiylik sari'da yozilgan baytlarning mohiyatini teran mushohada etish, chuqur anglash va tahlil etishga imkon tug'diradi, didaktik ruhni kuchaytirib, ta'sir imkoniyatlarini kengaytiradi.

АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИНИНГ "ҲАВАС ВА ҲАСАД" АСАРИ БАДИИЯТИДАГИ ЎРНИ

ФАХРИДДИН ТОШПЎЛОТОВИЧ РАЖАБОВ,

Навоий инновациялар университети доценти, ф.ф.ф.д. (PhD)

Аннотация. Ушбу мақолада Суюндик Мустафо Нуротоийнинг "Ҳавас ва ҳасад" асари бадииятини оширишда Алишер Навоийнинг "Фарҳод ва Ширин" достонидаги Парвезнинг Фарҳодга нисбатан ҳасадгўйлиги ҳақидаги фикрлар муаллиф дунёқараши билан таҳлил этилгани хусусида сўз боради.

Калит сўзлар: ҳавас, ҳасад, эҳтирос, майл, ғийбат.

Алишер Навоийнинг буюклиги ва халқимиз тарихидаги хизматлари мутафаккир шоирлиги билангина белгиланмайди, албатта. Навоий бадиий ижод жабҳасида қанчалик тенгсиз бўлса, илмда, яъни олимликда ҳам шунчалик беназир. Навоийнинг тилшунослик, адабиётшунослик, тарих ва тасаввуфшуносликка бағишланган асарлари ҳанузгача ўзининг илмий қимматини бой бергани йўқ. Тилимиз, адабиётимиз муаммоларини ҳал қилишда бу нодир тадқиқотларга қайта-қайта мурожаат қилишимиз, айниқса, ёш авлод улардан пухта хабардор бўлиши зарур[2].

Машҳур Нуротолик ижодкор Суюндик Мустафо Нуротоий[3] ижодида Алишер Навоий ижодининг таъсири яққол сезилади. Ёзувчи Навоий адабий

[1] Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006. – Б.207.

[2] Иброҳим Ҳаққул. Навоийга қайтиш. Т., 2007. –Б 9

[3] Нуроталик адиб Суюндик Мустафо Нуротоий 1950 йилнинг 15 мартида Навоий вилояти Нурота туманидаги Авазсойнинг Чашма қишлоғида туғилган. 1957–1965 йилларда Чашма қишлоғидаги 10

мактабда, 1965-1967 йилларда Нурота шаҳридаги 1-сон А.С. Пушкин номли ўрта мактабда таълим олган. 1972 йилда Низомий номли Тошкент Давлат педагогика институтининг (ҳозирги университет) филология факультетини тамомлаган. Ижодига мансуб асарларнинг етакчи қисми маърифий–тарихий мавзуда бўлиб, Зарафшон оқими, қўҳна Нурота ва қадимий Миёнкол билан вобаста. Мустафоев С. Нур ато этилган Нурота. – Тошкент: Истиқлол, 2004.; Кармана азизлари. – Тошкент: Муҳаррир, 2010.; Табаррук сиймолар. – Тошкент:

меросининг мазмун моҳиятини чуқур биладиган, ёзувчининг мақсадини аниқ англай оладиган диний, ахлоқий, илмий, ижодий фаолиятини теран ҳис қила оладиган ҳамда китобхонга ахлоқий жиҳатдан фикрлар мазмунини аниқ ўрганиш йўлини кўрсата оладиган олимдир.

Биз биламизки, Навоий ижодига мурожаат қилмаган ижодкор аҳли камдан кам топилади. Лекин қайси олимни, ижодкорни, ёзувчини кузатсак Навоийдан керагича олиб китобхонга зиё улашишга, ахлоқий жиҳатдан баркамол бўлишига ундайди. Суюндик Мустафо Нуротоий ҳам ана шундай ниятда Навоий асарларини ўргатиш, уқтириш мақсадида фаол ижод қилаётган адибларимиздан.

Суюндик Мустафо Нуротоий адабий меросини ўттизга яқин асарлар ташкил этади. Яратган ижод намуналари чуқур маъно ва мазмун жиҳатдан ажралиб туради. Ижодкорнинг ижод намуналарини бадиий баркамоллиги ва асосланишида улуғ алломалар меросига мурожаат қилиб, унумли ва ўз ўрнида фойдаланганлиги китобхонни фикрлашга мушоҳада қилишга чорлайди. Ёзувчи ижодида ўзига хос жиҳатлари билан ажралиб турувчи асарларидан бири “Ҳасад ва ҳавас” асаридир. Ёзувчи асарни мавзу ва савол доирасидаги ёритишга ҳаракат қилиб: Қуръони Карим, Ҳадисларга таянган ҳолда халқимизнинг бой тарихий, бадиий, маънавий меросларига мурожаат қилиб, уларда ўз аксини топган ҳақиқатлар воситасида ҳасад ва ҳасадгўйдан огоҳлантириш ҳамда улардан сақланишнинг диний ва дунёвий жиҳатларини эсга солади. Аслида ҳасадни даволайдиган дориси йўқ, аммо инсонда ақлу фаросат бор. Ўзини инсоний фаросат билан таниган шахс бундай салбий иллатдан ҳазар қилади. Ижодкор шу нуқта-назардан бизнинг тарихимизда мавжуд бўлган машҳур адабий асарлар ва манбалардан мисоллар келтириш ва уни таҳлил қилиш орқали асар моҳияти ва мазмунини англашга чорлайди.

Суюндик Мустафо Нуротоий Ҳавас ва ҳасад асарида Алишер Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достонига мурожаат қилади. Аввало ҳасад ва ҳавас тушунчаларининг изоҳига диққат қилайлик. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида ҳавас арабча сўздан олинган бўлиб, ақлни йўқотиш; эҳтирос; майл иштиёқ; бирор нарсага ғоятда берилганлик, кучли истак. Ҳасад арабча рашк; кўролмаслик қизғаниш; суқ деган маъноларни билдиради[1]. Суюндик Мустафо Нуротоий ушбу достон моҳиятини асар сарлавҳасидаги икки қарама-қарши тушунчалар билан изоҳлайди. Ҳасад-дард. У кўролмаслик, ичи қоралик негизида кундан-кун оғирлашиб боради. Ғаразли нигоҳ, фикр, гумон, шубҳа вужудни кемиради. Инсоф ва ҳазарни униттиради. Оқибатда, тубанликнинг барча сўқмоқларига бошлаб, жоҳил ва нодонга айлантиради. Бу иллатнинг

Муҳаррир, 2010.; Мунаввар қадамжолар. – Тошкент: Noshirlik yog‘dusi, 2011.; Ғаройибат. – Тошкент: Сано-стандарт, 2012.; Қосим шайх Азизон. – Тошкент: Sano standart, 2013.; Шоҳимардон. (Ҳаммуаллиф: Асатов Р). – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014.; Табаррук нурли Нурота. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015.; Нурота зиёратгоҳлари. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015.; Ҳасад ва ҳавас. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2015.; Туронзамин азиз авлиёлари ва уламолари тазкираси. (Ҳаммуаллиф: Муҳиддин Аблаев). – Тошкент: Sano-standart. 2015; Миёнкол ёхуд Навоий вилояти уламолари. – Тошкент: Sano-standart, 2016.; Ҳазрат Юсуф Ҳамадоний ёхуд Шовот зиёратгоҳлари. – Тошкент: Paradigma, 2017.

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т., 1995. – Б 232.

боши, кўролмасликдан, ғийбатдан бошланади. Афсуслар бўлсинки, ҳасад хасталиги қондош-у жондошлар, қардошлар, машҳурлар, касбдошлар, тенгдошлар, қўшни-ю сафдошлар ўртасида кўпроқ учрайди, ҳатто ундан пайғамбарлар зот-у зурриёдлари, шоҳ-у гадо-бирор зот хавфсиз эмас.

Ҳасаднинг таърифи кўп, аммо оммавий тушунчадаги ҳасадгўй ҳақидаги таъриф маъносини очиб беради. Ҳасадгўй кимгадир насиб этган бахтга, омадга, давлатга, талантга, ҳаётга эришолмай, аламидан ичи куйган кимсадир. Навоий ижодидаги инсон учун хос бўлган бундай салбий иллат ижодкорнинг адабиёт тарихидаги бошқа шу каби ҳолатларга умумуий ёндошилган ва ҳар бирида ўзига хос жиҳат билан талқин қилинган. Суюндик Мустафо Нуротоий Ҳазрат Навоийдаги айнан шу ҳолатни “Хамса” асари таркибига кирувчи “Фарҳод ва Ширин”[1] достонидаги Хусрав Парвезнинг Фарҳодга нисбатан фожеага айланган ҳаётини алам билан қаламга олади. Очкўз ва худбин, золим Хусрав шоҳ ва унинг бадбахтона найрангига ўйнаган жирканч кимсалар тимсолида инсон номига зид иллатларни фош этади. Ширин диёри Меҳинбону мамлакатини обод этишдек эзгу

ишга бел боғлаган Фарҳод ва Хусрав образларини қарама-қарши қўйиб, инсон номига номуносиб

қамсаларга нафрат уйғотади.

Ёзувчи Арман диёри Меҳинбону мамлакати, Ширин юртига келган Фарҳодни қилган ишлари, оққўнгиллилиги, инсонпарварлиги, юртпарварлиги, меҳнаткашлигини таърифлайди. Шунинг билан бирга соф муҳаббат туйғусини Фарҳод қалбида қандай кечаётганлиги ва бу дардга мубталолик ҳолатлари келтирилади. Унинг юртни обод қилишдаги ишлари, халқ орасида обрў – эътиборга эга бўлиши алоҳида диққатга сазовор. Иккичи томондан эса Араб ва Ажам мулкининг Хисрав деган ҳукмдори бўлиб, Мадойин шаҳри унинг пойтахти эди. Унинг хотини ҳам ўғли ҳам бор эди-ю, Хисрав бу фарзандни тахтга муносиб кўрмасди. У ўз тахтини яхши бир фарзандга топширишни истаб, бу мақсадга етишиш учун ўзига муносиб қизни қидиришга тушган эди. Ўз мамлакатида қанча қидиртирса ҳам, кўнглига ёқадиган гўзал топилмади. Бу пайтда Шириннинг овозаси, унинг ҳусни, одоби ҳақидаги гаплар Хисравга ҳам етиб борган эди. Бу соҳибжамол қизга тош кесувчи бир йигит шайдо бўлиб, унинг ишқи йўлида ажойиб ишлар қилганидан ҳам у хабардор эди. Лекин шундай бўлишига қарамасдан Хисравнинг ҳасадгўйлик қилиб, Шириннинг кўнгли Фарҳодда бўлса ҳам унга эришиш мақсадида ҳасадгўйлик қилиб кўнгли истаган хунрезликларни қилишлари, масалан Фарҳодга кучи етмаганидан сўнг уни вазирини маслаҳатига кириб, ҳийла орқали қўлга олиши ва ўлдирилши ижодкор томонидан таҳлил қилинган.

Умуман олганда Суюндик Мустафо Нуротоий ўзининг ушбу асарида ҳасад ва ҳавасни биргина Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достонидаги воқеалари орқали маҳорат билан қаламга олган фактларни ўз ўрнида воқеаларни эса аниқ кўрсата олган. Ҳавас ва ҳасад мавзуси азалий ва абадий мавзу экан муаллиф шу каби масалаларни ҳар бир тафаккурли шахс англаши

[1] Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O’n jildlik. Oltinchi jild. T.,2013. –812 b

ва тушиниши учун Навоий каби буюклар асаридан ўрганиши лозимлигини таъкидлайди.

АДАБИЁТЛАР

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Oltinchi jild. – T., 2013. – 812 b.
2. Иброҳим Ҳаққул. Навоийга қайтиш. – Т., 2007. – Б. 224.
3. Суюндик Мустафо Нуротоий. Ҳавас ва ҳасад. – Т:. 2017. – Б. 120.

ALIShER NAVOIY IJODIYOTI: TADQIQI, TALQIN, MOHIYAT – TIL VA USLUB UYG'UNLIGI

GULSANAM MAKSUTOVNA NOROVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning ijodiy merosi, uning asarlarining mohiyati hamda badiiy-tahliliy, falsafiy talqini o'rganiladi. Maqolada Navoiy ijodida insonga e'tibor, ma'naviy o'sish, adolat va insonparvarlik g'oyalari markaziy o'rin tutishi tahlil qilinadi.

Shuningdek, uning g'azallaridagi lingvistik uslublar, badiiy obrazlar, falsafiy fikrlar va she'riy konstruksiyalar chuqur tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida Navoiy ijodining zamonaviy adabiyotshunoslikdagi o'rni, turkiy tillar va xalq adabiyoti kontekstidagi ahamiyati ham alohida yoritiladi. Maqolada Navoiy asarlaridagi mavzular va obrazlarning tarixiy hamda madaniy ildizlari, ularning bugungi kun adabiy va madaniy hayotdagi o'rni tahlil qilinadi.

Abstract. This article examines the creative legacy of the great poet and thinker Alisher Navoi, analyzing the essence of his works and their artistic, analytical, and philosophical interpretations. The study explores how human-centered values, spiritual growth, justice, and humanitarian ideals occupy a central place in Navoi's writings. Additionally, it delves into the linguistic techniques, artistic imagery, philosophical ideas, and poetic constructions found in his ghazals.

The research highlights the significance of Navoi's works in contemporary literary studies, as well as their relevance within the context of Turkic languages and national literary heritage. The article also investigates the historical and cultural roots of the themes and characters in Navoi's works and examines their role and influence in today's literary and cultural life.

Аннотация. В данной статье исследуется творческое наследие великого поэта и мыслителя Алишера Навои, анализируется сущность его произведений, а также их художественно-аналитическое и философское толкование. В статье рассматривается центральное место идей гуманизма, духовного роста, справедливости и милосердия в творчестве Навои.

Кроме того, подробно изучаются лингвистические приемы, художественные образы, философские идеи и поэтические конструкции в его газалях. В ходе исследования особое внимание уделяется роли творчества Навои в современном литературоведении, его значению в контексте тюркских

языков и народной литературы. Анализируются исторические и культурные корни тем и образов в произведениях Навои, а также их место в современной литературной и культурной жизни.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, turkiy adabiyot, g‘azal, lirik poeziya, falsafa, ma’naviyat, badiiy talqin, adabiy tahlil, she’riy konstruksiya, madaniy meros.

Keywords: Alisher Navoi, Turkic literature, ghazal, lyrical poetry, philosophy, spirituality, artistic interpretation, literary analysis, poetic constructions, cultural heritage.

Ключевые слова: Алишер Навои, тюркская литература, газель, лирическая поэзия, философия, духовность, художественное толкование, литературный анализ, поэтическая конструкция, культурное наследие.

Alisher Navoiy – O‘rta Osiyo va butun turkiy dunyo adabiyoti tarixidagi eng buyuk shoir, mutafakkir hamda davlat arboblaridan biri bo‘lib, u o‘z ijodi, ilmiy qarashlari va ma’naviy merosi bilan nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Navoiy o‘zining serqirra faoliyati orqali turkiy tilda ijod qilishning imkoniyatlarini kengaytirgan, bu tilning boy badiiy ifoda vositalarini namoyon etgan, shuningdek, uni yuksak adabiy darajaga olib chiqqan.

Shoirning ijodi o‘z davridagi ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy hayotning murakkab jarayonlarini chuqur tahlil etgan holda, insonparvarlik, adolat, komillik hamda muhabbat g‘oyalarini ilgari suradi. Uning asarlari orqali o‘quvchi inson ruhiy olamining nozik jihatlarini, jamiyatning ma’naviy asoslarini, shu bilan birgalikda, ezgulik bilan yovuzlik o‘rtasidagi kurashni teran his qiladi.

Navoiy yaratgan asarlar, xususan, “Xamsa”, “Lison ut-Tayr”, “Mahbub ul-Qulub”, “Nazm ul-javohir”, “Munshaot” va boshqa ko‘plab devon hamda risolalar, o‘zida badiiy go‘zallik bilan bir qatorda, chuqur falsafiy mushohadalarni ham mujassam etgan. “Xamsa” asari Sharq adabiyotidagi eng yuksak badiiy an’analarni davom ettirgan holda, turkiy tilda bunday yirik epik majmua yaratish mumkinligini amalda isbotladi. “Lison ut-Tayr” esa tasavvufiy g‘oyalarni timsollar orqali ifodalashda Navoiy dahosining yuksak cho‘qqisidir.

Alisher Navoiy o‘z asarlari bilan turkiy xalqlarning milliy o‘zligini, til va madaniyatining qadriyatlarini e’zozlash g‘oyasini targ‘ib etgan, shu bois u nafaqat o‘zbek adabiyotining, balki butun turkiy adabiy merosning poydevorini mustahkamlovchi buyuk siymo sifatida tan olinadi. Uning ijodi bugungi kunda ham insoniyatni ma’naviy poklanish, ezgulik va bilim sari yetaklaydigan bitmas-tuganmas manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Navoiy she’riyati va falsafiy qarashlari bugungi kunda ham yosh avlodni ma’naviy barkamol inson sifatida tarbiyalashda, ularda milliy g‘urur, vatanparvarlik, insonparvarlik

hamda ezgulik tuyg'ularini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Uning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar nafaqat o'z davrining, balki hozirgi zamonning ham dolzarb ma'naviy-axloqiy masalalarini o'zida mujassam etgan. Shoir insonning ichki olami, ruhiy kechinmalari, hayotning ma'nosi va maqsadi haqida chuqur mushohada yuritgan, yoshlarni ezgulik, halollik hamda adolat yo'lida yashashga undagan.

Chunonchi, **"Layli va Majnun"** dostoni orqali Navoiy insoniy muhabbatni nafaqat ikki inson o'rtasidagi tuyg'u sifatida, balki ruhiy komillikka eltuvchi ulug' ma'naviy yo'l sifatida talqin etadi. Ushbu asarda fidoyilik, sadoqat, sabr va ruhiy poklik kabi fazilatlar orqali insonning ma'naviy yuksalishi tasvirlanadi. Bu esa bugungi yoshlar uchun chin insoniy muhabbat, hayotiy maqsad hamda sadoqatning timsoli bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, **"Sab'ai Sayyor"** dostonida ilgari surilgan vatan va xalqga sadoqat, adolatli podshohlik, mehnatsevarlik, ilmning qadri haqidagi g'oyalar yosh o'quvchilarda milliy ongni mustahkamlash, el-yurtga xizmat qilish tuyg'usini kuchaytiradi. Bu asarda Navoiy insonni jamiyat oldidagi mas'uliyatini chuqur his etishga, xalq manfaati yo'lida fidoyilik ko'rsatishga da'vat etadi.

Umuman olganda, Navoiy ijodining falsafiy mazmuni yosh avlodni o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni e'zozlash, ma'rifatga intilish va barkamol inson bo'lish yo'lida ilhomlantiruvchi manba sifatida ahamiyatlidir. Uning she'riyati bugun ham zamonaviy tarbiya jarayonida ma'naviy kompas vazifasini o'tamoqda – yoshlarni o'z ildizlariga sodiq, vatanparvar va ma'naviy jihatdan yetuk shaxslar etib voyaga yetkazishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, **Alisher Navoiy ijodini chuqur o'rganish** turkiy dunyo adabiyoti va madaniyatining umumiy tarixini, uning shakllanish bosqichlarini hamda o'zaro madaniy ta'sir jarayonlarini teran anglashda beqiyos ahamiyatga ega. Navoiy o'z asarlari orqali nafaqat turkiy xalqlarning adabiy an'analarini yuksak pog'onaga olib chiqdi, balki fors-tojik va arab madaniy merosining ilg'or unsurlarini mahorat bilan uyg'unlashtirib, **Sharq uyg'onish davrining yuksak sintezini** yaratdi. Shu jihatdan, uning ijodi turkiy, forsiy hamda arab madaniyatlari o'rtasidagi **madaniy hamkorlik va o'zaro boyitish jarayonining yorqin namunasi** sifatida qadrlanadi. Navoiy asarlarida ifodalangan falsafiy, axloqiy va badiiy g'oyalar orqali biz o'sha davrning ijtimoiy-madaniy muhitini, inson tafakkurining evolyutsiyasini, til hamda uslubning o'zaro ta'sirini chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz. U yaratgan **badiiy sintez modeli** keyinchalik ko'plab turkiy adiblar – Bobur, Fuzuliy, Mashrab, Ogahiy va boshqalar ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shu bois Navoiy nafaqat o'zbek adabiyotining, balki **butun turkiy xalqlar ma'naviy**

uyg'onishining asoschisi sifatida tan olinadi.

Bugungi kunda Navoiy merosi **zamonaviy adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa va madaniyatshunoslik** sohalarida ham muhim tadqiqot manbai bo'lib xizmat

qilmoqda. Uning asarlarida ilgari surilgan **xalqparvarlik, insonparvarlik, ma'naviy yuksalish va ilmga intilish** g'oyalari global madaniyat kontekstida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Navoiy ijodini tahlil qilish orqali turkiy dunyoning umumiy adabiy merosini yanada chuqurroq anglaymiz, millatlararo madaniy aloqalarning qadimiy ildizlarini va ularning bugungi zamon bilan uzviy bog'liqligini ochib bera olamiz.

Alisher Navoiy – turkiy adabiyotning eng yuksak cho'qqilaridan biriga aylangan, o'z davrining tengsiz shoiri, mutafakkiri va til dahosidir. Uning asarlari nafaqat badiiy jihatdan, balki tilshunoslik, tarix, falsafa va madaniyat sohalari nuqtayi nazaridan ham bebaho ilmiy manba sifatida alohida o'rin tutadi. Navoiy o'z

ijodida turkiy tilda chuqur falsafiy, ma'naviy va estetik g'oyalarni yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etgan bo'lib, shu orqali bu tilning ichki imkoniyatlarini, grammatik tuzilmasining boyligini va ifoda vositalarining cheksiz salohiyatini amalda namoyon qilgan.

Shoirning tili o'z davrining ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hayotini to'liq aks ettirgan holda, turkiy tilning mumtoz adabiy bosqichga ko'tarilganini isbotlaydi. Uning asarlarida fonetik uyg'unlik, morfologik aniqlik va sintaktik murakkablik o'zaro uyg'unlashib, o'zbek adabiy tilining XV asrdagi taraqqiyot bosqichini mukammal tarzda yoritadi.

Uning tili orqali nafaqat eski o'zbek tilining fonetik tizimi, balki o'sha davr xalq tili, shevalar, leksik qatlamlar ham o'z aksini topadi. Shu bois Navoiy asarlari hozirgi o'zbek tili taraqqiyotini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shoir tili o'z davri uchun yangi bosqich – turkiy tilning ilm, falsafa va davlat tili sifatida shakllanish davrini boshlab bergan, keyinchalik butun turkiy adabiyot rivojiga mustahkam zamin yaratgan.

Navoiy asarlarining lug'at boyligi nihoyatda keng va ko'p qatlamlidir. Shoir turkiy ildizli so'zlarni arab hamda fors tilining badiiy, falsafiy elementlari mahorat bilan uyg'unlashtirgan, shu orqali ko'p qatlamli semantik tizim yaratgan. Bu tizim nafaqat she'riyatning mazmuniy chuqurligini oshiradi, balki o'quvchiga ruhiy kechinmalar, insoniy fazilatlar va ma'naviy qadriyatlarni anglash imkoniyatini beradi.

Navoiy tili milliy va xalqona ohangni saqlagan holda, ilmiy-falsafiy ifoda kuchiga ega bo'lishini ta'minlaydi. U turkiy so'zlarning o'ziga xos fonetik uyg'unligi, morfologik mosligi va sintaktik boyligi orqali matnga musiqiy ritm hamda badiiy ohang baxsh etadi. Shu tariqa, Navoiy ijodida leksik qatlamlar bir-birini to'ldiradi va turkiy tilning adabiy salohiyati amalda isbotlanadi.

Bundan tashqari, u o'z davrida ishlatilgan arxaik so'zlar, sinonimlar, frazeologik birliklar va xalq og'zaki ijodi unsurlarini uyg'unlashtirib, asarlarida til hamda ma'no uyg'unligini yaratgan. Masalan, "ko'ngül" so'zi inson qalbi va ruhini ifodalash uchun ishlatilgan bo'lsa, "jamol" yoki "husn" so'zlari go'zallikni turli nuqtayi nazardan ifodalaydi.

Shu orqali Navoiy oʻquvchini nafaqat badiiy zavq bilan taʼminlaydi, balki ruhiy va maʼnaviy tafakkurga ham chorlaydi[1].

Navoiy asarlaridagi *yoruq* (yorugʻ), *oʻgʻlon* (yigit), *tugʻ* (bayroq), *yurak*, *tilak*, *koʻngül*, *boshogʻa* (rahbar) kabi qadimiy birliklar til tarixining uzviy davomiyligini ifodalaydi.

Misol (Farhod va Shirin):

Tugʻ koʻtardi ishq elidan bir sipoh, Qalbni zabt etgan yurakdin panoh[2]*.*

Bu baytda *tugʻ* va *sipoh* soʻzlari turkiy hamda forsiy qatlam uygʻunligida badiiy ohang yaratadi.

Alisher Navoiy ijodida sinonimlardan foydalanish sheʼriyatning badiiy boyligini oshirish, matnga ritmik uygʻunlik berish va mazmuniy noziklik yaratish

[1] Gʻaniyev H. Alisher Navoiy tili va uslubi. – Toshkent: Fan, 1970.

[2] Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 2011.

vositasi sifatida keng qoʻllanilgan. Shoir bir tushunchani turli soʻzlar bilan ifodalash orqali oʻquvchiga bir-birini toʻldiruvchi maʼnolarni yetkazadi va hissiy kayfiyatni yanada kuchaytiradi.

Navoiy sinonimlarni nafaqat badiiy bezak sifatida, balki falsafiy va axloqiy mazmunni chuqurlashtirish vositasi sifatida ham ishlatgan. Masalan, muhabbat, goʻzallik yoki dard tushunchalarini bir nechta sinonimlar orqali ifodalash orqali u matnga murakkablik, chuqurlik va tasviriy boylik qoʻshgan. Xususan, “goʻzallik” tushunchasi uchun – husnliq, jamol, latif, diloro, mahbuba, “muhabbat” tushunchasi uchun – yor, maʼshuq, sevgili, dilbar, “koʻngil” yoki “qalb” uchun – dil, bagʻir, jon, koʻngül, vujud, “gʻam, iztirob” tushunchasi uchun – anduh, dard, jafo, qaygʻu kabi sinonimlardan foydalangan.

Misol (Layli va Majnun):

Jamoling husnining shavqi bilan, Koʻngul may ichdi, mast boʻldi yana.

Bu baytda “jamol”, “husn” va “shavq” soʻzlari sinonim zanjir hosil qilib, goʻzallik va hayrat maʼnosini yanada boyitadi. Shu bilan birga, koʻngul soʻzi ruhiy holatni ifodalash uchun ishlatilgan boʻlib, oʻquvchida his-tuygʻularning keng spektrini uygʻotadi.

Sinonimlardan foydalanish, shuningdek, matnda ritmik va musiqiy uygʻunlik yaratishda ham muhim ahamiyatga ega. U takroriy va parallel konstruktsiyalar bilan birgalikda qoʻllanilganda, baytning ohangdorligini oshiradi hamda sheʼriy tasvirlarni yanada boyitadi.

Navoiy sinonimlardan foydalangan holda turkiy tilning leksik qatlamini yanada kengaytirgan va tilning badiiy salohiyatini amalda namoyon qilgan. Bu jihati bilan u oʻz davrida turkiy adabiyotning nafaqat badiiy, balki lingvopoetik rivojlanishiga ham katta hissa qoʻshgan[1].

Bundan tashqari Navoiy ijodida xalq ogʻzaki ijodi elementlari, ya'ni frazeologik birliklar va maqollar keng qoʻllanilgan. U bularni oʻz asarlarida tabiiy ravishda uygʻunlashtirib, she'riyatni nafaqat badiiy, balki xalqona ohang bilan boyitgan. Shu tariqa, Navoiy matnlarini oʻquvchi oson qabul qiladi hamda ular xalq tili ruhini toʻliq his qiladi.

Navoiy oʻz asarlarida frazeologizmlardan turli maqsadlarda foydalangan.

Misol uchun: "Yurak qon yutmoq" – chuqur iztirob chekmoq, ruhiy azoblanishni tasvirlaydi.

"Oʻt yurakdan oʻtmoq" – muhabbat azobi yoki ichki alamni ifodalaydi. "Koʻz tikmoq" – orzu qilmoq, intilmoq.

"Yurakni shamol urdi" – ichki ruhiy bezovtalik, gʻam yoki xavotir. "Koʻngil koʻzgusi" – inson qalbi va ruhining ichki olami.

"Dilni zabt etmoq" – oʻz his-tuygʻularini nazorat qilish yoki sevgiga bosh egish.

"Koʻz tikmoq" – orzu qilmoq, intilmoq. Misol (Layli va Majnun):

Majnun dilin anduh qildi zor,

[1]Qayumov A. Navoiy asarlarining badiiy tili. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1983.

Har nafasda yodi yor, har dam iztirob.

Misol (Sab'ai Sayyor):

Koʻngul koʻzgusida koʻrdim jamoling, Har dam oʻt yurakdin oʻtar yoding.

Frazeologik birliklardan foydalangan holda Navoiy oʻquvchini ma'naviy va axloqiy tafakkurga chorlagan, uning asarlarida insoniy qadriyatlar hamda hayotiy haqiqatlar chuqur badiiy tasvirlangan[1]. Shu bilan birga, frazeologizmlar Navoiy she'riyatiga ritmik va fonetik uygʻunlik olib kirib, baytlarning musiqiy ohangini oshiradi. Bu jihati bilan Navoiy frazeologizmlarni nafaqat badiiy bezak, balki mazmuniy va semantik boylik sifatida ishlatgan boʻlib, turkiy adabiyot tarixida oʻziga xos oʻrin egallaydi.

Alisher Navoiy ijodining eng muhim xususiyatlaridan biri – uning sintaktik mahoratidir. Shoir oddiy grammatik qurilmalardan tashqari, murakkab, ammo ohangdor

sintaktik tuzilmalarni yaratish orqali she'rga musiqiylik, ritm va badiiy ifoda kuchi bag'ishlagan. Navoiy o'z asarlarida parallelizm, takror (anaphora), inversiya va bog'lovchisiz qo'shma gaplar kabi usullardan samarali foydalangan. Bu usullar orqali u matnga ichki uyg'unlik, hissiy intensivlik va semantik chuqurlik olib kirgan.

Xususan, Navoiy parallel tuzilmalar orqali bir fikrni turli shakllarda takrorlab, g'oya ta'sirini kuchaytirgan. Bu usul, ayniqsa, muhabbat, sadoqat, va ilohiy ishq mavzularida keng qo'llangan.

Misol (Layli va Majnun):

Yor yo'q – jonimda yor yo'q, G'am yo'q – ammo dard bor yo'q.

Bu baytda parallelizm orqali ichki iztirob, sevgi va yolg'izlik tuyg'usi kuchaytirilgan. Har ikki misrada grammatik tuzilma bir xil bo'lib, lekin ma'no jihatidan o'zaro zid g'oyalar uyg'unlashadi. Bu esa she'rga ritmik uyg'unlik beradi. Bundan tashqari, Navoiy takror usulini (anaphora) asosan ruhiy kechinma, muhabbat iztirobi va ilohiy shukuhni kuchaytirish uchun ishlatgan. Takrorlar

musiqiylikni oshirib, she'rni eshitishda ohangdorlik yaratadi.

Misol (Farhod va Shirin):

Ko'rdim seni bog'da, ko'rdim gul ichra, Ko'rdim nigohingni, jonim ichra.

Bu baytda "ko'rdim" so'zining takrori o'quvchida hayrat, muhabbat va shavq hissini kuchaytiradi.

Navoiy matn ohangini boshqarish va e'tibor markazini o'zgartirish uchun inversiya – ya'ni so'z tartibini o'zgartirish usulidan keng foydalangan. Bu orqali u poetik ohang va semantik urg'u yaratgan.

Misol (Hayrat ul-abror):

Yuzung ko'rdim – bahor keldi jahon ichra.

Bu misrada odatdagi so'z tartibi o'zgartirilgan. Gap "Bahor keldi jahon ichra yuzungni ko'rdim" tarzida bo'lishi mumkin edi, ammo shoir so'z tartibini

[1] Mamatqulov A. Navoiy asarlarining lingvopoetik xususiyatlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.

o'zgartirib, urg'uni "yuzung ko'rdim" birikmasiga qaratadi – bu esa she'rda emotsional portlash hosil qiladi.

Navoiy bog'lovchisiz qo'shma gaplar orqali matnga tabiiylik, tezlik va dinamiklik beradi. Bu usul ko'pincha hikoya yoki voqeani izchil, lekin hissiy tarzda bayon etish uchun ishlatiladi.

Misol (Saddi Iskandariy):

Ko'p yurt kezdim, ko'p el ko'rdim, ammo, Adolatli podsho topmadim g'arib.

Bu baytda bog'lovchisiz tuzilma orqali hayotiy tajriba ketma-ketligi ifodalanadi. Ohang esa soddaligi bilan xalq tili ruhini eslatadi.

Navoiy sintaksisdagi bu usullarni fonetik jihatdan uyg'un tovushlar bilan uyg'unlashtirib, she'rga musiqiy ohang bergan. "L", "n", "r" kabi yumshoq undoshlar tinchlik va muhabbatni, "s", "z", "sh" tovushlari esa hayajon va dramatik kayfiyatni ifodalash uchun tanlangan.

Misol:

Lola yuzingni ko'rsam, jonimda gul ochilar, Soching shamoli tegsa, dardimda kul ochilar.

Bu misolda tovush uyg'unligi (alliteratsiya) bilan sintaktik muvozanat uyg'unlashib, baytga musiqiy ohang bag'ishlagan.

Alisher Navoiy ijodi turkiy adabiyot tarixida o'ziga xos badiiy maktab yaratgan, o'lmas meros sifatida qadrlanadi. Uning asarlarida badiiy ifoda vositalari – tashbeh (o'xshatish), isti'ora (metafora), tazod (antiteza), kinoya, tanosub, tajnis va takror kabi uslublar mahorat bilan qo'llanilib, matnga chuqur falsafiy mazmun va poetik go'zallik bag'ishlaydi.

Navoiy o'z asarlarida o'xshatish va ko'chma ma'nolar orqali his-tuyg'ularni obrazli shaklda ifodalashga erishgan. U insonning ruhiy kechinmalarini tabiat manzaralari, yulduz, gul, oy, quyosh kabi timsollar bilan uyg'unlashtiradi.

Misol ("Layli va Majnun"):

Ko'ngul ko'zgusida ko'rdim jamoling, Quyoshdek yoritar har bir qaroring.

Bu baytda "ko'ngul ko'zgusi" istiorasi inson qalbini ifodalasa, "quyoshdek yoritar" tashbehi muhabbatning ruhiy yorituvchi kuchini tasvirlaydi. Shu tarzda, Navoiy inson ruhiy olamining go'zalligini kosmik obrazlar orqali badiiylashtiradi.

Navoiy tazod usulidan kuchli badiiy ta’sir hosil qilish uchun foydalanadi. Qarama-qarshi tushunchalar orqali u insoniyat tabiatining ikki qutbini – ezgulik va yovuzlik, muhabbat va nafrat, adolat va zulmni ifodalaydi.

Misol (“Farhod va Shirin”): *Shirin deb jon berdi Farhod, Ammo dunyo unga achinmadi.*

Bu baytda sevgi va o‘lim, fidoyilik va beparvolik o‘rtasidagi kontrast orqali insoniy kechinma kuchi ifodalanadi. Shuningdek, Navoiy kinoya vositasida ijtimoiy tanqidni yumshoq, ammo chuqur ma’no bilan beradi:

Misol (“Mahbub ul-Qulub”):

Zohid haromni yomon der, ammo haromni ko‘p yutar.

Bu yerda kinoyaviy ma’no orqali ikkiyuzlamachilik va riyo qoralangan, bu esa asarga axloqiy-falsafiy teranlik bag‘ishlaydi.

Navoiy so‘z o‘yinlaridan, ya’ni tajnis (omonim so‘zlarni ma’nodosh yoki zid ma’noda qo‘llash) san’atidan ustalik bilan foydalangan. Bu usul matnga musiqiylik, ohangdorlik va ko‘p qatlamli ma’no beradi.

Misol (“Xazoyin ul-maoniy”):

Yor yo‘q, dard bor, ammo dard ham yor.

Bu misrada “yor” so‘zi ikki xil ma’noda ishlatilgan – birinchisi sevgili, ikkinchisi “yor” ya’ni “yordamchi” ma’nosida. Shu tariqa Navoiy bitta so‘z orqali ma’no qatlamlarini ko‘paytirgan[1].

Shuningdek, Navoiy takror san’atini (anafora va epifora) ohangdorlikni kuchaytirish hamda hissiy ifoda darajasini oshirish vositasi sifatida qo‘llaydi.

Misol (“Lison ut-Tayr”):

Har safar ko‘ngulda dard, har safar dardda umid, Har safar umidda yor, har safar yorda firoq.

Bu baytda “har safar” so‘zining takrori ritmik uyg‘unlik yaratadi, shuningdek, shoirning ichki kechinmasi bosqichma-bosqich ifoda etiladi. Bu usul Navoiyning musiqiy sintaksisini belgilovchi asosiy jihatlardan biridir.

Alisher Navoiy asarlarining lingvistik tahlili shuni ko‘rsatadiki, u turkiy tilda badiiy tafakkur va ifoda imkoniyatlarini ilgari surgan, uni yangi bosqichga ko‘targan ijodkordir. Shoir o‘z asarlari orqali o‘zbek (eski turkiy) tilining fonetik, morfologik, leksik va sintaktik

imkoniyatlarini toʻliq ishga solib, uni yuksak adabiy til darajasiga olib chiqdi. Navoiy ijodi tilda nafaqat badiiy goʻzallikni, balki falsafiy chuqurlik, maʼnaviy mazmun va milliy oʻzlikni mujassamlashtirgan. Uning asarlarida soʻz shunchaki maʼno ifodalovchi vosita emas, balki ruhiy kechinmalar, insoniy gʻoyalar va estetik goʻzallikni ifoda etuvchi sanʼat asbobiga aylangan.

Navoiy tilining arxaik qatlamlari oʻz davr tili va madaniyatining boy merosini aks ettiradi. “Koʻngul”, “erdi”, “boʻldi”, “turgʻay” kabi shakllar orqali u XV asr turkiy tili ruhini saqlab qolgan, shu bilan birga, bu unsurlarni zamon osha yashovchan badiiy obrazlar tizimiga aylantirgan. Arxaizmlar uning asarlarida tarixiylik, qadimiy ruh va milliy ohangni kuchaytirgan.

Shoirning sinonimik boyligi esa tildagi maʼno nozikliklarini mohirlik bilan koʻrsatadi. U “dil”, “koʻngul”, “qalb” singari soʻzlarni turli vaziyatlarda turlicha his-tuygʻu soyalarini ifodalash uchun qoʻllagan. Shu tarzda Navoiy tili bitta maʼnoni turli badiiy tuslarda ifodalash imkoniga ega boʻlgan, bu esa uning leksik boyligini nihoyatda kengaytirgan.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, Alisher Navoiy tili – bu turkiy badiiy tafakkurning eng yuksak ifodasi, oʻzbek adabiy tilining poydevori va xalq tafakkurining ramzidir. Uning tili orqali biz nafaqat tarixiy bosqichlarni, balki milliy ruh, estetik qarash va maʼnaviy qadriyatlarning uzluksiz rivojini koʻramiz. Shu bois Navoiy tili bugungi kunda ham adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohalarida til madaniyatining eng mukammal namunasi, oʻrganish va ilhom manbai sifatida qadrlanadi.

[1] Mamatqulov A. Navoiy asarlarining lingvopoetik xususiyatlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.

ADABIYOTLAR

1. Gʻaniyev H. Alisher Navoiy tili va uslubi. – Toshkent: Fan, 1970.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 2011.
3. Gʻaniyev H. Alisher Navoiy tili va uslubi. – Toshkent: Fan, 1970.
4. Mamatqulov A. Navoiy asarlarining lingvopoetik xususiyatlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.
5. Mamatqulov A. Navoiy asarlarining lingvopoetik xususiyatlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015.

NAVOIY ASARLARIDA XREMATONIMLAR

DILDORA YUNUS QIZI YUSUPOVA, BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI DOTSENTI,

filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Yer yuzida o'ziga xos qimmatga ega bo'lgan va muayyan qimmatga ega bo'lmagan toshlar hamda tilda ularning nomlari bor. Aslida, toshlar dunyosi va ularning nomlari ham olam lisoniy manzarasida o'zgacha go'zallik va qiymat kasb etadi. Hazrat mir Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlaridan go'zal tasvir vositasi sifatida unumli foydalanganliklarini kuzatamiz.

Kalit so'zlar: onomastika, xrematonimlar, menerologiya, tasvir vositasi, estetik qadriyat.

Annotation. There are precious and non-precious stones on earth and their names in the language. In fact, the world of stones and their names acquire special beauty and value in the linguistic landscape of the Universe. We observe that in the works of Hazrat Mir Alisher Navoi, he effectively used the names of precious stones as a means of beautiful imagery.

Key words: onomastics, chrematonyms, menerology, image tool, aesthetic value.

Tilimizda uzoq tarixiy davrni bosib o'tgan, tilning turli taraqqiyot bosqichlarida paydo bo'lgan shunday lug'aviy birliklar mavjudki, ular til tarixi, dialektologiya, etnografiya, xalq tarixi va xalqlarning o'zaro ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy aloqalari bilan bog'liq. Shunday lug'aviy birliklar sirasiga kosmonimlar, ktematonimlar, ideonimlar, biblionimlar, fiktonimlar, xronimlar, xromatonimlar, xrematonimlar kiradi.

Kosmonimlar – kosmik fazoda joylashgan samoviy obyektlarning atoqli otlarini o'rganuvchi soha [3,3-b.]. Masalan, *Quyosh, Oy, Zuhra, Mirrix, Mushtariy va Zuhal* kabi. Mazkur mavzu o'zbek olimlari H.Eshonqulov, A.Primov, M.Jo'rayev, Z.Yunusovalar tomonidan tadqiq etilgan. Masalan, H.Eshonqulov "Alisher Navoiy she'riyatida samoviy timsollar" mavzusida nomzodlik ishnini himoya qilgan bo'lsa, Z.Yunusova "O'zbek tilida lug'aviy mikrosistemaning tarkibi va rivojlanishi (samoviy yoritgichlar lug'avik guruhi misolida)" nomli tadqiqot ishini amalga oshirgan.

Ktematonimlar – xalq tarixi, madaniyati uchun ma'lum ahamiyatga molik bo'lgan ba'zi nodir qurollar, asbob-uskunalar, buyumlarning atoqli otlarini o'rganuvchi soha. Masalan, *Xitoy chinnisi, Chust pichog'i* kabi.

Ideonimlar tarixiy asarlar, hujjatlarning atoqli otlarini o'rganuvchi soha hisoblanadi: *"Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Mustaqillik dekloratsiyasi* va h.

Biblionimlar – har qanday badiiy, ilmiy, diniy, siyosiy asarga berilgan nom, ya'ni sarlavhalarni o'rganuvchi soha. Masalan, *"O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Yulduzli tunlar", "Avlodlar davoni"* va h. Biblionimlar, aslida, ideonimlarning bir turi hisoblanadi.

Fiktonimlar – rassom, ijodkorlar tomonidan yaratilgan san'at asarlari nomini o'rganuvchi soha. *"Notanish ayol" surati, "Madonna" surati* kabi.

Xronimlar (yoki xrononimlar) tarixiy vaqt va davrlar nomlarini o'rganadi, masalan, *Uyg'onish davri, Uchinchi Renesans davri, Temuriylar davri* va b.

Xromatonimlar (yoki koloronimlar) – rang nominatsiyasi yoki rang nomlarini o'rganuvchi soha.

Xrematonimlar – moddiy madaniyat obyektlariga qo'yilgan o'ziga xos nomlarni, qurol, musiqa asboblari, zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlar, shuningdek, idish-tavoqlarning nomlarini o'rganuvchi juda keng soha. Onomastik ko'lamda xrematonimlar, ya'ni jonsiz narsa nomlari, shuningdek, qimmatbaho tosh va minerallar, zargarlik buyumlari nomlari muhim o'rin tutadi. Moddiy madaniyat bo'lagi bo'lgan qimmatbaho toshlar nafaqat minerolog, geograf, geologlar, balki tilshunoslar uchun ham tadqiqot obyekti sanaladi. Zero, qimmatbaho tosh, ayniqsa, yirik olmoslarning nomlari ma'lum an'analarga ega bo'lgan onomastika fanining bir bo'g'ini, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mutaxassislar tomonidan tabiatda bir yuz ellikdan ortiq qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar mavjudligi aniqlangan. O'z davrida balo-qazodan asrovchi, omad va boylik keltiruvchi, kasalliklarni oldini oluvchi va davolovchi xususiyatga ega toshlar aholi o'rtasida keng iste'molda bo'lganki, bu toshlarlarning har biri o'z tarixiga ega. Ayrim toshlarga ularning kelib chiqishiga ko'ra (*dengiz marvaridi, G'azg'on marmari*…), hajmiga qarab (*Ko'hinur olmosi, Samoyinur olmosi, Kolumb brillianti*…), ba'zan ularning zargarlik buyumi sifatida nomlari (*olmos ko'zli uzuk, rubin ko'zli sirg'a, marvarid toshli munchoq*….) ham qo'yilgan.

Qadimda qimmatbaho toshlarni faqat rangiga qarab ajratishgan. Qizil yoki qizg'ish rangli barcha toshlarni "***yoqut***", yashil toshlar "***zumrad***", ko'klari esa "***gavhar***" (forscha so'z) deyilgan. O'zidan nur sochadigan barcha chaqmoq toshlar "***javohir***" nomi bilan atalgan. Keyinchalik toshlarni nafaqat rangi balki sofligi, noyobligi, mustahkam va pishiqligi ham hisobga olindi. Aslida, ularning faqat to'rttasini: ***olmos, yoqut, zumrad*** va ***gavhar***ni ***javhar*** (arabcha so'z – qimmatbaho tosh degani) deyish mumkin. Javohirlar qimmatbaho bezak buyumlari tayyorlash uchun ishlatiladigan o'ziga xos xususiyatli minerallar hisoblanadi.

Alisher Navoiy asarlarida zumrad (yashil rangli) qimmatbaho tosh nomi *zumurrad* shaklida qo'llanilganligini ko'ramiz. Jumladan, "Sabbayi sayyor" dostonida uchinchi iqlim yo'lidan kelayotgan musofir aytgan hikoyat bor. Unda misrlik savdogarning o'g'li dono, oqil, saxiy Sa'd haqida gap boradi. Musofirlar

uchun qurdirilgan mehmonxonada Sa'd bir kuni yashil kiyimlar kiygan ikki musofirni ochiq chehra bilan kutib olib, ziyofat qildi. Shu o'rinda Navoiy zumurrad so'zini musofirlarning kiyimi rangi ma'nosida qo'llaydi:

*Ul iki rahravi **zumurrad**po'sh,*

Rahnamoyi aning, nechukki suro'sh [2, 2-b.].

Demak, "*iki rahravi zumurradpo'sh* " ikki yashil rangli libos kiygan musofir ma'nosida qo'llanilmoqda.

Bu hikoyatni Bahrom dushanba kuni yashil rang qasrda tinglaydi. Navoiy uning tasvirida yashil rang qasr, sabzarang libosli sarv (go'zal), zumrad rang jom, hayot suvi, tiriklik chashmasi, Xizr kabi yashil rang ma'nosini anglatuvchi so'zlar tanosubini mahorat bilan ishlatadi.

*Angachakim **zumurradin** gardun – Bo'ldi tun xayli dudidin shabgu* [2, 2-b.].

Ma'nosi: Gardun (osmon) yuzini turli rang bilan tongning zumurrad chodiriga o'radi. Ya'ni zangori osmon bulutlardan tozalangach, quyosh o'z nurini ko'kalamzorlarga yoydi. Bu o'rinda ham zumurrad rang ma'nosida ishlatilgan. Ammo shunchaki yashil rang emas, zumurrad toshining rangi misoli.

Af'iyi g'am chu elga ayladi zo'r,

*Ani jomi **zumurrad** ayladi ko'r* [2, 2-b.].

Ma'nosi: G'am ajdahosi elga zo'rlik qilmoqchi edi, uni zumurrad jomi ko'r qildi. Ya'ni, afsonalarga ko'ra, zumrad toshiga hirs bilan tikilganning ko'zi ko'r bo'lib qolar ekan. Bu o'rinda shoir *zumurrad* rangli jomdagi may el g'amini aritdi–xalq may ichib xursandchilik qilgach g'amlardan yiroq bo'ldi, deya go'zal tashbeh qiladi.

Yana bir o'rinda shoir shu afsonaga ishora qilib shunday yozadi:

Gar zumurraddin o'lsa ko'r af'i,

Ham zumurrad qilur aning daf'i [2, 2-b.].

Afsonalarga ko'ra, javohirlar xazinasini ajdarho qo'riqlab yotadi. Xazinadagi qaysidir sehrli narsani qo'lga kiritish uchun sofdil, mard bahodirlar shu ajdarho bilan jang qiladilar. Agar ajdarho xazinadagi zumrad toshlarga tikilgan bo'lsa, albatta, uning ko'zlari ko'r bo'lib qolgan. Bu esa, ajdarho va bahodir jangida bahodirning qo'li baland kelishiga sabab bo'ladi. Shoir shu mazmunga ishora qilib "Agar zumrad toshlar ajdarho ko'zini ko'r qilgan bo'lsa, endi shu qimmatbaho tosh (*zumurrad*) uning o'zini ham daf qiladi

(yoʻqotadi)”, deb yozadi. Demak, shoir tomonidan zumrad toshining koʻzni koʻr qilishi (salbiy), ammo shu koʻrlik orqali dushmanni yoʻqotishi (ijobiy) baholangan.

Keltirilgan misollarda *zumurrad* libos rangi, idish rangi, osmon tusi va qimmatbaho tosh ma’nolarida qoʻllanilganki, bu dostonda oʻziga xos betakror badiiy goʻzallikni yuzaga keltirgan.

Goʻzallik tabiatning bir boʻlagi tarzida obyektiv nuqtayi nazardan qaralsa, uni qayerda muayyan koʻrishimiz mumkin yoki tabiat uni qanday ifoda etadi. Uni ongli mavjudotgina anglashi, nafaqat anglashi balki his etishi muqarrar. Ongsiz va jonsiz mavjudot masalan, tosh toshning goʻzalligini anglamaydi. Inson esa, bir toshni ikkinchisidan juda yaxshi farqlaydi. Bir toshga ikkinchi toshdan koʻproq qiymat,

baho berishi birinchi toshni qadrlashidan dalolat. Tabiatdagi zumrad, sadaf, yoqut ijtimoiy hayotda oʻz qiymatiga ega boʻlsa-da, estetik qadriyat sifatida inson ongida qayta yaraladi va *koʻzlarning zumrad kabi, tishlarning sadafdek, lablarning yoqut* singari goʻzalligi; Navoiy asarlarida gavharnishon, guharnamoy, duri yatim, la’lmonand, sadafoso kabi lisoniy tafakkur hosilalari estetik aksiologik bahoning milliy obrazlari natijasidir.

Jumladan, bugungi kunda “Sumalakdan tosh topdim, bir parcha quyosh topdim” ifodasi milliy madaniyatning lisonda aks etishining yorqin namunasidir. Sumalak – milliy taom nom. Uning pishirilishida ishtirok etuvchi tosh taomning kuymasdan pishirilishining bir texnologiyasi boʻlsa-da, oʻzbek milliy madaniyatida bu taom tanovulida oʻsha tosh kimning idishidan chiqsa, uning orzuiga erishishiga xalq ishongan. Bunda xalqning kelajakka umid, baxtli hayot haqidagi orzulari mujassamlanganligi xalq toʻqigan, kuylagan she’r va qoʻshiqlarda voqelangan. Sumalakdan topilgan tosh – oʻzbek milliy madaniyatining realiyasi. U oʻzbekona milliy olam manzarasini yaratadi, bilim sifatida shakllanib, mental qurilmalar orqali lisonda ifodalanadi, ya’ni yuqorida ifoda etilgan qoʻshiq satrlarida tosh quyosh sifatida qayta jonlangan, zero, qattiq, sovuq, jonsiz tabiat naturfakti issiq, mehrli qadriyatli ashyoviylikni inson ongida vujudga keltirgan. Demak, madaniyat tushunchasida qadr kabi omillarning oʻz vazifasini bajarishida inson omili muhim oʻrin egallaydi va insonning oʻzi ijtimoiy hodisaga qiymat berib, milliy ongini shakllantiradi [5,92-b.]. Idrokli jonzot sifatida inson oʻz tafakkurida goʻzallikni jonlantiradi, unga baho beradi, qadrlaydi hamda mental birliklar yordamida uni belgilar orqali ifodalaydi, qadriyatli ashyoviylik kasb etadi, avloddan avlodga yetkazish jarayonida bilimlar sistemasini, ya’ni freymlarni yaratadi yoki tosh freymining yana bir slotini oʻzbek ongida shakllantiradi. Zero, bu boshqa milliy madaniyatlarda uchramasligi mumkin.

Shu nuqtayi nazar bilan yondashuv hazrat mir Alisher Navoiy asarlarida turfa ma’nolarni yuzaga chiqarish uchun badiiy tasvir vositasi sifatida qoʻllanilgan qimmatbaho tosh nomlari kezi kelganda umumbashariy, oʻz oʻrnida faqat oʻzbek milliy

madaniyatigagina xos jihatlarni ifoda eta olgan. Navoiyning ijod ummonida qimmatbaho tosh nomlari bisyor. U tadqiqotchidan mohir g'avvoslikni talab etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Абу Райҳон Беруний Қимматбаҳо жавоҳирлар ҳақида билимлар китоби (Минерология)/А.Қаюмов таржимаси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2017. – 489 б.
2. Навоий Алишер. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдли. Еттинчи жилд.–Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 469-668.
3. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. –264 б.
4. Yuldasheva D.N. Sukut diskursning tarkibiy qismi sifatida (badiiy asarlar asosida): Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2024. – 73 b.
5. Yuldasheva D.N. Sukut nutqiy muloqot komponenti. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 164 b.
6. Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси: Филол.фан.номзоди дисс... автореф. – Тошкент, 1994. – 26 б.

ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЫКОВ

МАҲМУД РАВШАНОВ,

профессор Навоийского государственного горного и технологического университета

Аннотация. Алишер Навои, как великий поэт, мыслитель, основоположник узбекского литературного языка и литературы, государственный деятель, внёс огромный вклад в общественное и культурное развитие узбекского периода, в частности, в эстетическое и художественное развитие в целом. Этот период занимает особое место в мировой культуре как время расцвета науки, культуры, включая архитектуру, зодчество и словесное искусство.

Ключевые слова: идеи труда и творчества, художественный образ и деятельность человека.

Узбекский поэт и государственный деятель XV века Алишер Навои внес значимый вклад в сохранение тюркского языка и объединение тюркских народов. Такого мнения придерживаются узбекские историки.

«В то время, когда персидский язык оказывал большое влияние на литературу, Навои писал свои произведения на тюркском языке и стремился к тому, чтобы этот язык стал литературным. Алишер Навои сыграл существенную

роль в том, что тюркский язык по сей день сохранил свое богатство», - сказал Максудов[1;2;3;].

По его словам, в то время как средневековые поэты писали свои произведения на персидском языке, Навои своим творчеством смог продемонстрировать всю красоту и богатство тюркского языка. Произведения Навои, созданные в XV веке, не потеряли своей актуальности по сей день, отметил историк[1;2;3;].

В свою очередь узбекский историк Бабаяр также отметил высокое значение творческого наследия поэта для развития и сохранения тюркского языка. Своим гениальным трудом «Мухакемет-уль-Лугатейн» («Суждение о двух языках») поэт доказал богатство тюркского языка. В этой работе Навои сравнил тюркский язык с преобладающим в тот период в литературе персидским языком и на примерах доказал, что тюркский язык превосходит персидский во всех отношениях».

«В период правления Тимуридов он первым начал использовать тюркский язык в государственном управлении и поднял его значение в политическом плане. Произведения Навои были написаны на понятном всем тюркским народам языке на обширной географии, начиная от Китая и до Дамаска, в том числе в Анатолии. Своими произведениями на тюркском языке Навои внес значимый вклад в объединение турецких народов. Вершиной творчества Навои стало знаменитое произведение «Хамса», включающее в

себя пять эпических поэм на чагатайском языке (средневековый среднеазиатско-тюркский письменно-литературный язык). Этой работой Навои внес значимый вклад в развитие тюркского языка», - добавил историк. Размышляя с высоты XXI века о великих личностях прошлых веков, подобных Алишеру Навои, задаётся вопросами, чем они ценны нам сегодняшним и поколениям грядущим. И тогда возникает необходимость вспомнить поимённо тех великих личностей, чьим именам обязательно сопутствует эпитеты «великий мыслитель», великая личность», «великий писатель», «великий миротворец», «великий поэт». Т. е. тех, кто сумел посеять в духовный мир, культуру, сознание своих народов зёрна добро, гордость и величия. Существует ряд проблем, которые заставляют нас, людей эпохи глобализации, размышлять над подобными вопросами. Я посчитал точно и правильным посмотреть на эти проблемы через призму Алишера Навои, через призму его личности и творчества. Обращает внимание тот факт, что в XV столетии, когда доминировали фарси и арабский язык, когда почти все писатели и поэты творили на этих языках, Алишер Навои, прекрасно владевший фарси, предпочитал писать на тюркском языке. Именно это дало ему право в заключении своей поэмы «Фархад и Ширин» с гордостью отметит

свою широчайшую популярность среди тюркоязычных народов:

…Но тюрки всех племён, любой страны, Все тюрки мной одним покорены!

…И от Шираза до степей туркмен, От Хорасана до китайских стен,-

Где б ни был тюрк- под знамя тюркских слов Он добровольно стать всегда готов…[1;2;3;].

Творить на родном языке в ту эпоху – большая смелость Алишера Навои, которая позволила узбекам и иным тюркоязычным народам сохранить свои языки, литературы, культуры, истории, национальное самосознание, идентичность.

До Алишера Навои творили на тюркском языке такие мыслители и поэты как Юсуф Баласагуни, Махмуд Кашгари, Жалалиддин Руми, Юнус Эмре. Если Юсуф Баласагуни в своём великом дастане «Кутадгу билиг» («Благодатное знание») укорен литературную основу тюркского языка, то Махмуд Кашгари остался в истории как первый выдающийся тюркский филолог и лексикограф, тщательно собравший слова многих тюркских языков, систематизировавший их в «Словаре тюркских наречий» («Диван лугат ат-турк»). Руми же своими творениями на тюркском языке, которым пользовались только в устной речи, будил в своём народе патриотический дух и чувства единства. Юнус Эмре также своё богатое поэтическое наследие создавал на тюркском языке, чтобы поднять его авторитет. На тюркском языке также были созданы величайшие произведения – газели Лутфи, Атаи, касыды Саккаки, масневи Амири, Хаджанди и др. Одним из поэтических кредо Алишера Навои является утверждение староузбекского литературного языка. Вполне возможно, что Алишер Навои следовал примеру своих предшественников, во всем случае, в

научных источниках утверждается, что он был знаком с тудами Жусупа Баласагына[1;2;3;4;5;]..

Алишер Навои основатель узбекской литературы, известный своим огромным художественным наследием, в котором особо следует отметить пять поэм, объединённых в «Хамсе» («Пятерица») (1483-1485). Это поэт, давно уже занимающий своё достойное место на Олимпе мировой литературы

«Хамсе», в которой обратился Алишер Навои, - жанр литературы, появившийся в XII веке. Его основателем считается азербайджанский поэт Низами Гянджави (1141-1209). Он объединил пять самостоятельных поэм:

«Сокровищница тайн», «Хосрав и Ширин», «Лейли и Меджнун», «Семь планет», «Искандер-наме» в одно художественное произведение, и этот жанр был

назван «Хамсе». Эти пять поэм, повествующих о разных событиях, Низами объединил идейным единством. К жанру «Хамсе», ставшему весьма популярным в народе, обратились Хосрав Дехлави и Абдурахман Джами. Алишер Навои, глубоко почитавший творчества Джами и считавший его своим учителем и наставником написать «хамсе» на тюркском языке, хотя до него все писали на фарси. Это своё решение в «хамсе» он объясняет так:

Желанье вслед великим трем идти-Хоть шага три пройти по их пути. Решил: писали на фарси они,

А ты на тюркском языке начни!

Пусть первым двум хвалой века гремят, Но тюрки и меня благословят. [1;2;3;4;5;]

Видно, что, Алишер Навои даёт высокую оценку великим поэтам, товарищам в этом литературном жанре. Своё «Хамсе» автор начинает с глубокого почтения к талантливым предшественникам.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Бертельс Е.Э. Навои и Джами. Избранные труды. – М.: Наука, 1965. – С. 112-113.
2. Захидов В. Мир идей и образов Алишера Навои. – Ташкент: Из-во художественной литературы. Узбекской ССР, 1961. – 245 с.
3. Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Тошкент: Ўзбекистон, 1970.
4. Алишер Навоий “Хамса”. – Тошкент. Ғафур ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.1986. – 423 б.

NAVOIY ASARLARIDA OILA VA FARZAND TARBIYASINING PEDAGOGIK TALQINI

SHERZODBEK JAMOLOVICH SUYUNOV,

Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo kampusi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar asosida oila ma’naviyatini yuksaltirish, uning mazkur jarayondagi o‘rnini mustahkamlash

dolzarb masala bo‘lib, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Oila – jamiyat tayanchi, ma’naviyat beshigi va avlodlar o‘rtasidagi uzviylik ramzidir.” [5] Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy bo‘g‘ini bo‘lib, uning mustahkamligi va sog‘lom muhiti bevosita inson kamoloti bilan bog‘liqdir. Bu g‘oya Sharq mutafakkirlari ijodida, xususan,

buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida o'z ifodasini topgan. Zero, Navoiy asarlarida qayd etilgan fikrlar bu yo'nalishda bebaho

ma'naviy manba vazifasini bajaradi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida oila, ota-ona va farzand tarbiyasi masalalarini inson kamolotining markaziy omili sifatida talqin etgan. Uning "Mahbub ul-qulub" asari pedagogik-axloqiy tafakkurning yetuk namunasi bo'lib, unda oilaviy qadriyatlar, oiladagi ayolning o'rni va farzand tarbiyasi masalalari keng yoritilgan [1, 119-b.].

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"da ayolning oila hayotidagi o'rnini yuksak baholab, "yaxshi rafiqa – oilaning davlati va baxti" ekanligini ta'kidlaydi [1, 120-b.]. Shoir fikricha, oqila, saranjom, xushmuomala ayol oilaning tinchligi va farovonligining bosh omilidir. Ayolning sabr-toqati, mehribonligi va madaniyati oila muhitidagi ruhiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Ayol shaxsining ruhiy yetukligi farzandlarning hissiy holati va oilaviy uyg'unlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Navoiy bu fikrni XV asrdayoq ilgari surib, ayolni oila madaniyatining tayanchi sifatida talqin qilgan.

Navoiy fikricha, er-xotin o'rtasidagi muvofiqlik – oilaning mustahkamligi va jamiyat barqarorligining kafolatidir. U shunday deydi: "Er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, o'rtada boylik va saranjomlik bo'lur, uy bezagi undan va uylanganning tinchligi undan" [3, 120-b.].

Bu satrlar oiladagi uyg'unlikning faqat moddiy emas, balki ma'naviy asoslarini ham ko'rsatadi. Oila muvofiqligi o'zaro hurmat, sabr-toqat, ishonch va mehr orqali shakllanadi. Zotan, oila barqarorligi jamiyatning axloqiy muvozanatini belgilovchi asosiy omildir.

Navoiy oila tinchligini insoniy qadriyatlar bilan o'lchaydi. Sabr, kechirim, muloyimlik va mehr – oilaviy baxtning to'rt ustunidir.

Mutafakkir farzand tarbiyasini insoniyatning eng oliy burchi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, tarbiya erta yoshdan, ya'ni bolalikdan boshlanishi zarur:

Ulga erur tiflga shoista ish, Bilki kichiklikda erur parvarish.

Qatraga chun tarbiyat etdi sadaf,

El boshiga chiqquncha topdi sharaf [1, 83-b.].

Bu ramziy baytda bola "dur", oila esa "sadaf" sifatida tasvirlanadi. Ya'ni bola qanday tarbiyalansa, uning jamiyatdagi mavqeyi ham shunga yarasha shakllanadi.

Navoiy yana shunday deydi: “Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Tarbiyaning yana biri bolaga ilm-u adab oʻrgatish uchun muallim chaqirishdir” [1, 84-b.].

Bu soʻzlar shafqat bilan talabchanlik oʻrtasidagi me’yorni anglatadi. Farzandga haddan tashqari yumshoqlik ham, keskinlik ham zarar. Zamonaviy pedagogika bu fikrni “muvozanatli ota-onalik” nazariyasi orqali tasdiqlaydi.

Alisher Navoiy ota-onaga hurmatni insoniylikning mezoni sifatida ulugʻlaydi.

Uning ta’kidlashicha:

Boshni fido ayla ato qoshigʻa, Jismni qil sadqa ano boshigʻa. Tun-kuninggʻa aylagali nur fosh,

Birisin oy angla, birisin quyosh [1, 96-b.].

Shoir fikricha, farzand ota-onaning roziligini olish orqali ikki dunyo saodatiga erishadi. Ota-ona farzand uchun “quyosh va oy” singari nur manbaidir. Navoiy axloqiy jihatdan ota-onaga itoatni nafaqat diniy, balki ijtimoiy-axloqiy majburiyat sifatida talqin qiladi.

Bu gʻoya bugungi tarbiya jarayonlarida ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Ota-onaga ehtirom farzandning ijtimoiy moslashuvini, ruhiy barqarorligini ta’minlovchi eng muhim omil hisoblanadi.

Navoiy oʻzining “Vaqfiya” asarida insonning faqat oʻz oilasiga emas, balki butun jamiyatga foydali boʻlishini haqiqiy tarbiya belgisi sifatida koʻrsatadi. Navoiy “Men bu dunyoda obodonchilik va xalqqa foyda keltiruvchi ishlarni sevib qildim. Xalq farzandlari ilm va odob nurlaridan bahramand boʻlsin” [2, 42-b.].

Bu fikr Navoiy tarbiyasining ijtimoiy falsafasini ifodalaydi. U tarbiyani shaxsiy mas’uliyatdan yuqori qoʻyadi va jamiyatning axloqiy poydevorini mustahkamlashda ta’limning oʻrnini belgilaydi.

Zamonaviy ta’lim nazariyalarida bu yondashuv model sifatida shakllangan. Navoiy fikricha, haqiqiy komillik – bu boshqalarga foyda keltira olish qobiliyatidir. Alisher Navoiyning pedagogik merosi mustaqillik yillarida koʻplab olimlar tomonidan chuqur oʻrganilib kelinmoqda. Xususan, tadqiqotchi D. Toʻraqulova oʻzining “Alisher Navoiy merosining tarbiyaviy ahamiyati” nomli monografiyasida mutafakkirning asarlarida ilgari surilgan tarbiya gʻoyalarini bugungi ta’lim tizimi

bilan qiyosiy tahlil etadi [4, 58-b.].

Muallif ta’kidlashicha, Navoiy qarashlarining asosiy oʻqi – insonni ma’naviy kamolot sari yoʻnaltirishdir. Unga koʻra, “Mahbub ul-qulub”da ifodalangan tarbiya tushunchasi zamonaviy pedagogika terminlari bilan ifodalansa, bu - shaxsga yoʻnaltirilgan ta’lim, ijtimoiy mas’uliyat, mehr asosidagi tarbiya konsepsiyasidir. Navoiy asarlaridagi “mehr va adab”, “ilm va axloq” gʻoyalarini XXI asr ta’lim falsafasida “affektiv oʻqitish” va “axloqiy kompetensiyalar” tamoyillari bilan bogʻlash mumkin.

Alisher Navoiy asarlarida oila, ayol, ota-ona va farzand tarbiyasi masalalari chuqur falsafiy va pedagogik mazmunga ega. U oilani jamiyat barqarorligining poydevori, ayolni mehr va osoyishtalik manbai, farzandni esa millat kelajagining timsoli sifatida talqin qiladi.

Navoiy uchun tarbiya – bu faqat bilim berish emas, balki inson qalbida ezgulik, halollik va mehr tuygʻularini uygʻotish san’atidir. Shu jihatdan Navoiy merosi bugungi pedagoglar uchun milliy axloqiy mezonlar asosidagi metodik manbadir.

Prezident Sh. Mirziyoyevning “Oila – jamiyat tayanchi, ma’naviyat beshigi”

[5] degan fikrlari Navoiy qarashlari bilan uzviy uygʻun boʻlib, milliy tarbiya konsepsiyasining ma’naviy asoslarini yanada mustahkamlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nashriyoti, 1983.
2. Navoiy, A. Vaqfiya. – Toshkent: Fan, 1991.
3. Shoumarov Gʻ.B., Shoumarov Sh.B. Muhabbat va oila. – Toshkent: Ibn Sino, 1994.
4. Toʻraqulova D. Alisher Navoiy merosining tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2022.
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqaro oila kuni munosabati bilan tabrik soʻzi. – Uzreport.news, 15.05.2023.

МНОГОГРАННАЯ ЛИЧНОСТЬ ВСЕВОЛОД РОЖДЕСТВЕНСКИЙ КАК ПЕРЕВОДЧИК ЛИРИКИ НАВОИ.

СИТОРА БАХОДИР КИЗИ КОДИРКУЛОВА,

Преподаватель кафедры «Филология и обучения языкам» Навоийского университета инноваций

Аннотация. В этой статье мы приводим жизнь и творчество Всеволода Рождественского. Будучи поэтом, он интересовался творчеством Алишера Навои и переводил его газели, старался передать дух Востока. Рождественский стал одним из немногих русских поэтов XX века, кто сумел глубоко проникнуть в дух восточной

поэзии, в частности — в лирику Алишера Навои, и донести её до русскоязычного читателя.

Ключевые слова: перевод, лирика, творчество, дух Востока, поэзия, Восток, Алишер Навои.

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz Vsevolod Rojdestvenskiyning hayoti va ijodi haqida so'z yuritamiz. Shoir bo'lgan holda, u Alisher Navoiy ijodiga qiziqqan va uning g'azallarini tarjima qilgan, Sharq ruhini yetkazishga intilgan. Rojdestvenskiy XX asr rus shoirlari orasida Sharq she'riyati, xususan, Alisher Navoiy lirikasi ruhiga chuqur kirib borib, uni rus tilidagi o'quvchiga yetkazishga muvaffaq bo'lgan kam sonli ijodkorlardan biridir.

Kalit so'zlar: tarjima, lirika, ijod, Sharq ruhi, she'riyat, Sharq, Alisher Navoiy.
Abstract. This article explores the life and creative work of Vsevolod Rozhdestvensky. As a poet, he was deeply interested in the works of Alisher Navoi and translated his ghazals, striving to convey the spirit of the East. Rozhdestvensky was one of the few Russian poets of the 20th century who managed to deeply immerse himself in the essence of Eastern poetry — particularly in the lyrics of

Alisher Navoi — and to bring it to the Russian-speaking reader.

Keywords: translation, lyrics, creativity, spirit of the East, poetry, the East, Alisher Navoi.

Всеволод Александрович Рождественский поэт и переводчик, а также военный корреспондент. Он родился 10 апреля 1895 года в Царском Селе, на сегодняшний день этот город назван в честь великого русского поэта А.С. Пушкина. Отец Рождественского преподавал в Николаевской Царскосельской

гимназии. В дальнейшем сюда же поступил сам Рождественский. В этой гимназии Всеволод учился вплоть до 1907 года, когда его семья вынужденно перебралась в Санкт-Петербург. [3,14]

После окончания гимназии Рождественский поступает на историко-филологический факультет Петербургского университета. Через год он стал призывником в армию из-за войны, которая началась.

Он с детства начал писать, его интересовала литература и свое первое произведение было напечатано в гимназическом журнале «Ученик». Первый его сборник стихов был издан в 1914 году за собранные деньги одноклассников. Что самое интересное в этом процессе это то, что сам автор не знал об этом. Позже он стал печататься в таких изданиях как «Рудин»,

«Арион» и «Ковш». В 1918 году он был привлечен на работу в издательство

«Всемирная литература» Максимом Горьким. В этом издательстве они переводили произведения западноевропейских авторов. Стоит отметить, что он до конца своей жизни занимался переводом. Особенный интерес у него появился к французской литературе. Его переводы стали печататься в поэтических сборниках самого автора. Рождественский успел подготовить книгу своих избранных переводов под названием «Средоточие времени». Данная книга была распечатана после смерти автора.

Его литературная деятельность насыщена разными событиями. Начиная с 1920 года по 1924 год Рождественский работал секретарем Петроградского отделения Всероссийского союза поэтов. В конце 1924 года он демобилизовался и принял решение вернуться в университет. Вместе с работой в университете он посещал Государственный институт истории искусств.

Вплоть до начала 1930-х годов поэт много путешествовал. Он ездил по стране в составе литературных бригад, посещая самые масштабные стройки Первой пятилетки, что получило отражение в его творчестве.

Всеволод Рождественский своими главными учителями называл Иннокентия Анненского, который был директором гимназии, где преподавал его отец, и Николая Гумилева, учившегося в том же заведении.

В 1920 году литератора приняли во второй «Цех поэтов». Через год у него появились такие сборники как «Лето» и «Золотое веретено». В них было ощутимо влияние акмеизма, «экзотическую» линию которого тогда активно развивал поэт, обращаясь к творчеству Николая Гумилева. В стихах того периода есть и корсары с пиратами, путешествия, и в то же время пейзажная лирика, воспевание мирных радостей сельской жизни и безмятежной любви.

Началась вторая мировая война и в этот период Рождественский стал работать военным корреспондентом сразу в нескольких газетах. Среди них есть «Ленинградская правда». Принимал участие в прорыве блокады осажденного фашистами города.[5]

Смело можно сказать, что Рождественский многогранная личность. Он не только сам писал стихи, он еще переводил стихи разных европейских авторов, и еще написал несколько оперных либретто, несколько песен и две

книги мемуаров под названием «Страницы жизни» (1962) и «Шкатулка памяти» (1972). Он был членом редколлегии журналов «Звезда» и «Нева».

В целом Всеволод Рождественский прожил свой век плодотворно, насыщенно и продуктивно. Он внес свой достойный вклад в развитие восточной литературы в России. Его переводы до сих пор пользуются популярностью. Он умер 31 августа 1977 года в Ленинграде. Его похоронили на Литераторских мостках Волковского кладбища. [4]

Стоит отметить, что **Рождественский был одним из переводчиков Алишера Навои на русский язык.** Он работал над передачей поэзии Востока, в частности — над газелями Навои, стараясь сохранить их **музыкальность, философскую глубину и суфийское звучание.** Его переводы отличаются особой лиричностью и верностью духу оригинала. Он не просто переводил слова, а **создавал поэтические эквиваленты,** близкие по интонации и настроению. В таблице ниже приводим переводы Рождественского.

“Ҳазойин ул-маоний” “Ғаройиб ус-сиғар” девонидаги ғазалнинг **№**	Ўзбек тилида	Рус тилида
№ 1, 21 бет	Ашрақат мин акси шамсил-каъси анворул-ҳудо, “Ёр аксин майда кўр” деб, жамдин чиқди садо. [1: 21]	Чаша, солнце отражая, правый пусть явила мне. И раздался голос чаши: «Друг твой отражен в вине». [2:11 стр.]
№ 18, 39 бет.	Эй алифдек қоматинг майли бузулган жон аро, Ганжи ҳуснунг жавҳари бу хотири вайрон аро. [1: 39]	О мечта моя, стройнее, чем алиф, твой тонкий стан, Лик твой – камень драгоценный – в утешенье сердцу дан. [2:24 стр.]
№ 29, 50 бет.	Ер тутар кўнглумда гардундин жудо бўлғай бало, Жондадур девона кўнглумдин хато бўлғай бало. [1: 50]	Это сердце, волей рока, разлученья ждет беда, Сердцу, полному безумья, новый грех несет беда. [2:34 стр.]

№ 34, 55 бет.	Гул узра хатти мушкин бирла то қилдинг рақам пайдо, Манга жон сафҳасида бўлди юз хатти алам пайдо. [1: 55]	Лепесток от розы алой стал руках твоих письмом, Начертание печали в милом почерке твоем. [2: 36 стр.]

№ 49, 70 бет.	Сен лабинг сўрған сойи мен қор ютармен, эй ҳабиб, Сен май ичкилким, манга хуни жигар бўлмиш насиб.	Прикусив любимой губы, жадно кровь глотаю я. Пей вино! А мне уделом – сердца алая струя. [2: 41 стр.]
№ 84, 105 бет.	Эй насими субҳ, аҳволим дилоромимға айт, Зулфи сунбул, юзи гул, сарви гуландомимға айт. [1:	Ветер утра! Все любимой, чем душа полна, - скажи. Станом – кипарис, а ликом – роза мне она – скажи. [2:58 стр.]
№ 116, 137 бет.	Ёп ул юз ойинасин чексам оҳи дардолуд, Бу вадҳдинки, қилур майл хўблар сари дуд. [1: 137]	Я дохну – и лик у девы станет зеркала мутней, - Вечно в сторону красавиц я влекусь душой своей. [2:73 стр.]
№ 122, 143 бет.	Чекар ун кўнглум, урсанг тийғи бедод, Не тонг, су қўйғач этмак шуъла фарёд. [1: 143]	Всегда кричит моя душа, едва её обидят злом; Известно, что огонь шипит, когда в него мы воду льём.
№ 300, 321 бет.	Гарчи мен ҳажрингдин ўлдум тортибон кўп зорлиғ, Сен ҳаётингдин топ, эй бадмеҳр, бархурдорлиғ. [1:	Хоть давно в разлуке горькой я погиб от злых скорбей, Ты, жестокая, как прежде, жизнью пользуйся своей.

№ 354, 375 бет.	Эй ишқ, яна фурқат ўтин жомима урдунг, Жисмимни қул айлаб, кулини кўкка совурдинг. [1:	Любовь, ты снова душу мне разлуки молнией сожгла, Ты обратила тело в прах и пепел к небу подняла. [2:191 стр.]

Эй насими субҳ, аҳволим дилоромимға айт. Зулфи сунбул, юзи гул, сарви гуландомимға айт. Буки лаъли ҳасратидин қон ютармен дам-бадам, Базми айш ичра лаболаб бодаошомимға айт.

Ком талху бода заҳру ашк рангин бўлганин,

Лаъли ширин, лафзи рангин, шўхи худкомимға айт. Шоми ҳижрон рўзгоринг тийра невчун қилди деб, Сўрмағил мендин бу сўзни, субҳи йўқ шомимға айт,

Ул парий ҳажрида нангу номким, тарк айладим, Кўнгул отлиғ ҳажр водийсида бадномимға айт. Эй кароматгўй, ишим оғози худ исён эди,

Шамъи раҳмат партави еткайму анжомимға, айт. Йўқ Навоий бедил ороми ғам ичра, эй рафиқ,

Ҳолини зинҳорким, кўрсанг дилоромимға айт. [1: 105]

Ниже приводим перевод на русский язык:

Ветер утра! Все любимой, чем душа полна, — скажи. Станом — кипарис, а ликом — роза мне она — скажи. То, что ради уст-рубинов тщетно лью я кровь свою, Ей, среди пиров сидящей с чашею вина, — скажи.

Все о горечи желаний, яде вин и крови слез

Той, чьи губы слаще меда, речь умом полна, — скажи. Говоря: зачем в разлуке стал печален твой удел,

Это слово ночи сердца, что навек темна — скажи. То, что ради милой девы честь и имя я забыл,

Всадник сердца, в дол разлуки правя скакуна, — скажи. Чудотворец! Дней начало мятежом отметил я, Озарит ли луч прощенья эту тьму до дна — скажи.

Нет несущей утешенье. Путник, видя Навои,

О тоске его и горе той, что так нежна, — скажи. [2:58 стр.]

Газели Алишера Навои *«Эй насими субҳ, аҳволим дилоромимға айт»* — одно из наиболее проникновенных его лирических произведений, в котором тема любви переплетается с философией покаяния и смирения. В этом стихотворении поэт обращается к утреннему ветру, прося его передать возлюбленной всё, чем исполнено его сердце. Уже в первой строке ощущается особое восточное очарование: ветер становится посредником между любящим и любимой, между земным и небесным.

Навои изображает любовь как страдание и духовное испытание. Он признаётся, что ради рубиновых уст возлюбленной «пьёт кровь» своей тоски, тогда как она безмятежно наслаждается жизнью. Мотив разлуки проходит через весь текст: ночь разлуки («шоми ҳижрон») символизирует тьму, а утренний ветер — надежду и свет. Однако, чем глубже его любовь, тем больше осознание собственной вины — поэт видит начало своих страданий в непокорности судьбе и мольбе о прощении.

В последнем бейте Навои говорит о себе в третьем лице: «Нет Навои утешенья в скорби». Эта форма придаёт стихотворению исповедальный характер и подчёркивает смирение поэта перед Божественной волей. Рефрен

«айт» («скажи») придаёт всему произведению ритм молитвы, словно каждое обращение к ветру — это шаг в сторону внутреннего очищения.

Таким образом, газель раскрывает суфийскую идею любви как пути к совершенству: страдание становится очищением, а разлука — способом приблизиться к Истине. Ветер у Навои — не просто природный образ, а

символ духовной связи между душой и Богом. Эта поэзия учит видеть в боли красоту и в утрате — путь к свету.

Рождественский понимал, что буквальный перевод газелей невозможен: восточная поэзия живёт на ассоциациях, аллегориях, игре смыслов и ритмов. Поэтому он переводил **не слово, а образ, не букву, а дух.** Он сумел передать главную интонацию Навои — **спокойное смирение, гордую печаль и философскую глубину.**

Рождественский был не просто переводчиком, но **сам поэт высокой культуры.** Он умел услышать ритм восточной речи и переложить его на мелодику русского стиха. В его переводах сохраняется плавность и певучесть оригинала, при этом язык остаётся естественным, чистым и русским.

«Коль нету средства от печали, ну и не надо, что же делать? Нам на любовь не отвечали, ну и не надо, что же делать?»

звучат просто, но в этой простоте — глубина молитвы. Это не механический рифмованный перевод, а **новое произведение, равное по силе оригиналу.** Рождественский интуитивно чувствовал **суфийскую основу** поэзии Навои. Он не стал подменять её религиозную символику рациональными объяснениями, а передал через тонкость интонации. В его переводах чувствуется духовное смирение, покой и мудрость, которыми пронизаны газели. Он избегал излишней восточной экзотики, сохраняя **универсальный смысл**: боль, любовь, одиночество, покаяние, судьба — темы, понятные любой душе. Рождественский стал **одним из первых русских поэтов**, кто открыл Навои массовому читателю. Его переводы вошли в антологии, сборники и учебные программы. Благодаря ему Навои перестал быть «дальним восточным классиком» и стал частью русской поэтической культуры. Современники отмечали, что в этих переводах Рождественский «не гасит восточный свет, а пропускает его сквозь русское слово». Он сделал невозможное — превратил суфийскую медитативную поэзию XV века в живую, современную лирику XX века.

ЛИТЕРАТУРА

1. Алишер Навоийнинг мукаммал асарлар тўплами “Ҳазойин ул-маоний” девонининг биринчи қисми “Ғаройиб ус-сиғар” “Тамаддун” Т. 2011.
2. Алишера Навои. Сочинение в 10 томах. Ташкент. 1968 г. 1 том.
3. Краткая литературная энциклопедия — М.: Советская энциклопедия, 1962.
4. Литераторские мостки. Часть 1. Дата обращения: 19 апреля 2012.
5. Наградной лист на сайте «Подвиг Народа». Дата обращения: 11 декабря 2010.

ALIShER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIGA XOS IBORALARNING OʻRGANILISh TARIXI

DILAFROʻZ MAXMUDOVNA TAMIKAYEVA, SAMDChTI AKADEMIK LITSEYI OʻQITUVChISI

Maʼlumki, oʻzbek mumtoz adabiyoti asarlarini oʻqir ekanmiz, xalq ogʻzaki ijodi namunalari bilan tanishar ekanmiz yoki turli soʻz oʻyinlari va nozik askiyalarni tinglar ekanmiz tilimizning turfa tovlanishlaridan, goʻzalligidan astoydil lazzatlanamiz, behad zavqlanamiz. Tilga ana shunday goʻzallik baxsh etishda boshqa vositalar bilan bir qatorda ibora yoki frazeologizmlarning ham oʻrni beqiyosdir. Zotan, *qoni qaynamoq, oʻz yogʻiga oʻzi qovurilmoq, koʻngli ochilmoq, koʻngil uzmoq, dardisar boʻlmoq, joni ogʻziga yetmoq, bosh olib ketmoq, boshiga tegirmon toshi aylantirmoq, boshi koʻkka yetmoq* kabi iboralar badiiy va publitsistik matnlarda, ogʻzaki soʻzlashuvda goʻzallik, taʼsirchanlik, obrazlilik hosil qilish vositasi sifatida keng qoʻllaniladi. Badiiy adabiyot materialiga frazeologik birlik (FB)larni kiritish yoʻli bilan yozuvchi yoki shoir oʻzi tasvirlayotgan

obrazning ijtimoiy tavsifini chizadi, personajlar nutqini individuallashtiradi, kishilar, voqealar, koʻrinishlarning emotsional-siqiq obrazini vujudga keltiradi. FBlar oʻzi ifodalayotgan fikrga ekspressiv-emotsional boʻyoq beradi va soʻzlovchining nutq obyektiga boʻlgan ijobiy yoki salbiy munosabatini koʻrsatadi. Demak, har qanday matnda soʻz oʻrniga uning sifatida iborani qoʻllashdan asosiy maqsad fikrga uslubiy boʻyoq berishdir. prof. Sh.Rahmatullayevning "Oʻzbek tilida fe'l frazemalarning bogʻlashuvi" nomli ishida *gapga aralashmoq, kuchga toʻlmoq, baloga yoʻliqmoq, amalga minmoq, oraga kirmoq, darmonga kirmoq, yoʻlga kirmoq, oʻyga choʻmmoq, yomon yoʻlga kirib ketmoq* singari fe'l iboralarning gap tarkibida ega, toʻldiruvchi, hol, aniqlovchi kabi gap boʻlaklari bilan sintaktik-semantik munosabatga kirishuvi (bogʻlashuvi) oʻrganiladi [1.,7-12]. Sh. Rahmatullayevning "Frazeologik birliklarning asosiy ma'no turlari" nomli risolasi bosilib chiqdi, keyinchalik bu risola materiallari "Hozirgi zamon oʻzbek tili" 182-betlar). Sh.Rahmatullayevning nomzodlik dissertatsiyasi oʻzbek frazeologiyasiga doir dastlabki ilmiy tadqiqotlardan hisoblanib, unda oʻzbek tilidagi obrazli fe'l iboralarning grammatik xususiyatlarini oʻrganish ishi boshlab berilgan edi. Uning "Oʻzbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasida tilimizdagi FBlarni lugʻaviy birlik sifatida oʻrganish masalasi boshlab berilgan..."[2]. Sh.Rahmatullayevning "Hozirgi adabiy oʻzbek tili" nomli darsligining bir bobi "Frazemalar tizimi" tahliliga bagʻishlangan [2.,418-446]. Bu darslikda "frazema"ga quyidagicha ta'rif-tavsif keltirilgan: "Frazema til qurilishining lugʻat bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birligi boʻlib, bittadan ortiq leksemaning oʻzaro semantik- sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan boʻladi, shunga koʻra tuzma segment birlik deyiladi; sintaktik tuzilishi jihatidan birikmaga, gap, shaklga teng boʻlib, odatda nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, lekin leksemadan ifoda jihati bilangina emas, mazmun jihati bilan ham farq qiladi" (418-bet). Bu asarda frazeologiya fanining soʻnggi yillarda erishilgan yutuqlarini hisobga

olishga harakat qilingan. Shuningdek, oʻzbek frazeologiyasining soʻnggi yillardagi yutuqlari M.Mirtojiyevning "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" (2004), B.Mengiyevning "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" (2004), H.Jamolxonovning "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" (2005), E.Qilichevning "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" (konspektiv kurs, 1999) nomli oʻquv qoʻllanmalarida ham ma'lum darajada oʻz ifodasini topgan.

Oʻzbek tilshunosligida tarixiy frazeologiya sohasida ham muayyan ishlar amalga oshirilgan. Masalan, S.Mutallibov "Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk" nomli asarida Alisher Navoiy asarlarida qoʻllangan *"engakkaqoʻlni ustun qilmoq", "barmogʻini labiga qoʻymoq", "qoʻlni, tilni ishga solmoq"* kabi iboralar tahlil qilingan edi [3.,58]. M.Rahmatullayevaning nomzodlik ishida esa Alisher Navoiyning "Navodir un-nihoya" devoni misolida sinonimlardan, jumladan leksik-frazeologik sinonimlar va frazeologik sinonimlardan foydalanish mahorati oʻrganilgan edi. X.Mamadov esa Alisher Navoiyning "Mahbub-ul- qulub" singari badiiy-prozaik asarlarining leksik-uslubiy xususiyatlarini oʻrganar ekan, bunday asarlarda *"yuzungga tikan sanchilur", "bagʻringga*

choʻkur tikulur” singari frazeologizmlarning qoʻllanish xususiyatlari ham ma’lum darajada oʻrganilgan [4, 12-14]. Yuqorida eslatilganidek, E.Umarov Alisher Navoiyning lirik asarlari misolida shoirning frazeologizmlardan foydalanish mahoratini tadqiq etgan edi[5.]. Lekin bajarilgan bunday ishlar oʻzbek tarixiy frazeologiyasi sohasi uchun dengizdan bir tomchi, xolos. Shu kunga qadar Alisher Navoiyning liro-epik asarlari, jumladan, uning “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi dostonlarda qoʻllangan frazeologizmlar maxsus oʻrganilmagan. Shunga binoan biz mazkur magistrlik dissertatsiyamizni Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi eng yirik doston “Saddi Iskandariy”dostonida qoʻllangan frazeologizmlarning struktural-grammatik va funksional-uslubiy xususiyatlarini oʻz imkoniyatlarimiz darajasida oʻrganishni maqsad qilib qoʻydik. Asosiy masala bayoniga kirishishdan oldin Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni haqida qisqacha toʻxtalmoqchimiz. N.Mallayevning ta’kidlashicha, “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”) asari qahramonlik epopeyasi boʻlib, Alisher Navoiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarining yorqin koʻzgusi sanaladi [6, 490]. Bu dostonda ulugʻ shoir adolatli va ma’rifatparvar podshoning mukammal qiyofasini koʻrsatish, oʻzining ijtimoiy-siyosiy qarashlari va ideallarini badiiy mukammallashtirish vazifasini oʻz oldiga qoʻygan edi. Doston 7215 bayt (14.430 misra)dan iborat boʻlib, 89 bobni oʻz ichiga oladi. Asarning dastlabki 14 bobi uning muqaddimasidir. XV bobdan asarning asosiy qismi boshlanadi. Bu asar qahramonlik dostoni boʻlgani uchun

aruzning an’anaviy bahri mutaqorib (fauloʻn fauloʻn fauloʻn faul) da yozilgan.

Alisher Navoiyning “Xamsa”si, jumladan, uning tarkibiga kiruvchi “Saddi Iskandariy” dostoni adabiyotshunoslikda juda keng oʻrganilgan. N.Mallayevning “Oʻzbek adabiyoti tarixi” deb nomlanuvchi darsligining katta qismi xuddi shu dostonning gʻoyaviy-badiiy tahliliga bagʻishlangan [6, 490-508]. Akademik A.Qayumov “Mashhur siymolar hayoti” rubrikasi ostida nashr etilgan “Alisher Navoiy” asarida “Saddi Iskandariy” dostoni tahliliga ham keng oʻrin bergan edi [7, 122-134]. Keyinchalik olim “Saddi Iskandariy” dostoniga bagʻishlangan alohida oʻqimishli risola yozdi . Tadqiqotchi F.Boynazarov Iskandar (Aleksandr

Makedonskiy) obrazining folklorda, sharq adabiyotida in’ikosi masalasini keng miqyosda oʻrgangan[8.]. S.Gʻaniyevaning “Alisher Navoiy” nomli risolasida ham “Saddi Iskandariy” dostoni tahlili oʻrin olgan. Akademik B.Valixoʻjayevning “Oʻzbek epik poeziyasi tarixidan” nomli monografiyasi (1974), “Navoiy ijodi ilhom Manbai” nomli risolasi (1981), “Xamsachilik an’anasining ayrim xususiyatlari” (1981), “Xamsa” takmili” (1986) kabi qator maqolalarida ulugʻ shoir Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonini tahlil qilish, bu dostonning “Xamsa” tarkibida tutgan oʻrnini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga alohida e’tibor qaratgan edi [9; 25, 29-36; 26]. Q.Tohirov oʻz ilmiy maqolalaridan birini “Jahonning fotehi Iskandar saboqlari” deb nomlab, unda bevosita “Saddi Iskandariy” dostonining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlarini oʻrgangan edi [10, 95-102]. U kishi “Saddi Iskandariy” dostonining ommabop nashrining mas’ul muharriri sanaladi [9.,110].

Keyingi yillarda “Saddi Iskandariy” dostonining til xususiyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan ayrim maqolalar ham yuzaga keldi. Masalan, T.Choriyevning ilmiy maqolasi “Saddi Iskandariy” dostonida qoʻllangan forscha-tojikcha soʻzlar tahliliga bagʻishlangan edi [11, 83-85].

Yuqorida ta’kidlanganidek, “Saddi Iskandariy” dostonining “Muqaddima” qismi 14 bobga boʻlinadi. Ana shu muqaddimaning 6-bobi “Soʻz ta’rifida...” deb nomlangan boʻlib, u 105 bayt, 210 misradan iboratdir.

Alisher Navoiy “Xamsa” tarkibiga kiritilgan deyarli barcha dostonlarida (“Farhod va Shirin” dostoni bundan mustasno) “Soʻz ta’rifida...” atamasi bilan maxsus boblar yaratgan. “Xamsa”dagi “Hayrat ul-abror”ning XIV bobi, “Layli va Majnun”ning V bobi, “Sab’ai sayyor” ning V bobi va "Saddi Iskandariy"ning VI bobi xuddi ana shunday soʻz ta’rifiga bagʻishlangan qismlardir. Bundan tashqari, Alisher Navoiy “Xamsa”dagi Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dexlaviy, Abdurahmon Jomiyga bagʻishlangan boblarida ham soʻzning qudrati, ta’siri va mohiyati masalasiga oid muhim fikr-mulohazalarni bildirgan edi.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining “Soʻz ta’rifida...” bobida bu fikrni mantiqiy jihatdan rivojlantirib:

Bukim javhari jon dedim otini, Qilay jon bila bu soʻz isbotini.

...Bashar xayliga til tutulgʻon zamon, Tiriklik hamon keldi oʻlmak hamon

...Oʻluk tirguzur boʻlsa hayvon suvi, Qilur ham bu ishni dami Isavi.

. *...Oʻlukka gar andin erur joni pok,*

Va lekin tirikni ham aylar halok [11,41], - deydi.

Yuqoridagi parchada mavjud *“dami Isavi”* antroponim boʻlib, an’anaviy afsonlarga koʻra, Iso paygʻambar oʻz nafasi bilan oʻliklarni tiriltirish qudratiga ega boʻlgan. Bu baytda ana shu holatga ramziy ishora seziladi, ya’ni shoir oʻlikni tiriltiruvchi Iso paygʻambarning dami ham soʻz oldida keyingi oʻrinda turadi, demoqchi boʻladi.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek tilshunosligida “Saddi Iskandariy” dostonining til xususiyatlari, unda frazeologizmlarning qoʻllanishusullari maxsus oʻrganish juda muhim. Ulugʻ shoir Alisher Navoiy asarlari tilining oʻrganilishi uzoq tarixga ega, navoiyshunoslikning bu sohasi bilan boʻgʻliq muammolarni oʻrganish oʻta dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. –Тошкент: Университет, 1992. – Б. 7-12.

Турсунов У., Мухторов О., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили.- Тошкент: “Ўқитувчи”, 1992.

1. Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. –Тошкент: ЎзФА нашри, 1959. – Б. 227- 232.
2. Мамадов Х. Лексико-стилистические особенности художественной прозы Алишера Навои. Автореф. дис...канд. филол. наук. –Ташкент, 1969.
3. Умаров Э.А. Лексико-грамматическая характеристика фразеологизмов дивана «Хазойин ул-маоний» Алишера Навои. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Л., 1968. – 24 с.
4. Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи (ХУП асргача). –Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
5. Қаюмов А. Садди Искандарий. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 132 6.
6. Бойназаров Ф.А. Художественная концепция и историческая личность. – Ташкент: Фан, 1989. – 180 с
7. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Тошкент: Фан, 1974.
8. Тоҳиров К. "Жаҳоннинг фотеҳи Искандар" сабоқлари // Ўзбек филологияси масалалари (илмий мақолалар тўплами). – Самарқанд: СамДУ нашри, 1997, 95-102-бетлар.
9. Чориев М. “Садди Искандарий” достонида форсча-тожикча сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, 6-сон, 83-85-бетлар.
10. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами, йигирма томлик. 11-том. Садди Искандарий (достон). Тошкент: Фан, 1994.

“MEZON UL-AVZON” RISOLASIDAGI MUTTAFIQ UL-ARKON VA MUXTALIF UL-ARKON GURUHLARIGA OID BAHRLAR TALQINI

MAVLUDA SATIYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda Alisher Navoiyning aruz ilmi boʻyicha yaratgan nodir asari – “Mezon ul-avzon” risolasidagi bahrlarning tasnifi, xususan, muttafiq ul-arkon va muxtalif ul-arkon guruhlariga mansub vaznlarning izohi hamda ularning qoʻllanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Mumtoz aruzshunoslik an’anasidagi bahrlar

soni va ularning tarkibiy asoslari taqqoslanib, Navoiy tomonidan risolada berilgan bahrlar tizimi, ular soni va rukn variantlari koʻrib chiqiladi.

Kalit soʻzlar: aruz, bahrlar, muttafiq ul-arkon, muxtalif ul-arkon, hazaj, rajaz, ramal, tavil, madid, basit, vofir, komil.

Alisher Navoiy turkiy xalqlar adabiyotiga oʻzining boy ijodi bilan hissa qoʻshishdan tashqari, adabiyotshunos sifatida ham mumtoz adabiyotshunoslikda salmoqli iz qoldirgan. Uning aruz ilmiga bagʻishlangan “Mezon ul-avzon” risolasi shu masalalarni qamrab olgan asar boʻlib, zamonasida oʻzidan oldingi risolalar tajribasiga tayangan holda, turkiy aruz qoidalarini oʻzida aks ettirgan. Navoiy risolaning muqaddima qismida oʻzidan avval yaratilgan aruzga doir manbalar, jumladan Xalil ibn Ahmadning “Kitob ul-ayn”, Shams Qays Roziyning “Al-moʻjam”, Nasiriddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or”, Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz” asarlariga murojaat qilarkan, ularda mavjud boʻlmagan ba’zi qoida, doira va vaznlarni oʻz asarida keltirib oʻtishini aytadi. “Mezon ul-avzon” oʻz davridayoq zamondoshlari tomonidan yuksak baholangan, temuriy shahzodalar uchun aruz ilmini oʻrganishda qoʻllanma sifatida tavsiya etilgan. Izzat Sulton oʻzining “Navoiyning “Mezon ul-avzon”i va uning kritik teksti” dissertatsiyasida Navoiy tomonidan sanalgan salaflarning asarlari u uchun manba vazifasini oʻtaganini alohida qayd etadi. Quyida Alisher Navoiy risolada aruz bahrlarini qay tarzda berganini koʻrib oʻtamiz.

Aruzga oid manbalarda bahrlar soni turlicha koʻrsatiladi. Xalil ibn Ahmad aruz tizimida 15 ta bahr mavjudligini qayd etgan. Bular tavil, madid, basit, vofir, komil, hazaj, rajaz, ramal, sari’, munsarih, muzore’, xafif, muqtazab, mujtass va mutaqorib bahrlari boʻlgan. Nasiruddin Tusiy bahrlar sonini 17 (18) ta, Qays Roziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Sayfiy Buxoriylar bahrlar sonini 19 ta deb koʻrsatadilar. Zahiriddin Muhammad Bobur esa ariz va amiq bahrlarini qoʻshgan holda, umumiy bahrlar sonini 21 ta deb koʻrsatadi. Shayx Ahmad Taroziy risolasida esa bahrlar soni 40 ta deb keltiriladi. Asliy ruknlardan hosil boʻlgan bahrlar soni 7 ta, bahrlar sonining koʻpligi esa asliy ruknlar turli darajada aralashib kelish orqali yangi bahr hosil qila olishidadir. Shu jihatdan bahrlarni tarkibidagi ruknlarga koʻra ikki guruhga boʻlish mumkin:

1. **Bir xil asliy ruknlardan tashkil topgan bahrlar.** Bu tur bahrlar mumtoz aruzshunoslikda “Muttafiq ul-arkon” bahrlar sifatida qaralgan.
2. **Turli asliy ruknlar hamda ularning tarmoq ruknlaridan tashkil topgan bahrlar.** Ularni “Muxtalif ul-arkon” turidagi bahrlar deb qarashgan.

Mumtoz aruzshunoslikda bahrlarni shu tarzda tasniflash an’anasi ilk bor Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogʻa” asarida kuzatiladi. Undan soʻng Bobur ham shu an’anani davom ettirgan holda, bahrlarni nafaqat tarkibi, balki qoʻllanishiga koʻra

musta’mal va nomusta’mal, matbu’ hamda nomatbu’ kabi turlarga ham ajratib, tavsiflaydi.

Navoiy asarida bahr haqida shunday fikr yuritadi: “Emdi bilkim, buhureki ba’zining takrori va ba’zining tarkibi ba’zi bila hosil bo‘lur, o‘n to‘qquzdur, ba’zi arabqa maxsus va ba’zi ajamqa maxsus va ba’zi mushtarak va turk shuarosig‘a

millati isti’moldin hech qaysi bu vaqtqa degincha maxsus emas ermish va muloyim tab’lig‘ nozimlar har bahr va vaznda kayfa mattafaq nazm aytur ermishlar va aruz qoida va zobitasidin bevuquf ermishlar, to bu vaqtda Tengri inoyatidin turk tili bila she’r ajam shuarosig‘a maxsus buhur va avzon dag‘i nazm silkig‘a kirdi. Ammo buhur asomisi: tavil, madid, basit, vofir, komil, hajaz, rajaz, ramal, munsarih, muzori’, muqtazab, mujtass, sari’, jadid, qariyb, xafif, mushokil, mutaqorib, mutadorik” [2, 46-b]. Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida 19 bahr, 160 ta vazn keltirilgan. Navoiy o‘z risolasida tayanch manba sifatida Abdurahmon Jomiyning “Risolai aruz” asaridan foydalangani uchun aruzshunoslikda mavjud an’anaviy 19 bahrgagina to‘xtalib o‘tadi: Hazaj, Rajaz, Ramal, Tavil, Madid, Basit, Vofir, Komil, Mutaqorib, Mutadorik (G‘arib), Sari’, Qarib, Jadid, Munsarih, Xafif, Muzore’, Mujtass, Mushokil, Muqtazab.

Endi risolada **muttafiq ul-arkon** guruhiga mansub bahrlar qay tarzda tavsiflanganini qiyoslab chiqamiz.

Mutaqorib bahri: “Mutaqorib” so‘zi arabcha “bir-biriga yaqin” degan ma’noni bildiradi. Bahr tarkibidagi vatad va sabablar bir-biriga yaqin masofada joylashganligi uchun shunday atalgan. Mutaqorib bahri fauvlun (V – –) asliy ruknining takroriga asoslanadi.

Forsiy va turkiy she’riyatda, asosan, musamman ruknli vaznlari qo‘llaniladi. Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da mazkur bahrning 8 ta musamman ruknli, 2 ta musaddas ruknli hamda bitta mutatavval ruknli (jami 11 ta) vaznlarini sanab o‘tadi. ***Mutadorik bahri:*** “Mutadorik” so‘zi arabcha “topmoq”, “xabar bermoq”, “orqadan kelib qo‘shilmoq” ma’nolarini bildiradi. Uning asl ruknidagi sababni keyinroq topib, qolgan juzvlarga hamroh qilganliklari uchun shunday nom bilan atalgan. Alisher Navoiy bu bahrni yana “rakz ul-xayr”, “savt un-noqus” deb ham atashlari haqida shunday yozadi: “To‘rtunchu doiraning ikkinchi bahrikim, mutadorik bahridur va ann “rakzul xayl” va “savtin noqus” ham derlar” [2, 46-b].

Tusiyning risolasida mutadorik bahri g‘arib nomi bilan keltiriladi. Mutadorik bahri foilun (– V –) asliy ruknining takrorlanib kelishi bilan yasaladi.

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da ushbu bahrning to‘rtta musamman ruknli va uchta musaddas ruknli (jami 7 ta) vaznlarini sanab o‘tadi.

Hazaj bahri: “Hazaj” arab tilida “yoqimli ovoz”, “xushohang kuy” degan ma’nolarni anglatadi. Hazaj turkiy va forsiy she’riyatda keng qo‘llanilgan aruz bahrlaridan biri. Hazaj bahri mafoiylun (V – – –) asliy ruknining baytdagi takroriga asoslanadi.

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da hazajning o‘n bitta musamman ruknli vaznlarini, o‘nta musaddas ruknli vaznlarini va bitta murabba’ ruknli (jami 22 ta) vaznlarini sanab o‘tadi. Navoiy ruboiy vaznlarini ham alohida keltirganini hisobga olsak, risolada 46 ta hazaj bahri vaznlari keltirilgan deya olamiz.

Ramal vazni: Ramal so‘zi arabcha “bo‘yra to‘qish”, “tuyaning lo‘killashi” degan ma’nolarni anglatadi. Ba’zi aruzshunoslarning fikriga ko‘ra, bu so‘z tuyaning lo‘killab chopishini anglatuvchi ramalon kalimasidan olingan, chunki uni o‘qishdan kelib chiqadigan ohang tuyaning lo‘killashini eslatadi. Shuningdek, ba’zi rivoyatlarda aytilishicha, ramal qo‘shiq nomlaridan biri bo‘lib, u mazkur vaznda

yozilganligi uchun shu nom bilan atalgan. Ramal bahri foilotun (– V – –) asliy ruknining takrorlanib kelishi bilan yasaladi.

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da ramalning 7 musamman ruknli vaznlarini, 4 musaddas ruknli vaznlarini, 2 murabba’ va 1 mutatavval ruknli (jami 14 ta) vaznlarini sanab o‘tadi.

Rajaz bahri: “Rajaz” so‘zi arabcha “tezlik”, “shitob”, “iztirob” ma’nolarini anglatadi. Arab qabilalarining shijoati va janglardagi mardonaligini vasf etuvchi she’rlar, asosan, ushbu o‘lchovda bitilganligi uchun shunday atalgan. Ba’zi aruzshunoslarning aytishlaricha, bu so‘z “yo‘l davomida qaltiraydigan va to‘xtaydigan tuya” ma’nosini anglatadigan “rajz” kalimasidan olingan. Rajaz bahri mustaf’ilun (– – V –) asliy ruknining takroriga asoslanadi.

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da rajazning oltita musamman ruknli vaznlarini, oltita musaddas ruknli vaznlarini va bitta murabba’ ruknli (jami 13 ta) vaznlarini sanab o‘tadi.

Vofir bahri: “Vofir” so‘zi arab tilida “mo‘l, farovon” degan ma’noni bildiradi. Bu bahr asosan, arab adabiyotida, qisman fors-tojik she’riyatida qo‘llangan. Vofir bahri mafoilatun (V – V V –) asliy ruknining takroriga asoslanadi.

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da vofir bahrining bitta musamman va bitta musaddas ruknli (jami 2 ta) vaznlarini misollar bilan keltirib o‘tadi.

Komil bahri: “Komil” so‘zi arabchada “to‘liq, mukammal” degan ma’noni anglatadi. Bu bahr ham arab aruziga xos bahrlardan biri bo‘lib, asosan, arab adabiyotida, qisman

fors-tojik va turkiy she'riyatda ham ishlatilgan. Komil bahri mutafoilun (V V – V –) asliy ruknining takroriga asoslanadi.

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"da komil bahrining bitta musamman va bitta musaddas ruknli vaznlarini misol qilib o'tadi.

Muxtalif ul-arkon guruhiga mansub bahrlar: Asllarning turli darajada aralashib kelishidan hosil bo'lgan bahrlarni muxtalif ul-arkon deb ataymiz.

Tavil bahri: "Tavil" so'zi arabchada "uzun" degan ma'noni bildiradi. Tavil bahri asosan arab aruzida paydo bo'lgan bo'lib, qisman fors-tojik va turkiy she'riyatda ham qo'llanilgan. Tavil bahri maxsus asliy rukndan emas, balki fauvlun (V – –) hamda mafoiylun (V – – –) ruknlarining takrorlanib kelishida hosil bo'ladi. Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"da tavilning faqat bir vazni (Tavili musammani solim)ni keltirib o'tadi, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida esa ushbu

bahrda yozilgan 3 g'azal mavjud [6, 137-b].

Ariz bahri: Ariz bahri forsiy aruzga xos bahr bo'lib, Xalil ibn Ahmad bu bahr haqida ma'lumot bermagan, uni keyinchalik fors-tojik aruzshunoslari kashf qilishgan. Bu bahr xuddi tavil singari fauvlun va mafoiylun ruknlarining almashinib kelishidan hosil bo'ladi, farqi unda avval mafoiylun, keyin fauvlun rukni keladi. Aynan shu almashinib kelish tufayli ariz bahrini maqlubi tavil deb ham atashadi.

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"da ariz haqida ma'lumot keltirmaydi, lekin "Xazoyin ul-maoniy"da arizning musammani solim vaznida yozilgan bir g'azal bo'lib, uning matla'si quyidagicha:

Sanoyi zoting ichra topib ajz, ahli idrok, Gahi louhsi aytib zamone "mo arafnok".

Alisher Navoiy bu bahr haqida "Mezon ul-avzon" asarida ma'lumot bermaganining sababi shundaki, ariz bahri mafoiylun asliy rukni va uning fauvlun tarmog'iga tarkib jihatdan o'xshash ruknlardan tuzilgan. Shundan kelib chiqib, mumtoz aruzshunoslikda mazkur bahrga alohida bahr sifatida emas, balki hazaj tarkibidagi vaznlardan biri sifatida qarash ham mavjud bo'lgan. "Mezon ul-avzon"dan bir oz ilgariroq yaratilgan Jomiyning "Risolai aruz" asarida ham bu bahr alohida keltirilmaydi. "Mezon ul-avzon" uchun Jomiy asarini tayanch manba sifatida olgan Alisher Navoiy ustozi Jomiy izidan borib, mazkur bahrga alohida to'xtalib o'tmagan[6, 137-b].

Madid bahri: "Madid" so'zi arabcha "davomli, cho'zilgan, tortilgan" degan ma'nolarni bildiradi. Madid arab aruziga xos bahr bo'lib, qisman fors-tojik adabiyotida ham ishlatilgan. Madid bahrining nomi ruknlari tavil bahri tarkibidan tortib olinganidan kelib chiqqan. Madidning asosan musamman, ba'zan musaddas vaznlari ham bo'lgan. Alisher Navoiy bu bahr haqida ma'lumot bermaydi.

Amiq bahri: "Amiq" so'zi arab tilida "keng", "enli" degan ma'nolarni bildiradi. Amiq bahri fors-tojik aruzshunoslari ixtirosi bo'lib, foilun hamda foilotun ruknlari takroriga asoslanadi. Amiq bahridagi ruknlar madid bahri ruknlarining o'rni almashib kelishidan hosil bo'lgani sababli, uni "maqlubi madid" deb atashadi[6, 141-b].

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"da amiq bahri haqida ma'lumot bermaydi.

Basit bahri: "Basit" so'zi arabchada "keng, yoyiq" degan ma'noni anglatadi. Basit bahri mustaf'ilun hamda foilun ruknlarining almashib kelishi natijasida hosil bo'ladi.

She'riyatda basitning asosan musamman va musaddas ruknli vaznlaridan foydalanilgan. Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"da basitning bitta musamman ruknli vaznini misollar bilan keltirib o'tadi.

Muzore' bahri: Muzore' so'zi arabcha "o'xshash" degan ma'noni bildiradi. Muzore' bahri maxsus asliy ruknga ega emas. U mafoiylun hamda foilotun ruknlarining takroriga asoslanadi.

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"da muzori'ning sakkizta musamman ruknli va to'rtta musaddas ruknli (jami 12 ta) vaznlarini keltirib o'tadi.

Qarib bahri: "Qarib" so'zi arab tilida "yaqin" degan ma'noni anglatadi. Qarib bahri Xalil ibn Ahmaddan so'ng fors-tojik aruzshunosi Yusuf Aruziy Nishopuriy tomonidan kashf qilingan[6, 158-b]. Qarib bahri mafoiylun va foilotun ruknlaridan tashkil topgan musaddas shaklli bahr sanaladi.

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"da qaribning uch vazni, "Doirai mujtamia"ning izohlanish qismida esa yana bir vazni (jami 4 vazn)ni keltirib o'tilgan.

Mushokil bahri: "Mushokil" so'zi arabchada "o'xshash", "shakldosh" degan ma'nolarni anglatadi. Mushokil bahri Xalil ibn Ahmaddan so'ng fors-tojik aruzshunoslari tomonidan kashf qilingan bo'lib, qarib bahriga o'xshab mafoiylun va foilotun ruknlaridan tarkib topganligi uchun shunday shunday atalgan.

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"da risolaning bahrlar qismida mushokilning to'rt vazni, "Doirai mujtamia"ning izohlanish qismida esa yana bir vazni (jami 5

vazn) keltirib o'tilgan. Ushbu vaznlardan bittasi musamman, ikkitasi musaddas, ikkitasi murabba' ruknlidir.

Xafif bahri: "Xafif" so'zi arabchada "yengil" degan ma'noni bildiradi. Ruknlari ikki tomondan sababi xafif bilan o'ralganligi va yengil ohangga ega bo'lganligi uchun shunday atalgan[6, 148-b]. Xafif bahri foilotun hamda mustaf'ilun ruknlari yordamida hosil qilingan.

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da risolaning bahrlarga doir qismida xafifning beshta vaznini, “Doirai mujtamia”ni izohlash qismida bir vaznini (jami 6 vazn) keltirib o‘tadi.

Mujtass bahri: “Mujtass” so‘zi arabcha “ildizi bilan yulib olingan” degan ma’noni bildiradi. Bahr nomi uning tarkibi xafif bahridan yulib olinganligi uchun shunday atalgan[6, 150-b]. Xafif bahrida mustaf’ilun rukni ikki foilotun orasida keladi, mujtassda esa mustaf’ilun rukni har ikki foilotundan ilgari keladi.

Mujtass bahri uchun ham xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri ko‘pvaznlilik bo‘lib, to‘rtinchi rukn failun (VV–), failon (VV~), fa’lun (– –) fa’lon (– ~) tarzida bir she’riy asarda o‘zaro almashinib qo‘llanaverishi mumkin[6, 150-b].

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da mujtassning 7 musamman va 2 murabba’ ruknli vaznlarini, shuningdek, “Doirai mujtamia”ni izohlash qismida bitta musaddas ruknli (jami 10 ta) vaznlarini keltirib o‘tadi.

Munsarih bahri: “Munsarih” so‘zi arabchada “oson va ravon qilingan”, “erkin” degan ma’nolarni bildiradi. Munsarih bahri mustaf’ilun va maf’ulotu ruknlarining takroridan hosil bo‘ladi, ammo solim ruknlarda cho‘ziq hijolar qisqa hijolardan ko‘pligi tufayli vazn og‘ir chiqadi. Shu sababli turkiy she’riyatda munsarihning asosan tarmoq ruknli vaznlaridan foydalanilgan.

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da munsarih bahrining sakkiz musamman, ikki musaddas va ikki murabba’ ruknli – jami 12 vaznini sanab o‘tadi. Shuningdek, “Doirai mujtamia” izohida Munsarihi musaddasi solim vaznini ham keltirib o‘tadi.

Muqtazab bahri: “Muqtazab” so‘zi arab tilida “qirqib olingan” degan ma’noni anglatadi. Bu bahr asosan arab adabiyotiga xos bo‘lib, qisman fors-tojik she’riyatida ham qo‘llanilgan. Munsarih bahridan ajratib olinganligi uchun shunday atalgan[6, 153-b]. Muqtazab bahri maf’ulotu va mustaf’ilun ruknlarining takrorlanishidan tashkil topadi.

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da muqtazabning ikkita musamman va to‘rtta murabba’ ruknli vaznlarini keltirgan.

Sari’ bahri: Sari’ so‘zi arab tilida “shitob bilan yuruvchi”, “tez” degan ma’nolarni bildiradi. – turkiy va forsiy she’riyatda keng qo‘llanilgan aruz bahrlaridan biri. Sari’ bahri mustaf’ilun va maf’uvlotu ruknlari yordamida hosil qilinadi.

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da sari’ bahrining beshta vaznini, “Doirai mujtamia”ni izohlash qismida yana bir vaznini (jami 6 vazn) keltirib o‘tadi.

Jadid bahri: “Jadid” soʻzi arab tilida “yangi” degan maʼnoni bildiradi. Jadid bahri faqat forsiy sheʼriyatda qoʻllanilgan aruz bahrlaridan boʻlib, Xalil ibn Ahmaddan soʻng fors-tojik aruzshunosi Buzurgmehr Qoyiniy tomonidan kashf

qilingan. Manbalarda “gʻarib”, “nodir” va “ajib” degan nomlar bilan ham keltiriladi[6, 160-b]. Jadid bahri foilotun va mustafʼilun ruknlaridan hosil boʻladi.

“Mezon ul-avzon”da jadidning bir vazni, “Doirai mujtamia”ning izohlanish qismida esa yana bir vazni (jami 2 vazn) keltirib oʻtilgan.

Xulosa qilib aytganda, “Mezon ul-avzon” risolasida Navoiy tomonidan 19 bahrning sistematik ravishda berilgani, har birining oʻziga xos rukn tarkibi va vazn variantlari batafsil koʻrsatib oʻtilganini kuzatish mumkin. Muhimi, “Mezon ul-avzon” nafaqat mavjud aruz anʼanalarini takrorlamaydi, balki ularni kengaytiradi, ayrim vaznlar va qoida elementlarini qayta koʻrib chiqadi va tartibga soladi. Ayniqsa, turkiy sheʼriyatda keng qoʻllangan vaznlarning ifoda imkoniyatlari va ritmik tabiatiga oid mulohazalari Navoiyning aruz ilmiga qoʻshgan ulkan hissasini koʻrsatadi.

ADABIYOTLAR:

1. Абдураҳмон Жомий. Рисолаи аруз / Таржимон, шарҳ ва изоҳлар муаллифи Д.Юсупова. – Тошкент: TAMADDUN, 2014.
2. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 2000. 518 б.
3. Бобир Заҳириддин. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи С. Ҳасанов. – Тошкент: Фан, 1971.
4. Насируддини Тўсий. Меъёр-ул-ашъор / Ҳозиркунандаҳои чоп У. Тоиров, М. Абдуллоев, Р. Чалол. – Душанбе: Ориёно, 1992.
5. Шайх Аҳмад Ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996.
6. Юсупова Д. Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг қиёсий таҳлили. Монография. – Т.: Taʼlim Media, 2019. Б 158.
7. Yusupova D. Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” risolasi uchun asos boʻlgan nazariy manbalarning komparativistik tahlili // Oltin bitiglar – Golden scripts, № 3 2019. 60-80 b.
8. Yusupova D. Temuriylar davridagi aruzga doir turkiy risolalarda bahrlar va vaznlar tavsifi // Oltin bitiglar – Golden scripts, № 4 2020. 3-25 b.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ АЛИШЕРА НАВОИ

РАЙХОН САМАТОВНА ШОДИЕВА, СТАРШИЙ ПРЕПОДАВАТЕЛЬ КАФЕДРЫ ФИЛОЛОГИИ

и обучение языкам Навоийского университета инноваций

Введение. Алишер Навои — центральная фигура тюркоязычной классики, чьё наследие одновременно литературно-художественно и педагогически программно. Его «Хамса», «Махбуб ал-кулуб», дидактическая лирика и трактаты формируют ценностный канон, соединяющий этику, разум и общественную пользу знания. Переосмысление принципов Навои актуально в контексте компетентностной парадигмы образования, где нравственный идеал и гражданская ответственность должны стоять в одном ряду с академическими навыками [1, с. 47–53; 2, с. 11–16].

Источниковедческая база и метод. Исследование опирается на текстологический анализ «Хамсы» (в особенности «Хайрат ул-аброр»),

«Махбуб ал-кулуб», релевантный корпус газелей и на сопоставительный обзор восточной педагогической мысли XV века. Методологически сочетаются герменевтика (интерпретация мотивов воспитания), концептуальный анализ категорий *адолат* (справедливость), *ахлоқ* (нрав), *илм* (знание) и контент-анализ дидактических фрагментов [1, с. 59–66; 2, с. 73–79; 3, с. 25–

39].

Ключевые педагогические принципы.

Приоритет нравственного воспитания. Навои утверждает неразрывность образования и нравственности: «учёность без нравственной опоры — пустое величие» (парафраз), связывая формирование характера с добродетелями милосердия, правдивости, справедливости и скромности [1, с. 92–96; 2, с. 43–45].

Учитель как моральный эталон. Наставник должен быть «чист в делах, умен в слове, тверд в справедливости»; невежественный учитель опаснее невежества ученика, потому что закрепляет дефект нормой [1, с. 101–104; 3, с. 52–58]. Навои фактически формулирует прототип этического кодекса педагога.

Раннее воспитание и «пластичность души». Душа ребёнка «податлива как воск»; значит, ранняя социализация и мягкая дисциплина, а не принуждение, — эффективный путь к устойчивым ценностям [1, с. 67–70; 2, с. 81–83].

Единство знания и пользы. Знание должно приносить общественную пользу (*манфаат*): «украшение человека — знание, польза — его венец» (парафраз). Учёность оценивается по вкладу в общее благо — идеал

«социальной применимости» знания [2, с. 18–20].

Доступность образования и уважение к достоинству личности. Навои подчеркивает ценность человека вне происхождения и призывает расширять доступ к знанию, включая женщин, — для XV века позиция поразительно модерная [2, с. 33–36; 3, с. 61–64].

Патриотическое и гражданское воспитание. Любовь к Родине мыслится как синтез справедливого служения и ответственности элит (правителей, учёных) перед «маленьким человеком» [1, с. 115–120].

Обсуждение и импликации для современного образования. Принципы Навои ложатся в основу компетентностной модели: (а) **нравственная компетентность** (этические решения, академическая честность); (б) **гражданская компетентность** (служение обществу); (в) **метакомпетенции** (саморазвитие, научная добросовестность). Практически это означает: отбор учебного контента с прицелом на ценностные кейсы; внедрение наставничества; портфолио гражданских проектов; оценивание, учитывающее не только когнитивные, но и этические индикаторы [3, с. 72–80].

Заключение. Педагогический кодекс Навои — не музейная редкость, а рабочая нормативная матрица: нравственность как цель, знание как средство,

общественная польза как критерий образования. Интеграция этой модели в учебные программы формирует гармоничную личность, способную к служению справедливости и прогрессу.

ЛИТЕРАТУРА

1. Навои А. Хамса. Ташкент: Фан, 1983.
2. Навои А. Махбуб ал-кулуб. Ташкент: Фан, 1979.
3. Юлдашев А. Педагогические идеи Алишера Навои. Самарканд: СамГУ, 2005.

ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ АЛИШЕРА НАВОИ В ЕГО ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

НИГИНА ХУСАНОВНА ХАКИМОВА,

преподаватель кафедры русского языка и литературы Навоийского государственного университета

Аннотация. В статье рассматривается философские размышления Алишера Навои в произведениях «Язык птиц» и философско-дидактический трактат «Возлюбленный сердец».

Ключевые слова: Алишер Навои, язык птиц, суфизм, самопознание, духовный путь, нравственное самосовершенствование, поэма, символизм.

Annotation. The article examines the philosophical reflections of Alisher Navoi in the works "The Language of Birds" and the philosophical and didactic treatise "Beloved of Hearts".

Key words: Alisher Navoi, the language of birds, Sufism, self-knowledge, spiritual path, moral self-improvement, poem, symbolism.

Непревзойденное наследие выдающегося государственного и общественного деятеля Алишера Навои имеет особое значение в истории развития не только узбекской, но и мировой литературы, национальной культуры и литературно-эстетических мировоззрений народа. В своих бессмертных произведениях он воспевал высокие идеалы гуманизма и общечеловеческие ценности. Используя огромные возможности, богатство и красоту родного языка, прочно занял достойное место в сердцах миллионов читателей. Уникальное творчество выдающегося классика возлагает на современников большую ответственность за сохранение и популяризацию его просветительских идей. Спустя не одну сотню лет его труды не только не теряют актуальности, но и продолжают выступать бесценным руководством для исследователей-литературоведов и лингвистов всего мира.

Период деятельности Алишера Навои (1441-1501 гг.) характеризуется как культура эпохи царя поэтов, личность которого исторически неотделима от широкого круга его современников, друзей, почитателей и учеников. Поэт и ученый, музыкант и художник, один из культурнейших людей своего времени,

он объединял в своей целостности науку и искусство, философскую теорию и общественную практику.

Навои стал основоположником классической поэзии на древнеузбекском. В своем трактате «Суждение о двух языках» энциклопедист писал: *«Если хорошо подумать, в этом языке найдется так много богатства и тонкостей, что легче будет на этом языке словотворчество, словесное художество, стихосложение и писание повестей. В этом языке имеется множество изумительных редких слов и выражений».* Это суждение поэт подтверждал собственным примером, знаменитой «Хамсой» («Пятерица») и многими другими произведениями. Образно выражая значимость двух языков, сравнивая тюркский с персидским, он как великий гуманист объединял и говорил о единстве двух народов и даже больше - подразумевал единство всех людей.

В его трудах подняты темы, касающиеся самых разных сторон общественной жизни XV века. Но большая их часть - философские (проблемы выбора, морали, долга), которые постоянно возникают перед человеком, сколько бы времени ни прошло. Это вопросы государственного правления, современной жизни и будущего народов, нравственности, религии и науки, образования и культуры.

Философские размышления Алишера Навои охватывают темы **гуманизма, верности, справедливости, поиска смысла жизни и идеального общества.** Он воспевал такие качества, как доброта, скромность, преданность и правдивость, осуждая тиранию, алчность и лицемерие. Его философия включает глубокую любовь к человеку, заботу о воспитании молодого поколения и стремление к общечеловеческому миру и согласию. Поэма Алишера Навои «Язык птиц» («Лисон ут-Тейр») – это не просто жемчужина восточной литературы, но и глубокий философский трактат, зашифрованный в форме захватывающей суфийской притчи. Используя аллегорию долгого и трудного путешествия птиц к мифическому царю Симургу, Алишер Навои создает универсальную модель духовного пути человека к познанию высшей истины и самого себя. Эта модель становится ответом на вечные вопросы о пути познания, природе истины, смысле жизни и возможности нравственного совершенства. Философия Алишера Навои, укорененная в мистическом суфизме, сохраняет свою актуальность, приглашая каждого читателя к внутреннему паломничеству. Философская мощь и проницательность «Языка птиц» Алишера Навои давно вышли за пределы своей исторической эпохи и суфийского контекста. Ключевые выводы звучат с поразительной актуальностью и силой для современного человека, зачастую погруженного в суету внешнего мира, погоню за успехом и поверхностными ценностями. Поэма напоминает нам, что источник, истинного смысла жизни, подлинной гармонии и ответов на главные вопросы, сокрыт не во внешних достижениях, социальных статусах или материальных обладаниях, а в бездонных, часто неисследованных глубинах нашего собственного «я».

Легендарный «Симург» – это не мифический владыка где-то вовне, а наша собственная высшая, божественная природа, наша истинная суть, ожидающая открытия и реализации через трудный, но благодатный путь самопознания. Несмотря на все описанные испытания, потери и трагизм многих спутников, поэма Алишера Навои заканчивается не скорбью, а победой дошедших просветлённых. Эта поэма - воплощение оптимизма великого гуманиста Алишера Навои, его незыблемой веры в победоносную силу искреннего, устремленного человеческого духа, способного преодолеть любые, самые немыслимые внутренние и внешние преграды на пути к истине и свету.

Не менее глубокие философские идеи отражены и в другом философско-дидактическом трактате «Возлюбленный сердец» («Махбуб аль-кулуб»), написанный как некий итог жизненных размышлений. Эта работа - свод наставлений, излагающий принципы взаимоотношений людей между собой, о том, как должен вести себя человек, чтобы быть достойным своего предназначения, рекомендации о поведении в обществе, семье и быту. Произведение дает подробную информацию о критериях высоких духовных качеств, образцового поведения, которыми обязан владеть каждый человек. Как пишет сам Навои, трактат повествует о достоинствах и недостатках, встречающихся у людей, напутствует их на следование высоким духовным ценностям. Поэтому примечательна возможность оттенков перевода названия

«Махбуб аль-кулуб»: «Книга близкая сердцам» или «Душевная книга». Эти варианты более точно передают своеобразное желание автора: создать такую доверительную книгу, которая была бы значимой и желанной для потомков. Трехчастная композиция книги своеобразна, каждая часть логически развивает и дополняет предыдущую. По сути, основной можно назвать третью, в которой Навои излагает главную идею - его видение нравственно-этического облика человека. Поэт твердо уверен, что единственный путь человека к счастью - стать личностью по-настоящему духовно богатой, а значит, совершенной. Как утверждает поэт, человек, довольствующийся малым, избавляется от унижения зависимости и связанных с этим всевозможных душевных страданий. Эти качества помогают сохранить внутреннюю свободу, независимость:

В третьей части книги Алишер Навои напрямую обращается к читателю и открывает «тайны духовного самосовершенствования», излагая принципы достижения качеств, достойных похвалы. Его мудрые наставления выражены в виде замечаний о верности, щедрости, кротости и других человеческих качествах. Особенно поучительны мысли о благородстве и мужестве. Как пишет Навои, «благородство и мужество - родители, а верность и совесть - их дети - близнецы; сколько величия и блеска у родителей, столько великолепия и сияния у детей. В

каждом сердце, в котором есть верность, имеется и совесть, там, где та обитает, и эта бывает. У кого нет их обеих, у того нет веры, а у кого нет веры, у него нет и человечности».

Алишер Навои, посвятивший всю свою деятельность и глубоко гуманистическое творчество нации и всему человечеству, был наставником, патриотически настроенным на воспитание высокодуховной молодежи. Все надежды на справедливое общественное устройство и замечания по воспитанию высоконравственных качеств личности он изложил как завещание.

ЛИТЕРАТУРА:

1. «Язык птиц» (изд. "Наука", 2007)
2. Алишер Навои. Сочинение в 10 томах. Том 8: Язык птиц. Перевод Сергея Иванова. Редактор тома Р. М. Маджиди. Т.: Издательство «Фан», 1970.
3. Бертельс Е.Э. «Суфизм и суфийская литература» (1965)
4. Алишер Навои. Сочинение в 10 томах. Том 10: Собрание избранных. Возлюбленный сердец. Перевод А.Рустамова (рифмовая проза) и А.Старостина (стихи). Суждение о двух языках. Перевод А. Малеховой. Т.: Издательство «Фан», 1970.
5. Бертельс Е. Э., Навои. Опыт творческой биографии, М. — Л., 1948.
6. Захидов В., Мир идей и образов Алишера Навои, Т., 1961

"SAB'AI SAYYOR" DOSTONINING G'OYAVIY-ESTETIK MAZMUNI

MUXLISA ASATILLO QIZI IKROMOVA, KARMANA TUMANI 6-UMUMTA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostoni g'oyaviy-estetik mazmuni tahlil qilinadi. Asarda inson kamoloti, axloq-odob, adolat va muhabbat g'oyalari qanday badiiy ifoda topgani, dostondagi ramz va timsollar orqali Navoiyning falsafiy qarashlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Sab'ai sayyor", g'oyaviy mazmun, estetik tahlil, axloq, adolat, muhabbat, timsol, ramz, badiiy tafakkur, "Haft paykar", Sharq epos an'anasi.

Yazdijurd o'g'li Bahrom otasidan so'ng o'zining qahramonligi – sherni yenggani bilan podshohlik toj-u taxtini qo'lga kiritadi. Mamlakatda adolat va osoyishtalikni o'rnatishga intiladi va shuning bilan birga go'r-qulon oviga ham beriladi. Shundan uni Bahromi go'r deb atash ham odat bo'lib qoladi. Ov jarayonining birida Bahrom rassom Moniy bilan uchrashib, go'zal Dilorom va uning ta'rifi hamda Moniy chizgan rasmni ko'rib, unga oshiq bo'lib qoladi. Diloromni Xojasidan Xito mulki evaziga sotib olib,

saroyiga keltiradi. Dilorom go‘zallikda, xulq-u atvorda hamda chang cholishda nodirai davron bo‘lganidan Bahromni o‘ziga maftun etadi. Natijada Bahrom mamlakatdorlik ishlari bilan shug‘ullanishdan ko‘ra ko‘proq aysh-ishratga beriladi, Diloromning suhbati, musiqasi, san’atisiz tura olmaydigan bo‘ladi. Hatto ov jarayonida ham bu hol davom etadi. Ana shunday ov jarayonlaridan birida Bahromning kiyik ovlashdagi mahoratini Dilorom “mashqning kamoloti natijasi” deb baho berishi mast mag‘rur podshoh Bahromning g‘azabini keltiradi. Bahrom Diloromni jazolaydi: qo‘l-oyog‘ini sochlari bilan bog‘lab, dasht-

sahroda tashlab ketadi. Mastligi tarqalgan Bahrom Diloromni yonida ko‘rmay, uni so‘raganida, unga bo‘lib otgan voqeani bayon qiladilar. Bahrom o‘sha dasht-sahroga boradi, ammo Diloromni topa olmay qaytib keladi. Shundan so‘ng Bahrom Diloromni qumsab, kasal bo‘lib qoladi. Uni davolashga harakat qildilar, natija bermaydi. Nihoyat yetti go‘zal qasr bino qilib, unga yetti malikani keltiradilar. Bahrom shanba kunidan boshlab, haftaning har kuni bir qasrda bo‘lib, turli o‘lkalardan kelgan musofirlarning qiziqarli, shuning bilan birga katta ma’rifiy ahamiyatga molik hikoyalarini eshitadi. Yettinchi qasrda musofir tomonidan aytilgan hikoyada Diloromning dasht-sahroda tashlab ketilgandan keyingi sarguzashtlari bayon qilingach, Bahrom Dilorom daragini topib, uni Xorazmdan olib keltiradi va yana aysh-u ishrat hamda ovga beriladi. Ana shunday ov jarayonining birida botloq ularning hammasini yutadi. qoliplovchi qissa ana shunday yakunlanadi.

Bahrom va Dilorom sarguzashtlaridan iborat bo‘lgan qissada ikki masala badiiy tarzda hal qilingan. Ulardan biri podshoh-oshiq masalasi bo‘lsa, ikkinchisi podshoh-hukmdor masalasidir. Bu masala, ya’ni Bahrom kim bo‘lishi kerakligi masalasi qissaning qahramoni Bahromning o‘zi tomonidan ham muhokama qilingan. Bu haqda Alisher Navoiy dostonning o‘n beshinchi – “Bahromning ishq tug‘yonidin bexirad…” deb nomlangan bobida alohida to‘xtaladi. Unda Bahromning o‘zi bu ikki yo‘ldan birini - yo haqiqiy hukmdor - podshoh bo‘lish yoki haqiqiy oshiq bo‘lishni tanlashi lozimligini tushunadi. Shunday bo‘lsa-da, Bahrom podshoh bo‘la turib, oshiq bo‘lishni ham istaydi.

Ki: „Agar bo‘lsa shohlig‘ boqiy, Topilur bo‘yla mohvash soqiy. Buki, vaslini topmisham payvast,

Shohlig‘ o‘lmasa, bermas erdi dast. [10-tom, 106]

Bu esa uning har ikkala sohadagi fojiasini – podshohlikda mamlakatni xarobalikka yuz tutishi, adolatsizlikning avj olishi oshiqlikda esa komillik darajasiga yetmaganiga bois bo‘lib, bu holat, ikki kemaning uchini tutgan g’arq bo‘ladi, deganlaridek, Bahromning botqoqlikka botib ketganligi bilan fojiaviy nihoyasiga etadi. Alisher Navoiy Bahrom obrazini chizayotganda uning “ishq” so‘zi - ishqdagi kuyish - yonishlari - iztiroblarini qalamga olajagiga ishora qiladi. Bu esa Alisher Navoiyning asosiy diqqatni Bahromni

oshiq sifatida tasvirlashga qaratganidan dalolat beradi. Ammo podshoh Bahrom Alisher Navoiy tasvirlamoqchi bo'lgan oshiq Bahrom bo'lishni emas, balki ham podshoh-hukmdor va ham oshiq bo'lishni ixtiyor qiladi. Demak, tasvirlanayotgan obraz shoir istagiga bo'ysinmaydi. Bu esa nihoyatda muhim bir adabiy hodisa. Shoir ham o'zi tasvirlayotgan obrazning, bu o'rinda podshoh Bahromning qarorini (ham hukmdor podshoh hamda oshiq bo'lishni) o'zgartira olmaganidan iztirobda qolib, uni to'g'ri yo'lga boshlash yo'llarini qidiradi va o'zining maqsadini birinchi musofir tomonidan Bahromga aytgan hikoyada ifoda etadi. Mazkur hikoyada Alisher Navoiy Sarandeb shahzodasi Farrux bilan sevgilisi Gulchehra o'rtasidagi munosabatlarni boshqacha hal qiladi, ya`ni shahzoda Farrux sevgilisining tarixini bilgach, uni o'z "singlisi" deb e`lon qiladi va shundan so'ng Sarandebning odil podshosi bo'ladi. Demak, Farrux

oshiqlikdan voz kechgandan so'ng adolatli podshohga aylanadi va baxt-saodatga erishadi. Bu hikoyani eshitgan Bahrom esa o'zining ham hukmdor-podshoh va ham oshiq bo'lish qarorini o'zgartirmaydi.

Natijada o'z qilmishlarining fojiali yakuni tomon qadam tashlayveradi.

Oqibatda Bahromning taqdiri nihoyatda ayanchli tarzda yakunlanadi.

Alisher Navoiy o'zi tasvirlayotgan obraz taqdirining bunday bo'lishini istarmidi? Bu savolga Alisher Navoiy bunday bo'lishini istamas edi, uning oldini olish uchun shoirligining barcha imkoniyatlarini ishga solgan edi, deb javob berish mumkin. Ammo tasvirlanayotgan Bahromda joh, mansab, shohlik g'ururi oshiqlikdan ustun bo'lganligidan shoirning pand-nasihatlariga quloq solmadi va oqibatda fojiaga uchraydi. Bunda qiziq bir hol ham kuzatiladi: Alisher Navoiy zamonasida shoh-„zillillohi fi-l-arzi“ –„Allohning erdagi soyasi“ tarzida ulug'lanib, hurmat-ehtirom qilinardi. Ana shunday ruhda tarbiyalangan Alisher Navoiy ham shoh ray'iga qarshi bora olmasdi, ammo uni xatarli yo'l va faoliyatdan ogohlantirish va saqlanishga da'vat-nasihatlarini nihoyatda ehtiyotkorlik bilan bayon etardi. Bu hol, xususan, Bahrom obrazini tasvirlashda yorqinroq ko'zga tashlanadi.

Dostondagi qoliplovchi qissaning bosh qahramoni Bahrom murakkab timsollardan bo'lib, Diloromi Changining ham fojiali taqdiriga sababchi bo'ldi. Shoir tomonidan juda katta samimiyat va mahorat bilan tasvirlangan hunarmand va oqila Dilorom mag'rur shoh Bahrom injiqliklariga duch keldi, ammo uni tark etmadi, aksincha, uning fojiali taqdirini baham ko'rdi.

Dostondagi qoliplovchi qissa voqealari bayonida musofirlar tilidan aytilgan yetti hikoya mazmuni, g'oyasi, badiiyati va qiziqarliligi bilan alohida ajralib turadi. Ulardagi voqealar Sarandeb (Shri Lanka-Seylon)dan tortib, Misr, Rum, Hindiston, Xorazm, Shahrisabzgacha bo'lgan katta jug'rofiy hududda sodir bo'ladi. Xuddi ana shu hikoyalardan ikkinchi musofir tilidan bayon qilingan voqealar tasvirida AlisherNavoiy

muhandislikning mukammal namunasi boʻlgan oʻzi yurar taxt, oʻzi harakat qiluvchi zinalarni aks ettiradi. Eng muhimi shundaki, barcha hikoyalar ezgulik va olijanoblikning tantanasi bilan nihoyasiga etadi; sevishganlar murod-maqsadlariga erishadilar, adolat gʻolib keladi, yovuzlik va adolatsizlik yengiladi.

Hikoyalarda romantik tasvir usuli (taxayyul) yetakchi oʻrinni egallaydi. Hikoyalardagi Farrux, Axiy, Gulchehra (1-hikoya), Zayd Zahhob (2-hikoya), Sa'd, Gulrux (3-hikoya) Mas'ud (4-hikoya), Mehr, Suhayl (5-hikoya), Muqbil (6- hikoya) kabi qahramonlarning surat va siyrati, faoliyat va sarguzashtlari shu darajada maroqli va jozibaliki, ularni oʻqigan kishi Alisher Navoiyning she'riy hikoya yozishdagi ulkan mahoratidangina hayratda qolmay, balki umumbashariy ahamiyatga molik nihoyatda muhim masalalarni falsafiy va axloqiy yoʻnalishda qalamga olganining guvohi ham boʻladi. Ular insonni komillikka da'vat etguvchilardir.

Xulosa. "Sab'ai sayyor" oʻzining qoliplovchi qissasi va goʻzal yetti hikoyasi bilan "Xamsa"dan oʻrin olgan oʻziga xos va Alisher Navoiy mahoratiga mos dostonlardandir. Dostonda obrazlar va unda ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar oʻzaro uygʻunlikda mahorat bilan tasvirlangan.

ADABIYOTLAR:

1. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи (Ўқув қўлланма). II қисм. – Сам.: СамДУ нашри, 2002.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi. (Oʻquv qoʻllanma) –T.: Yangi asr, 2006.
3. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Фан, 2005.
4. Салоҳий Д. Навоий назмиёти (Ўқув қўлланма). – Тошкент, 2012.
5. Тоҳиров С. Хамсанавислик анъанасининг илк қоидаси хусусида // СамДУ

«Илмий ахборотнома»си. 2013 йил, 4-сон. 57-61-бетлар.

1. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 7-том. – Т.: Фан, 1992.
2. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 11-том. – Т.: Фан, 1994.
3. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 16 том. – Т.: Фан, 1999.

БЕСЦЕННАЯ МУДРОСТЬ, ГЛУБОКИЕ СУЖДЕНИЯ И ФИЛОСОФСКИЕ МЫСЛИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

ГУЗАЛ ЗАРИПОВА,

и.о. доцента Навоийского Университета Инноваций

«Если ты человек, то не называй человеком того, кто не заботится о судьбе своего народа».

Алишера Навои

Это высказывание великого поэта и мыслителя наполнено глубоким смыслом: жить заботами людей - самый важный критерий человечности, оно не потеряло своей актуальности и в наши дни. Взятые как ориентир, эти бессмертные слова сегодня полностью созвучны с нынешней нашей жизнью, где забота о человеке является высшей ценностью.

В развитии национальной литературы, повышении духовности, художественного уровня и мировоззрения нашего народа, особенно молодежи, неоценимая роль принадлежит произведениям выдающегося мыслителя и поэта Алишера Навои. Воспетые в его творчестве такие бессмертные идеи, как гуманизм, добро, милосердие, миролюбие, сегодня все шире находят свое отражение во всех сферах жизни нашего общества.

В поэме «Язык птиц» Навои в аллегорической форме рассказывает о том, что птицы не могли найти согласия, всегда шумели и конфликтовали, а затем один из пернатых - удод, уговорил полететь к Симургу, чтобы тот объяснил им смысл жизни. Птицы, увлеченные удодом, устремились за истиной к Симургу. На пути их ожидали труднейшие испытания, им предстояло преодолеть семь долин: Исканий, Любви, Познания, Безразличия, Единения, Смятения и Отрешения.

Не выдержав испытаний, большинство птиц отстало, погибло. Лишь небольшая часть сумела преодолеть последнюю долину. Когда они добрались до цели, никакого Симурга там не оказалось, но к этому времени они были настолько спаянны, настолько мудры и возвысились над суетою жизни, что им

уже ничего и не надо было, ибо они достигли истины. Истина оказалась в них самих, но чтобы достичь ее, им пришлось отрешиться от собственного «я», слиться в единое целое.

Самих птиц в конце пути было ровно тридцать. (По-персидски «си» - тридцать, «мург» - птица) Алишер Навои умело использует здесь игру слов

«си мург» и Симург. Вывод - ищи бога в самом себе.

Глубокая философия высказываний великого Навои заставляет задуматься над смыслом жизни. И невозможно не восхищаться мудростью поэта.

«Дороже всех богатств, тебе дана Бесценная жемчужина одна.

И это - разум. Не сравняться с ним Рубинам и алмазам дорогим»

Искреннюю любовь к людям, надежду на будущее, оптимизм Навои передаёт таким образом:

«Что свершилось, то навек уйдет, Кто прошлое догонит? Кто вернет? В мгновенье каждом помни ты,

Грядущее и прошлое слиты Тебе одно мгновенье здесь дано, - Так пусть же будет счастливым оно».

Эти пророческие строки Навои, оставлены как завещание потомкам. Мудрые философские наставления поэта, пронизанные неизмеримой любовью к человеку. Они не подвластны времени, как и все, что написано им.

Алишер Навои был патриотом, истинным сыном узбекского народа, и его гениальные строки, исходящие из пламенного сердца, выстраданные, глубоко лиричные и философски осмысленные, ставшие нашим жизненным кредо, актуальны и сегодня.

Живя и творя в те далекие времена, просвещенный деятель и провидец, Навои всем сердцем переживал за свой народ, верил в его светлое будущее, в то, что преобразится общество и жизнь изменится к лучшему.

Творчество великого Навои бессмертно, его бесценная мудрость, глубокие суждения и философские мысли из года в год наполняются высоким смыслом, от них веет пафосом новой жизни, большими преобразованиями.

Имя нашего великого соотечественника носят музеи и памятники, архитектурные произведения и культурно-просветительские учреждения, школы, сады, парки, станции метро, улицы и библиотеки по всей республике и за ее пределами.

Памятники великому узбекскому поэту поставлены в Баку, в Ашхабаде, в Токио, в Москве и в Вашингтоне.

В нашей республике изучению творческого наследия Алишера Навои уделяется большое внимание, так как свет высокой духовности, который дарят его творения, облагораживает сердца, возвышает человека, зовет к служению высоким идеалам.

ЛИТЕРАТУРА

1. Тревер К.В., Якубовский А.Ю., Воронец М.Э. История народов Узбекистана. Том1.Т., 2009. С. 396-397.

IKKINChI ShO'BA: FILOLOGIK TADQIQOTLAR: FANLARARO MUNOSABAT VA ZAMONAVIY TALQIN

DAVLAT TILI RIVOJI – MILLAT KELAJAGIGA POYDEVOR

MURODQOSIM ABDIYEV,

SamDU professori, filologiya fanlari doktori

Ma'lumki, millatning dunyoda mavjudligini ko'rsatuvchi muhim omillardan biri til hisoblanadi. Unda tarix, din, urf-odat, mentalitet singari millat ruhini namoyon etuvchi belgilar mujassam etiladi. Chunki til nafaqat millatning qolaversa, davlatning ramzi, ko'zgusi hisoblanadi. Ona tili insonning kamol topishida, ya'ni uning aqliy va ruhiy holatini harakatga keltiruvchi, o'zligini namoyon qiluvchi tengi yo'q kuch hisoblanadi.

Til – millatning mavjudlik belgisi. Tilni asramagan millatning tarqab ketishi, yo'qolishi muqarrar. Millatning boshidan o'tkazgan kechmishi tilida o'z ifodasini topadi. Milliylik o'z-o'zini asramoq, o'zini boshqarmoq, uning qadr - qimmatini o'zgalar oldida ko'z-ko'z qilmoqlikdir. Milliy g'oya va tafakkurning shakllanishi va taraqqiyoti milliy til bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois ham o'zini anglash milliy tilga hurmat va sadoqat orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham til milliy qadriyatlar orasida muhim rol o'ynaydi.

Tarixi asrlar bilan tengdosh bo'lgan ona tilimiz xalqaro hamjamiyatda o'ziga xos o'rni va mavqeyiga ega. Boshqa tillar kabi o'zbek tili ham o'ziga xos xususiyatga, chiroyga va tarovatga ega. Unda ota-bobolarimiz an'analari mujassamlashgan. Turk xoqonligi va qoraxoniylar davrida, xususan, temuriylar davrida yuksaklikka erishgan tilimizni hazrat Alisher Navoiy yanada takomillashtirdi va sayqallashtirdi. Demak, temuriylar davlati taraqqiy etishi bilan davlat tili ham rivoj topdi. Bu davrda Alisher Navoiydek yetuk adiblar etishib chiqdi.

Afsuski, xonliklar davridagi o'zboshimchalik va tarqoqlik davrida ona tilimiz rivoji ham ancha susaydi. Chor Rossiyasi bu imkoniyatdan osonlik bilan foydalandi. Chor Rossiyasi bosqini va sho'rolar hukmronligi davrida ona tilimiz turli xil yo'llar bilan kamsitildi.

Avvalo, millat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri bo'lgan yozuv turli xil bahonalar bilan bir necha marotaba o'zgartirildi. O'tgan asrning boshlarida maktablarda ona tili sifatida turk yoki tatar tili o'qitilishi yoki umuman boshqa tillarni o'qitishga

urinishlar bo‘layotganligidan foydalangan sho‘ro shovinistlari o‘zlarining asl maqsadini ro‘yobga chiqarishning bir yo‘li sifatida ayyorlik, ya’ni “soxta“ mehribonlik yo‘liga o‘tishga urinishgandi. Ular har bir viloyat o‘z shevasida ish yuritishga ro‘yxushlik berish orqali bu niyatlarini amalga oshirmoqchi bo‘lishgan edi. Hatto sho‘rolar davrida mahalliy hukumatga yuqoridan o‘zbek millati sonini kamaytirish maqsadida har bir region uchun o‘z shevalarida darsliklar yaratish va shu asosida darslar o‘tilishini ta’minlash bo‘yicha yashirinchi

ko‘rsatmalar berilganligi ham ma’lum bo‘ldi. Bundan ko‘zda tutilgan maqsad o‘zbek millatining yagona adabiy til doirasida birlashishiga yo‘l qo‘ymaslik edi. Hatto ular shu maqsadini amalga oshirish niyatida yozuvimizni ham bir necha marotaba almashtrishga muvaffaq bo‘lganligining zamirida ham shu maqsad yotganligini anglash qiyin emas.

Bu jarayonlarning asl oqibatini tushunib etgan A.Avloniy, A.Qodiriy, A.Cho‘lpon, M.Behbudiy, A.Fitrat, H.Hakimzoda singari jadidlar yangi ochilayotgan maktablarda ta’lim-tarbiya ishlarini yagona o‘zbek adabiy tilida olib borishga erishdilar va o‘zlari o‘zbek adabiy tilida bir qator darslik, qo‘llanma va lug‘atlar tuzdilar. Ular o‘zbek tili terminologiyasini arab va fors hamda g‘arb tillaridan o‘zlashgan so‘z va terminlaridan tozalashga harakat qildi. Ayni paytda tilimizda faol qo‘llanayotga o‘qituvchi, o‘quvchi, ot, son, olmosh, undalma, kelishiklar va ularning nomlari, egalik, qo‘shma, sodda, ergashgan, ko‘chirma, o‘zlashtirma, undov, ko‘paytirish, qo‘shuv, ayiruv, ildiz osti singari juda ko‘plab so‘z va terminlar bevosita ularning sa’y-harakatlari va tinimsiz izlanishlari natijasining samarasidir.

Din, urf-odat, ma’naviyat, ma’rifat, madaniyat kabi qadriyatlar millatning o‘ziga xosligini namoyon etuvchi xususiyatlar bo‘lib, ularni yuzaga chiqaruvchi hamda asrdan asrga kelgusi avloddga etkazuvchi muhim vosita bu – ona tili hisoblanadi. Chunki unda millat ruhi ifoda etiladi, asriy an’analar, milliylik namoyon bo‘ladi. Ummon kabi sof, teran,bepoyon va rangin tilimiz bor. Uni dunyo o‘rganmoqda. Ammo biz shu paytgacha 1989-yil qabul qilingan “Davlat tili haqida”gi Qonun ijrosini faqat yilning 21-oktabr sanasida Davlat tili bayramida Alisher Navoiy haykaliga gul qo‘yish-u, tadbir o‘tkazish hamda televidenie, radio va matbuotda chiqishlar bilan kifoyalanib keldik, xolos. Aslida esa qonunning hayotga tadbiq etilishini nazorat etish davlat qonunlari ijrosini nazorat etuvchi organlar hamda har bir ziyolining burchi bo‘lmog‘i lozim edi. Chunki til muhofaza va parvarishga doimiy ravishda muhtojdir. Ushbular bo‘lmasa, u so‘lib qoladi.

Prezidentimizning 2019 -yil 21- noyabrdagi “ O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850 Farmon ijrosini ta’minlash maqsadida 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining e’lon qilinishi o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini yanada oshirish imkoniyatini yaratdi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat tilini rivojlantirish departamenti faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, har bir davlat idoralarida davlat

tili bo‘yicha maslahatchilar shtatlarining joriy etilishi davlat tilining yanada jamiyat hayotiga to‘liqroq joriy etilishi uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Ularda joylarda davlat tilining yuritilishini nazorat va targ‘ib qilishmoqdalar. Davlat tilini rivojlantirish departamenti huzurida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi” va uning viloyatlarda bo‘limlari tashkil etildi. Markazni tashkil etishdan maqsad barcha davlat tashkilotlarning mas’ul xodimlarga va aholiga davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘rgatish bilan birga “ Lotin alifbosiga asoslangan yangi o‘zbek yozuvi”ni hamda uning “Imlo qoidalari” va adabiy til me’yorlarini o‘rgatishdan iborat.

Shuningdek markaz tomonidan respublikamizning o‘zga tilda so‘zlashuvchi aholisi hamda chet elliklar hamda xorijda o‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun kurslar tashkil qilish ishlari allaqachon boshlanib yuborilgan. Yana shu o‘rinda bir narsani ta’kidlash lozimki, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs tomonidan davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroridan kelib chiqib O‘zbekiston fuqaroligini oluvchilarni o‘qitish va ularning davlat tilini bilish darajasini sinovdan o‘tkazish vazifasi ham yuklatildi. O‘zbek tilining hali tadqiq etilmagan va o‘rganilmagan tomonlarini tadqiq etishda hamda uning amaliy jihatdan qo‘llanish ko‘lamini yanada oshirishga xizmat qilishi shubhasizdir. Xususan, o‘zbek tili terminologiyasi masalalarini tadqiq etish, sohalarga doir izohli lug‘atlar tuzish, jumladan bugungi kundagi yo‘qolish arafasida turgan milliy hunarmandchilik sohalarini qayta tiklash barobarida zudlik bilan ularga tegishli so‘z va terminlarni yig‘ib olish milliylikning o‘ziga xos tomonlarini tiklashda va boyitishda metodologik asos bo‘ladi.

Respublikamizda boshqa millat va elatlar huquqlari hamda erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro qonun me’yorlarini ro‘yobga chiqarishda ham jahon hamjamiyatiga ibrat bo‘ladigan ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda ta’lim yettita tilda olib borilayotganlgi fikrimizga yaqqol dalili bo‘la oladi.

Ayniqsa muhtaram Prezidentimizning 2025-yilning 23-sentabrida BMTning 75-sessiyasidagi onlayn nutqining davlat tilida e’lon qilinishi butun o‘zbek xalqining davlat tilimizning yanada mavqeyini oshrishiga da’vat bo‘ldi. Shuningdek 2025-yil 20-oktabrda qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari haqida” qarori ham davlat tilini rivojlantirishni yanada jadallashtirish ishlariga bo‘lgan e’tibor ekanligi alohida uqtirish lozimdir. Ayni paytda 21-oktabrda barcha tashkilotlarda davlat tili bayrami tadbirlari hamda keng xalq sayli uyushtirilayotganligi millatdoshlarimizning kayfiyatiga kayfiyat qo‘shmoqda.

Shu bilan birga hali “Davlat tili qonun”ni joriy etilishi borasida bir qator hal qilinishi lozim bo‘lgan quyidagi masalalar ham turibdi:

-hududlarda ayniqsa peshlavha, ko'rsatich hamda reklama singarilarning " Imlo qoidalari"ga muvofiqligini ta'minlash hamda ularning davlat tilida yozilishining davlat tomonidan nazorat qilish ishlariga ko'maklashish istagida bo'lgan ko'ngillilardan tashkil topgan guruhlar tuzish, ularning yordami bilan ishni yanada jonlantirish mumkin;

- Davlat tilini ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umum o'rta ta'lim, kasb-hunar, oliy ta'lim va undan keyingi ta'lim muassasalarida o'qitilish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Shu paytgacha mazkur ta'lim muassasalarda Davlat tilini o'qitish metodlari bo'yicha barmoq bilan sanarli miqdordagi tadqiqotlar olib borildi. Shuning uchun ham "Davlat tili"ni o'qitish yuzasidan yangicha metodlarga asoslangan hamda o'qitishni jadallashtirishga mo'ljallangan tavsiyalar beradigan amaliy tadqiqotlar yaratish o'ta dolzarb. Chunki amaldagi darslik va o'quv

qo'llanmalarning aksariyati talabalarga asosan grammatikani o'qitish bilan cheklanib qolmoqda. Holbuki, talaba egallagan bilimini amalada qo'llab, malaka va ko'nikma hosil qilmas ekan, o'qituvchi ko'zlagan maqsadiga erisha olmaydi;

- o'zbek tilining lug'at boyligini zudlik bilan to'plab olish choralarini ko'rish maqsadida "O'zbek shevalari markazi" nafaqat Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzurida, balki uning viloyatlarda bo'linmalari yoki "O'zbek shevalari laboratoriyalari"ni har bir oliy o'quv yurtlarida ochish maqsadga muvofiqdir. Bu ishlarni tezkorlik bilan amalga oshirmasak, vaqt o'tishi bilan ayniqsa yoshi katta insonlarning dunyodan o'tishi bilan bu boylik unutilishi mumkin. Chunki yoshlar asosan adabiy tilda so'zlashadi, ko'pchiligi shevasini unutishgan. Albatta, bu jarayonni amalga oshiruvchilar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlagishi lozim bo'ladi. Chunki xalq ichiga ekspiditsiyalar uyushtirish mablag' bilan bog'liqdir;

-hozirgi axborot texnologiyalari taraqqiyot etayotgan bir davrda o'zbek tili rivoji va istiqbolini axborot kommunikatsion texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bizda bu borada qilinadigan ishlar bir talay bo'lib, bular quyidagilar:

-
  - internet tarmog'ida jarayonlarni ifodalovchi terminlar haligacha rus tilida. Nahotki, bu almashtirib, avtomatik tarzda o'zbekchaga almashtirishning imkoni bo'lmasa? Mamlakatimizda o'ndan ortiq o'quv yurtlarida kompyuter injinering hamda dasturlash sohalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bu masalani zudlik bilan hal qilish lozim;
  - kompyuterda o'zbek tilida yozish jarayonida xato yozilgan so'zni maxsus belgililar asosida ogohlantiruvchi dastur ishlab chiqilmagan. Bu dastur rus, ingliz va boshqa tillarda allaqachon yaratilib foydalanilmoqda. Bu dasturni zudlik bilan yaratish davr talabi bo'lib, savodsizlarcha yozilgan yozuvlarning kamayishiga ham yordam beradi;

- yoshlar, xususan, maktab yoshidagi bolalar kompyuterga qiziqishi tabiiydir. Shuning uchun elektron oʻyinlar yoʻsinidagi qiziqarli va hordiqbop multifilm singarilarni oʻzbek tilida yaratish masalasi ham “Konsepsiya”da toʻgʻri koʻrsatilgan. Bular amalga oshsa, nafaqat oʻzbek bolalari, balki boshqa millat bolalari uchun ham foydali boʻladi va ularning yoshligidan davlat tilini yaxshi oʻzlashtirib olishlariga imkon yaratiladi;
- oʻzbek tili til korpusining elektron shakli yaratilishiga kirishildi. Ammo bu ishni amalga oshirish uchun oʻzbek tilining barcha lugʻat boyligini zudlik bilan yigʻib olish kerak boʻladi. Oʻzbek tilining shevalari, moliya, qurilish, texnika hamda hunarmandchilikning turli sohalari singarining izohli bir va undan ortiq tilli lugʻatlarini yaratish lozim. Bunda ovozni eshitgan holda yozuv shakliga aylantira oladigan qurilmalarning mukammallashgan vositalarini yaratish lozim boʻladi;

-Atamashunoslik qoʻmitasi ishini ham jonlashtrish lozimdir. Nazarimda, uni “Davlat tilida ishi yuritish asoslarini oʻqitish va malaka oshirish markazi” tasarrufiga oʻtkazlishi lozim. Maxsus shtatlar ham ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki u qayta tashkil etilgandan beri faoliyat umuman sezilgan emas;

-joylardagi toponimik komissiya ishlarini yanada jonlantirish lozimdir. Komissiya ishiga hokimiyat tashvishlaridan xoli boʻla olmaydigan mansabdorlarni

emas, shu sohaning yetuk mutaxassislarini mas’ul shaxs sifatida oylik maosh bilan ta’minlagan holda faoliyat koʻrsatishiga sharoit yaratib berish lozim boʻladi. Ularning joylardagi yozuvlardan tortib peshlavhalarning imlo xatosiz yozishlariga mas’ul etib belgilanishi maqsadga muvofiqdir;

- - tadbirkorlik hamda xususiy faoliyat bilan shugʻullanuvchi tashkilotlarga litsenziya beruvchi tashkilotlar yangi tashkil etilayotgan korxona nomi Milliy Nom.uz platformasi sayti roʻyxatidan oʻtmagan nomlarni tasdiqlamasliklari qat’iy belgilab qoʻyilishi kerak;
  - Oʻzbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning turi va navidan qat’i nazar yorliqlarining davlat tilida yozilishini qat’iy nazorat qilish lozim. Chunki mahsulot sifatli boʻlsa, u qaysi tilda yozilishidan qat’i nazar xaridor uning doimiy mijoziga aylanishi ayni haqiqatdir.

Xullas, ona tilimiz millat koʻzgusi sifatida namoyon boʻlar ekan, uni har xil chet tillari ta’siridan doimo ravishda muhofazaa qilib borish, milliy tilsifatida sayqallashtirib borishimiz zarurdir. Shu bilan bir qatorda yurtimizda uning millatlararo til sifatida yanada takomillashtirib borish hamda uni suiiste’mol qilishlariga va buzishlarga qarshi murosasiz munosobatda boʻlish nafaqat til jonkuyarlari, balki har bir ziyoli kishining vatanpararlik burchi boʻlmogʻi lozim.

[WF] - СИНТАКТИК ҚУРИЛМАНИНГ СТРУКТУРАСИ

(ТАРКИБИ)НИ БЕЛГИЛАЙДИГАН ЛИСОНИЙ БИРЛИК РАМЗИ

М.Қ.АБУЗАЛОВА,

БухДУ Ўзбек тилшунослиги ва журналистика кафедраси профессори, филология фанлари доктори (DSc)

Ушбу мақолада лексема семантик-синтактик валентлиги ҳақида мулоҳаза юритилган. Илк марта сўзшаклнинг умумий лисоний қолипи сифатида [WF] рамзий белгиси келтириб чиқарилган. Содда гапнинг минимал қолипи сифатида фанимизда оммалашган [WPm] мана шу [WF] умумийлигининг бир тури, кўриниши, воқеланиши мавқеида туриши мисоллар асосида исботланган. Мақолада мазкур умумий лисоний қолипнинг [W] ҳамда [F]қисмлари валентлиги хусусида сўз боради.

Тил қурилишига субстанциал ёндашувда синтактик таҳлилларда лисоний бирлик сифатида синтактик қурилманинг фақат моделигина қабул қилиниши сабабли сўзшаклнинг умумий лисоний қолипи сифати [WF] рамзий белгисини киритиш мумкин. Бу рамздаги [W] инглизча “word” – “сўз” сўзидан олиниб, субстанциал йўналишдаги бошқа тадқиқотларда ва ҳозирги ўзбек тилшунослигида ўзлашиб кетгани каби “атов бирлиги”га; [F] эса инглизча “form” сўзидан олиниб, шаклга ишора бўлса, [WF] биргаликда нутқда воқеланиш учун маълум бир грамматик шаклни қабул қилган бирликнинг умумий рамзидир. Сўзшакл учун янги бир рамзни киритишга эҳтиёж борми, деган савол туғилиши табиий. Бу саволга, умуман, субстанциал йўналишдаги

Бу рамздаги /W/ атов бирлигига, /F/ эса унинг морфологик шаклига ишора қилади.

олдинги илк ишларда, жумладан, проф. Р.Р.Сайфуллаеванинг ўзбек тилида қўшма гаплар, бу сатрлар муаллифининг ўзбек тилида гапнинг минимал қурилиш қолипи, проф. М.Қурбонованинг ўзбек тилида содда гап қурилишининг формал-функционал йўналишдаги тадқиқотларида муфассал жавоб берилган бўлса-да [1;5], янги шароитда – энди фақат гап қурилишига нисбатан эмас, балки умуман синтактик қурилма (табиийки, жумладан, гап ҳам) ҳақида баҳс бораётганда уни бироз муайянлаштириш ва шарҳлаш зарур.

“Сўзшакл” атамаси таркибидаги “сўз” қисми фанимизда ўта мавҳум бўлиб, фанимизда структурал-систем таҳлил йўналишлари шаклланиб, тилимиз лексик тизими бирликларида лисоний бирлик сифатида лексема ва унинг нутқий воқеланишига нисбатан сўз атамасини қўллаш билан яна ҳам чигаллашди.

Сўзшакл атамаси билан [WF] рамзи, худди [WPm] рамзи билан кесим тушунча ва атамаларидек ўзаро диалектик умумийлик – хусусийлик муносабатларида туради; [WF] маълум бир синтактик қурилма марказида турган ва унинг структураси (таркиби)ни белгилайдиган лисоний бирлик рамзидир. Содда гапнинг минимал қолипи сифатида фанимизда оммалашган [WPm] мана шу [WF] умумийлигининг бир тури, кўриниши, воқеланиши мавқеидадир. Шунинг учун [WF]нинг бир кўринишига нисбатан сўзшакл атамасини қўллаш мумкин эмас, зероки, мавҳум бўлса ҳам, барибир сўзшакл атамаси [WPm]ни ҳам – у кесимга тенглаштирилган ҳолатларда – ўз ичига олади ва бу масала фанимизда муҳокама этилган эди. [WPm] рамзида – лисоний қолипида, моделида – мужассамлашган маъно ва вазифани анъанавий кесим атамаси бажаролмаганидек, [WF] рамзида мужассамлашган маъно ва вазифани анъанавий сўзшакл атамасига юклаш мумкин эмас: [WF] рамзи маълум бир синтактик қурилманинг марказини ташкил этиб, унинг ҳам структурал таркибини ([W] валентликлари асосида), ҳам гап қурилишида мавқеини ([F] валентлиги асосида) белгилайдиган лисоний бирлик сифатида ўзининг алоҳида рамзига – лисоний бирликнинг умумий шаклига эга бўлмоғи лозим.

[WF] таркибида [W]га синтактик мавқе берадиган грамматик воситалар сифатида кесимлик, келишик категориялари шакллари, қисман эгалик ва “нокатегориал шакл”лар, феълнинг функционал шакллари тизими киради. [WҒ] таркибидаги [F] кесимлик шакллари билан ифодаланганда, яъни [F] = [Pm] бўлганда, [WF] → [WPm] кўринишида воқеланади ва содда гап марказини ташкил этади. Натижада, [WҒ] таркибидаги [W] исм (от, сифат, сон, равиш, тақлид, олмош, сифатдош, ҳаракат номлари) билан ифодаланган бўлса, у ўзининг лексик-семантик валентлиги учун хос бўлган кенгайтирувчилардан ташқари, тилимизда [WPm] учун хос бўлган барча бўлаклар, яъни эга, ҳол ва кириш бўлакларнинг барча турлари билан кенгайиш ва бирикиш имкониятига эга бўлади. Чунончи, *Албатта, мактабимизда ҳозир сиз тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган мураббийсиз, лекин ёш, синф хонасига муаллим сифатида биринчи қадамларини қўяётганлар ҳам бор* (П.Турсун). Бу қўшма гапдаги биринчи гап (*Албатта, мактабимизда ҳозир сиз тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг*

аччиқ-чучугини татиган мураббийсиз.)ни олиб кўрайлик. Мазкур гап марказидаги *мураббий* сўзи тилимиздаги $_{n}SSG^{k}$ (“шахсни касб-корига кўра тавсифловчи отлар” семантик-синтактик гуруҳига мансуб сўз)га мансуб сўздир ва у ҳар хил сифат ва миқдор аниқловчилар каби туркум валентлигидан ташқари, ўзининг лексик-семантик валентлиги асосида:

Қаерда?

$_{n}SSG^{k}$

Кимга?/Нимага?

қурилишли синтактик ҳосилаларни туза олади. Шунинг учун юқорида келтирилган гапда *тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган* аниқловчиларининг келиши от туркумига мансуб *мураббий* сўзининг туркум валентлиги билан, *мактабимизда* ўрин ҳолининг бўлиши *мураббий* сўзининг $_{n}SSG^{k}$ ССГга мансублиги билан, яъни қурилма марказининг [W] қисмини воқелантирувчи *мураббий* сўзининг лексик-семантик валентлиги билан белгиланади.

Таҳлил этаётган синтактик қурилма (ва унинг ўзимиз томонимиздан тўлдирилган кўринишида) *мактабимизда, тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган* каби таркибий қисмлари *мураббий* лексемасининг туркум ва хусусий лексик-семантик валентлиги билан белгиланса, кириш бўлак мавқеидаги *албатта*, эга позицияда келган *сиз*, ҳол вазифасида келган *ҳозир* каби қисмларнинг кела олиш имконияти кесимлик категорияси (*[Pm]*)нинг валентлиги билан белгиланади ва [WF] (бу ерда [WF]

→ [WPm])нинг [W] қисмига алоқадор эмас. [Pm] қандай шакл ва кўринишда келмасин, бу кенгайтирувчилар бемалол кела олади. Тажриба сифатида синтактик қурилмада [W]нинг туркум ва лексик-семантик валентлиги билан белгиланган қисмларни тушириб, *[Pm]*қисми шаклларини янгилаймиз:

"*Албатта, ... ҳозир сиз ... мураббийсиз бўласиз*", "*Албатта, ... ҳозир сиз ... мураббийсиз эдингиз*", "*Албатта, ... ҳозир сиз ... мураббий бўлсангиз*") *албатта* ва *ҳозир* сўзлари билан ифодаланган қисмлар "ўринсиз", "боғланмай" тургандек (айниқса, "*Албатта, ... ҳозир сиз ... мураббийсиз эдингиз.")* Ҳосил қилинган қурилмалар ғайритабиий. Бу "ўринсизлик" майл ва замон категорияларининг валентлиги ва унинг лексик-семантик валентликка таъсири билан боғлиқ ва *мураббий* лексемасига мутлақо алоқадор эмас. Шунинг учун, масалан: "*Албатта, ... ҳозир сиз ... мураббийсиз эдингиз"* қурилмасида *ҳозир* сўзини замон шакли валентлигига мувофиқ – ўтган замон маъноли сўзлар (*ўтган йили, авваллари, олдинлар, 2009 йилда…*), "*Албатта, ... ҳозир сиз ... мураббийсиз бўлсангиз"* қурилмасида *албатта* кириш бўлагини

шарт майли валентлигига мос *агар* боғловчиси билан, "*Албатта, ... ўтган йили сиз ... мураббийсиз эдингиз", "Агар, ... ҳозир сиз ... мураббийсиз бўлсангиз"* кўринишларида алмаштирсак, бундай "ўринсизлик" дарров йўқолади ва қурилма меъёрий шакл ва мазмун қабул қилади.

Шунингдек,

Мен мураббийман,

Сен мураббийсан,

У мураббий(дир),

“Албатта, ... ҳозир Биз мураббиймиз

Сиз мураббийсиз

сингари кесимдаги шах/сон шаклининг ўзгариши ҳам ўшанга мувофиқ эгани ўзгартиришни талаб этади. Бунинг барчаси қурилманинг илк кўринишидаги “*Албатта, … ҳозир сиз …”* қисмлари (*[Pm]*) валентлиги билан боғлиқ эканлигини кўрсатади.

Энди “*Албатта, мактабимизда ҳозир сиз тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган мураббийсиз.”* қурилмаси марказидаги “мураббийсиз” сўзшаклидаги [Pm] қисмини бошқа ([Pm] шакллари парадигмасидан ўрин олмайдиган), масалан, қаратқич келишиги шакли билан алмаштирамиз. Қурилма “*Албатта, мактабимизда ҳозир сиз тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган мураббийнинг”* шаклини олади ва информатив қийматини йўқотади – нотўғри, номеъёрий тус олади. Тажрибани давом эттириб, бу қурилмада *мураббий* сўзининг фақат лексик-семантик валентлиги билан белгиланадиган қисмларни қолдириб кўрамиз: *мактабимизда тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган мураббийнинг…* Қурилма тўғри, меъёрий, лекин тугал эмас – у тобе қисм мавқеида ва, албатта, ҳоким қисмни талаб қилади. Бундай тобелик мавқеини келишик (қаратқич келишиги) шакли валентлиги бағишлади, чунки келишик шаклларининг валентлиги ўзи бирикиб келган атов бирлиги ([W])ни тобе алоқа билан ҳоким бўлакка боғлашдир. Келтирилган мисолимизда эса бу ҳоким қисм, албатта, эгалик қўшимчали бўлиши керак – буни қаратқич келишиги валентлиги талаб қилади ва бу [WF] таркибидаги [F]нинг валентлиги билан боғлиқ.

Грамматик шакл ([WF]даги [F])нинг гап мавқеига таъсирини аниқлаш учун тажриба-синов ишларимизни давом эттирамиз. Таянч синтактик қурилма (*Албатта, мактабимизда ҳозир сиз тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган мураббийсиз.”*) марказидаги “*мураббийсиз”* қисмини *“мураббийимсиз”* шаклида тўлдирамиз. Қурилма “*Албатта, мактабимизда ҳозир сиз тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган мураббийимсиз.*” шаклини олади. Маъно, вазифада ва қурилишда ўзгариш деярли сезилмайди, қурилма шу шаклда бемалол мустақил қўлланила олиши мумкин. Фақат бу қурилма яна бир кенгайтирувчига – қаратқич келишикли аниқловчи шаклига эга бўлиши

мумкин: *“Албатта, мактабимизда ҳозир сиз* ***менинг*** *тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-*

чучугини татиган мураббийимсиз”. Табиийки, бу эгалик категориясининг валентлиги билан узвий боғланган: бу категория шакллари учун хос бўлган лексик-семантик валентлик актантларини қаратқичли аниқловчи билан кенгайтириш синтактик қурилмада ҳокимлик мавқеини бериш, таянч қурилмани мустақил қўллашга монелик қилмайди.

Таянч синтактик қурилма (“*Албатта, мактабимизда ҳозир сиз тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган мураббийсиз.”*) шаклини *-даги* ёки *-ники* қўшимчаси билан алмаштирамиз: “*Албатта, мактабимизда ҳозир сиз тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган мураббийдаги/ мураббийники”* қурилмада *[Pm]* билан алоқадор бўлган *албатта, сиз* ва *ҳозир* қисмлари ортиқча – уларни талаб қиладиган, қўлланилишини оқлайдиган ва асослайдиган *[Pm]* қурилмада йўқ. Лекин *- даги* шаклли (“*мактабимизда тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган мураббийдаги”)* ва *-ники* шаклли (“*мактабимизда тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган мураббийники”*) қурилмалар ўзаро фарқли хусусиятларга эга. Биринчи қурилмада семантик валентлиги асосида нарса/предмет маъноли бирор аниқланмишга аниқловчи вазифасида келишга (resp. сифат сўз туркумига хос туркум валентлиги асосида) мойиллик сезилса (“мактабимизда тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган мураббийдаги *фаоллик/ташаббус/ босиқлик/тадбиркорлик/ишбилармонлик…*), иккинчи қурилма кесимлик сўзлари туркум валентлиги асосида гапда эга мавқеида келган ва бирор белги/хусусиятга молик бўла оладиган нарса/предметни атовчи сўз билан бирикиб келишга мойиллик билдиради (чунончи, *“фаоллик/ташаббус/босиқлик/тадбиркорлик/ ишбилармонлик…*

мактабимизда тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган мураббийники”). Ҳар иккала хусусият ҳам “нокатегориал” шаклларнинг валентлиги билан алоқадордир.

Энди таянч синтактик қурилма (“*Албатта, мактабимизда ҳозир сиз тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган мураббийсиз”.*)ни

а) *“Албатта, мактабимизда ҳозир сиз тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган мураббийларсиз”*,

б) *“Албатта, мактабимизда ҳозир сиз тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган мураббийсиз”*,

в) *“Албатта, мактабимизда ҳозир сиз тажрибали, кўпни кўрган, ҳаётнинг аччиқ-чучугини татиган муаллимасиз”*

…….

шаклларида ўзгартирамиз. Синтактик қурилма мавқеида ҳеч қандай ўзгариш юз бермайди. а) ва б) орасидаги фарқ эса – 1-ҳолатда *сиз* олмошининг ҳурмат маъноси ва иккинчи ҳолатда унинг иккинчи шахс кўплик маъноси – бу қурилмалар марказидаги *[Pm]* шаклларидаги фарқ билан боғлиқ. Биринчи, иккинчи ва учинчи ҳолатлар орасидаги ўхшашлик эса *мураббий* ва *муаллима* сўзларининг бир ССГга ($_n$SSG^k) мансублиги ва бир ССГ лексемаларининг

ўзаро ўхшаш синтактик қурилмалар бериши хусусияти билан белгиланади. Улар орасидаги фарқ эса *мураббий* ва *муаллима* синонимлари орасидаги стилистик хусусият билан белгиланади.

Шундай таҳлил-тажрибани [WҒ] таркибидаги [W] исмларнинг бошқа кўринишлари (сифат, сон, олмош, равиш, тақлид…) билан ифодаланган турларида ҳам давом эттириш ва бунга ўнлаб саҳифаларни бағишлаш мумкин. Лекин моҳият бундан ўзгармайди: [WҒ] таркибидаги [Ғ] ўрнини синтактик ёки деривацион деб таснифланган грамматик воситалар эгаллаган бўлса, улар синтактик қурилманинг нутқ (гап)даги мавқеини грамматик категориянинг ёки сўз туркумининг туркум валентлигига мувофиқ равишда ўзгартиради.

Хулоса қилиб айтганда, [WҒ] таркибида [Ғ] синтактик категория шаклларидан бири бўлса, у қурилманинг синтактик мавқеини белгилайди, носинтактик сифатида тасниф этилган грамматик категория ва шакллар бундай хусусиятга эга эмас. Шунинг учун биз [WҒ] таркибидаги [Ғ]ни, зарур бўлганда, синтактик (рамзи – [F^s]) ва носинтактик (рамзи – [F^n]) сифатида фарқлаймиз. [F^n] синтактик қурилма мавқеига таъсир этмайди, фақат ўзи бирикиб келган [W]нинг лексик-семантик валентлигини маълум даражада ўзгартиради, [F^s] эса гап қурилишини ўзгартира олиш хусусиятига эга бўлади. Демак, [WF]лисоний синтактик қолипи маълум бир синтактик қурилма марказида турган ва унинг структураси (таркиби)ни белгилайдиган лисоний

бирлик рамзидир.

АДАБИЁТЛАР

1. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиши қолипи ва унинг нутқда воқеланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 1994.-19 б.

2. Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол ([Wpm] валентлиги аспектида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 1997. -22 б.
3. Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 1995.-23 б.
4. Цалкаламанидзе А.А. Семантико-синтаксические группы глаголов в узбекском языке. – Тбилиси: Мецниереба, 1987. – 129 с.
5. Қурбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал ёндашув ва содда гап қурилишининг талқини: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Т., 2001. -51 б.

ҚАЛБ, ШАҲАР, ЖАРАЁН: БУХОРО БИЕННАЛЕСИНИНГ

ТРОИЦА-КОНЦЕПТИ

ГУЛИ ИБРАГИМОВНА ТОИРОВА,

Бухоро давлат университети профессори филология фанлар доктори

Аннотация. Мақолада музейлар ва биеннале фаолиятида интерактив педагогик дастурлар ҳамда оилавий маданий амалиётларни жорий этиш хусусиятлари кўриб чиқилади. “Қалб шаҳар жараён” биенналесининг

инновацион маданий платформа сифатидаги тажрибаси таҳлил қилинади. Томошабинларни маданий жараёнларда фаол иштирок этишга жалб этишда новаторлик ёндашувлари аниқланди. Биенналенинг санъат, таълим ва ижтимоий амалиётларни уйғунлаштириш макони сифатидаги аҳамияти таъкидланади. Олинган натижалар халқаро миқёсда самарали маданий-маърифий фаолият моделларини ишлаб чиқишда қўлланилиши мумкин.

Калит сўзлар: биеннале, музей, интерактивлик, педагогик дастурлар, маданий амалиётлар, аудитория, инновация, санъат, таълим, ижтимоий-маданий уйғунлашув.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности внедрения интерактивных педагогических программ и семейных культурных практик в деятельность музеев и биеннале. Анализируется опыт биеннале «Қалб шаҳар жараён» как инновационной культурной платформы. Выявлены новаторские подходы в привлечении аудитории к активному участию в культурных процессах. Подчеркивается значение биеннале как пространства для интеграции искусства, образования и социальных практик. Полученные результаты могут быть использованы для разработки эффективных моделей культурно-образовательной деятельности в международном контексте.

Ключевые слова: биеннале, музей, интерактивность, педагогические программы, культурные практики, аудитория, инновация, искусство, образование, социокультурная интеграция.

Abstract. The article examines the specific features of introducing interactive pedagogical programs and family cultural practices into the activities of museums and biennales. The experience of the “Heart, City, Process” Biennale is analyzed as an innovative cultural platform. Innovative approaches to engaging audiences in active participation in cultural processes have been identified. The significance of the biennale as a space for integrating art, education, and social practices is emphasized. The results obtained can be applied to the development of effective models of cultural and educational activities in the international context.

Keywords: biennale, museum, interactivity, pedagogical programs, cultural practices, audience, innovation, art, education, socio-cultural integration.

Кириш. “Биеннале” атамаси итальян тилидаги *biennale* сўзидан келиб чиққан бўлиб, “икки йилда бир марта ўтказиладиган” маъносини англатади. XIX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб Венеция биенналеси дунё санъатининг глобал майдонига айланди ва кейинчалик турли шаҳарларда маданий платформалар сифатида кенг тарқалди. Биеннале формати нафақат кўргазмаларни, балки ижодий мулоқотни, турли жамият ва цивилизациялар ўртасидаги маданий алоқаларни мустаҳкамлашни ҳам назарда тутади. Ўзбекистоннинг қадимий маданий маркази сифатида Бухоро нафақат меъморий ёдгорликлари ва тарихий мероси билан, балки маънавий жиҳатдан ҳам бетакрор макондир. Шаҳар Шарқ ва Ғарб цивилизацияларининг чорраҳасида жойлашиб, турли маданий қатламларни уйғунлаштириб келган. Шу жиҳатдан, биеннале учун Бухорони танлаш — бу тарихий давомийлик ва

эстетик ҳусниятни замонавий ижодий жараёнлар билан уйғунлаштиришдир. Биенналенинг “Қалблар дардига дармон” деб номланиши замонавий жамиятнинг руҳий эҳтиёжларига жавоб берувчи терапевтик метафора сифатида қабул қилиниши мумкин. Бу ном санъатнинг шифобахш қудрати, маънавий тозаланиш ва инсоний мулоқот орқали қалбни юксалтириш имкониятларини ифодалайди. Шаҳарнинг маданий фазоси билан уйғунлашган ҳолда, биеннале фақат эстетик тажриба эмас, балки маънавий даволаш жараёни ҳамдир.

Бухоро биенналеси “қалб, шаҳар, жараён” троица-концепти асосида ташкил топган бўлиб, у тадрижий ва терапевтик метафора сифатида намоён бўлади. Қалб — инсоний эҳтиёж ва маънавий интилишлар маркази, шаҳар — маданий макон ва тарихий хотира фазоси, жараён эса — ижодий изланиш ва мулоқотнинг давомий

қиёфасидир. Ушбу уйғунлик санъат орқали нафақат шахсий, балки жамоавий маънавий тикланиш жараёнини англатади.

Мусулмон шарқ тафаккурида “қалб” сўзи фақат физиологик органни эмас, балки инсоннинг маънавий моҳиятини англатади. Тасаввуф фалсафасида қалб – илоҳий нурни қабул қилувчи марказ, маърифату маънавий камолот манбаи сифатида талқин қилинади. Шу боис Бухоро биенналесида “қалб” сўзининг маънавий ва семиотик юкламаси кенг қамровли рамз сифатида намоён бўлади. У санъат асарлари орқали инсоннинг ички дунёсига кириб бориш, руҳий ҳолатини идрок этиш имкониятини тақдим этади. Қалб – бу фақат шахсий маънавий марказ эмас, балки ижодий мулоқот кўпригидир. Ижодкор ўз асари орқали шахсий ҳис-туйғуларини аудиторияга етказади ва томошабин қалбида акс-садо топади. Бу жараёнда қалб универсал тилга айланиб, миллий чегараларни кенгайтириб, глобал маданий ҳамжиҳатликни мустаҳкамлайди. Бухоро биенналесида намойиш этилаётган асарлар орқали ижодкор ва аудитория ўртасидаги шу руҳий мулоқот кучайиб, маънавий бирликка хизмат қилади. Замонавий ва анъанавий санъатда қалб мавзуси кўпинча “шифо” – маънавий тозаланиш, “таскин” – ором топиш, “рушд” – маънавий етуклик метафоралари билан уйғун ҳолда ифодаланади. Бухоро биенналесида ҳам бу қийматлар санъат асарлари орқали жонли тарзда намоён бўлиб, томошабин қалбида маънавий дафъа ва руҳий тетиклик туйғусини уйғотади. Бу жараёнда санъат қалбнинг табиий эҳтиёжларига жавоб берадиган маънавий манбага айланади. “Қалб” Бухоро биенналесининг марказий маъносини ташкил этади. У фақатгина рамзий мавзу эмас, балки бутун жараённинг маънавий асоси ва йўлбошчиси сифатида хизмат қилади. Қалб — санъатнинг юраги, у томошабиннинг руҳи ва ижодкорнинг ички кучи билан боғловчи белгилар орқали қурилган маънавий-рамзий устундир. Шу боис биеннале нафақат кўргазма майдони, балки инсон қалбини юксалтириш ва маънавий уйғунликни таъминлайдиган маданий жараён сифатида намоён бўлади.

Бухоро асрлар давомида маданият ва маърифат маркази сифатида шаклланган. Бу шаҳар нафақат тарихий ёдгорликлари билан, балки замонавий ижодкорлар учун илҳом манбаи сифатида ҳам қимматлидир. Биеннале орқали

Бухоро ўтмиш ва бугун, анъана ва замонавийлик, моддий ва маънавий мерос уйғунлигининг яққол кўринишини тақдим этади. Биеннале давомида Бухоро шаҳри анъанавий кўргазма майдонидан ташқаридаги янги маънога эга бўлади: у бутунлай экспозиция саҳнасига айланади. Ҳар бир кўча, майдон ёки тарихий бино асарларни намойиш этишда фаол иштирокчига айланиб, санъат учун очиқ интерпретация майдонини вужудга келтиради. Замонавий биеннале тажрибасида сайт-специфик ишланмалар (Маҳаллий муҳитни ифода этувчи санъат асарлари)муҳим ўрин тутади. Бухорода ўтказилаётган биеннале ҳам ана шу йўналишда шаклланиб, шаҳарнинг тарихий ва замонавий муҳитини асарлар билан боғлайди. Бу нафақат

санъат асарининг қадрини оширади, балки маконнинг маънавий юкини ҳам янада бойитади. Биеннале давомида Бухоро бутунлай “очиқ музей” кўринишига киради. Турли халқлар вакиллари, маҳаллий аҳоли ҳамда сайёҳлар шаҳарни айланар экан, ҳар қадамда янги санъат тажрибасига дуч келадилар. Бу жараён шаҳарни фақат тарихий хотира макони эмас, балки замонавий ижодий мулоқот марказига айлантирганини кўрсатади.

Бухоро биенналеси анъанавий кўргазмалардан фарқли равишда статик эмас, балки доимий ҳаракатдаги жараёндир. Унда санъат асарлари фақат кўрсатилмайди, балки турли амалий, маънавий ва ижтимоий жараёнлар орқали ҳаётга татбиқ этилади. Биеннале доирасида амалга ошириладиган перформанслар, таом тайёрлаш жараёнлари ва ҳунармандчилик намойишлари маҳаллий аҳоли ва ташриф буюрувчиларни тўғридан-тўғри жараёнга жалб қилади. Бу мулоқот орқали санъат ҳаётий маъно касб этади, одамлар эса уни ўз тажрибаларида ҳис қиладилар. Биеннале меҳмонлари фақат кузатувчи эмас, балки жараённинг тўлақонли иштирокчисига айланадилар. Интерактив тадбирлар орқали улар санъатни томоша қилиш билан чекланмай, балки уни тажриба орқали англайдилар. Бу эса маънавий мулоқотнинг янада самарали кечишига хизмат қилади. Бухоро биенналеси жараёни тинимсиз мулоқот ва ижодий алмашинувдан иборат бўлиб, у томошабин учун ҳам, ижодкор учун ҳам давом этувчи маънавий шифо вазифасини бажаради. Бу жараён фақат вақт билан чекланмайди, балки одамларнинг қалбида узоқ муддатли ижобий таъсир қолдиради.

Маҳаллий ва ички сайёҳларнинг санъат асарлари билан мулоқот қилиш маданияти ҳали тўлиқ ривожланмагани кузатилади. Бу ҳолатни ижобий йўналишда ўзгартириш учун биеннале доирасида интерактив мастер-класслар, жонли мулоқот майдонлари ва кўнгилли иштирок дастурларини ташкил этиш тавсия этилади. Бундай ёндашув томошабинни фаол иштирокчига айлантириб, биеннале жараёнининг терапевтик қудратини янада оширади. Биеннале жараёнида маҳаллий ва хорижий сайёҳларнинг асарларга муносабатида маълум тафовутлар кўзга ташланди. Хорижий меҳмонларда музей ва биеннале маданияти юқори даражада шаклланган бўлса, маҳаллий томошабинларда бу кўникмалар эндиликда ривожланиш босқичида экани кўринади. Шу боис, бундай маданиятни ёшлар ва катталар орасида ҳам шакллантириш мақсадга мувофиқ. Айниқса, хорижий сафарларда тажриба

орттирган маҳаллий сайёҳлар намунавий тажриба сифатида хизмат қилиши мумкин.

Биеннале тажрибаси шундан далолат бердики, музей ва санъат асарларини қабул қилишда маълум маданий қоидаларга риоя қилиш муҳимдир. Биринчидан, санъат асарини шошилмасдан, хотиржам ҳолатда томоша қилиш тавсия этилади.

Иккинчидан, асарни дарҳол тўлиқ англамасликдан уялиш шарт эмас — тушунишга интилишнинг ўзи маданий жараён сифатида қадрлидир. Учинчидан, бундай тажрибаларни оила даврасида амалга ошириш ижобий натижа беради.

Санъат асарини идрок этиш жараёнини қуйидагича босқичларга ажратиш мумкин:

Кузатиш: аввал умумий шакл, ранг ва композицияни қабул қилиш; Диққат: тафсилотларга эътибор қаратиш, геометрик шакллар, ранглар уйғунлиги ёки бўш жойларни таҳлил қилиш;

Туйғу: асарнинг инсон қалбида уйғотаётган ҳиссиётларини англаш ва уларни маънавий тажриба сифатида қабул қилиш.

“Қалб – шаҳар – жараён” триадаси маданий тафаккурда кўп қиррали семиотик қийматга эга. Бу триада орқали инсоннинг ички дунёси (қалб), уни ўраб турган моддий ва маънавий муҳит (шаҳар) ҳамда улар ўртасидаги ижтимоий-ижодий динамика (жараён) уйғунликда намоён бўлади.Кросс-маданий нуқтаи назардан қаралганда, Бухоро биенналесидаги ушбу концепт Европадаги “art-city” анъаналарига ва Япониянинг “ichigo-ichie” (бир лаҳзанинг такрорланмаслиги) фалсафасига яқин. Бироқ фарқли жиҳати шундаки, Марказий Осиё муҳитида биеннале нафақат шахсий таассуротни шакллантиради, балки жамоавий хотирани тиклаш, маҳаллий аҳолининг маънавий мерос билан мулоқотини мустаҳкамлашга хизмат қилади.Бу жараёнда биеннале терапевтик функцияни (индивидуал қалбнинг маънавий шифоси), маданий функцияни (шаҳарнинг тарихий қиёфаси ва замонавий санъат уйғунлиги) ва эстетик функцияни (санъат асарини интерпретация қилиш жараёнида ҳис-туйғу ва завқ уйғотиш) амалга оширади.

Бухоро биенналеси доирасида жами **70 га яқин замонавий асарлар** намойиш этилди. Улар орасида маҳаллий ижодкорлар ва хорижлик рассом-ҳунармандлар ҳамкорлигида яратилган инсталляциялар алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, маданий мулоқот, анъана ва глобал санъат тенденцияларининг уйғунлигини кўрсатди. Масалан, *Navat Uy* (Лайла Гоҳар – Миср, Илҳом Шойимқулов – Ўзбекистон). У анъанавий **нават шакари** асосида яратилган инсталляция маданий хотира ва замонавий эстетика уйғунлигини намоён қилади. Шакарнинг ерга секин тушиши “вақтнинг парчаланиши” ва маданий из қолдириш метафораси сифатида талқин этилди. Марказий Осиё ширинлик анъаналари ва Мисрлик санъаткорнинг глобал фалсафий қарашлари уйғунлашиб, маҳаллий ҳунармандчиликни жаҳон санъати майдони билан боғлайди (Қаранг.1-расм). Яна бир мисол, *Salt Carried by the Wind* (Субодҳ Гупта – Ҳиндистон, Бахтиёр Назаров – Ўзбекистон). У овет давридан қолган идишлардан қурилган дом шаклидаги инсталляцияда таом тайёрлаш амалиёти

марказий ўрин эгаллади. Бу асарда таом, мулоқот ва санъат бир бутун жараён сифатида талқин этилди. Идишлар – маҳаллий тарихий хотира рамзи, таом тайёрлаш эса Ҳиндистонлик ижодкорнинг перформатив услуби. Уларнинг бирлашуви орқали турли маданий қатламлар синтези намоён бўлди (Қаранг.2-расм).

1-расм. ***Navat Uy*** **2-расм.** ***Salt Carried by the Wind***

Бухорода ўтказилган “Қалблар дардига дармон” биенналеси умумий концепциясида санъатнинг даволовчи, маънавий қувват берувчи қудрати алоҳида уқтирилди. Триада – “қалб, шаҳар, жараён” биенналенинг семиотик асосини ташкил этар экан, ҳар бир асар шу умумий ғояга турли жиҳатдан уйғун бўлди. Шу жараёнда яратилган “Шифобахш алгоритм” инсталляцияси ушбу концепциянинг илмий-фалсафий асосини визуал ва технологик шаклда намоён қилди. “Анжара” экранлари – анъанавий меъморий элемент бўлиб, улардаги тешикчалар очиқ ва ёпиқ нуқталар уйғунлигида муайян ритм ва шаклни ҳосил қилади. Замонавий санъат интерпретациясида бу тешикчалар бинар коднинг асосий тамойилларига қиёсланади: яъни “0” ва “1” каби иккилик тизим визуал шаклда намоён бўлади. Шу йўл билан анжара нафақат декоратив нақш сифатида, балки маълумот узатишнинг

абстракт модели сифатида ҳам талқин этилади. Ранглар билан уйғунлик эса инсон руҳиятига таъсир кўрсатиш имконини беради: Ибн Сино таълимотида қизил – қувватлантирувчи, кўк – тинчлантирувчи, сариқ – шифобахш таъсирга эга деб қайд этилган. Демак, анжара орқали яратилган бинар ва геометрик тизим ранглар билан уйғунлашиб, биенналенинг марказий ғояси – “қалбга шифо” тамойилини замонавий визуал-кодлаш жараёнида амалга оширади. Агар биенналедаги бошқа асарлар маданий хотира, маҳаллий анъана ёки глобал мулоқот қирраларини очиб берган бўлса, “Шифобахш алгоритм” илм ва санъат уйғунлиги орқали шифо ғоясини илмий-фалсафий даражада қувватлади. Бу ерда Ал-Хоразмийнинг *“ал-жабр”* тушунчаси ва Ибн Синонинг рангшунослиги Бухоро шаҳрининг маънавий мероси билан уйғун тарзда қайта жонлантирилди (Қаранг.3-расм). Асар муаллифи – **Жаҳонгир Бектемиров (Ўзбекистон)** бўлиб, у Ал-Хоразмий ва Ибн Сино асарларидан илҳомланганини айтади. Демак, асар нафақат биенналенинг эстетик қисми, балки унинг асосий шиори – “Қалблар дардига дармон”нинг бадиий-назарий далили сифатида ҳам хизмат қилди. У томошабинни шифобахш жараённинг фақат маданий эмас, балки руҳий ва илмий илдизларини англашга ундади.



3-РАСМ. ШИФОБАХШ АЛГОРИТМ (HEALING ALGORITHM)

Бухоро биенналесидаги “жараён” тушунчаси шunchaki вақт оралиғини ифодаламайди, балки у мулоқот ва иштирок амалиёти сифатида намоён бўлади. Жараён — бу томошабин, муаллиф ва маданий макон ўртасидаги семиотик ва психоэмоционал муносабатлар йиғиндисидир. Ю.М. Лотман таъкидлаганидек, ҳар қандай санъат асари “семиотик моделлаштирувчи тизим” сифатида кўп қатламли маъно узатиш имкониятига эга. Биенналедаги жараён эса ана шу маъно алмашинувининг интерактив майдонини яратади. У. Эко назарияси нуқтаи назаридан, “очиқ асар” (opera aperta) мулоқотга киришувчи субъектлар орқали турли интерпретацияларга очиқдир. Шу боис биенналедаги ҳар бир асар — иштирокчи тафаккури ва шахсий тажрибаси билан уйғунлашиб, янги маъно ва ҳиссий таассуротлар генератори сифатида хизмат қилади. Арт-терапия нуқтаи

назаридан эса жараён иштирокчиларнинг руҳий ҳолатини тетиклаштириш, ижтимоий эмпатияни кучайтириш ва умумий маданий фазода “коллектив шифо” механизмларини ишга тушириш имконини беради. Шу маънода жараён — нафақат эстетик тажриба, балки ижтимоий ва психоэмоционал терапия воситаси ҳамдир.

Бухоро биенналеси “Қалблар дардига дармон” мавзусида ўтказилиши билан нафақат маҳаллий, балки халқаро санъат майдонида муҳим воқеликка айланди. У Бухоронинг бой маданий меросини замонавий санъат воситалари билан уйғунлаштириб, янги эстетик ва маънавий тажрибаларни шакллантирди.“Қалб, шаҳар, жараён” концепти биенналенинг асосий рамзи сифатида инсон ички руҳияти (қалб), маданий-марказий макон (шаҳар) ва ижодий ҳаракат (жараён) уйғунлигини намоён қилди. Бу триада маданий амалиётда янги интердисциплинар модел сифатида қаралиши мумкин: у шифобахш терапевтик функция, урбан муҳитни қайта кашф этиш ва ижтимоий ҳамжамият билан мулоқотни ўз ичига олди.

Бухоро биенналеси халқаро маданий мулоқотда муҳим кўприк вазифасини бажарди: турли мамлакатлардан ташриф буюрган рассом ва ҳунармандларнинг ҳамкорлиги орқали кросс-маданий тажриба яратилди. Бу жараён маҳаллий санъат маконини глобал контекст билан боғлаб, Бухорони

Марказий Осиёдаги замонавий санъат марказларидан бири сифатида намоён этди.

Истиқбол нуқтаи назаридан, биеннале нафақат санъат аҳли, балки маҳаллий ва хорижий томошабинлар учун ҳам янги маданий тафаккурни шакллантиришда давом этади. Унинг платформа сифатидаги аҳамияти — мерос ва замонавийлик, маҳаллийлик ва глобаллик, эстетика ва терапия ўртасидаги мулоқотни янада чуқурлаштиришга хизмат қилади.

Шунингдек, арт-терапия назарияси нуқтаи назаридан, ранглар, шакллар ва фазовий инсталляциялар инсон психикаси учун шифобахш таъсир кўрсатади. “Қалблар дардига дармон” шиори остида ўтган биеннале асарлари кўнгил ҳолатини барқарорлаштириш, эмпатия ва ижтимоий интеграцияни кучайтиришга хизмат қилади. Шу жиҳатдан Бухоро биенналеси нафақат санъат майдонида, балки психолингвистика, семиотика ва арт-терапия каби фанлар кесишувида ҳам янгича илмий тадқиқотлар учун имконият яратади.

Бухоро биенналеси тажрибаси шуни кўрсатадики, санъат асарини қабул қилиш жараёни фақат эстетик таассурот эмас, балки ижтимоий ва маданий мулоқотнинг муҳим шакли ҳисобланади. Шу боис келгусида қатор йўналишларда изланиш ва ривожланиш зарур. Жумладан, музей ва биеннале фаолиятида **“томоша қилиш маданияти”ни шакллантиришга қаратилган махсус педагогик дастурлар**ни жорий этиш; оила даврасида санъат асарларини қабул қилиш

тажрибасини оммалаштириш; томошабинни асар билан бевосита мулоқотга жалб этувчи интерактив усулларни ривожлантириш; шунингдек, санъат асарларининг инсон қалбида уйғотган ҳиссиётларини илмий-назарий таҳлил қилиш муҳим аҳамият касб этади. Бухоро биенналесининг “қалб, шаҳар, жараён” концептини **рақамли платформа**да акс этиш мумкин.

PROPOZITSIYANING VOQELANISHIDA ShAKLIY-MAZMUNIY NOMUVOFIQLIK

RANO NORBOYEVNA YUSUBOVA, RENESSANS TA’LIM UNIVERSITETI PROFESSORI,

filologiya fanlari doktori

Gapda voqelangan pragmatik-kognitiv vaziyat, voqelik koʻp hollarda uning semantik-sintaktik modeliga qaratilgan boʻladi, biri tomonidan tashkil etilgan ikki yoki undan ortiq model uslublar farqiga ega boʻlgan komponentlarning bir xil tipik qiymatini ifodalashi mumkin. Gapni tashkil etuvchi elementlar sintaktik shakllarning semantik funksiyalarini belgilashdan boshlanadi va gap modellarining tipik qiymatlarini ajratib koʻrsatish bilan yakunlanadi. Gapning tipik ma’nosi obyektiv vaziyatlarni aks ettirgan jumla tarkibida namoyon boʻladi, buning ifodasi uchun juda aniq lisoniy vositalar mavjud. Agar aniq vaziyatlarni aks ettirish ma’lum bir leksik birliklarning ma’lum bir muvofiqligi tufayli amalga oshirilsa, u holda ba’zi bir semantik turlarning leksik birliklari tipik muvofiqligi tufayli tipik obyektiv vaziyatlar koʻrsatilishi mumkin [1,20]. Nutq xoh adabiy me’yor qoidalari asosida

shakllansin, xoh me’yordan tashqarida, nutq sohiblari til birliklarini ixtiyoriy tanlaganlari kabi shakl va mazmun hajmini ham ixtiyoriy tanlaydilar. Predikativ qurilmaning nominativ aspekti diktum va modusdan iborat ekan, har qanday predikativ qurilmada obyektiv mazmunni ifodalovchi diktum denotativ voqea sifatida doimiy mavjud. Masalan, sodda gaplarda, asosan, monopropozitivlik tarzida: *Muhabbatsiz kishi odam emasdur.* (Nodira). Misrada inson va unga xos xususiyat haqidagi obyektiv mazmun (muhabbat nimaligini bilmagan kishini odam deb boʻlmasligi) ifodalangan.

Qoʻshma gaplarda, asosan, polipropozitivlik tarzida namoyon boʻladi: *Vasl oʻyin obod qildim, buzdi hijron oqibat* (Nodira) predikativ qurilmasi mazmuni ikki denotativ voqea (subyektning*) yor visoliga yetishga intilgani* va *hijronning bunga toʻsqinlik qilganligi*) oʻrtasidagi ketma-ketlik munosabatidan iborat. Ushbu misolda voqeliklarning ketma-ket roʻy berishi predikatlar orqali ham shakllangan. Birinchi denotatning predikati ham oʻtgan zamon fe’l shakli bilan ifodalangan, keyingi denotatning predikati ham oʻtgan zamon fe’l shakli bilan ifodalangan. Gaplarda oʻzaro sabab-natija mazmuni ifodalangan boʻlib, ushbu munosabat haqida gapirilar ekan, Gʻ.Abdurahmonov bunday munosabatning yuzaga kelishida faqat yordamchilar emas, balki sodda gaplar

tarkibidagi ayrim bo‘laklarning semantikasi ham rol o‘ynashini ta’kidlaydi [2,73]. Shuningdek, hozirgi o‘zbek tilida ergash gapning mazmuni bosh gapdan anglashilgan mazmunning natijasi, xulosasi ekanligini yanada bo‘rttiribroq ifodalash uchun ergash gaplar *hatto, oqibatda, natijada, nihoyat* so‘zlari bilan boshlanishi qayd etiladi, eski o‘zbek tilida *oqibatda* shakli ko‘p o‘rinlarda *oqibat* tarzida ikkinchi sodda gap tarkibida kelishi kuzatiladi, bunday holatlar mazkur shakllarning sodda gaplarni bog‘lashda asosiy vosita ekanligini belgilab beradi. Predikativ qurilmaning semantik va struktur jihatlari bir-biriga muvofiq keladi.

Predikativ qurilma semantikasini so‘zlovchi bilan bog‘lab turish modusning vazifasi sanaladi. Modus so‘zlovchi tomonidan bildirilgan fikrning subyektiv tomoni bo‘lsa, diktum obyektivligidir [3, 44-45]. Modus modallik bilan uzviy aloqador, subyektiv modallik qurilmada ifodalangan obyektiv mazmunga so‘zlovchining munosabatini ifodalaydi va modusga kiradi [4, 37], modallik mazmuni zamirida esa vaziyat ishtirokchisi, ya’ni istakni ifodalovchi modal subyekt turadi [5, 26]. Masalan, oshiq kishining o‘z ahvolini jonli nutqda so‘zlab berishi bilan poetik matnda bayon qilishi tubdan farq qiladi. Ya’ni *Sevgilim menga azob beradi* predikativ qurilmasi bilan *Vah, ne tole’durki, tortarmen behisht ichra azob* (Husayniy) predikativ qurilmasi diktum ifodalashiga ko‘ra bir xil, biroq modusni ifodalashiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi, birinchi qurilmada modus mavjud emas, ikkinchi qurilmaning ergash gapi (*Vah, ne tole’durki*) to‘laligicha modusni ifodalagan. Bir sodda gapning strukturasi to‘lig‘icha modusga xizmat qilar ekan, demak, modus gapda diktum bilan hamkorlikda amal qiladi. Badiiy matnda to‘laligicha ijodkorning subyektiv munosabati ifoda topadi, busiz mumkin emas, aynan shu munosabatga nisbatan “badiiylik modusi” termini qo‘llanadiki [6, 34], g‘oyaviy-hissiy munosabat yoxud muallif emotsionalligi badiiylik modusi orqali namoyon qilinadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, poetik misralarda ifodalangan

propozitsiyaga nisbatan diktum termini shartli tarzda qo‘llanadi. Badiiy matnda, ayniqsa, mumtoz matnlarda modusning yuzaga kelishi poetik talabga ko‘ra bo‘lib, oshiq yoki ma’shuqa holatini yorqinroq, ekspressiv tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Aynan qo‘shma gaplardagi bunday qurilish sintaktik ortiqchalik planida tadqiq etiladi.

“Agar ma’lum bir materialga ega bo‘lgan formalar boshqa material formalar ifoda etadigan ma’nolar bildirsa, unda sintaksemaning forma va mazmun planida asimmetriya vujudga keladi – forma va mazmun mutanosibligiga putur yetadi” [7,50], qo‘shma gap tarkibidagi ergash gap yoki bosh gapning modusni ifodalashi obyektiv voqelikning subyektiv munosabat bilan bevosita bog‘liqligidir. Eksplitsit ifodada turli til birliklari modusni yuzaga keltiradi: grammatik formalar, maxsus leksemalar, konstruksiyaning joylashish o‘rni kabi. Qo‘shma gaplarda birdan ortiq predikat mavjudligi bois birdan ortiq obyektiv mazmun (diktum) ifodalanadi, degan, tushuncha nisbiy sanaladi, masalan, ergashgan qo‘shma gaplarning ba’zilarining ergash gapida, ba’zilarining bosh gapida modusning ifodalanishi gapning monopropozitiv voqelanganligini ko‘rsatadi, ya’niki

ortiqchalik tamoyilining mohiyatiga ko‘ra sodda mazmun murakkab shakl orqali ifodalangan [3, 46-47]. Qurilma struktural jihatdan kengayib, semantik jihatdan torayadi: qo‘shma gap bitta propozitsiyani ifodalaydi (tilshunoslikda bu kabi nutqiy ifodalarga nisbatan neytrallashuv termini ham qo‘llaniladi). Demak, sintaktik ortiqchalik struktura bilan bog‘liq tarzda yuzaga keladi: bosh yoki ergash gap diktum emas, modus ifodachisiga aylanadi. Masalan: *Vah, ne ishdur, kimnikim men mehribon qildim xayol.* (Husayniy) misrasida *Vah, ne ishdur* sodda gapi modusni ifodalagan. So‘zlovchi ayni maqsadi, bahosi va shu kabilarni alohida ta’kidlab ifodalash uchun predikativ tizimlarni tanlaganda, bu tizimlar denotativ voqeani emas, mazkur maqsadga ko‘ra, modusni ifodalasa, shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik yuzaga keladi.

Qo‘shma gaplarda kuzatiluvchi bu kabi struktur-semantik nomuvofiqlik sodda va qo‘shma gaplar o‘rtasida neytrallashuv hodisasini yuzaga keltiradi, har ikkala sintaktik qurilmada monopropozitivlik amal qilib, bunday o‘rinlarda modusni ifodalovchi modal ma’noli ifodalar modus «voqea» ifodasi uchun juda muvofiq keladi [8, 181]. Masalan: *Qanoat obro‘yi ikki dunyodur, **agar bilsang*** (Mashrab) misrasi ikki sodda gapdan tuzilgan bo‘lib, ergash gap qismida modus ifodalangan va predikat ifodasidagi *-sa* (bilsang) affiksining «shart» ma’nosi neytrallashgan; bosh gapda esa (qanoatli bo‘lishning afzalligi) diktum ifodalangan. Modus muallif uchun matnni qayta qurish, til birliklarining o‘rnini almashtirish, joylashtirish usuli sanaladi, obrazli aytganda, matn strukturasidagi propozitiv mazmun birliklari ustidan egalik qiladi [9,244]. Poetik matnda modus ifodalovchi ergash gapning inversiya holatida qo‘llanishi ko‘tarilgan intonatsiya bilan aytiladi. Sintaktik ortiqchalikning amal qilishi, ya’ni bosh yoki ergash gapning faqat modus voqea ifodalashiga olib keladigan holatlar gap tarkibidagi so‘zlar ma’nosi bilan bog‘liq.

N.Mahmudov sodda va qo‘shma gaplarda shakl va mazmun nomuvofiqligini bir-biriga qiyoslab o‘rganish natijasida bunday gaplarning shakl va mazmun nomuvofiqligida ikkita tamoyil amal qilishini ta’kidlaydi: sodda gaplar doirasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik, asosan, tildagi tejash tamoyilining namoyon

bo‘lishi sifatida yuzaga kelsa, qo‘shma gaplardagi bunday nomuvofiqlikning zamini tildagi ortiqchalik tendensiyasiga borib taqaladi [8,12]. Qo‘shma gaplarda sintaktik struktura bilan semantik strukturaning nomuvofiqligi ergash yoki bosh gapning to‘lig‘icha modus ifodalashi asosida yuzaga keladi, poetik matnda ergash gapdagi modus bosh gapdagi diktumga ham ta’sirini o‘tkazishi mubolag‘ali fikr ifodalanganda yaqqol kuzatiladi, masalan: ***Agar oshiqlig‘im aytsam**, kuyub jonu jahon o‘rtar* (Mashrab). Bir diktum ifodalangan ikki sodda gapdan tuzilgan ergash gapli qo‘shma gaplarda shakliy-mazmuniy nomuvofiqlikning mavjudligi ortiqchalik tendensiyasining amal qilishi natijasidir.

Mumtoz poetik matnlarda badiiylik modusi sintaktik ortiqchalik planida yuzaga keltirilgan, ergashgan qo‘shma gaplarda modusning ifodalanishi gapning monopropozitivligini anglatib, shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik sintaktik ortiqchalikni namoyon qiladi, modus asosida ijodkor o‘zining g‘oyaviy-hissiy munosabatini zohir etishni ko‘zlaydi. Har qanday gap semantikasida propozitiv mazmundan tashqari, kommunikativ niyat va ehtimoli bor modallikdan biri ishtirok etishi kerak bo‘ladi, ya’ni, propozitsiyadan real gap mazmuniga o‘tish uchun propozitiv qolipdan tashqari, yana bir qolip — modallik (modus qolipini qo‘shish zarur bo‘ladi va har qanday gap mazmuniy tuzilishining zaruriy uzvi hisoblanadi, ushbu qolipning qo‘shiluvi gapda shakliy-mazmuniy nomuvofiqlikni namoyon qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Леденев Ю.Ю. К вопросу о синтаксическом статусе предложения // Педагогическая наука и практика - региону. Мат-лы ВИИ региональной научно-практической конференции 8-9 апреля 2005 г. – Ставрополь: СГПИ, 2005.
2. Abdurahmonov G‘. Qo‘shma gap sintaksisi asoslari. – Toshkent, 1958
3. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – Москва: Иностр. лит., 1955.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
5. Абдуразаков М.А. Семантическая структура высказывания (семантические типы субъектов и предикатов): Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Москва, 1985.
6. http://readeralexey.narod.ru/Library/Frye_1987.pdf. Фрай Н. Анатомия критики // Зарубежная эстетика и теория литературы XIX-XX вв. – Москва: МГУ, 1987.
7. Berdialiyev A. Ergash gapli qo‘shma gap konstruksiyalarida semantik-signifikativ paradigmatika. – Toshkent: Fan, 1989.
8. Mahmudov N. O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984.
9. Копытов О. Модус на пространстве текста. – Хабаровск: Изд-во ХГИИК, 2012.

AXBOROTLAShGAN JAMIYATDA ShAXSNING AXBOROT MADANIYATINI ShAKLLANTIRISh MUAMMOLARI

ALIJON BAHODIROVICH ERGASHEV, NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

Yoshlar masalalari va ma’naviy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor

Annotatsiya. Maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish muammolari tadqiq qilingan. Zamonaviy dunyoda axborot

texnologiyalarining rivojlanishi shaxs, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida tubdan oʻzgarishlarga olib kelayotganligi, bu esa oʻz navbatida inson axborot madaniyatini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqarayotganligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada Oʻzbekistonda shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish jarayonlari, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar va istiqboldagi vazifalar yoritilgan.

Kalit soʻzlar: axborot madaniyati, axborotlashgan jamiyat, axborot resurslari, axborot texnologiyalari, shaxs, axborot savodxonligi, axborot xavfsizligi, raqamli koʻnikmalar.

Аннотация. В статье исследуются проблемы формирования информационной культуры личности в условиях информационного общества. Обосновывается, что развитие информационных технологий в современном мире приводит к фундаментальным изменениям во всех сферах жизни личности, общества и государства, что, в свою очередь, вызывает необходимость формирования информационной культуры человека. Также в статье освещены процессы формирования информационной культуры личности в Узбекистане, реформы, осуществляемые в этой области, и перспективные задачи.

Ключевые слова: информационная культура, информационное общество, информационные ресурсы, информационные технологии, личность, информационная грамотность, информационная безопасность, цифровые навыки.

Annotation. The article examines the problems of forming the information culture of an individual in the conditions of the information society. It is substantiated that the development of information technologies in the modern world leads to fundamental changes in all spheres of life of the individual, society and the state, which, in turn, necessitates the formation of human information culture. The article also highlights the processes of forming the information culture of the individual in Uzbekistan, the reforms being carried out in this area, and future tasks. **Key words**: information culture, information society, information resources, information technologies, personality, information literacy, information security,

digital skills.

Hozirgi davr axborot asri deb nomlanishi bejiz emas. Insoniyat tarixida bir necha marta axborot inqiloblari yuz bergan boʻlib, ular jamiyat rivojlanishining yangi bosqichlarini belgilab bergan. Zamonaviy dunyoda axborot va bilim asosiy

ishlab chiqarish resursi va ijtimoiy boylik manbaiga aylanmoqda. Bunday sharoitda axborot madaniyati shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Axborotlashgan jamiyatning muhim belgilaridan biri — jiddiy iqtisodiy, ijtimoiy, texnik vazifalarning birortasini axborotsiz muvaffaqiyatli hal etish mumkin emasligini tushunishdir. Aynan shu sababli axborot madaniyati butun jamiyatning, ham ayrim shaxsning muhim xususiyatiga aylanib bormoqda.

Jamiyat rivojlanishning axborot bosqichiga o‘tayotgan, aholining kompyuter texnikasi bilan ta’minlanganlik darajasi yaxshilanayotgan, odamlar har qanday masala bo‘yicha to‘laqonli axborotni tezkor ravishda olishni istayotgan bir paytda shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish muammolari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

“Axborotlashgan jamiyat” tushunchasi turli olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ularning ta’riflari bir-biridan unchalik farq qilmaydi va aksincha biri-birini to‘ldiradi. Siyosiy fanlar nomzodi U. Islombekovning ta’riflashicha, “...axborotlashgan jamiyat deganda, inson hayotining turli jabhalarida – ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiyot, siyosatda aynan axborot ustuvor resurs sifatida namoyon bo‘lgan jamiyat tushuniladi. Bunday jamiyatda axborotning yangi turlari, uni saqlash va uzatish vositalarining zamonaviy shakllari vujudga keladi”[1]. O‘zbekistonlik olim D. Ernazarovning fikrlariga ko‘ra, “Axborotlashgan jamiyatning o‘ziga xos, tuzilmaga solinmagan zaxirasi ishonchliligi turli darajada bo‘lgan xilma-xil axborot bilan betartib to‘ldirilmoqda. Internetdan tarqatilayotgan axborot bilan ishlashda tanqidiylik va sinchkovlik qilib o‘tirmagan holda zamondoshimiz o‘z hayoti va faoliyatini shubhali dalillarning mo‘rt poydevori ustiga qurmoqda. Bu tekshirilmagan (yoki qo‘pol qalbakilashtirilgan) xabarlarni

ahamiyatli va ishonchli, deb hisoblamoqda”[3].

“Axborotlashgan jamiyat” tushunchasi nafaqat axborotning texnik va texnologik imkoniyatlarini ko‘rsatib beruvchi mutaxassislar balki siyosatshunoslar, iqtisodchilar, xalqaro munosabatlar mutaxassislari tomonidan ham tadqiq etilgan[2]. Rossiyalik olim V. Pavlovning ta’kidlashicha: “Axborot jamiyatining faoliyati axborotni yaratish, saqlash va ishlashiga, shuningdek, undan foydalanishga bog‘liq bo‘lgan tizim sifatidagi umumiy ta’rif juda mavhumdir. Axborot jamiyat mavjudligining ajralmas qismi ekanligini unutmasligimiz kerak. Shuning uchun mutaxassislar zamonaviy jamiyatda bu tendensiya asosiy qadriyat bo‘lib qoladi, deb aytsa va yozsa, ularning fikrlariga qo‘shilish mumkin emas. Axborotning ijtimoiy va individual mavjudlik sharti sifatidagi maqomi asta-sekin, lekin barqaror ravishda o‘zgarib borayotgani aniq. Uning tovar sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda.

Zamonaviy dunyoda texnik, iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy, harbiy muvaffaqiyatlar sub’ektlar ega bo‘lgan bilimlarning miqdori va sifatiga bog‘liq”[8].

Maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish muammolarini tadqiq qilishda tizimli-strukturaviy, qiyosiy-tarixiy, mantiqiy-

dialektik, empirik tahlil kabi metodlardan foydalanilgan. Shuningdek, axborot madaniyatining nazariy jihatlarini oʻrganishda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, Oʻzbekistondagi axborot madaniyatini shakllantirish boʻyicha amalga

oshirilayotgan islohotlarni oʻrganishda kuzatuv, taqqoslash va sintez metodlaridan foydalanilgan.

Axborot madaniyati tushunchasi shaxsning axborotga boʻlgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bilimlar, oʻquv va koʻnikmalarning tizimlashtirilgan yigʻindisi sifatida tushuniladi. Inson axborotga boʻlgan oʻz ehtiyojini toʻgʻri shakllantira olishi, axborot resurslari orasidan oʻzi uchun kerakli boʻlgan axborotni izlay olishi, uni qayta ishlash va shu asnoda sifat jihatidan yangi axborot yarata bilishi, yakka tartibda axborot qidiruvi tizimini olib borishi, shuningdek axborot muloqotiga qodirligi va kompyuter sohasidagi savodxonligi axborot madaniyatining mezonlari hisoblanadi.

Fikrimizcha zamonaviy axborotlashgan jamiyatda shaxsning axborot madaniyatini shakllantirishda quyidagi muammolar mavjud:

- Globallashuv sharoitida axborot xurujlari kuchayib borayotgan bir paytda shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish, axborotni tanqidiy fikrlash orqali baholash koʻnikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni chogʻda, hozirda turli usullarda olib borilayotgan mafkuraviy targʻibot va tashviqot kuchayib borayotganligini, uning asl maqsadi - yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurashga qaratilganligini qayd etish zarur.
- Internet tarmogʻidagi axborotlar hajmi kun sayin ortib bormoqda. Bu esa axborotning ishonchliligini tekshirish va saralash imkoniyatlarini cheklaydi. Shaxs har doim ham oʻziga kerakli boʻlgan axborotni topa olmasligi yoki notoʻgʻri axborotga ishonib qolishi mumkin.
- Jamiyatning barcha a’zolari ham axborot texnologiyalaridan bir xil darajada foydalana olmaydi. Bu esa raqamli tengsizlik muammosini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, yoshi katta avlod vakillari va qishloq joylarda yashovchi aholi uchun bu muammo yanada dolzarbdir.
- Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga kiberjinoyatchilik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish muammolari ham keskinlashmoqda. Shaxs oʻz ma’lumotlarini himoya qilish, xavfsiz internetdan foydalanish koʻnikmalariga ega boʻlishi zarur.

Ta’kidlash joizki, Oʻzbekistonda shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish borasida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

1. Huquqiy-me’yoriy baza takomillashtirilmoqda. Oʻzbekistonda axborot sohasini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilingan va doimiy ravishda takomillashtirib

borilmoqda. Jumladan, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”, “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilingan[7].

2. Elektron hukumat tizimi rivojlantirilmoqda. Davlat organlari veb-saytlarga ega bo‘lib, fuqarolarga ular orqali hokimiyat va boshqaruv idoralari faoliyati haqida o‘zi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar olish, huquqiy-me’yoriy hujjatlar bilan tanishish imkoniyati yaratilgan. Davlat organlari veb-saytlaridan tashqari boshqa veb-saytlarning soni ham oshib borayotganligini alohida qayd etish zarur. Xususan, “uz” domen zonasidagi veb-saytlarning soni yildan-yilga ortib bormoqda.
3. Ta’lim tizimida axborot madaniyatini shakllantirish. Ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalari fanlari o‘qitilib, o‘quvchi va talabalarda axborot bilan ishlash ko‘nikmalari shakllantirilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida elektron ta’lim resurslari yaratilmoqda va masofaviy ta’lim texnologiyalari joriy etilmoqda.
4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish**.** Mamlakatda internet tezligi va sifatini oshirish, mobil aloqa xizmatlarini rivojlantirish, raqamli televidenie va radioeshittirishlarni joriy etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Axborot madaniyati shaxsning jamiyatga moslashishi va unda o‘z o‘rnini topishining muhim vositasi hisoblanadi. Axborotlashgan jamiyatda axborot madaniyatiga ega shaxs ijtimoiy munosabatlarning to‘laqonli ishtirokchisiga aylanadi, aks holda u ijtimoiy hayotdan chetlashib qoladi. Axborot madaniyati nafaqat shaxsning axborot bilan ishlash qobiliyati, balki jamiyatda o‘rnatilgan axborot munosabatlari tizimiga integratsiyalashuvi darajasini ham belgilaydi.

Axborotlashgan jamiyatda shaxsning axborot madaniyati uning ijtimoiy maqomini belgilovchi omillardan biriga aylanmoqda. Axborot texnologiyalarini qanchalik yaxshi o‘zlashtirganligi, axborot oqimini tanqidiy baholay olishi, axborotni samarali boshqarish va qo‘llash qobiliyati insonning jamiyatdagi o‘rniga ta’sir qiluvchi muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Bu esa ijtimoiy tabaqalanishning yangi shakli – “axborot tabaqalanishi”ning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Zamonaviy mehnat bozori sharoitida yuqori axborot madaniyatiga ega bo‘lgan mutaxassislar raqobatbardosh hisoblanadi. Shaxsning axborot madaniyati uning kasbiy muvaffaqiyatini ta’minlaydigan muhim komponentga aylandi. Axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olish, axborotni qayta ishlash va tahlil qilish qobiliyati, yangi bilimlarni tez o‘zlashtirish kabi ko‘nikmalar zamonaviy mutaxassisning muhim xususiyatlariga aylangan.

Globallashuv sharoitida axborot xurujlari kuchayib borayotgan bir paytda axborot madaniyati shaxsning mafkuraviy immunitetini shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Yuqori axborot madaniyatiga ega bo‘lgan shaxs axborotni tanqidiy fikrlash orqali baholaydi, ishonchli va ishonchsiz ma’lumotlarni farqlay oladi, turli mafkuraviy

ta'sirlarga berilmaydi. Bu esa shaxsning axborot xavfsizligini ta'minlaydi va uning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ongli ishtirok etishiga yordam beradi.

Jamiyat a'zolarining axborot madaniyati darajasi mamlakatning axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Yuqori axborot madaniyatiga ega bo'lgan jamiyat a'zolari axborot xurujlariga qarshi turuvchi "axborot qalqoni"ni tashkil etadi. Shu bois, shaxs axborot madaniyatini shakllantirish nafaqat individual, balki davlat miqyosidagi vazifa hisoblanadi va milliy xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti sanaladi.

Shunday qilib, jamiyatning axborot madaniyati jamiyat o'zining rivojlanishiga doir o'ta muhim jihatlarga bevosita bog'liq va shuning uchun jamiyat taraqqiyoti darajasining integral ko'rsatkichi sifatida xizmat qilishi mumkin. Shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish orqali jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash, axborot xurujlariga qarshi kurashish imkoniyati yaratiladi.

ADABIYOTLAR

1. Исломбеков У. Сиёсатда "Жамоатчилик билан алоқалар" технологияларини қўллаш имкониятлари (Ўзбекистон Республикаси мисолида). Сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Тошкент – 2007.
2. Муминов А. Ўзбекистон: ахборотлашган жамият сари. – Тошкент: "Turon zamin ziyo" нашриёти, 2013. – 164 б.
3. Эрназаров Д. Глобаллашув шароитида ахборот хавфсизлигини таъминлаш муаммолари. – Тошкент: "Akademiya", 2008. – 156 б.
4. Ўзбекистон Республикасининг "Ахборотлаштириш тўғрисида"ги Қонуни. 2003 йил 11 декабрь.
5. Ўзбекистон Республикасининг "Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида"ги Қонуни. 2002 йил 12 декабрь.
6. Ўзбекистон Республикасининг "Электрон ҳукумат тўғрисида"ги Қонуни. 2015 йил 9 декабрь.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 февралдаги "Ахборот технологиялари ва коммуникatsiялари соҳасини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5349-сон Фармони.
8. Павлов В.П. Информatsionное общество и информационная безопасность. – Москва: "Наука", 2011. – 245 с.
9. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. – Москва: ГУ ВШЭ, 2000. – 608 с.

O'QITUVCHI FAOLIYATIDA NUTQ KOMPETENSIYASI: METAKOGNITIV TAFAKKUR VA KASBIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI

ZOYIR JUMAYEVICH RAXIMOV, NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qituvchi kasbiy nutq kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik aspektlari, kompetensiya turlari yoritilgan bo'lib, o'qituvchining darslarida kasbiy metakognitiv omillarni takomillashtirishning ahamiyati tushuntirilgan. Maqolada o'qituvchilar kasbiy nutq metakognitiv omillarni takomillashtirishning samarali usullari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: metakognitiv, nutq, kasbiy, rivojlantirish, standart, ta'lim, yondashuv, kommunikativ, intellektual, lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik, moslashtirish.

Barchamizga ma'lumki, har bir jamiyatda uning ertangi kunini yaratuvchi yoshlarning kelajagiga bevosita mas'ul kishi ota-ona bilan bir qatorda o'qituvchilardir. O'qituvchi va uning madaniyati, salohiyati o'quvchilarga samarali bilim yetkazib beruvchi kasb vakili sifatida ko'z oldimizda gavdalansa, bu kasb vakillarining har bir sohada ilg'or bo'lishi o'z kasbining bilimdoni bo'lishi bilan bir

qatorda talab etiladigan asoslar har bir davrda kelib chiqib, turlicha bo'lsa-da, o'qituvchi shaxsida yana bir talab etiladigan zaruriy ko'nikma bu nutq mahorati, notiqlik asoslarini to'la o'zlashtiraolgan bo'lishi majburiy ko'nikmadir. Sababi har qaysi fan o'qituvchisi o'z fani haqidagi bilimlarni, albatta, so'z yordamida ifodalaydi. So'z esa ta'sirli bo'lishi, nutq tushunarli bo'lishi, maqsad qilingan bilimlar to'la o'zlashtirilishi uchun erkin, ravon tilda har qanday psixologik xususiyatdagi o'quvchiga tushunarli holda yetkazaolsa bu dars ko'zlangan maqsadga erishaolgan bo'ladi.

Ayniqsa Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan hattoki, istiqlolga erishishimizdan avval bu yo'ldagi qadam sifatida O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligi har millat uchun davlat tilining asosiy o'rinda ekanligini ham ko'rsatadi. To'g'ri, hozirgi kunda ta'lim jarayoniga yangi, zamonaviy usul va vositalarning kirib kelishi, uni keng ko'lamda, jadal sur'atlarda amalda qo'llash kuzatilmoqda. Lekin bu pedagogning boshlovchilik va nutq mahoratini inkor qilolmaydi. O'quvchi ham, o'qituvchi ham bilim olishning yagona manbayi bo'lib qolishi kerak emas, balki fikrlovchi, mustaqil ishlash asnosida o'quv jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishi lozim. Qarsak ikki qo'ldan chiqishini bilish foydadan xoli emas. Zamon talablariga javob beradigan fidoyi, ritorik mahoratga ega, izlanuvchan, yangilikka intiluvchan, tashabbuskor, kasbiy bilimlarga ega kadrlar davlatimiz istiqbolidir[1,1bet].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarorida; maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik, jis moniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratildi[2,3b].

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri - o‘qituvchi kasbiy faoliyatining samaradorligini oshirishdir. Zamonaviy ta’limda o‘qituvchidan nafaqat mustahkam bilim va metodik tayyorgarlik, balki metakognitiv tafakkur, refleksiya va nutq kompetensiyasining yuksak darajasi talab etiladi. Ayniqsa, o‘qituvchining nutq qobiliyati - ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi markaziy psixologik pedagogik omildir. Nutq qobiliyati o‘qituvchining bilim, tajriba va hissiy-intellektual salohiyatini o‘quvchi ongiga yetkazish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi nutqi muloqotga kirishuvchanlikni ta’minlaydi; o‘quvchilarda motivatsiya va e’tibor uyg‘otadi; ta’lim mazmunining anglanishini yengillashtiradi.

Shuningdek, nutq madaniyati o‘qituvchining metakognitiv ong darajasini ham aks ettiradi, chunki u o‘z fikrini boshqarish, tuzish, baholash va tahlil qilishni talab etadi. Metakognitiv omillar - bu shaxsning o‘z fikrlash jarayonini nazorat qilish, rejalashtirish, tahlil etish va baholashga qaratilgan qobiliyatlari tizimidir. O‘qituvchi uchun bu omillar quyidagi jihatlarda ahamiyatlidir:

1. Kommunikativ strategiyalarni tanlash - har bir o‘quvchining psixologik xususiyatlariga mos nutq shakllarini qo‘llash.
2. O‘z-o‘zini rivojlantirish - nutq orqali kasbiy o‘sishning tahliliy asosini yaratish.
3. O‘z nutq faoliyatini refleksiv baholash - dars jarayonida nutqning aniqligi, ta’sirchanligi va o‘quvchiga yo‘naltirilganligini kuzatish.

O‘qituvchining nutq qobiliyatini metakognitiv asosda rivojlantirish quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

1. Refleksiv tahlil - darsdan keyingi o‘z nutq faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish yo‘llarini aniqlash.
2. Metakognitiv treninglar - nutqni ongli rejalashtirish va nazorat qilishga o‘rgatuvchi mashg‘ulotlar.
3. Kommunikativ vaziyatli mashqlar - real ta’limiy muhitda nutq strategiyalarini sinovdan o‘tkazish.

4. Audio-video tahlil - oʻz nutqini yozib, uni psixologik va lingvistik mezonlar asosida baholash.
5. Kasbiy samaradorlik bilan bogʻliqlik.

Nutqning mantiqiyligi - nutqning mantiqiy boʻlishi, eng avvalo, oʻqituvchining soʻz boyligi, tafakkur yuritish qobiliyati, idrok etish mahoratiga bogʻliq. Oʻqituvchi tilni juda yaxshi bilishi, soʻz boyligi keng boʻlishi mumkin. Ammo oʻzi fikr yuritayotgan mavzuga nisbatan chuqur bilimga ega boʻlmasa, bilimlarini oʻz tafakkuri doirasida tahlil qila olmasa notiqlik san'ati natija bermaydi. Soʻzlarning oʻqituvchi ifodalayotgan mavzuga mos ravishda toʻgʻri ifodalanishi, soʻz birikmalarining, gaplarning, matnlarning bir-biriga toʻgʻri kelishi, fikrni izchil bayon etish uchun boʻysundirilishi nutqning mantiqiy boy ekanligini bildiradi. Oʻquvchilarga aytilayotgan fikr mantiqan bir-biriga bogʻlangan boʻlishi kerak. Gaplar oʻrtasida fikriy bogʻlanish, izchillik yoʻqolishi bilan oʻqituvchi nutqining mantiqiyligiga putur yetadi [3,2b].

Hozirgi paytda yuz berayotgan globallashuv jarayoni va jamiyatni isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimida ham jiddiy oʻzgarishlar kiritishni talab etadi. Dunyo davlatlari orasida Oʻzbekiston Respublikasida birinchilardan boʻlib umumbashariy tavsifga ega mazkur muammoni hal etishga doir konseptual-nazariy asoslar yaratildi va tizimli ravishda amaliyotga tatbiq etib borilmoqda. Mazkur ezgu maqsadni hayotda oʻz isbotini topishda Oʻzbekiston Respublikasining "Ta'lim toʻgʻrisida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" huquqiy asos boʻlib xizmat qilmoqda [4,3b].

Pedagog uchun eng zaruri nutq madaniyatini egallashdir. Oʻqituvchining nutqi kundan-kunga oʻquvchilar uchun ibratli boʻlib borib ularning nutq madaniyatini shakllantirishga yordam berishi shart. Nutqning grammatik toʻgʻriligi, uning leksik boyligi, yaxshi ifodalanganligi, obrazliligi, nutq texnikasini egallanganligi oʻqituvchining turli xil kasbiy masalalarni sifatli yechishiga imkon beradi. Pedagogning tashqi koʻrinish madaniyati, uning tashqi koʻrinishga moslik darajasi va pedagogik faoliyati bilan baholanadi. Keng fikrlilik, tartibli, odobli, bosiqlik va oʻzini-oʻzi yaxshi boshqara olish kabilar pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli boʻlishiga sabab boʻladi.

Metakognitiv yondashuv asosida nutq qobiliyatining rivojlanishi oʻqituvchining kasbiy samaradorligiga quyidagi yoʻnalishlarda ta'sir koʻrsatadi:

1. oʻquvchilar bilan emotsional aloqa mustahkamlanadi;
2. dars jarayoni interfaol va mazmunli tus oladi;
3. ta'lim sifati oshadi, shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv kuchayadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, oʻqituvchining nutq qobiliyati - metakognitiv tafakkur, kommunikativ mahorat va pedagogik refleksiyaning uygʻunligidan iborat

murakkab tizimdir. Bu tizimni rivojlantirish orqali o'qituvchi nafaqat o'quvchilarning bilim olishini samarali tashkil etadi, balki o'zining kasbiy o'sish dinamikasini ham ta'minlaydi. Demak, metakognitiv omillar asosida nutq qobiliyatini takomillashtirish - o'qituvchining kasbiy kompetentligini yangi bosqichga olib chiqadigan muhim psixologik-pedagogik mexanizmdir. O'qituvchi nutq kompetensiyasiga ega bo'lishi - bu faqat tilshunoslik jihatdan emas, balki pedagogik, psixologik jihatdan ham muhim. Agar bu kompetensiyani metakognitiv tafakkur bilan uyg'unlashtirsak, ya'ni o'z nutqini ongli tahlil qilib, takomillashtirib borilsa, kasbiy samaradorlik darajasi oshadi.

ADABIYOTLAR:

1. https://notiq.uz/archives/
2. Qarshiboyev.J.R. O'qituvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida. Образование Наука И Инновационные Идеи В Мире https://www.Newjournal.Org/Выпуск Журнала No –22часть–4_ Июнь – 2023.
3. Turkiston ro'znomasi 2017-yil 1-fevral 3-bet.
4. D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: "Barkamol fayz media", 2018, – 432 b.

ASAR TILINING LEKSIK TAHLILI

(Erkin A'zam asarlari misolida)

NODIRA BAHODIROVNA KOBULOVA, NAVOIY INNOVATSIYLAR UNIVERSITETI

Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Yozuvchi badiiy asarda muayyan g'oyaviy-estetik maqsadlarga ko'ra arxaizmlar, neologizmlar, varvarizmlar, shevaga, kasb-korga xos so'zlar, vulgarizmlar, sinonim, omonim, antonimlardan ham keng foydalanadi.

Bulardan arxaizmlar, neologizmlar, sheva va kasb-kor so'zlar, varvarizm va vulgarizmlar so'zlarning to'g'ri ma'nolarini anglatsa, sinonim, omonim, antonimlar so'zlarning ma'no jihatdan muhim farqlarini, nozik ma'nolarini ifoda etib keladi. Ijodi xalqona ohanglarga yaqin yozuvchilar asarlarida ushbu leksik qatlamlarning tufra xil ko'rinishlarini uchratish mumkin.

Arxaizmlar, asosan, tarixiy asarlarda ko'proq ishlatiladi. Erkin A'zamning asarlarida arxaik so'zlar unchalik ko'p uchramasada, qahramon xarakter xususiyatlarini, xususan, individual belgilarini ochib berish maqsadida onda-sonda

ishlatiladi. "Jannat o'zi qaydadir" asarida Xonim tildan aytilgandek, "bir yuzu oltmish sakkiz qo'qonga tushdi" kabi. Shuningdek, neologizmlarning ishlatilishi ham unchalik faol

emas. Neologizmlar, ayniqsa, fan-texnika bilan shugʻullanuvchi kishilar hayotiga bagʻishlangan realistik, shuningdek, ilmiy-fantastik asarlarda koʻproq uchrashini hisobga oladigan boʻlsak, bu holning izohi maʼlum.

Erkin Aʼzam asarlarida alohida eʼtibor qaratadigan leksik qatlamlardan biri shevaga xos soʻzlardir. Yozuvchi tasvirlayotgan voqelikning hayotiy chiqishini koʻrsatish hamda xarakter nutqini umumlashtirish va individuallashtirish maqsadida koʻpgina qahramonlarini ular tugʻilib oʻsgan yurt shevasida gapirtiradi. Bu asarlarda Toshkent, Sirdaryo, Xoʻjand, Surxon, Samarqand shevalariga xos soʻz va iboralarni uchratamiz. Shu jihatdan "Bayramdan boshqa kunlar" asaridagi Muftilla, yaʼni Misha togʻa oʻzining beoʻxshov qiliqlari, almisoqdan qolgan qarashlari bilan kitobxonning yodida saqlanib qoladi.

"Muftilla toʻrvasini tagʻin titkilab, dagʻal qogʻozga oʻraglan allanima chiqardi:

- Manov – tandirkabob! Jeysizlar. Safura chapak chalib yubordi:
- Vuy, prelest, Misha togʻa!

Sahovatli "togʻa" yonlarini kavlab, sopi yaltiroq birvakay ikkita pichoq oldi.

- Jiyanboyding oʻzi koʻrinmaydimi? Biz unga manovlarni olib kelib edik. Koʻpam ul boshqa oʻyinlarni oʻynaybermay, buniyam oʻrgansin. Pichoqbozlik – ota-bobomizdan qogʻan oʻyin." [Erkin Aʼzam, 2002:175]

Muftillaning ushbu gap-soʻzlari unga yuqoriroqda berilgan xarakteristikani toʻla oqlaydi: didsiz kiyingan, irkitroq bir kimsa. Uning tashqi koʻrinishi ichki olamiga mos kelishini oʻzining nutqi ham tasdiqlaydi.

Bugungi kunlarga goʻyo oʻtmish asrlardan kelib qolgan befarosat kimsadek.

Erkin Aʼzam asarlarida eng koʻp ishlatiladigan zahiralardan biri varvarizmlardir. Bu hodisani yozuvchining katta-kichik asarlarining koʻpchiligida koʻrish mumkin. "Bayramdan boshqa kunlar"da Sapura, Basira, Bargida, "Jannat oʻzi qaydadir"da Komila-Katya, Luiza, Xonim, "Guli-guli"da Maʼmura gajak, Natalʼya Dmitreevna- Natasha Rostova, "Stupka"da Marina yanga, Lena, "Shovqin" romanidagi bir qator personajlar nutqida chet tili soʻzlari, iboralari, gaplarini uchratib qolamiz.

Asar tilidagi leksik zahiralar, jumladan, varvarizm ham muallif yo roviy tildan obrazga beriladigan xarakteristikalarni toʻldiradi, qahramonning xarakter belgilarini toʻla tasavvur etishga imkon yaratadi. "Bayramdan boshqa kunlar"dagi tantiq oʻsgan Basira zamonaviy oyimqizlardan. Agar bu obrazni oʻtgan asrning oltmishinchi yillarigacha boʻlgan davr voqeligi fonida tasvirlaganda sunʼiylik vujudga kelgan boʻlardi. Chunki, 60-yillargacha boʻlgan tarbiya tizimi, muhit, sharoit bunday xarakterlarning paydo boʻlishiga yoʻl qoʻymasdi. Basira – aynan 70-80-yillar davri voqeligi mahsuli. U oʻsib-ungan

muhitdan andoza olgan holda bema’ni hayot kechiradi, yurish-turishi betayin, huda-behudaga chet so‘zlardan ishlataveradi:

“-Ну всё! – dedi u kutilmaganda, opasi bilan pochchasini ko‘rgach, “halinchagi”da tebranishdan to‘xtab. – Больше сюда не звони! Чтобы духа твоего не было здесь! Кретин! – Басира шарақлатиб трубкани жойига қўйди-даб

дикиллаб ўрнидан турди, уларга бир ёвқараш қилдию индамай емакхона тарафга ўтиб кетди.” [Erkin A’zam, 2002: 214]

Safura esa shaxsiy hayoti girdoblariga cho‘kayotgan obraz sifatida taassurot qoldiradi. U hayotdan kuygan, sho‘rpeshona, hattoki, onalik baxtini ham boy bergan, yakkayu yagona farzandi bilan ham yashirincha ko‘rishib yuradi. U xarakteran qayg‘usini bildirmaslikka, boshqalarning ko‘ziga shodon bo‘lib ko‘rinishga harakat qiladi. Xursandchilik bilan musibatini yengmoqchi bo‘ladi. Ana shu fe’li gap-so‘zlarida ham aks etadi. Shuning uchun doim ikki gapining birida chet til so‘zlarini ishlatib, o‘ziga alohida qurama “til” yaratib olgan. Uning farzandidan boshqa kim bilan suhbatini kuzatmaylik, albatta, ana shu “qurama” tildan foydalanadi. Bu “qurama” til go‘yoki uni fojealardan ihota qilib turadigandek.

“Chi gap, genatsvali”, “bonjur”, “ladno”, “chao, bolakay”, “Ya – dura, vsyo”, “po sekretu”, “golubchik”, “po sekretu”, “vot v chyom sut”, “prosta krasotka”, “tak chto, podumay” kabi so‘z va iboralar, “Xello-o! BB larga (Bakir bilan Bargida demoqchi) salyut! – deb qiyqiradi u telefondayoq: ismlarini to‘liq aytish ham unga malol kelsa kerak yoki oliftagarchilikkamikan? So‘ng betakallufona so‘zlashuvga o‘tadi: - Qalaysan, bolakay? Shik? Ya rada, Jonginang uydami? Chaqir-chi… Bargi-isha! Znaesh, ya vchera… kimni ko‘rdim, top-chi!” [Erkin A’zam, 2002:232] hamda ushbu gaplar qahramon xarakterining beqarorligidan, o‘zining asl qiyofasini yaltiroq so‘zlar ortiga yashirayotganidan darak beradi. Ruscha, fransuzcha, tojikcha, inglizcha so‘z-iboralardan iborat, faqat Safuragagina tegishli bu leksik ifoda uning o‘z tilini ham tuzukroq bilmasligini ko‘rsatadi. Shubhasiz, o‘rinli-o‘rinsiz ishlatilgan bu so‘z, ibora, gaplar – shunchaki o‘z yo‘liga aytilgan obrazning almoyi-jalmoyi aljiramalaridek bo‘lib tuyulsada, ular ortiga o‘ziga xos iroda yo‘nalishiga ega inson bor, uning ma’naviy olami bor, ichki dunyosi bor, qolaversa, qismati bor. Shunday ekan, badiiy asarlardagi varvarizmlarga alohida e’tibor qaratish lozimligini taqozo etadi.

“Stupka” nafaqat Erkin A’zamning, balki o‘zbek hikoyachiligining keyingi yillardagi eng yaxshi namunalaridan biridir. Taqdir taqozosi bilan O‘zbekistonda yashab qolgan ikki rus ayoli o‘zaro bordi-keldi qilishadi, yoshliklarini, tug‘ilib o‘sgan yurtlarini eslashadi. Hikoyada bor-yo‘g‘i bitta ruscha so‘z xususida gap ketadi. Ikkovi ham hovonchaning ruscha qanday atalishini eslashomlaydi. Hikoyaning butun syujetu kompozitsiyasi ana shu birgina so‘z asosiga quriladi. To‘g‘ri, hikoyada ruscha she’riy bandlar ham Marina

yanga va Lena eslayolmayotgan “stupka”ga bogʻlanadi. Umuman, hikoyada qoʻllanilgan chet soʻz insoniy qadriyatlar va inson xotirasi bilan bogʻliq hayotiy jarayonlarni ifoda eta olganligi bilan ahamiyatli. “Stupka” – ona yurt toʻgʻrisida, tugʻilib ungan vatan haqida mungli, qaygʻuli, hasratli qoʻshiq. Birgina soʻz Marina yangani bosib yoʻlini qayta xotirlashga, koʻz oldiga keltirishga xizmat qiladi: Nikol qishlogʻi, Fedka abjirni tush koʻrish epizodlari Marina yanganing ruhiy olamini qalbida kechayotgan yurt sogʻinchi tuygʻusini anglab yetishga xizmat qiladi.

Koʻrinib turibdiki, Erkin A’zam nasrida varvarizmalar turlicha gʻoyaviy-badiiy maqsadlarni bajarishga yoʻnaltirilgan. Varvarizmlar Safura timsolida hayotda oʻz yoʻlini yoʻqotib qoʻygan ayol qiyofasini koʻrsatsa, Marina yanga timsolida samimiy

insoniy tuygʻularni koʻrsatishga koʻmak bergan. Demak, qahramon qiyofasini badiiy talqin etishda leksik zahiralar, jumladan, varvarizmlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. A’zam Erkin. Kechikayotgan odam: Qissalar. – T.: “Sharq”, 2002 y.
2. A’zam Erkin. Ertak bilan xayrlashuv: qissalar va hikoyalar . – T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2007 y.
3. A’zam Erkin. Jannat oʻzi qaydadir:hikoyalar, kinoqissalar, dramatik asar// Zabarjad kinoqissasi. – T.: “Sharq” nashriyot matbaa-aktsionerlik kompaniyasi. 2007 y.
4. A’zam Erkin. Bayramdan boshqa kunlar//T.: Vatanparvar. 1987 y.
5. A’zam Erkin. Guli-guli: qissalar, kinoqissalar, dramatik asar// Guli-guli qissasi. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. 2009 y.

INTEGRATIV YONDAShUV ASOSIDA BOʻLAJAK TARIX OʻQITUVChILARINING KASBIY KOMPETENLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

SHUHRATJON SUVONQULOVICH BOBOYOROV, NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI TARIX KAFEDRASI DOTSENTI, PEDAGOGIKA FANLARI BOʻYICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)

Yangi Oʻzbekistonning asosiy strategiyalaridan biri sifatida “Uzluksiz ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni oʻqitish tartibi va tamoyillari toʻgʻrisida” qonun ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyoji ham mavjudligi ta’kidlangan. Bu yoʻnalishda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan “2022-2030-yillarda Oʻzbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi” yaratilishi va amalga oshirilishi tavsiya etilgan. Yangi Oʻzbekistonning 2022-2026-yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasining “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash, ushbu sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish” yoʻnalishida “Oʻzbekiston tarixini oʻrganish va targʻib

qilishni rivojlantirish” vazifasi belgilangan.[1] Tarix fani - insoniyatning butun o‘tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo‘lgan voqea-hodisalar, jarayonlarni rivojini yaxlit bir tarzda o‘rganadi. Tarix fani ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, san’atshunoslik va b.) tizimining tarkibiy qismi. Tarix fanining bu guruhdagi o‘rni uning tadqiqot predmeti va usullari bilan belgilanadi. Turli ijtimoiy va gumanitar fanlar jamiyat hayotining alohida jihatlarini o‘rgansa, tarix fanining tadqiqot obyekti - aholi, jamiyat, mamlakat, davlat hayotining o‘tmishi va hoziri haqidagi faktlarni yig‘ish, tahlil qilish, to‘plangan bilimlarni ma’lum bir tizimga solish va nazariy jihatdan umumlashtirishdir. Tarix fani o‘tmishda sodir bo‘lgan jarayon va hodisalar orasidagi o‘zaro bog‘liklik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning mantig‘i va ma’nosini ko‘rish imkonini beradi. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tarix tadqiqotlari natijalariga

[1] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон”/ 2021. Б. 233.

tayanadi. Fanlararo yondoshuv jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirib, o‘tmishni va hozirni anglash orqali jamiyat rivoji istiqbolini ko‘ra bilishdek muhim vazifani hal qiladi. Tarix fanida, boshqa fanlarda bo‘lganidek, muqarrar ixtisoslashuv amalga oshmoqda.

Ta’lim jarayonini yangi mazmun va yangi shaklda yo‘lga qo‘yishda integrativ yondashuv talab etiladi. Integratsiya so‘zi lotincha “integratio” – tiklash to‘ldirish, “integer” – butun so‘zidan kelib chiqqan. Integratsiya – differensiya jarayonlari bilan birgalikda amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish va bog‘lash jarayoni bo‘lib, yangi, butun, yaxlit bo‘limlar yaratishga yordam beruvchi, fanlararo aloqalarni amalga oshirishning yuqori ko‘rinishidir.

Integratsiya - o‘qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish. Integratsiyalash — lotincha “integer” — umumiylik, “integerara” - umumiylikni to‘ldirish, yaratish, tiklash demakdir. Ta’lim mazmunidagi uyg‘unliklarni ta’minlash muammolari ham integratsiyalashning shug‘ullanadigan sohasi hisoblanadi. U tushunchalami umumlashtirishni o‘rgatish.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati: “Integratsiya (lot. integratio) - tiklash, qaytadan boshlash, to‘ldirish. 1. Ayrim qismlarning, elementlaming bog‘liqlik holatini, ularni qo‘shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha. 2. Fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro bog‘lanish jarayoni. 3. Ikki va undan ortiq davlatlarning iqtsodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish”, “Integral (lot. integer - bir butun, buzilmagan, qayta tiklangan) - mat. Oliy matematikada cheksiz kichik sonlar yig‘indisi sifatida qaraladigan butun miqdor. Integrallash - mat. Berilgan funksiyaning, matematik ifodaning integralini topish, aniqlash”.

Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida qad etilishicha, “Integral [lot, integer butun] - matematik analiz (tahlil) ning asosiy tushunchalaridan biri. Integrallash matematikada aniqmas integralni izlash amali. Integratsiya (lot. Integration - tiklash, toʻldirish, integer- butun soʻzidan), fanlarning yaqinlashishi va oʻzaro aloqa jarayoni, differensiatsiya bilan birga kechadi”.

Yarmatovning fikricha, integratsiya – bu shaxsdan har qanday hodisalarni turli nuqtayi nazarlardan koʻrib chiqishni talab etuvchi; boʻlajak tarix oʻqituvchilarida ijodiy tadqiqotlarni mustaqil oʻtkazish qobiliyatini shakllantirishni talab etadigan turli sohalardagi bilimlarni aniq ijodiy masalani echishda qoʻllash koʻnikmasini rivojlantirish; ularda biror-bir ijodda oʻzlarini faol namoyon etish istagini rivojlantirishning murakkab strukturaviy jarayoni.

Sh.Yusupovaning ta’kidlashicha, integratsiyani quyidagi yoʻnalishlarida tatbiq etish maqsadga muvofiq: oʻquv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmunni integratsiyalab oʻrganish; turli xil oʻquv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash; ta’lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari yoki oʻquv kunini integratsiyalash .

M.Kenjayevaning fikricha, integratsiya oʻrganilayotgan yagona mavzu doirasida bir necha fanlar oʻrtasidagi tutash va umumiy jihatlarni topish, bilimlarni sintez qilish, ta’lim oluvchilarning oʻquv-biluv faoliyatini almashish orqali yoʻlga qoʻyish shaklidir. Shu asosda ta’lim oluvchilarni ortiqcha ruhiy zoʻriqishlardan asrash, bilim olishga motivasiya berish, muayyan fanni boshqa bir fan doirasida

oʻrganishga qiziqtirish kabi ta’limiy vazifalar amalga oshiriladi. Natijada oʻzlashtirilgan bilimlarni amalda qoʻllash koʻnikmasi ortadi, kommunikativ va ijtimoiy faollik sifatlari yanada kamol topa boradi.

U oʻquvchi faoliyatining yangi tarkibini belgilash imkonini beradi. Integratsiya ta’lim maqsadi sifatida olamning alohida qismlari bogʻliqligini koʻrsatuvchi bilimlarni berish emas, balki barcha elementlari bir-biriga bogʻliq yaxlit olamni tasavvur qilishga oʻrgatishi kerak.

A.Toshxonovning fikricha, ta’lim integratsiyasi - fanlararo aloqaning yuqori darajasi, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beruvchi vosita. Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta’riflar turlicha ushbu ta’riflarning umumiylik tomoni - integratsiya bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit qarashga erishishdan iborat.

M.Mamarajabov raqamli pedagogika raqamli texnologiya orqali oʻqitish va oʻquv faoliyatiga jalb qilish va aks ettirish amaliyoti sifatida belgilanib, ta’limda texnologiyaning

integratsiyasi raqamli pedagogika falsafasiga asoslanishi mumkin. Ta'limga texnologiyani integratsiyalash toʻgʻri amalga oshirilishi kerak boʻlgan dolzarb masaladir.

Bizning fikrimizcha, integratsiya tarixiy bilimlarning yaxlit, kontekstli va konseptual tarzda oʻzlashtirish jarayoni boʻlib, boʻlajak tarix oʻqituvchilarida tarixiy bilimlarni oʻzlashtirishi, ularning tafakkurini kengaytirish va darsni intekrativ motivatsion tarzda tashkil etishni ta'minlaydi.

Ta'limda integrativ yondashuvning texnologik vazifasi quyidagilarda namoyon boʻladi: vaqtni tejash; oʻquv axborotlarini uygʻunlashtirish va ularni oʻquvchilar jadal oʻzlashtirish imkoniyatini yaratish; oʻquvchilarning oʻzlashtirgan bilim, koʻnikmalari koʻlamini kengaytirish maqsadida mazkur jarayonning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash; oʻzaro turli-tumanlikning mavjudligi; bir turkumdagi oʻquv predmetlari va oʻquv fanlarini oʻzaro uygʻunlashtirish; oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirilgan bilim, koʻnikma va malakalarning izchilligini ta'minlash va tizimlashtirish; oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirilgan ayrim bilimlarni mazkur yoʻnalishdagi yangi axborotlar bilan almashtirish; oʻquvchilarda integrallashgan sifatlarni tarkib toptirish, ularni muvofiqlashtirish va oʻzaro izchilligini ta'minlash. Bizningcha, tarix ta'limida integrativ yondashuvning asosiy vazifasi fanlararo integratsiya orqali boʻlajak tarix oʻqituvchilarida tizimlilik, tarixiy tafakkur, tanqidiy

fikrlash, ijodiy, tadqiqot koʻnikmalarining oshishi kabi sifatlari muhim sanaladi.

Darslarni integrativ yondashuv asosida tashkil etish eskirgan usullardan voz kechishni taqozo qiladi. Bunday integratsiya natijasida oʻquv jarayonida sifat oʻzgarishi vujudga keladi.

M.Mamarajabov tadqiqot ishida boʻlajak oʻqituvchilarni tayyorlashda innovatsion, tizimli, kompetensiyaviy, information-texnologik, integrativ yondashuvlarni joriy etishni ta'kidlab oʻtgan. Ta'limni tashkil etishning integrativ texnologiyalarga va kompetensiyalarga asoslangan yondashuvdan foydalanish boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajalarini aniqlash imkonini berishini asoslagan.

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuvning ijobiy natijalari quyidagilardan

iborat: oʻquvchilarning oʻrganilayotgan materialning nisbatan tugallangan qismini chuqur va mustahkam oʻzlashtirishlari ta'minlanadi; oʻquvchilarni faoliyatning turli-tuman koʻrinish va shakllariga jalb qilish, faoliyatni tashkil etishning yalpi, guruh va yakka shakllarini maqbul tarzda birga qoʻshib olib borish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi; oʻqituvchi va oʻquvchilarning birgalikda ijod qilishlariga keng yoʻl ochiladi; oʻqituvchi dars jarayonida oʻquvchilar faolligini ta'minlaydigan shakllarga integratsiya qilish imkoniga ega boʻladi; oʻquvchilarning yosh, aqliy, jismoniy xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olish uchun shart-sharoitlar yuzaga keladi.

Bizningcha, tarix ta'limida integrativ yondashuvning ijobiy natijalari bo'lajak tarix o'qituvchilarida kreativlik, kritiklik sifatlarining oshishiga, kasbiy kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi va u quyidagilarda namoyon bo'ladi:

tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, tadqiqotchilik ko'nikmalarining rivojlantirilishi

milliy g'urur, milliy tafakkurning boyitilishi

fanlararo integratsiya orqali tarixiy bilimlarning oshirilishi

Tarix ta'limida integrativ yondashuvning ijobiy natijalari

1.1-rasm. Tarix ta'limida integrativ yondashuvning ijobiy natijalari

Integrativ yondashuv muhim pedagogik jarayon hisoblanib, ta'lim maqsadlari va vazifalari yaxlitligini o'zida mujassamlashtiradi. Shunga ko'ra, tadqiqotlarda umumta'lim fanlarining fanlararo aloqadorligi - fanlarni o'rganishda o'qitishning mazmunini saralab olish usul, shakl va vositalarini tanlab olishda majmuaviy yondashuvni talab qiladi. Integrativ yondashuv g'oyasi, ahamiyati jihatidan uzviy, o'zaro va integrativ bog'lanishlardan farq qiladi, ya'ni u vaqt, mazmun, foydalanilgan usullarga ko'ra chegarasizdir.

Yarmatov tadqiqot ishida fanlararo integratsiya to'g'risida fikr bildirganda, birinchi navbatda bo'lajak tarix o'qituvchisini rivojlantiruvchi asos sifatidagi fanlararo integrativ mazmunni nazarda tutgan.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga, aqliy rivojlanishga, bilim va malakalarni tizimli egallashga, turli muammolar, vaziyatlar, hodisalarni to'la anglay olishga xizmat qiladi va fanlararo integratsiya orqali ijodkorlikni rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Azimova Z.E. O'quvchilarning shaxslararo munosabatlari integral diagnostikasi. Diss... kand. ped. nauk. - Toshkent, 2009. 20-25 s.
2. Axmedova M. T. Pedagogik kompetentlik - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2016. -

84 bet.

1. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dokd... diss. - T., 2007. - 305 b.
2. Ibragimov X.I., Yo'ldoshev U.A., Bobomirzayev X. Pedagogika- psixologiya. - O'quv qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007. - 410 b.

3. Ishmuhammedov R.J, Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.Toshkent, 2017. - 68 b.

ADABIYOT O'QITISHDA MUAMMOLI SAVOLNING O'RNI

BIBIGUL TUXTAYEVA, NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

Bugungi kunda hukumatimiz ta'lim oldiga kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar qo'ymoqda. Chunki kamol topgan avlodni tarbiyalash, intellektual bilim va so'z boyligiga ega bo'lgan, ma'nan sog'lom yoshlarni tarbiyalash, ta'lim berish sifatini tubdan yaxshilash vazifasini dolzarb masaladir. Shu bois ham o'quvchi-talabalarda mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, ularda mehnat faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishda adabiyot fani o'ziga xos o'rin tutadi. Chunki adabiy ta'lim va barkamol shaxs tarbiyasi bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayondir. Mazkur jarayonda mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish, bilish faoliyatini rivojlantirish kabi jihatlar muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, farzand kamoli, uning ruhiyati va qalbini ezguliklarga yo'llashda adabiyotning o'rni alohida. Adabiyot - ko'ngilni yashnatadigan, ma'naviyatni yuksaltiradigan, katta imkoniyatlar eshigini ochadigan axloqiy tarbiya vositasi. "Agar adabiyot muallimi adabiyotni sevsa, bolalarning aksariyati adabiyotchi bo'lib ketadi. Yoki tarix muallimi tarixni sevsa, bolalarning ko'pchiligi tarix faniga intiladi. Shuning uchun ham bolalarning ko'ngil qulfini ochishda, kelajakda o'z yo'lini tanlab olishda muallim muhim o'rin tutadi",-deydi X. To'xtaboyev. Albatta, bolaning adabiyotni sevishiga erishish oson ish emas.

"Chinakam adabiyot darsi - tom ma'nodagi ijod mahsuli" [1, 9-b.] Darsni ijod mahsuliga aylantirish uchun o'qituvchidan chuqur bilim va tajriba talab etiladi. Har bir predmet o'qituvchisi, avvalo, shu fan o'qitilishining o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirmog'i lozim.

Ma'lumki, har bir inson o'z oldida ko'ndalang turgan hayotiy yoki ilmiy muammoni hal etish uchun o'ylanadi, izlanadi. Bu – ruhan sog'lom odamga xos bo'lgan tabiiy xususiyat. Hozirgi milliy pedagogikada ta'lim-tarbiya jarayoniga butunlay yangicha talablar qo'yilmoqda. O'quvchi o'z ma'naviy kamolotini ta'minlash uchun mustaqil ravishda kitob o'qish malakasini shakllantirish, bilim olish yo'lida bor imkoniyatlarini qo'llagan holda ijodkorlik ko'nikmalarini qaror toptirish talab qilinyapti. Ta'limga bunday yondashuv o'quvchini taqlidchilikdan, ko'chirmachilikdan, tayyor qoliplar asosida fikrlashdan xoli qiladi.

Muammoli ta'limning afzalligi shundaki, unda o'quvchiga nafaqat bilim berish, balki uning ma'naviyatini shakllantirish borasida muammoli savollar qo'yib o'quvchini chuqurroq o'ylashga, mulohaza qilishga undaydi.

Muammoli savolni qo‘yishdan oldin muammoli vaziyat yaratish zarur. “Muammoning qo‘yilishi va uni yechish jarayoni uzilmas bir zanjirdir.muammo ko‘tarilishi bilanoq, uning yechimi ustida o‘ylanadi va bu, o‘z navbatida, yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu tariqa uzluksiz tarzda yangi bilimlarni o‘zlashtirish amalgam oshadi”. [2, 131-b.]

Muammoli ta’limda muammoni yechish jarayonida o‘qituvchi faqat alohida o‘quvchi bilan emas, sinfdagi barcha o‘quvchilarni qamrab olishi zarur. Bu sinfdagi har bir bola shaxsining individual xususiyatlarini imkon darajasida inobatga olishinini ta’minlaydi. Shunisi diqqatga sazovorki, muammoli ta’limda qo‘yilgan muammo ba’zi o‘quvchi uchun qiyin, ba’zisi uchun oson tuyilishi mumkin. muammo mohiyatiga tushunmagan o‘quvchi arosatda qoladi. Ana shunday vaqtda o‘qituvchi bolaga yordamga keladi, ya’ni, bolaga individual yondashishda mahorat katta rol o‘ynaydi. Muammo qo‘yilayotganda o‘quvchilarning yosh xususiyati albatta hisobga olinishi kerak. shu o‘rinda T.Kudryavsevning:”…o‘quvchining oldiga didaktik muammo qo‘yish, o‘quvchilar ularni yechish asnosida bilimlarini umumlashtirishi va muammoli masalalarni hal qilish tamoyillarini o‘zlashtiradi”. [3, 17-b.]

O‘qituvchi tomonidan beriladigan tayyor ma’lumot va xulosalarning berilishi bolada hech qanday aqliy zo‘riqish, ya’ni o‘ylash, mustaqil xulosaga kelishga ehtiyoj uyg‘otmaydi. Shuning uchun o‘quvchining mavzuga chuqur kirishga qiziqishi qolmaydi. Umumta’lim maktablarining 6-sinfida O‘.Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasi o‘tiladi. Dasturda ajratilgan soatning so‘nggisida, mustahkamlash darsida qo‘shimcha savollarni qo‘yilishi katta ahamiyat kasb etmaydi. Qo‘shimcha savollar o‘quvchini materialning unutilib qoldirilgan jihatlarini tiklashga yordam beradi. Bir soat darsga bir dona savol ustida ishlash mumkin. Masalan, o‘quvchilarga “*Siz qanday fikrdasiz, Shoikrom qotilmi*?” savoli qo‘yilsa, “*Sizningcha, agar Shoikrom elektrik bo‘lmaganda bu muammo qanday yechilar edi*?”, “*Agar Shone’mat sil kasaliga mubtalo bo‘lmaganda edi, qulipnayning o‘g‘irlanayotganining yechimini siz qanday yechgan bo‘lardingiz*” kabi savollar ustida ishlash o‘quvchilarni o‘ylashga majbur qiladi.

“Adabiy ta’lim insoniylashgan, mafkuraning bo‘g‘ovlaridan qutulgan sharoitda uni yangicha tashkil etish, ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi shaxslari o‘rtasidagi munosabatlarining pedagogik me’yorlarini belgilash, uni sog‘lom insoniy asoslarga qo‘yish o‘ta dolzarb ilmiy-metodik vazifalardandir”, deydi taniqli metodist olim Q. Yo‘ldoshev “Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari” nomli kitobida. [4, 5-b.]

Badiiy adabiyot tarbiyalanuvchilarga adabiyot bo‘yicha qandaydir bilimlar majmuini singdirish uchun o‘qitilmasligi, balki jozibali badiiy so‘z vositasida o‘quvchilarning hissiyotlariga ta’sir qilish orqali ularning ma’naviy qiyofasini shakllantirish yo‘li bilan bolalarni komil inson bo‘lish sari yetaklash maqsad qilib olingan.

Maktab amaliyotida badiiy asarlarni oʻrganish darslariga nazar tashlaganda, bor-yoʻgʻi ikki-uch mashgʻulot qolipi borligiga guvoh boʻlamiz. Ayni paytda adabiyot darslarini toʻgʻri tashkil etish muammosiga alohida ahamiyat beriladi. Har qanday darsda oʻqituvchi- oʻquvchilar, oʻqituvchi- alohida oʻquvchi, oʻquvchilar – alohida oʻquvchi shaklidagi munosabatlar tashkil etilganini kuzatish mumkin.

Yoshlarga har tomonlama puxta ta’lim-tarbiya berishga qaratilgan milliy modelimiz konsepsiyasining mazmuni milliy turmush tarzimiz, xalqimizning qadimdan amal qilib kelayotgan urf-odatlari,ma’naviy axloqiy an’analarimiz bilan uzviy bogʻlanib ketgan. muammoli ta’lim oʻquvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oʻstirish bilan birga ularda shaxslik sifatlarining shakllanishiga, ma’naviyatining boyishiga ham imkon beradi. bunday ta’lim oʻquvchi faoliyatida bilimlarni oʻzlashtirish va muammoli vaziyatni tahlil qilish yoʻli bilan hal qiluvchi faoliyat turlarida, muammoli vaziyatlar tashkil qilish va ulardan chiqishda oʻz takliflari,asoslari,isbotlari,farazlarini ilgari surish bilan bog`liq boʻlgan alohida tizim. Bu aqliy faoliyat bilimlarni, yangi tushunchalarni oʻqituvchining rahbarligida,ongli ravishda oʻzlashtirishga, tafakkur mustaqilligini ta’minlash va faollashtirishga, shaxs shakllantirishga xizmat qiladi. Adabiyot darslarida adabiy asarning oʻquvchi shaxsiga qanday ta’sir etishiga e’tiborqaratilishi zarur. Oʻquvchi oʻqigan asaridan estetik zavq olishi bilan birga, ijtimoiy-axloqiy jihatdan ham ma’lum tushuncha, tarbiya olishi kerak. Badiiy asarning kuchi bolani mahliyo qilishi yoki qattiq oʻylovga tushirishi mumkin. ba’zi qahramonlarga oʻxshashga xohish paydo boʻlsa, ba’zisidan nafratlanish hissi ustivor boʻlishi mumkin. Shuning uchun oʻqituvchi oʻquvchilarda har bir asar qahramoniga tirik inson sifatida qarashni shakllantirishi lozim.

Oʻquvchilar darsda yozuvchining hayoti va ijodiga doir odatiy savollarga javob berishga oʻrganib qolishgan. Bunday savollarning javobi aniq. Hozirgi talabdan kelib chiqilsa, oʻquvchilarni oʻylashga, tafakkur qilishga undaydigan savollar ustida ishlanishi kerak, yoki Shukir Xolmirzayevning “Oʻzbeklar” hikoyasi oʻrganilgandan soʻng darslikda berilgan savollar bilan ishlangandan keyin *nega yozuvchi hikoyani “Oʻzbeklar” deb nomlagan*? *Choʻpon, uning xotini va oʻgʻli asar qahramoni haqida notoʻgʻri fikrga keldilar. Siz yigitning oʻrnida boʻlganingizda qanday yoʻl tutardingiz?*kabi savollarning biri bilan ishlash maqsadga muvofiq. Yoki *siz oʻzbeksiz. Oʻzbek sha’ni deganda nimani tushunasiz?,kimni chinakam oʻzbek deb hisoblaysiz?qolgan yigitlar ham oʻzbeklar-u?* kabi savollar berib, “or”, “sha’n” kabi fikrlar bilan oʻquvchining ma’naviy tushunchasini boyitish mumkin. Bundan tashqari, oʻqilgan asardan olingan taassurotlar yanada ta’sirli, samarali boʻlishi oʻquvchilarning kuzatuvchanligini oshirishi, tasavvurni tiniqlashtirishi, tafakkurini faollashtirishi, mulohaza yuritishga undashi uchun “…sababi nimada deb oʻylaysiz?”, “…ni haq deb oʻylaysizmi?”, “…nimaga asoslangan boʻlishi mumkin?” kabi savollarning berilishi foydadan xoli emas. Oʻquvchi tafakkurining mustaqilligi oʻqituvchi tomonidan berilgan savolning mohiyatini oʻzi tushunib yetgani va qobiliyati yetgancha bilgani va oʻzlashtirganlari asosida javob berganida yuzaga chiqadi.

Haqiqatdan ham,sharqona nuqtayi nazardan qaralsa, ma’rifatlilik- bu kishining faqat bilim va malakaga egaligini bildirish bilan cheklanmaydi. Ma’rifatlilik ayni paytda boy ma’naviyat va go‘zal axloq sohibi bo‘lish hamdir.

Bu ta’lim tizimi Vataniga,xalqiga, millatiga fidokor, mustaqilfikrlaydigan, biron bir masalani ongli ravishda, mas’uliyat bilan hal qilinadigan,izlanuvchi,yangilikka intiluvchi intellektual kadrlarni yetkazib berishda xizmat qiladi.

Umuman, bugungi kun o‘qituvchisi o‘z ustida uzluksiz ishlashi, kasbiy mahoratini, pedagogik va ijodiy qobiliyatlarini oshirib borishi lozim. Muammoli savollar ustida ishlanayotganda o‘qituvchi bir necha o‘quvchilarning ishtiroki bilan chegaranmasligi zarur. Ayniqsa, munozaraga qo‘shilmay turadigan o‘quvchilarga alohida e’tibor berishi zarur. Shuningdek, bolalarni faniga qiziqtirsa, kitobga oshno qilsa, o‘qigan har bir kitobidan ma’naviy va tarbiyaviy ozuqa olishga o‘rgatsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Qodirov V. Til va adabiyot ta’limi. 7-son. 9-bet.
2. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009, 131-b.
3. Kudryavsev T. Vnedreniye prinsipa problemnosti v obuchenii. M. 1986. 17-s.
4. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T. “O‘qituvchi” 1996. 5-bet.

ILMIY TIL (TERMINOLOGIYA)NING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

E’ZOZA XOLPO‘LAT QIZI QILICHOVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti ingliz tili o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ilmiy tilning leksik-semantik xususiyatlari aniqlik, ravshanlik va universallikni talab qiladi va bu o‘zaro aloqada bo‘lgan sohalar bo‘ylab akademik nutqning asosi hisoblanadi. Ushbu maqola ilmiy tilning o‘ziga xos xususiyatlarini, jumladan, uning maxsus so‘z boyligi, strukturaviy tartibga solish va standartlashtirilgan terminologiyaga tayanish kabi jihatlarini o‘rganadi. U ilmiy leksikonlardagi semantik munosabatlarni, masalan, sinonimlik, polisemantizm va gipernimiyani tahlil qiladi, bu esa g‘oyalarni qisqacha va aniqlik tarzda ifodalashga yordam beradi. Tadqiqot, metaforik ifodalar, garchi kam uchrasa ham, abstrakt fenomenlarni tasavvur qilishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, globalizatsiya va texnologik yutuqlar ilmiy terminologiyaning rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatganini ko‘rib chiqadi. Turli sohalardan olingan misollarni tahlil qilish orqali, ushbu tadqiqot ilmiy tilning leksik-

semantik dinamikasini tushunishning bilimlarni samarali tarqatish va oʻzaro ilmiy hamkorlikda muhimligini taʼkidlaydi. Natijalar lingvistlar, oʻqituvchilar va mutaxassislar uchun ilmiy nutqni tushunishni rivojlantirishda foydali boʻlishni maqsad qiladi.

Kalit soʻzlar: polisemantizm, gipernimiya, leksik-semantik dinamikalar, bilimlarni tarqatish, maxsus soʻz boyligi, strukturaviy tartibga solish, standartlashtirilgan terminologiya, abstrakt fenomenlar, maxsus leksikon.

Ilmiy til akademik va professional sohalarda aniq muloqot uchun muhim vosita hisoblanadi. Tizimli tuzilishi, maxsus soʻz boyligi va universalligi bilan tavsiflanadi, bu esa bilimlarni tarqatish va oʻzaro ilmiy hamkorlikni osonlashtiradi. Ushbu maqola ilmiy tilning leksik-semantik xususiyatlariga oid boʻlib, uning maxsus leksikonini, semantik munosabatlarini, metaforik qurilmalarini va texnologik va madaniy oʻzgarishlarning taʼsirini yoritadi.

Ilmiy tilning xususiyatlari. Ilmiy til har bir sohaning ehtiyojlariga moslashtirilgan juda aniq leksikondan foydalanadi. Soʻzlar noaniqlikni kamaytirish maqsadida aniq maʼnolarni yetkazish uchun ehtiyotkorlik bilan tanlanadi. Masalan, fizika sohasida “entropiya” va “kvant” kabi atamalar ularning umumiy tildagi baʼzi holatdagi ishlatilishidan farqli boʻlgan maxsus maʼnolarga ega [1] (Holliday & Martin, 1993). Ushbu aniq terminologiya tadqiqotchilarga murakkab gʻoyalarni samarali tarzda uzatishga imkon beradi.

Strukturaviy tartib. Ilmiy yozuvning sintaktik tuzilishi odatda rasmiy va qisqacha boʻladi. Passiv qurilmalar, nominalizatsiyalar va texnik jargon ilmiy nutqda ustunlik qiladi, bu esa uning obyektiv va shaxsiy boʻlmagan ohangini aks ettiradi [2] (Swales, 1990). Bunday lingvistik xususiyatlar argumentlarni shaxsiylashtirmaslikni maqsad qiladi, topilmalarining universalligi va takrorlanishiga urgʻu beradi.

Standartlashtirilgan terminologiya. Ilmiy til muayyan muassasalar tomonidan, masalan, kimyo boʻyicha Xalqaro Nazariy va Amaliy Kimyo Ittifoqi (IUPAC) tomonidan oʻrnatilgan standartlashtirilgan terminologiyalarga tayanadi. Ushbu standartlashtirish global darajadagi moslikni taʼminlab, turli til guruhlaridan boʻlgan olimlarga samarali muloqot qilish imkonini beradi. Ilmiy til akademik va professional muloqotning poydevoridir, murakkab gʻoyalarni aniqlik va aniq ifodalash uchun moʻljallangan. Uning oʻziga xos leksik-semantik xususiyatlari bilimlarni sohalararo va til chegaralaridan oʻtkazishda samarali transferni taʼminlaydi. Ushbu maqola ushbu xususiyatlarni yanada chuqurroq oʻrganadi, maxsus soʻz boyligi, semantik tuzilmalar, metaforik foydalanish va texnologik yutuqlar bilan lingvistik rivojlanishning dinamik oʻzaro taʼsiriga eʼtibor qaratadi.

Ilmiy til aniqlikka intilgan boʻlsa-da, baʼzi atamalar kontekstiga qarab bir nechta talqinlarga ega boʻlishi mumkin. Masalan, fizika sohasidagi “maydon” atamasi oʻqish sohasi yoki kuch maydonlarini oʻz ichiga olgan jismoniy konsepsiyani anglatishi mumkin.

Bunday polisemantizm ehtiyotkor kontekstual talqinni talab qiladi [3] (Faber & León, 2009). Ilmiy nutqda semantik iyerarxiyalar keng tarqalgan. Masalan, biologiyada “organizm” atamasi “hayvon” va “o‘simlik” kabi giponimlarni o‘z ichiga olgan gipernim sifatida ishlatiladi. Ushbu iyerarxik tuzilish murakkab fenomenlarni tasniflash va tushunishda yordam beradi [4] (Crystal, 2003). Garchi ilmiy til asosan literal bo‘lsa-da, metaforalar abstrakt fenomenlarni tasavvur qilishda muhim rol o‘ynaydi. “Genetik kod” va “qora teshik”

kabi atamalar metaforik qurilmalar murakkab g‘oyalar va tushunarli tasvirlar o‘rtasidagi bo‘shliqni qanday to‘ldirishi mumkinligini ko‘rsatadi [5] (Lakoff & Johnson, 1980). Biroq, bu metaforalar noto‘g‘ri talqin qilishning oldini olish uchun ehtiyotkorlik bilan ishlatilishi kerak. Texnologiyaning tez rivojlanishi va faning globalizatsiyasi ilmiy terminologiyaga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Yangi kashfiyotlar yangi atamalarni yaratishni talab qiladi, masalan, genetika sohasida “CRISPR” yoki kompyuter sohasida “mashina o‘rganish”. Shuningdek, madaniy almashuv ilmiy tilni boyitdi, turli til an’analari o‘z atamalarini integratsiya qilib, ilmiy tilni kengaytirdi [6] (Ammon, 2001). Ilmiy sohalar juda maxsus leksikonga tayanadi. Atamalar nafaqat aniq, balki kontekstga bog‘liq bo‘lib, ularning ma’nolari fan doirasida ravshanligini ta’minlaydi. Masalan, tibbiyotda “lezyon” atamasi to‘qimalarda patologik o‘zgarishni anglatadi, o‘zining metaforik ishlatilishi esa kundalik nutqda kamroq aniqlikka ega. Bunday atamalarni yaratish ko‘pincha lotin va yunon ildizlarini tizimli qo‘llashni o‘z ichiga oladi, bu ilmiy tilga universal xususiyatni beradi [7] (Gotti, 2011).

Shuningdek, yangi kashfiyotlar amalga oshirilgan sayin neologizmlar paydo bo‘ladi. Masalan, “kvazar” (*quasar*-stellar obyektning qisqartmasi) va “*cytokine*-sitozin” kabi so‘zlar yangi fenomenalarni nomlash uchun ixtiro qilingan, bu ilmiy tilning rivojlanayotgan bilimlarga moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Ilmiy yozuv ob’ektivlik va neytrallikka urg‘u beradi. Passiv fe’l ko‘pincha tadqiqotchini emas, balki jarayon yoki natijalarni ta’kidlash uchun ishlatiladi [8] (Hyland, 2004). Masalan, “Biz namunani o‘lchadik” o‘rniga, “Namuna o‘lchandi” deyish mumkin. Ushbu lingvistik tanlov ilmiy topilmalar takrorlanishining ahamiyatini ta’kidlaydi.

Nominalizatsiyaning tez-tez ishlatilishi - fe’llarni otlarga aylantirish - shuningdek, qisqalikka hissa qo‘shadi. “Kimyoviy moddalar reaksiyaga kirishadi” deb yozish o‘rniga, olimlar “Reaksiya ro‘y beradi” deb yozishlari mumkin. Bunday tuzilmalar nutqni soddalashtiradi va ilmiy mantiqqa asoslangan abstrakt konsepsiyalarni ajratib ko‘rsatadi. Ilmiy hamjamiyatlar, moslikni ta’minlash uchun, global tashkilotlar tomonidan o‘rnatilgan standartlashtirilgan terminologiyalarga tayanadi. Masalan, Xalqaro Birliklar Sistemi (SI) o‘lchovlarni sohalar bo‘ylab standartlashtiradi, astronomiya kabi sohalar esa osmon jismlari uchun qat’iy nomlash tartibini nazorat qiladi [9] (Eichhorn, 1974). Ushbu standartlashtirish noaniqlikni bartaraf etadi va olimlar o‘rtasida hamkorlikni

osonlashtiradi. Bundan tashqari, bu lingvistik to'siqlarni minimallashtiradi va ilmiy yutuqlarni madaniy va lingvistik farqlarni yengib o'tishga imkon beradi.

Polisemantizm, ya'ni bir so'zning bir nechta ma'nolarining bir vaqtda mavjudligi, ilmiy nutqda ehtiyotkorlik bilan boshqariladi. Masalan, "current" so'zi kontekstdan kelib chiqib, elektr oqimi yoki vaqtning bir holatini anglatishi mumkin. Bunday so'zlarni to'g'ri talqin qilishda atrofdagi atamalar va jumla tuzilmasi kabi kontekstual belgilar muhim ahamiyatga ega [10] (Trimble, 1985).

Kollokatsiyalar - birga tez-tez ishlatiladigan so'zlar - ilmiy tilda muhim rol o'ynaydi. "Iqlim o'zgarishi", "genetik mutatsiya" kabi iboralar muloqotni soddalashtirishda yordam beradigan standart ifodalarning misollaridir. Ushbu kollokatsiyalar ilmiy hamjamiyat ichida umumiy tushunishni ta'minlaydi

Atamalarni iyerarxik joylashuvi ko'plab ilmiy sohalarda mavjud bo'lgan tasniflash tizimlarini aks ettiradi. Masalan, taksonomiyada "mammal" (sutemizuvchi) so'zi "canine" (it) va "feline" (mushuk) kabi giponimlarni o'z ichiga olgan gipernimdir. Bunday iyerarxiyalar bilimlarni tartibli tarzda tasvirlashni osonlashtiradi, bu esa o'qitish va tadqiqotga yordam beradi [11] (Cruse, 2004).

Garchi ilmiy til asosan literal bo'lsa-da, metaforalar abstrakt g'oyalarni tasavvur qilish va muloqotda muhim rol o'ynaydi. "Hujayra membranasi" va "genetik kod" kabi atamalar murakkab fenomenalarni tanish konsepsiyalar bilan bog'lash uchun metaforik qurilmalardan foydalanadi. Bu metaforalar ko'pincha murakkab jarayonlarni soddalashtiradi, ularni nafaqat mutaxassislar, balki oddiy auditoriya uchun ham tushunarli qiladi [12] (Cameron & Maslen, 2010). Metaforalar shuningdek, ilmiy innovatsiyani rag'batlantiradi, chunki ular ijodiy fikrlashni imkonini beradi. Masalan, evolyutsion biologiyada hayot daraxti metaforasi filogenetik munosabatlarni tushunish uchun vizual ramka taqdim etadi, bu abstrakt g'oyalar qanday qilib inqilobiy nazariyalarni ilhomlantirishi mumkinligini ko'rsatadi. Texnologiyaning tez rivojlanishi va faning globalizatsiyasi ilmiy tilni chuqur ta'sir qildi.

Texnologik innovatsiya tufayli yangi atamalarni doimiy ravishda fanga kirib keladi. Masalan, "blockchain" va "bioinformatika" atamalari, mos ravishda, kompyuter fanlari va biologiya sohalariga muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu atamalar nafaqat texnologik yutuqlarni aks ettiradi, balki zamonaviy tadqiqotlarning sohalararo tabiatini ham ta'kidlaydi. Global hamkorlik turli madaniyatlardan lingvistik elementlarning qo'shilishini rag'batlantiradi. Masalan, "sunami" (yaponcha) va "kinoa" (kechua) kabi atamalar ilmiy nutqda keng qo'llanilmoqda. Bunday qarz olishlar ilmiy leksikani boyitadi, inklyuzivlikni rivojlantiradi.

Kuchli tomonlariga qaramay, ilmiy til kirish imkoniyati va aniqlik masalalariga duch kelmoqda. Terminologiyaning ortib borayotgan murakkabligi ekspert bo'lmaganlarni

chetlatishi mumkin, bu esa jamoatchilikning fan bilan aloqasini cheklaydi [13] (Montgomery, 2003). Bundan tashqari, ilmiy muloqotda sun'iy intellektning integratsiyasi terminologiya boshqaruvini soddalashtirish va ko'p tilli hamkorlikni kuchaytirish imkonini beradi. Mashina tarjimasi vositalari, masalan, DeepL va Google Translate allaqachon ilmiy matnlarni global miqyosda kengaytirgan, garchi ularning aniqligi hali ham rivojlanish bosqichida bo'lsada.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy tilning leksik-semantik xususiyatlari uning aniqlik va universallikni ta'minlashdagi ikki tomonlama maqsadlarini aks ettiradi. Maxsus so'z boyligidan tortib, metaforalar va standartlashtirilgan tuzilmalarni qo'llashgacha, ilmiy til murakkab g'oyalarni samarali tarqatishni ta'minlaydi. Fan rivojlanishda davom etgan sari, uning tili ham yangi kashfiyotlar va texnologik yutuqlarga moslashib rivojlanadi. Ushbu xususiyatlarni tushunish va takomillashtirish orqali, olimlar va lingvistlar ilmiy muloqotni yanada inklyuziv va ta'sirchan qilishga hissa qo'shishi mumkin. Ilmiy tilning leksik-semantik xususiyatlari uning aniq va universal muloqot vositasi sifatidagi rolini ta'kidlaydi. Uning maxsus so'z boyligi, semantik munosabatlari va vaqti-vaqti bilan ishlatiladigan metaforalar, murakkab g'oyalarni yetkazishda samaradorligiga hissa

qo'shadi. Fan rivojlanishda davom etgan sari, bu xususiyatlarni tushunish sohalararo samarali muloqot va hamkorlik uchun juda muhim bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR:

1. Holliday, M. A. K., & Martin, J. R. (1993). Writing Science: Literacy and Discursive Power. Falmer Press.
2. Swales, J. M. (1990). Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. Cambridge University Press.
3. Faber, P., & León, C. M. (2009). Terminological competence in the natural sciences: Some challenges and solutions. Terminology,15(1), 1–16.
4. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press
6. Ammon, U. (2001). The Dominance of English as a Language of Science: Effects on Other Languages and Language Communities. Mouton de Gruyter.
7. Gotti, M. (2011). Investigating specialized discourse. Linguistic Insights, 129, 15–34.
8. Hyland, K. (2004). Disciplinary Discourses: Social Interactions in Academic Writing. University of Michigan Press.
9. Eichhorn, H. K. (1974). Standardization in scientific terminology and nomenclature. Annual Review of Information Science and Technology, 9, 99–120. https://doi.org/10.xxxx/yyyyy

10. Trimble, L. (1985). English for Science and Technology: A Discourse Approach. Cambridge University Press.
11. Cruse, D. A. (2004). Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. Oxford University Press.
12. Cameron, L., & Maslen, R. (2010). Metaphor Analysis: Research Practice in Applied Linguistics, Social Sciences, and the Humanities. Equinox Publishing.
13. Montgomery, S. L. (2003). The Chicago Guide to Communicating Science. University of Chicago Press.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ

ИРОДА САЪДУЛЛАЕВНА ШОДИЕВА,

преподаватель Навоийского университета инноваций

Аннотация: Фразеологизмы - одна из основных единиц языка, несущая в себе национально-культурные элементы. Сравнение фразеологизмов русского и узбекского языков помогает выявить разные ценности, присущие этим народам, и играет важную роль в развитии антропоцентризма, одной из основных парадигм сегодня. В статье проводится сравнительный анализ и исследование некоторых фразеологизмов русского и узбекского языков.

Ключевые слова: узбекский, русский язык, фразеология, сравнительное исследование, лексическая единица, дифференциация, интеграция.

Фразеологические единицы— это устойчивые сочетания слов, значение которых не выводится из значений отдельных компонентов. Они являются важной частью национальной языковой картины мира и отражают культурные, исторические и психологические особенности народа.

Перевод фразеологизмов между узбекским и русским языками представляет особую сложность из-за различий в культурных традициях, образности и идиоматике. При переводе между языками, принадлежащими к разным культурным системам, особое значение приобретает умение передать не только смысл, но и национально-культурную специфику выражения. Сопоставление узбекских и русских фразеологизмов позволяет выявить как общие черты, так и различия в мышлении и языковой картине мира носителей этих языков.

Согласно классификации В. В. Виноградова, фразеологические единицы делятся на:

- **фразеологические сращения** (значение невыводимо из компонентов);

- **фразеологические единства** (имеют переносное значение);
- **фразеологические сочетания** (ограниченная сочетаемость компонентов).

Аналогичная классификация применима и к узбекским фразеологизмам, например, в работах Ш. Рахматуллаева и М. Мухаммадиева.

В переводоведении выделяют три типа эквивалентности:

1. **Полный эквивалент** — когда фразеологизм имеет точное соответствие:
   - узб. *qo‘lni sovuq suvga urmaslik* — рус. *палец о палец не ударить*

(значение: «ничего не делать»).

- ◦ узб. *tili uzun* — рус. *длинный язык* (значение: «болтливый человек»).

1. **Частичный эквивалент** — близкое по смыслу, но не полностью совпадающее выражение:
   - узб. *yuragi tog‘day* («смелый, отважный») — рус. *сердце льва*;
   - узб. *ko‘ziga chiroq tutmoq* («ценить, уважать») — рус. *носить на руках*.

Безэквивалентные фразеологизмы, требующие описательного перевода:

- ◦ узб. *suvdan quruq chiqmoq* («выйти сухим из воды») — требует культурной адаптации.
   - узб. *itning bolasi* («плохой человек», буквально «щенок») — в русском языке переводится как *мерзавец*.

Фразеологизмы часто отражают национальные образы.

- узб. *boshini ko‘kka yetmoq* — дословно «его голова достигла неба» (значение: «очень рад»), рус. аналог — *на седьмом небе от счастья*;
- рус. *как рыба в воде* — узб. эквивалент *suvdagi baliqdek*.

Такие совпадения объясняются универсальными образами (вода, небо, сердце), но в других случаях возможны расхождения, вызванные культурными

реалиями (например, узбекские фразеологизмы часто используют образы верблюда, базара, чая).

В нашем исследовании мы представляем специфику перевода русско-узбекских фразеологизмов и проводим аналогии русских фразеологизмов в узбекском языке в рамках семантико-тематической группы «человек и характер». Фразеологизмы данной семантикотематической группы позволяют выявить особенности национального характера. Фразеологизмы выбирались методом

сплошной выборки в русском языке и составлением списка из узбекского языка посредством аналогии. Фразеологизмы, представленные в исследовании, можно поделить на следующие подгруппы: - фразеологизмы с отрицательной оценкой; - фразеологизмы, выражающие положительные черты характера человека. Рассмотрим некоторые примеры фразеологизмов входящих в подгруппу «фразеологизмы с отрицательной оценкой»: №1. Божий одуванчик – «иронический фразеологизм, идиоматическое выражение, предназначенное для краткой характеристики старого, дряхлого, беззлобного и беззащитного человека» [5, с. 120]. В узбекском языке фразеологизм с подобным значением будет звучать как: « Puf desa (Buxoroga) uchib ketadi» (Пуф деса (Бухорога) учиб кетади) [2, с. 27]. Так говорят о слабом, бессильном человеке. Дословный перевод: дунешь – улетит (в Бухару). №2. Дрожит как осиновый лист – «испытывать страх, бояться, буквально трястись от страха или ужаса» [3, с. 95]. В узбекском языке фразеологизм с похожим значением :

«zir titramoq» (зир титрамоқ) [2, с. 112]. Отметим, что осина не растет в Узбекистане, поэтому смысловую нагрузку несёт слово «zir» (зир) от слова « zirillamok» (зирилламок) – побаиваться. Дословный перевод: дрожать побаиваясь. №3. Задирать (задрать) нос в значении «зазнаваться, важничать, чваниться» [4, с. 163]. В узбекском языке фразеологизм будет звучать как:

«burnini osmonga kutarmok» (бурнини осмонга кўтармоқ) [1, с. 30]. Дословно переводится как: поднять нос к небу. Несмотря на добавочное слово «к небу» общий смысл фразеологизма сохраняется. №4 Пристал как банный лист-фразеологизм адресуют очень назойливому человеку. Данное выражение имеет интересную этимологию. В баню обычно ходят с березовыми вениками, а когда парятся листочки отрываются и пристают к телу. В узбекском языке данный фразеологизм будет звучать как: «Kungilga zig'ir yogdek tegdi (кунгилга зигир ёг-дек тегди)- надоел как зигирное масло.»[5,с.882.] Исходя из приведенных примеров, можно сделать вывод о том, что при переводе обращаются как к фразеологическому переводу, который предполагает использование в тексте перевода идиом (оборот речи, значение которого не определяется значением входящих в него слов) различной степени близости между единицей исходного языка и соответствующей единицей языка перевода – от полного эквивалента до приблизительно фразеологического соответствия, так и нефразеологический перевод, который передает то или иное фразеологическое выражение при помощи лексических средств языка перевода.

Фразеологизмы — важный элемент национальной культуры и образного мышления. Их перевод требует не только языковых знаний, но и глубокого понимания культурных реалий. Сравнение узбекских и русских фразеологизмов показывает, что при общей человеческой основе в образах существуют

значительные различия, обусловленные историей, бытом и мировоззрением народов. Эффективный перевод фразеологических единиц возможен лишь при сочетании лингвистической и культурологической компетенции переводчика.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Виноградов В. В. Основные типы фразеологических единиц русского языка.

— М.: Наука, 1972.

1. Абдурахимов М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь / М. Абдурахимов. – Ташкент: Ўқитувчи, 1980. – 183 с.
2. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. — Тошкент: Фан, 1992.
3. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. — М.: Высшая школа, 1996.
4. Мухаммадиев М. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг таржимаси масалалари. — Тошкент, 2004.
5. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). — М.: Высшая школа, 1990.
6. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. — М.: Наука, 1987.
7. Абдусаидов А. Фразеологизмлар – матбуот тилида таъсирчан восита / А. Абдусаидов. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2001. – 148 с.
8. Михельсон М.И. Русская мысль и речь. Свое и чужое: Опыт русской фразеологии. Сборник образных слов и иносказаний. В 2-х т. / М.И. Михельсон. – СПб., Т. 1. – 779 с.

UChINChI ShO'BA: ZAMONAVIY TILShUNOSLIK VA ADABIYOTShUNOSLIK RIVOJINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA "NAFS" KONSEPTINING PRAGMATIK TADQIQI

NASIBA JUMAYEVNA YARASHOVA, NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI PROFESSORI,

filologiya fanlari doktori (DSc)

"Nafs" konsepti o'zida poklik, dunyoga ruju qo'ymaslik, iymonli bo'lish, hoyu havasga berilmaslik, gunohdan tiyilishni targ'ib qiluvchi tushunchalardan biridir. Nafs insonning moddiy o'zligi, "men"idir. Nafs izidan ergashadigan inson uning quliga aylanadi. Badnafslik yomon illatlardan biri sanaladi. Bunga xalq og'zaki ijodidan ko'plab maqollarni misol keltirishimiz mumkin. "Mani nafsim balodur, yonar o'tga solodur", "Nafsning yomoni-baloning koni", "Mani nafsim balodur, O'tdan cho'qqa solodur" kabi

maqollar mavjud. O'z nafsini tiya olmaganlar tilidan aytilgan bunday maqollar, aslida, xalq tilidan aytilgan kinoyali achchiq haqiqatdir. Donishmandlar inson nafsini bir necha darajaga bo'lishadi. Shulardan biri "Nafsul-ammora" deyiladi. Nafsul-ammora insonning xilqatidagi nafsdir. Bu nafs yeyish, ichish, uxlashdan iboratdir, Ammo insonning bu nafsiy holati har xil yomonliklarga undaydi. Yuqoridagi maqollardagi nafs nafsul-ammoradir. Nafsul-ammora insonni nafsoniy ishlarga yo'llaydigan nafsdir.

Alisher Navoiyning "Navodir ush-shabob"deb nomlangan devonining 531-g'azalida aynan nafsul-ammora haqida fikr bildirilgan:

Malak taslimi shayton kibridekdur buki, aql o'zin Qilib ma'muri amr istar amorat nafsi ammora.

Dinimizda nafsni poklash, nafsni yengish, nafs bilan kurashish o'ta zarur va qiyin ishlardan sanaladi. Nafs tarbiyasi xalq og'zaki ijodida ham, Qur'oni Karimda ham, hadislarda ham eng hassos mavzulardan biri bo'lib, ko'plab olimlar,jumladan, Imom Buxoriy, Forobiy, Beruniy va Navoiy asarlarida nafs borasida ibratli fikrlar keltirilgan. Kishi nafsini jilovlash uchun nafsni tarbiya qilgan zotlarga yaqin yurishi va ilm o'rganib, unga amal qilmog'i zarur. Nafsini tergab turgan kishining Qiyomat kunidagi hisob-kitobi yengil bo'lishi haqida hazrati Umar ibn Xattob raziyallohu

حَاسِبُوا أَنْفُسَكُمْ قَبْلَ أَنْ تُحَاسَبُوا، وَتَزَيَّنُوا لِلْعَرْضِ الْكُبْرِ وَإِنَّمَا يَخِفُّ الْحِسَابُ deganlar: shunday anhu

يَوْمَ الْقِيَامَةِ عَلَى مَنْ حَاسَبَ نَفْسَهُ فِي الدُّنْيَا) رواه الامام الترمذي)

Ya'ni: *"Hisobga tortilishingizdan avval nafsingizni hisob-kitob qiling va Qiyomat kuniga tayyorgarlik ko'ring. Qiyomat kunidagi hisob faqat dunyoda o'zini tergab turgan kishilargagina yengil bo'ladi" (Imom Termiziy rivoyatlari).*

Nafaqat Sharq adabiyotida, balki G'arb adabiyotida ham nafs qoralanadi. Masalan, mashhur italiyalik shoir Dante Aligyeri "Ilohiy komediya" dostonida badnafslik, yeb to'ymas mechkaylarni do'zaxga joylaydi. Rus shoiri A.S.Pushkin esa "Oltin baliqcha" ertagida badnafslik qanday oqibatlarga olib kelishini tasvirlaydi. Unda nafsini tiya olmagan ochqo'z kampir badnafslik tufayli oxir-oqibat yorilgan tog'orasi bilan qoladi. Masalan, sahih hadislarda ta'kidlanganidek, "Hech kim dinni Islomni ochko'zlik buzganchalik buza olmaydi" (717), "Kishidagi sifatlarning eng yomoni o'ta ochko'zlik bilan qattiq qo'rqoqlikdir" (508), "Podaga qo'yib yuborilgan ikkita och bo'rining zarari kishining molga va obro'ga bo'lgan hirsi uning diniga keltirgan zarariga teng emasdir" (703). Sharq mutafakkirlarining fikricha, badnafslik amaldorlar jamiyatni izdan chiqarib, o'zini ham, saltanatni halokatga mahkum etadi. Sahl ibn Abdulloh Tustariy (vaf.896) tasavvuf ta'limotida "nafs" masalasiga ilk bor alohida ahamiyat qaratgan so'fiylardan biridir [4:54]. Tasavvuf namoyandalari talqiniga ko'ra, nafs bu inson borlig'ining muhim

qismi hisoblanadi va shu bois ham so‘fiylar nazdida barcha yomonliklar tamali, gunohlarning manbai sifatida qaraladi. Tasavvuf vakillarining nafsga oid qarashlari uchun asos Payg‘ambarimizning “Nafsini tanigan, Rabbini tanir”, degan hadislari bo‘lgan [6:44]. G‘azzoliyga ko‘ra, nafs – baloning boshi, razolat manbayidir [1:15]. Najmiddin Kubroga ko‘ra, “nafs bu – o‘lmaydigan ilondir” [5:31], Mahmud Asad Jo‘shon e’tiroficha, “nafs insonning moddiy o‘zligi “men”ligidir

Turkiy tillarda esa nafsni “o‘z” (zot), “qurch”, “mus”, “ilting yoki iltang”, “ko‘kay” yoxud “so‘l”, “so‘m”, “jig‘ildon (ko‘chma ma’noda)” kabi so‘zlar bilan ifodalaganlar. Ammo bu so‘zlar nafsning ifodalovchisi sifatida ancha kam o‘rganilgan, shuningdek, badiiy adabiyotda ham shu ma’noda juda oz talqin qilingan ko‘rinadi. Nima bo‘lganda ham, bu so‘zlardan nafsning botiniy va zohiriy ma’nolariga oid bir qancha mazmun-mohiyatni anglasak-da, bu ifodalar uning bor bo‘yini, ya’ni ichki xarakterini, botiniy qiyofasini to‘liq namoyon qilish uchun kamlik qiladi. Uning ma’nolar olamidagi ko‘zga ko‘rinmas, yashirin, ta’kidlash joizki, asosiy e’tibor qaratilishi lozim jihatlari ham borki, ularni ilg‘ash va idrok etish oson ish bo‘lmagan, albatta. Holbuki, nafs inson tanasida pinhon, zimdan faoliyat olib boruvchi “foil” bo‘lib, har kim ham unga diqqat qilavermaydi. Uning “sir”li ishlaridagi ma’nolarini, asli nimadan yaralgani borasidagi tasavvurlarni tasavvuf lug‘atlaridagi ma’nolardangina anglash, tasavvufiy she’riyatdagi tasvirlardan sizib turgan sizgilardangina uqish mumkin.

Nafsning tub asosi haqida so‘z borganda, adabiyotshunos olim, professor Ibrohim Haqqulov o‘z izlanishlarida unga asos bo‘lgan to‘rt sinch haqida, xususan, shunday deydi: “Tuproqdan insonga to‘rt sifat: sabr, hayo, tavakkul va makrumot paydo bo‘lgan. Suvdan esa to‘rt turli hol: safo, saxo, lutf va visol yuzaga kelgan. Shamol to‘rt havas: yolg‘on, riyo, shoshqinlik va nafsga asos bo‘lgan. Olovdan esa shahvat, kibr, tama va hasad tug‘ilgan”. Darhaqiqat, bu xulosalar, obrazlar tagida chuqur hayotiy, tasavvufiy-mushohadaviy ma’no va mazmun mujassam bo‘lib, unga tasavvufona tafakkur bilan boqish zarur bo‘ladi.

Navoiy devonlarida “nafs” konsepti turli timsollarda ifodalangan,ya’ni dunyo, inson, hayvon, qush kabi timsollarida ifodalangan.

Alisher Navoiyning g‘azallarida esa nafs – dunyo, nafs iti timsollari bo‘lib tasvirlanadi.

1. “Dunyo” timsoli inson yashab turgan makon ma’nosida;
2. “Dunyo” timsoli odamzodni ma’rifatdan to‘suvchi parda sifatidagi talqini. Biz aytmoqchi bo‘lgan jihat, aynan ikkinchi turiga kiradi. Navoiy asarlarida dunyo emas, dunyoparastlik inkor etiladi. Dunyoni emas, dunyoga muhabbatni tark etishga chaqiriladi. Dunyoga muhabbat esa nafsning amrini bajarish asnosida

qo‘yiladi. Shu sababli ham Navoiy quyidagi misralarni keltiradi :

Ey Navoiy, er esang dunyo arusin qil taloq, Bir yo'li bo'lma zabun bu zoli makkor ollida.

"Ziynatlanib kelin suvratida ko'ringani bilan u, aslida, "zoli makkor" – makru hiylani hayotiy amol qilgan kampir ekanini aytib, uning oldida hech qachon zabun bo'lmaslikka chaqiradi. O'zagi "dun" bo'lgan "dunyo" so'zi, bundan tashqari, "tubanlik", "pastlik" ma'nolarini ham anglatadi. Ya'ni, buyuk mutafakkir nazdida, dunyo – insonning Haq ma'rifatiga erishmog'i yo'lidagi to'siq, uni tubanlikka qulatguvchi illatdir". "Bu dunyoga ko'ngil berib u bilan mahliyo bo'ldim.

Shoir talqinicha, komillikka eltuvchi yo'l bu fanodir. Tasavvufga ko'ra komillikni namoyon qiladigan sifatlardan biri faqr maqomi shartlarini to'la-to'kis ado etishdir. Faqr bu tariqat yo'liga kirgan solikning to'rtinchi maqomidir. Faqirlik bu moddiy yetishmovchilik yoki tilanchilik qilish emas, balki orifning Alloh oldida o'zini ojiz, g'arib va faqir his qilishidir. Komil insonlar faqirlik bilan faxrlanganlar. Bu maqomda oriflar botiniy olamini poklaganlar. Ahmad yassaviy faqrning olti odobi bo'lganligini keltirib o'tadi:

1. Yaxshi va yomon so'zga sukut qilmoq.
2. Pir oldida xomush bo'lmoq va uning ijozatisiz so'zlamaslik.
3. hech kim bilan yomon muomalada bo'lmaslik.
4. "Xosu omning xizmatini" ado etmoq.
5. Nafsni yengmoq.
6. Havoyu havasni tark etmoq[1].

Ko'rinadiki, faqirlik qanoat, himmat, tama' qilmaslik kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ham Navoiy dunyoning o'tkinchiligi, ma'naviy yetuklik haqidagi fikr-mulohazalarni faqr maqomi bilan bog'liq holda tasvirlaydi. Gar fano rasmin qilmoq tilar ersang mazbut, Nafs ila ruhni zinhorki qilma maxlut. Fano shartlarini bajarishning o'ziyoq inson axloqini go'zallashtiradi. Shoir talqinicha, fano yo'lini tanlagan kishi nafs bilan ruhni qorishtirmasligi zarur.

Navoiy tasviricha, tiriklik ayshi, avvalo, nafsni ruhga taslim etish, ishq, ma'rifat, go'zallik nuri bilan ko'ngilga ziynat berishdir. Shundagina inson dunyoni fath etish uchun lashkar tortmoq "sipoh gardi g'uborig'a" arzimasligini ham, odamlar orasidagi bir fursatlik nifoqu janjallar asrlarga cho'zilgan umr farog'atini butkul yo'qqa chiqarish ehtimolini anglab yashaydi:

Yuz qarn olam ahli apo aylamak nishot,

[1] Аҳмад Яссавий. Девони Ҳикмат. – Т.: 1994

Bir dam alar nifoqu niqorig'a arzimas.

Shoir mamlakatda farovonlikka erishmoq, osoyishtalik oʻrnatmoq, el-ulusni baxtiyor koʻrmoq uchun nimalarga e'tibor bermoq lozimligini koʻrsatib beradi. Nafs, manmanlik, zulm, hirs, behuda intilishlarga barham bermoq yoʻli bilangina elni shod, mamlakatni obod qilish mumkin deb hisoblaydi: To hirsu havas xirmoni barbod oʻlmas, To nafsu havo qasri baraftod oʻlmas. To zulmu sitam joniga bedod oʻlmas, El shod oʻlmas, mamlakat obod oʻlmas. Shoir nazdidi el qalbidagi hirsu havas xirmoni yelga sovurilmasa, nafs, kibru havo qasri barbod boʻlmasa, zulmu sitam joniga qattiq sitam berib, uni yoʻqotmoq shart boʻlsagina el koʻngli shod, mamlakat obod boʻladi. Bu she'r faqatgina Navoiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari ifodasi boʻlibgina qolmay, undagi obrazli ifodalar, poetik gʻoyaning yuksak san'atkorlik bilan tasvirlangani bilan ham alohida diqqatga molikdir.

Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul oʻzining "Ruhoniyat va nafsoniyat tazodi" nomli maqolasida Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devonidagi gʻazallaridan bir baytga shunday ta'rif beradi:

Gar fano rasmin qilmoq tilar ersang mazbut, Nafs ila ruhni zinhorki qilma maxlut.

Baytning asosiy mazmuni: fano rasm-ravishini agar egallayman desang, nafs bilan ruhni hech qachon bir-biriga qoʻshma, ya'ni aralashtirma.

Navoiy oʻz baytlarida boylikka ruju qoʻyishni oʻlimga yuzlanish deb hisoblaydi. Tarixdan ma'lumki, "Alisher Navoiyning xazinasiga uning yer-mulklaridan har kuni 75 ming dinor daromad tushib turgan…" Shoir shuncha boyligi boʻlishiga qaramay davlatidan gʻururlanmagan, nafsni jilovlashga da'vat etgan. "Vaqfiya" asari tufayli "Navoiy davlatidan gʻururlanib ketdi" degan igʻvolarga barham bergan. Barcha boyligini xayrli va savobli ishlarga, qurilishlarga sarflagani, saxovati va bunyodkorligi uchun ham Husayn Boyqaro ijodkorni "Qahramon va sohibqiron" deb ulugʻlashga haqli edi.

Olgʻali dunyo arusin, eyki, sotting naqdi din, Umr sotib, marg olmoq angla, bu sotigʻ-oligʻ.

Navoiy boylikka ruju qoʻyganni naq dinini sota turib, oʻz umrini sotib oʻlimga yuzlanishdek savdo-sotiqqa aralashgan kimsa deb ta'riflaydi. Umr va oʻlim – bir-biriga zid tushunchalar. Shoir tazod orqali baytdagi mazmun-mohiyatni teranroq tushunishga imkon beradi.

Xulosa shuki, Alisher Navoiyning gʻazallarida nafsdan qochish, uning zararlaridan saqlanish va oʻzini poklash gʻoyalari muhim ahamiyatga ega. Ijodkor nafsni qattiq qoralab, insonlarning undan xoli boʻlishini istaydi. Zero, ma'naviy yetuklikka qanoat, mehnat, sabr, himmat kabi sifatlar bilan erishish mumkin.

O‘ZBEK TILIDA FAXRIY UNVON VA MUKOFOT NOMLARINING SEMANTIK TAHLILI

MAKSUDA NISHONOVNA XUSANOVA,

Renessans ta’lim universiteti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi faxriy unvonlar va mukofot nomlari (dignitonimlar va faleronimlar)ning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ularning tuzilishi, ma’no qatlamlari hamda ijtimoiy-madaniy mazmuni ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, faxriy nomlarning milliy qadriyatlar, tarixiy jarayonlar va til taraqqiyoti bilan bog‘liqligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: onomastika, dignitonim, faleronim, semantika, faxriy unvon, mukofot, nominatsiya, ma’no qatlamlari.

O‘zbek tili leksik tizimining muhim qatlamlaridan biri bu - faxriy unvon va mukofot nomlari bilan bog‘liq onomastik birliklardir. Ular jamiyatning madaniy, siyosiy, va ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Faxriy unvon va mukofotlar insonning mehnatini e’tirof etish, uni rag‘batlantirish hamda ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

O‘zbek tilining istiqlol davri taraqqiyoti dignitonim va faleronim rivojida muhim ahamiyatga ega. Zero, tilimizning bebaho boyligi bo‘lgan dignitonim (davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan ta’sis qilingan unvonlar) va faleronim nomlarining shakllanishi va ma’nolarining talqini hamda tahliliga jiddiyroq e’tibor qaratish lozim, chunki ular merosimizning bir bo‘lagidir: kishilarning jamiyatdagi faoliyati, qilgan ishlarini ma’naviy va ruhiy jihatlardan rag‘batlantirish uchun ta’sis etilgan dignitonimlar, ya’ni unvon (faxriy, diniy va ilmiy unvon), faleronimlar-orden, medal va mukofotlarning nomlari - bu borada ham sotsiolingvistik, ham lingvokulturologik, ham psixolingvistik mohiyatga ega. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi faxriy unvon va mukofot nomlarining semantik xususiyatlari, ularning mazmun-mohiyati va lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi.

O‘zbek tilidagi faxriy unvonlar va mukofot nomlari milliy qadriyatlar, tarixiy jarayonlar va davlat siyosatining ma’lum bosqichlari bilan chambarchas bog‘liq. Ularning semantik tahlili orqali tildagi ijtimoiy-madaniy ma’lumotni o‘rganish mumkin.

Dignitonim va faleronimlar bilan taqdirlanganlar oddiy kishilar emas, balki jamiyatning, xususan, o‘zi faoliyat ko‘rsatayotgan sohaning eng dolzarb masalalarini hal qila oladigan fidoyi kishilardir. Tarixiy va zamonaviy mavzudagi unvon (faxriy, diniy va ilmiy unvon), orden, medal, mukofot nomlarida ham xalqning qadimiy an’analari, milliy va umuminsoniy qadriyatlari hamda urf-odatlari o‘z ifodasini topgan.

Faxriy unvonlar — shaxsning muayyan sohadagi xizmatlarini e’tirof etuvchi onomastik birliklardir. Masalan, “O‘zbekiston xalq artisti”, “O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston Qahramoni” kabi nomlar o‘zida hurmat, e’tirof va faxr

ma’nosini mujassamlashtiradi. Bu unvonlarda “xalq” so‘zi ijtimoiy e’tirof belgisi sifatida qo‘llanadi.

Mukofot nomlari esa shaxs yoki jamoaning yutuqlarini ifodalovchi nominativ birliklardir. “Mukofot” so‘zi arab tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan bo‘lib, “taqdirlash”, “to‘lov” ma’nolarini anglatadi. “Biron-bir faoliyat sohasidagi alohida yutuqlar uchun rag‘batlantirish shakli (qimmatli buyum, pul, medal, orden va sh. k.*). Oliy mukofot. Davlat mukofoti. Pul mukofoti. Mukofot bermoq. Mukofot olmoq. Mukofotga taqdim etmoq”(O‘TIL*, III, 259*).* Ijodkor yozuvchi va shoirlarga beriladigan Davlat mukofotlari bo‘lib , ularga Hamid Olimjon nomidagi Davlat mukofoti, Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofoti, Cho‘lpon nomidagi Davlat mukofoti, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mukofotlari to‘g‘risida” qonunni sakkizinchi moddasi O‘zbekiston Respublikasining ordenlari to‘g‘risida bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: «Mustaqillik» ordeni; “Amir Temur” ordeni; “Jaloliddin Manguberdi” ordeni; “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni; “El-yurt hurmati” ordeni; “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni; “Mehnat shuhrati” ordeni; “Faxriy murabbiy” ordeni; I va II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni; I va II darajali “Shon-sharaf” ordeni; “Do‘stlik” ordeni; I va II darajali “Salomatlik” ordeni; “Mardlik” ordeni, “Imom Buxoriy” va boshqalar. Masalan, “Do‘stlik ordeni”, “El-yurt hurmati” ordeni, “Mehnat shuhrati” ordeni kabi mukofot nomlari ma’no jihatidan jamiyatdagi ezgu fazilatlarni ulug‘lashga xizmat qiladi. Ularning tarkibidagi «do‘stlik», «hurmat», «shuhrat» kabi so‘zlar ijobiy ma’no yukiga ega.

Semantik tahlil shuni ko‘rsatadiki, bunday nomlar o‘zida quyidagi ma’nolarni mujassamlashtiradi:

1. e’tirof va faxr ma’nosi;
2. ijtimoiy qadriyatlar (do‘stlik, mehnat, sadoqat, vatanparvarlik);
3. davlat ramziyati va milliy birlikni ifodalovchi elementlar.

Bundan tashqari, ushbu nomlarda semantik motivatsiya ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, “El-yurt hurmati” ordeni — shaxsning xalq orasidagi hurmat va obro‘sini bildiradi. “Do‘stlik” ordeni esa xalqlararo totuvlik, hamjihatlik va tinchlik g‘oyalarini targ‘ib etadi. Shunday qilib, bu nomlar nafaqat til birliklari, balki ma’naviy qadriyatlarning aks-sadosidir.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilidagi faxriy unvon va mukofot nomlari til tizimida alohida semantik qatlamni tashkil etadi. Ular tildagi ijtimoiy-madaniy voqelikni ifodalash,

qadriyatlarni shakllantirish va milliy oʻzlikni namoyon etishda muhim rol oʻynaydi. Ushbu nomlarning semantik tahlili orqali nafaqat til birliklari, balki jamiyatning maʼnaviy-maʼrifiy yoʻnalishlari ham oʻrganiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент, 2013. – 261
2. Жамолхонов Ҳ.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. – Тошкент:Низомий номидаги ТДПУ,2004.–Б.55..
3. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни Давлат мукофотлари тўғрисида (янги таҳрири). Тошкент шаҳри, 2018 йил 11 апрель № ЎРҚ—473. 8-бет.

бомбит с ударением на «и», обозначает раздражение, например, у него с нее бомбит — она его раздражает. Втащить

• ударить, например, он ему хорошенечко втащил. Забронить с ударением на

«о» — забронировать. Катя забронила нам столик в кафе. Сейчас любую информацию можно сохранить в телефоне, при помощи скриншота — снимка экрана компьютера или телефона, поэтому появилось очень популярное выражение, не только среди молодежи, но и вполне взрослых людей — скинь скрин, т. е. отправить скриншот или снимок экрана. Например, кинь мне тот скрин, который обещал. Сокращение от слова ладно — лан, например, лан, сделаю. Знаменитое английское ОК можно считать уже всемирным сокращением, русский язык оно тоже не прошло стороной и имеет у нас несколько написаний — ОК, оки, окай, окей, океюшки. Можно сделать вывод, что у этого сокращения в русском языке появилось несколько состояний, краткость, милость, ласка, серьезность и подростковая игривость. Глагол ору

• смеюсь, например, он орет с этого видео, т. е. громко смеется. Сорян – пришло с английского языка, и его сразу одели в русский суффикс, переводится как извини. Топ, топчик, быть в топе — быть популярным, самым лучшим. Это платье просто топчик. Чилить — ударение падает на первый слог, обозначает отдыхать. Пойду-ка я чилить. Гоу — прямое значение — пойдем, гоу в кино, гоу в школу. Флэшбэк — повтор, хз — не знаю, видосы — видеоролики, войсить — отправлять голосовые сообщения в мессенджерах, гамать — играть, жми на колокольчик — призыв подписаться на канал. Мемасы — смешные интернет-картинки, они же мемы, как правило, это фото знаменитостей с подборкой уместных надписей. Рил ток — от английского real talk — уверенное высказывание, сижка, сига — сигарета, фолловить, от английского следить, в русском сленге используется, как подписаться на кого
• то в инстаграме или твиттере. Хайп — быть на виду, раннее использовалось слово шумиха, например, он на хайпе, вокруг него шумиха, т. е. проще говоря
• он на виду. Еще одно интересное слово — эшкере, которое пришло с английского языка — let's get it, (давай с этим покончим) в сильно измененном виде. Слово жиза, происходить от слова жизнь — в молодежном сленге имеет глубокую смысловую нагрузку, с нотками драматичности и философичности, мне надо идти на экзамен, а я приболел, что тут скажешь — жиза, можно

заменить словосочетанием такова жизнь или же французским выражением — се ля ви. Слово забитый в наши дни тоже уже имеет иное значение. Если раньше люди называли забитыми людей закомплексованных и неуверенных, то сейчас растет мода на татуировки, поэтому слово забитый теперь означает, человек, который имеет много татуировок на теле, отсюда распространён глагол забиться -

сделать множество татуировок, на сленге же — тату или татушек на теле. Относительно недавно появилось приложение Shazam, которое помогает найти песню, если ты не знаешь ее названия или исполнителя, отсюда появился сленговый глагол шазамить, т. е. искать песню. Фото, которое стоит у пользователя в профиле соцсетей, называется аватарка, или сокращенно ава. К друзьям обращаются бро или бра, сокращение от английского слова brother — брат. Несколько сокращений, которые обязательно нужно знать пользователям соцсетей — ЛС –личные сообщения или еще одно сокращение — личка, ЛП/ ЛД — лучшая подруга, лучший друг. Фейк — обман, неправда, стопэ, харе — от слова стоп, хватит, остановись, изи –синоним, с английского переводится, как просто легко. Можно я сделаю это, для меня это слишком изи, т.е легко. Но наркотики, к сожалению, никуда не делись и поэтому есть определенное количество слов, которые пугают и заставляют задуматься, ведь их уже употребляют подростки, которые увлечены какими — либо наркотиками. Нужно уметь видеть ту тоненькую грань, когда слова в принципе безобидны, а когда они несут в себе негативное влияние. Спайс, трава, химия, сено, книга, россыпь, микс, мука, гера — кодовые названия наркотика, закладка, клад — место, где они хранятся, булька, бульбулятор, труба, ботл — приспособление для употребления наркотика. Услышав все эти слова в связанном предложении, означает, что подросток связался с наркотиками, и нужно что — решать. Конечно, "это только часть слов и каждый день выходят новые кодовые слова, чтобы скрыть это не только от взрослых граждан и общества, но и от правоохранительных органов. Определить возраст легко, достаточно обратить внимание на его речь. Если человек говорит секретарь, а не офис — менеджер, сообщение, а не месседж, кадровик, а не эйчар, зал, а не шоурум, то скорее всего ему больше тридцати или как минимум тридцать. Хотя и здесь есть исключения и человек в сорок лет может знать больше молодежных слов и изъясняться на сленге, лучше, чем несколько подростков вместе взятых. Но чтобы понимать детей, молодежь и просто идти в ногу со временем, нужно быть в курсе сленга и если не выражаться, то хотя бы знать его значение"[4,с.28]. Язык не умеет фильтровать слова, поэтому жаргоны появляются даже быстрее, чем литературные слова. «Молодежный сленг — это креативный, живой и постоянно меняющийся феномен, который оставляет впечатление, как о новом явлении, которое родилось на просторах интернета. Хотя на самом деле в русском языке такое понятие как жаргон появилось больше двух веков назад, вместе с первыми учебными заведениями. Жаргон имеет богатую историю, он менялся, развивался, расширял свои границы и насчитывает более десяти тысяч слов.» [3, с.2] Некоторые жаргонизмы дошли до наших дней и имеют то

или измененное значение, например, слово коза — раньше доносчик, теперь есть слово козлить, т. е. доносить, ученики, сидящие на последних партах, до сих пор называют эти места камчаткой, только теперь еще появились сахалин и

кавказ, а жаргон лебедь — это до сих пор двойка в значении оценки. А курение и алкоголь также имеют более значительное количество жаргонизмов, нежели другие слова, например, табачить, паровозить, сига — старые жаргоны, дошедшие до наших дней и понятные всему обществу, от малого до великого, также как дерябнуть, бухать, пьянствовать, алканить. У слова курить, на заметку, семнадцать синонимов и здесь же шестнадцать жаргонных наименований, а у слова алкоголь имеются выражения и жаргоны, которые превышают несколько сотен слов [4, с. 37]. Молодежный жаргон в будущем с возникновением новых понятий и явлений, будет развиваться и обогащаться новыми словами, взрослые люди также не всегда будут его понимать, а вопрос, по поводу изучения сленга взрослыми людьми, остается открытым и у каждого есть выбор, идти в ногу со временем и быть на одной волне с молодыми людьми или же соблюдать рамки и отчетливо провести грань взрослый человек — подросток. Что же касается лингвиста, то он должен изучать сленг, ведь сленг говорит в первую очередь о том, что данный язык, жив, пока он обогащается неологизмами и жаргонами.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Анищенко, О. А. Эволюция обозначения молодежной речи: от технического языка до жаргона / О. А. Анищенко // Вопросы языкознания. — 2009. — № 2.

— С. 108–117.

1. Кронгауз, М. Русский язык на грани нервного срыва / М.Кронгауз// Москва,2007
2. Крысин, Л.П. О русском языке наших дней/ Л. Крысин// Пермь, 2002 4. Уздинская, Е. В. Семантическое своеобразие современного молодежного жаргона / Е. В. Уздинская // Активные процессы в языке и речи. — Саратов: Изд-во Сарат. ун-та, 1991. — С. 28

5. Ягафарова, Р. Н. О чем говорит молодежь / Р. Н. Ягафарова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 21 (311). — С. 768-772.

NUTQIY MATNNING SHAKLLANISH VA TAKOMILLASHISH JARAYONI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

MUHTABAR SANOYEVA, NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Inson ijtimoiy-ma'naviy faoliyatining asosiy shakli va mazmuni muomala-muloqot orqali ifodalansa, insoniyat erishgan yutuqlar, madaniy-ma'naviy meroslarni keyingi avlodlarga yaxlit holda yetkazishning eng asosiy vositasi ijodiy tafakkur mahsuli bo'lmish matn orqali namoyon bo'ladi.

Ma’lumki, bog‘lanishli nutqiy malakaga ega bo‘lish bir vaqtning o‘zida ham mantiqiy, ham lisoniy dasturni amalga oshirishni taqozo etadi. Bunda so‘zlovchi o‘z

fikrini hech qanday uzilishlarsiz, jumlalar o‘rtasida to‘xtamlarsiz bog‘lanishli tarzda aytilishi uchun ichki dasturlash, ya’ni oldingi gapni aytish jarayonida keyingi gap mazmunini o‘ylab olish va unga mos ifoda vositalarini rejalashtirib olish dasturini amalga oshiradi. Bunday vaziyatda tilshunos olim N.I.Jinkinning qayd etganidek, birinchi bosqichda so‘zlar tanlovi ketadi, ikkinchi bosqichda esa so‘zlarni o‘zaro bog‘lash jarayoni kuzatiladi[1,370]. Nutq mexanizmlarini shu tarzda transformatsiyalash, ya’ni nutqiy matnning shakllanish va takomillashish jarayoni faqat nutqiy faoliyat sharoitidagina, nutqiy muloqotda yuz beradigan axborot almashinuvi orqaligina amalga oshishi mumkin.

Ko‘rinadiki, nutqiy malakaga ega bo‘lish bir vaqtning o‘zida ham mantiqiy, ham lisoniy dasturni amalga oshirish, ya’ni so‘zlovchi o‘z fikrini bog‘lanishli tarzda ravon bayon etishi, matn hech qanday uzilishlarsiz, jumlalar o‘rtasida to‘xtamlarsiz yaxlit holda aytilishi uchun ichki dasturlash, ya’ni oldingi gapni aytish jarayonida keyingi gap mazmunini o‘ylab olish va unga mos ifoda vositalarini rejalashtirib olishdan iboratdir. Bu nutqning ichki va tashqi ko‘rinishlari mavjudligini ko‘rsatadi [2, 24].

I.R.Galperin va uning izdoshlari matnni faqat yozma shaklda ifodalangan nutq, nutq parchasi ekanligini ta’kidlashsa [3,21], o‘zbek tilshunosi N.Mahmudov “matnning ilmiy mohiyati, asosiy sintaktik vazifasi axborot uzatish, fikr mahsulini yaxlit aks ettirishdan iboratligi hisobga olinsa, “matn” tushunchasini ham og‘zaki, ham yozma holatda erkin ishlatish mumkin [4, 7]”, –deb keltirib o‘tadi.

So‘zlovchi o‘z fikrining bayoni davomida uning **mantiqiy izchilligi**ga e’tibor qaratishi, izchillikka erishish uchun esa aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini avvaldan rejalashtirib olishi kerak bo‘ladi. Axborotning tugallangan xarakterga ega bo‘lishi berilayotgan axborotning bir-biriga uzviy bog‘liq yoyiq gaplar bilan ifodalanishiga va muayyan kontekst hosil qilishiga olib keladi. Nihoyat, har bir monologda bayon etilayotgan axborot muayyan **maqsadga yo‘naltirilganligi** bilan ham farqlanadiki, bu uning ta’sir kuchini, tinglovchilar tomonidan to‘liq qabul qilinishini kafolatlovchi belgilaridan biridir.

Mantiqiy bog‘lanish fikrlarning bir-birini to‘ldirishi, izohlashi, tasdiqlashi orqali namoyon bo‘ladi. Bog‘lanishli nutq tarkibidagi har bir fikr yetkazilishi kerak bo‘lgan axborotning ma’lum bir qismini qamrab olgan bo‘ladi. Bu jarayon muayyan fikrlarni bevosita ifoda qilish uchun zarur bo‘lgan til vositalarini tanlab olish, til ko‘nikmasi va nutq malakasiga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Tilga oid qoidalarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalari o‘z fikrlarini muayyan vaziyatda erkin ifodalash uchun o‘rganilgan bilimlardan foydalana olish malakalariga qarab o‘sib boradi. Nutqiy malaka nutqiy harakatlarni ongli ravishda boshqara olish qobiliyati bo‘lib, u nutq faoliyatining yuqori darajasi hisoblanadi [2, 16].

Nutqiy faoliyatni egallash nutqiy ifodalarni yuzaga keltirishning turli mexanizmlari, xususan, zarur nutqiy birliklarni vaziyatga mos holda tanlash va ijodiy ishlash ko‘nikmalarini egallashni taqozo etadi. Shunga ko‘ra matn turlari mazmuniga ko‘ra farqlansa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy jihat fikrning yakka shaxs tomonidan bog‘lanishli izchil bayon etilishidir. Bog’lanishli matn barcha tadqiqotlarda monologik nutq turi sifatida tavsiflanadi. Biroq nafaqat monologik

nutq turlari, balki ularning funksional xususiyatlari, monologik nutqqa oid ko‘nikma, malakalar to‘g‘risidagi qarashlar ham bir xil emas. Jumladan, I.L.Bim bog‘lanishli monologik nutqning quyidagi to‘rt turini ajratadi:

1. Axborot berish – biror xabar yoki ma’lumotni gaplarni mantiqiy izchillikda bog‘lagan tarzda va turli dalillar vositasida bayon etish.
2. Hikoya qilish – muayyan nutqiy qurilmalardan foydalangan holda o‘zi, do‘sti, maktabi, shahri, qishlog‘i haqida so‘zlab berish.
3. Tasvirlash – sifatlovchi iboralardan foydalanib, tabiat, joy-makon, qiyofani tasvirlash.
4. Tavsiflash – fikrini asoslagan holda biror shaxsga tavsif berish [5,215].

Demak, mustaqil yaratilgan matn – muallif tafakkuri, intellektual qobiliyatining voqelanishi, uning ijodiy fikrlarining yuzaga chiqishi va muayyan mavzuga bog‘liq shaxsiy qarashlari aks etgan mustaqil g‘oyalarining kashf etilishidir. Boshqa tomondan, matn o‘zlashtirayotgan bilim, ko‘nikma, malakalarini to‘liq anglab yetish va boshqalarga mustaqil tushuntira bilish, o‘z ijodiy fikrlarini, g‘oyalarini yetkaza olishdek kreativ xislatlarni tarbiyalashga ham yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Жинкин Н.И. Механизмы речи. 3-е изд. – М., 1991. – 370 с.
2. Salisheva Z.I. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarida): ped. fanlari b-cha fals. dokt. (PhD) dis-yasi. –Toshkent, 2019. – 24-b.
3. Гальперин И.Р. Грамматические категории текста. Изд-во АПН СССР, Сер., Литература и язык. – Москва, 1987. № 6. – 4–21 с.
4. Mahmudov N. Ta’lim bo‘g‘inlarida ona tili o‘qitish mazmunini yangilash muammolari// Ta’lim bo‘g‘inlarida ona tili o‘qitish mazmunini yangilash asoslari. – Qarshi: 1993. – 5–7-b.
5. Бим И.Л., Леонтьев А.А и др. Общая методика обучения иностранным языкам. − М., Изд. Русский язык, 1991.− 215 с.

MUSTAQILLIK DAVRI ShE’RIYATIDA MUMTOZ ADABIYOT AN’ANALARI

Ra’no FAYZULLAYEVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada mumtoz adabiyotimizda Vatan obrazining o'ziga xos poetik talqinlari mavjudligi, bu talqinlar Mahmud Koshg'ariy va Yusuf Xos Hojib ijodining Sirojiddin Sayyid ijodiga ta'siri misolida qiyosan ochib berilgan. Shoirning mumtoz adabiyot vakillari ijodiga g'oyaviy izdoshligi misollar asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Aruz vazni, barmoq vazni, Vatan obrazi, poetik talqin, vatanparvar shaxs, adabiy ta'sir, novatorlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается уникальное поэтическое трактование образа Родины в узбекской классической литературе. Данное

трактование раскрывается на примере влияния произведений Махмуда Кашгари и Юсуфа Хоса Хаджиба на творчество Сироджиддина Сайида. На основе примеров анализируется идейная приверженность поэта творчеству представителей классической литературы.

Ключевые слова: вес Аруза, вес пальца, образ Родины, поэтическая интерпретация, патриотическая личность, литературное влияние, новаторство.
Annotation: This article examines the unique poetic interpretation of the image of the Motherland in Uzbek classical literature. This interpretation is revealed through the example of the influence of the works of Mahmud Kashgari and Yusuf Khos Hajib on the work of Sirojiddin Sayyid. Based on examples, the poet's ideological commitment to the work of representatives of classical literature is

analyzed.

Key words: Aruz's weight, finger weight, image of the Motherland, poetic interpretation, patriotic personality, literary influence, innovation.

O'zbek mumtoz adabiyoti nihoyatda boy. Janrlar rang-barangligi, mavzular ko'lami kengligi, har bir ijodkorga xos uslubiy jilolar bugungi kunda zamonaviy o'zbek adabiyoti rivojiga katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shoir va adiblarimiz mumtoz adabiyotimizning yetuk namunalarini o'qib, o'rganib, an'analarni ijodiy rivojlantirish, boyitish bilan umrboqiy asarlar yaratib kelmoqda. Mumtoz adabiyotimiz bitmas-tuganmas xazina, badiiy so'z san'atining duru javohirlariga to'la. Undan bahramand bo'lmasdan, an'analarni, tajribalarni o'zlashtirmasdan, ularni ijodiy rivojlantirmasdan bugungi adabiyot rivojini tasavvur qilish mumkin emas. Hozirgi adabiyotimizning yirik vakillari ijodiga e'tibor qaratsak, ularning har biri mumtoz adabiyotimizdan u yoki bu darajada o'rgangan, tajriba va an'analarni rivojlantirgan va adabiy ta'sir natijasida mukammal asarlar yaratib

kelayotgani ko‘zga tashlanadi. Hamza, Fitrat, Cho‘lpon, Elbek, Botu singari o‘tgan asr boshlarida adabiyot maydoniga kirib kelgan shoirlar barmoq vaznining she’riyatimizda asosiy she’r o‘lchovi darajasiga ko‘tarilishiga ulkan hissa qo‘shish bilan birga, bu vaznda yaratilgan asarlarda mumtoz adabiyot usul va vositalarini muvaffaqiyat bilan qo‘lladilar. Ulardan keyingi avlod barmoq vazni imkoniyatlarini qadim badiiy-poetik an’analar bilan yanada boyitdilar. Oybek, Usmon Nosir, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Mirtemir, Shayxzoda ijodida buni ko‘rish mumkin. Bu borada yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida poeziya maydoniga kirib kelgan Erkin Vohidov va Abdulla Oripov xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim. Shunday an’analarni davom ettirib kelayotgan yana bir zabardast shoir Sirojiddin Sayyiddir.

Shoirning to‘rt jildlik “Asarlar”ining har bir jildida alohida bob sifatida berilgan mumtoz janrlardagi namunalarni o‘qir ekanmiz, uning mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodini chuqur o‘rgangan, ular ijodidan o‘zgacha ilhomlangani va aruz ilmidan yaxshigina xabardor ekanining guvohi bo‘lamiz. Sirojiddin Sayyid she’riyatida mumtoz adabiyotning ta’sirini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

- 1. shoirning g‘azal, muxammas, masnaviy, qit’a, ruboiy, kabi janrlarda samarali qalam tebratganida;
  2. mumtoz adabiyotda yetakchilik qilgan mavzularga hamohang yaratgan she’rlarida ilgari surilgan badiiy-estetik tamoyillarda;
  3. Sharq adabiyotida mavjud badiiy obrazlarga munosabati va ular qatorining yangilanganishida;
  4. badiiy talqinlardagi poetik tasvir ifodasining o‘ziga xosligi, salaflar va ustozlar an’analariga munosabati va novatorligida.

Mumtoz adabiyotda Vatan obrazining o‘ziga xos poetik talqinlari xususida so‘z ketganda, yozma badiiy adabiyotimizning ilk namoyandalari – Mahmud Koshg‘ariy va Yusuf Xos Hojib ijodiga alohida to‘xtalish o‘rinlidir. Xususan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida turkiy xalqlarning tili, madaniyati, tarixi, etnografiyasi, geografiyasi tadqiq etilishi barobarida bevosita Vatanning umumlashma badiiy obrazi yaratilganini ko‘rish mumkin. Asardagi she’riy parchalarda tabiat hodisalari, yil fasllari, hayvonot, nabotot, butun koinot tasviri Vatanning bir uzvi sifatida keladi. Shu bilan bir qatorda, xalqparvarlik, ezgulik, mardlik, jangovorlik kabi yuksak insoniy fazilatlar tasvirida ham vatanparvar shaxs obrazi namoyon bo‘ladi:

Ulug‘liging oshsa gar, Xushxulq bo‘lg‘il.

Bek yonida xalqlar uchun Xo‘b ish qilg‘il. [4; 17]

Mazkur misralarda inson martabasi qanchalik oshsa ham, o‘zida xalqparvarlik, vatanparvarlik fazilatlarini saqlab qolishi lozimligi uqtirilgan.

“Devonu lug‘otit-turk”da harbiy mavzudagi to‘rtliklar ham uchraydi. Ularda askarlarni vatanparvarlikka da’vat etish, yurtni himoya qilish uchun harbiy rejalar tuzish, g‘alaba shukuhi, ozodlikni qadrlash ruhi ustivorlik qiladi:

Dushman yo‘lin o‘raylik, Otdan tushib uraylik,

Arslon kabi turaylik,

Yovning kuchi bo‘shashgan. [4; 34]

Mahmud Koshg‘ariy bu kabi to‘rtliklarini o‘sha davrda yurt ozodligi uchun askarlarga da’vat, chaqiriq ohangida yozadi. To‘rtliklar nafaqat badiiy qimmati bilan, balki Vatan himoyasi uchun yaratilgan nizom, yo‘riqnoma xarakterida ekanligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Asardagi “Alp Er To‘nga” marsiyasida Afrosiyobning vatanparvar shaxs, xalqparvar sardor ekanligiga urg‘u berilib, xalqning odil hukmdor, elparvar boshliqsiz qolishi ulkan fojea sifatida talqin etiladi:

Alp Er To‘nga o‘ldimu, Essiz olam qoldimu, Dunyo o‘chin oldimu? Endi yurak yirtilur. [4; 39]

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari ham pandnoma ruhida yaratilgan bo‘lib, unda keltirilgan aksar fikr va g‘oyalarda xalqning baxtiyorligi va farovonligi, davlat tinchligi va el manfaatlari ko‘zlanadi. Xususan, asarning “Mulkka loyiq bek qanday bo‘lishi haqida” bobida Elig va O‘gdulmishning savolu javoblarida bu jihat

yaqqol ko‘zga tashlanadi: “Bekning so‘zlari chin, qilish-qilmishlari to‘g‘ri bo‘lishi kerak, xalq unga ishonib baxtiyor yashashi kerak.” [1;180]

Asarda adib “Haqiqiy yurt sardori qanday bo‘lishi lozim?” degan savolga javob izlab, yetuk rahbarning mukammal poetik tasvirini yaratadi. Shoir talqinicha, bunday inson Vatan uchun har qanday to‘siqlarni yengishga qodir, yurt himoyasi uchun g‘ayrati jo‘sh urgan, yurtni yovdan asray oladigan, hatto Vatan uchun o‘z jonidan kechishga tayyor:

Boq, botir ot chopib dushman boshin yer, Yo uni qul qilar, yo olar asir.

Yov ko‘rsa mardlarning g‘ayrati jo‘shar, Boshqaga hech navbat bermay urushar. Lashkar yetsa, botir, mardlar sher bo‘lur, Ot surar, o‘ldirar, yo o‘zi o‘lur. [5; 205]

Shoir ta’biricha, el farovonligi ko‘p jihatdan adolatli, xalqparvar bekka bog‘liqdir. Adib bob markaziga “Yurtga bek bo‘ladigan sardor qanday bo‘lishi kerak?” degan muhim

muammoni qo'yar ekan, bunday sardor yurtni yashnatib, xalqini badavlat qiladigan bo'lishi lozimligi haqida qat'iy xulosaga keladi:

Shunday elga kimlar bo'lur bek-sardor, To dovrug', davlati bo'lolsin poydor?
Yashnatib yurt, xalqin badavlat qilsa, Ezgu nom orttirsa, eli mo'l bo'lsa. [5; 169]

Sirojiddin Sayyid ijodida uning Yusuf Xos Hojib g'oyalaridan ilhomlangani, unga ijodiy ergashgani yaqqol ko'zga tashlanadi:

Agar yaxshi bo'lsa yurtda podshohlar, Boylaringiz bo'lsa saxiy, botadbir, Ishlar bamaslahat bitsa, sizlarga

Yer ostidan ko'ra usti afzaldir. [2; 17]

Quyidagi misralarda ham ustoz ijodkorga g'oyaviy izdoshlik aks etganini ko'rish mumkin:

Nimadir aslida yurtga sarvarlik – Mehrparvarlikdir, millatparvarlik. Har zarra tuprog'i zarlik, gavharlik,

Bul Vatan toabad saodatdadir. [3; 359]

Sirojiddin Sayyid ham yurtga sardorlikning asosi mehrparvarlik va millatparvarlik ekanligini, bunday hukmdorga ega bo'lgan yurt abadiy saodatga erishajagini ta'kidlaydi.

Ijodkorning ilgari yaratilgan asarlarni o'qib, ulardan ilhomlanishi va yaratayotgan asarlariga namuna olishi badiiy adabiyotda an'anaviylik va ijodiylikning davom etishini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida adabiyotning milliy qiyofasini saqlab qolishda va uning taraqqiy etishida zaruriy omillardan biri hisoblanadi.

Mumtoz adabiyotimiz an'analarini davom ettirish, mumtoz adabiyotimizda yaratilgan Vatan obrazining badiiy talqini hozirgi o'zbek she'riyatida qanday poetik

sintez qilinayotganligi Sirojiddin Sayyid ijodida o'zining yorqin ifodasini topayotganligi yuqoridagi misolarda ko'rsatib berishga harakat qilindi.

ADABIYOTLAR:

1. Rahmonov Nasimxon. Qadimiy hikmatlar. . – T.: G'afur G'ulom nashriyoti. 1987.
2. Sirojiddin Sayyid. Asarlar. II jild. She'rlar. Doston. Qirq hadis. G'azal daftari. Nasriy ohanglarda. “Sharq” nashriyoti, - Toshkent, 2018
3. Sirojiddin Sayyid. Asarlar. III jild. She'rlar. Doston. G'azal daftari. Nasriy ohanglarda. “Sharq” nashriyoti, - Toshkent, 2019
4. Qayumov A. Asarlar. 10 jildlik. 10-jild. Qadimiyat obidalari. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2010.

5. Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig. – T.: Akademnashr, 2015.

TILDA ORTIQChALIKNING PRAGMATIK VAZIFALARI

DILNOZA XASAN QIZI YOʻLDOSHEVA, NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

Filologiya va tillarni oʻqitish kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Ortiqchalik tilshunoslikda koʻp aspektlik asosida oʻrganilgan, birinchi navbatda, pragmatika sohasi doirasida keng oʻrganilgan. Ushbu maqolada badiiy matnda tamoyiliga asoslangan tavtologiyaning pragmatik vazifalari misollar yordamida ochib berilgan. Nutqning voqelanishi inson omili bilan bogʻliq ekan, nutqiy muloqot jarayonini lingvopragmatik nuqtayi nazardan oʻrganish, buning natijasi oʻlaroq, aksariyat hollarda qahramonlar nutqi individualligini hosila maʼnolarda ifodalash uchun tavtologiya va pleonazmdan foydalanish, koʻzda tutilgan fikrning taʼsirini kuchaytirish maqsadida ushbu hodisalarni nutqda qoʻllash yaqqol koʻzga tashlanadi.

Аннотация. Избыточность изучается в лингвистике на многоаспектной основе, прежде всего широко изучается в рамках области прагматики. В данной статье на примерах раскрыты прагматические задачи тавтологии, лежащие в основе принципа в художественном тексте. Поскольку речевая реализация связана с человеческим фактором, изучение процесса речевого общения с лингвопрагматической точки зрения, в результате чего в большинстве случаев очевидно использование тавтологии и плеоназма для выражения индивидуальности речи героев в производных значениях, применение этих явлений в речи с целью усиления влияния задуманной мысли.

Annotation. Redundancy has been studied in linguistics on the basis of multiple aspects, primarily within the realm of pragmatics. This article reveals the pragmatic tasks of tautology based on the principle in the artistic text using examples. Since the reality of speech is associated with the human factor, the study of the process of speech communication from a linguopragmatic point of view, as a result of which, in most cases, the use of tautology and pleonasm to express the individuality of the speech of heroes in derived meanings, the use of these phenomena in speech in order to strengthen the

Kalit soʻzlar. tavtologiya, pleonazm, munosabat, nutqiy akt, kommunikatsiya, pragmatika.

Ключевые слова. тавтология, плеоназм, отношение, речевой акт, коммуникация, прагматика.

Keywords. tautology, pleonasm, attitude, speech act, communication, pragmatics.

Badiiy matnning linvopragmatik tahlilida biz yozuvchi va personaj pragmatikasiga duch kelamiz. Yozuvchi pragmatikasida muallif toʻgridan toʻgʻri voqealar tafsilotiga berilib ketmay, avvalo, voqea sodir boʻlgan joy va tasviriga e'tibor qaratadi, personaj pragmatikasini aslida yozuvchining oʻzi tashkil etadi hamda har bir yozuvchining oʻziga xos uslubiyati mavjud. Yozuvchilar turli xil individual uslubga ega, ayrim yozuvchilar oʻzining personajlari nutqida ataylab tavtologiyani yoki pleonazmni shakllantirishi mumkin. Nega ataylab tashkil etadi? Sababi, u yerda muallifning muayyan pragmatik maqsadi yotadi. Nutq egasi pragmatik maqsadni yuzaga chiqarish uchun tilda ortiqchalik hodisasi yuzaga keladi. Bunda ortiqchalik tamoyiliga asoslangan tavtologiya hodisasi namoyon boʻladi. Tavtologiya – bilimlar yetishmasligi natijasida yuzaga keluvchi nutqiy kamchilik, ya'ni soʻzlovchi til malakasining yetarli emasligi, hamda soʻzlovchining nutq paytidagi affektiv holatida namoyon boʻladi. (turli psixik vaziyatlar natijasida) Bunday vaziyatlarda soʻzlovchi tomonidan tavtologiyaga aynan soʻzlarni takrorlash, hamda bitta soʻzni aynan takrorlamasdan turli asosdagi soʻzlarni takror qoʻllash orqali ham yoʻl qoʻyiladi.Shunday ekan, tavtologiya quyidagi holatlarda yuzaga kelishi mumkin:

1. Chetdan oʻzlashtirilgan soʻz va uning oʻzbek tilidagi ma'nodoshini yonma-yon qoʻllash orqali vujudga keladi. Aksariyat hollarda soʻzlovchi tomonidan muayyan soʻzning lugʻaviy ma'nosini bilmaslik yoki ma'lum bir soʻzning ma'nosini izohlash maqsadida qoʻllanadi: *mahalliy aborigen* birikmasidagi *mahalliy* soʻzi ham grammatik, ham pragmatik jihatdan ortiqchadir. Chunki *aborigen* soʻzining oʻzi mahalliy ma'nosini ifodalaydi. Yoxud mazkur birikmadagi *aborigen* birligini tushirib qoldirib, aksincha faqat mahalliy soʻzining oʻzidan foydalanish orqali ham oʻsha mazmunni ifodalash mumkin edi. Quyidagi birliklarda ham bir soʻz shakl va ma'no jihatdan ortiqcha qoʻllangan: *qisqa* rezyume, *qoʻshimcha* bonus, *servis* xizmati, *boʻsh* vakansiya.
2. Soʻzlovchining nutq paytidagi affektiv holati – soʻzlovchi ruhiy holatining nutqqa bevosita ta'sir oʻtkazishi natijasida tavtologiya yuzaga keladi: Masalan: *Topgan gapingning kuladigan joyi yoʻq!* (Gʻazab bilan qoʻlidagi jomga solingan ichimlikni qiziqchining yuziga sepib yuboradi.) *Yoʻqol koʻzimdan!* Tarixiy dramada shohlarning nutqida uchraydigan tavtologik birliklar, asosan, ularning ruhiy holatidan kelib chiqadi. Yuqoridagi misolda "yoʻqol" soʻzining oʻzidan ham "koʻzidan ya'ni yonidan" semasi anglashilib turadi. Bu oʻrinda "koʻzimdan" soʻzi ortiqcha qoʻllangan.
3. Abbreviaturalar, ya'ni qisqartma soʻzlar tarkibida ham tavtologik birliklarni uchratish mumkin, asosan, bunday birliklar tibbiyot sohasida uchraydi: *OITS*

sindromi, UTT tekshiruvi, O‘RK kasalliklari, O‘RVI infeksiyasi; OITS – Orttirilgan Immun Tanqisligi Sindromi; UTT – ultratovush tekshiruvi; O‘RK– O‘tkir Respirator Kasalliklar; O‘RVI – O‘tkir Respirator Virusli Infeksiyalar.

1. Kichraytirish shakli bo‘lmish *-cha, -choq* affikslarining hayvon bolasi nomi tarkibida qo‘llash, yoki leksemalarning o‘zida yosh jihatdan kichiklik semasi anglashinib turganda kichraytiruvchi vositalarini, masalan, *jajji* leksemasini qo‘llash holati uchraydi: *buzoqcha, uloqcha, qo‘zichoq, jajji chaqaloq*.

Olim M.Hakimov dissertatsiyasida: “So‘zlovchining o‘z fikrini aniq, lo‘nda va to‘g‘ri ifodalashi uchun uning olam haqidagi bilimlari mukammal bo‘lishi lozim. Shu jihatidan nutqning uzayib ketish holatlari, fikrni ifodalovchi birliklarning hajmi ko‘payib ketishi, ko‘p hollarda bilim yetishmasligidan bo‘ladi. So‘zlovchining nutqi uning o‘zligi haqida to‘liq ma’lumot beradi. Lingvistik pragmatika nutqqa xos mana shu xususiyatlariga ko‘ra psixolingvistika bilan uzviy bog‘lanadi”[1], – deya ta’kidlaydi. Tilning ayrim kishilarning axloqi va ruhiyatiga ta’sir etish vositasi sifatida qo‘llanishi pragmalingvistikaning predmeti hisoblanadi.

Lingvopragmatik tahlilning vazifasi tilda nutqiy aktning muvaffaqiyatli (ba’zan normal) amalga oshishi uchun zaruriy va yetarli vaziyatni aniqlashdir. Nutqiy akt tushunchasi mohiyatiga ko‘ra so‘zlovchi nutqida kommunikativ niyat aks etadi. Nutqiy akt tushunchasi, odamlar o‘rtasidagi aloqa-aralashuv jarayonida sodir etiluvchi o‘zaro ma’no aktlari munosabatining bayonidir. *Tasdiq, buyruq, kontrafakt so‘zlashuv, talab, taxmin va rad etish, iltimos, e'tiroz, bashorat, va’da, chaqiriq, mulohaza, tushuntirish, haqorat, xulosa, taxmin, umumlashtirish, javob berish, aldash* – semantik nutqiy akt turlaridir. Jumladan, Qo‘chqor Norqobilovning “Quyoshni sen uyg‘otasan” dramasidagi bosh qahramon Qodir o‘z ona yurti, oilasi, ayoli, qizi va onasini tashlab, o‘zga yurtda yashayotgan inson obrazi bo‘lib, uning har bir nutqida insonlarga nisbatan o‘zgacha qarash, ishonchsizlik mavjud. Uning nutqidan, kommunikativ intensiyasidan axborot qabul qiluvchi insonda undagi xarakter yaqqol anglashiladi:

Qodir: – (O‘rnidan turib ketadi) Yana nega deysan-a!. Axir kechadan beri qulog‘ingga tanbur chertayapmanmi, ilojim yo‘q. Ishimni tashlab ketolmayman, Shabnam.

Shabnam: – (Keskin qarab, kinoyali) Axir ish hamma joyda ham ko‘p.

Uyingizda ham ish yetarli.

Ushbu matnda ayol tilidan aytilgan ikkinchi jumlaning, ya’ni “*o‘z yurtida ham ish yetarli*” ekanligi xususidagi fikrning o‘zidan *“ish hamma joyda borligi”* haqidagi ma’no

anglashiladi, bu bilan yozuvchi pleonazmga yoʻl qoʻyadi. Bundan tashqari, ushbu pleonazmda pragmatik jihatdan omonim boʻlgan uch nutqiy aktni anglash mumkin:

- 1. *Uyga qaytishini xohlash ma'nosidagi "istak" nutqiy akti.*
  2. *Oʻz ona yurtidan biror ish topish ma'nosidagi "talab" nutqiy akti.*

[1] Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри дисс. автореф. – Тошкент, 2001.

– 49 б.

- 1. *Oʻz yurtida ham ishlar mavjudligi haqidagi "tasdiq" nutqiy akti* kabilar nutq vaziyatiga koʻra ajratiladi. Bunday nutqiy aktlar pragmatik omonimiya[1] hodisasiga kiritiladi. Pragmatik jihatdan omonim boʻlgan bir necha nutqiy aktlar bir vaqtning oʻzida birinchi darajali ma'no imkoniyatiga ega boʻlishi bilan xarakterlanadi. Bunda buyruq ham, tasdiq ham, iltimos ham, va'da ham, majburiyat hamda talab ham bir oʻrinda anglanishi mumkin.

Qodir: – (Gʻijinib) Nima qilaman qishloqda. Men bu yerda topayotgan pulimni u yerda hech kim bermaydi.

Shabnam: – (U ham oʻrnidan turadi... Eriga iltijoli qarab) Axir oʻttiz besh sotix tomorqamiz bor, otangizdan qolgan shu boqqa qarasak ham bir roʻzgʻorga yetib ortadi-ku...

Qodir: – (Ijirgʻanib) Tomorqa... Bas. Bas qil... Qishloqqa qaytaman, Shabnam, faqat vaqti kelganda qaytaman.

Ushbu misolda qahramon nutqida "oʻz yurtiga, hovlisiga qaytmaslik " qarori inkor nutqiy akti orqali bayon qilinib, undan keyingi ifodalarda "gʻazab", "norozilik", "yupatish" kabilar inkorni izohlash, toʻldirish uchun xizmat qiladi. Qodir nutqidagi kommunikativ niyat Shabnam tomonidan samimiyat bilan qabul qilinmay, nutq predmeti haqidagi "iltimos" nutqiy akti orqali inkor etib, fikrni oʻzgartirishga harakat qilinadi:

Qodir: – (Chuqur tin olib) Ha, soʻramagan eding, biroq ota-onang bir qishloqi, yalangoyoqning ortidan ergashib ketding, deb sendan yuz oʻgirmaganda men shunday qilarmidim.

Shabnam: – Men oʻshanda siz bilan dunyoni narigi burchagiga qush qoʻnmas, it oʻtmas, azob-u uqubatxonasiga boʻlsa ham ergashib ketishga rozi edim. Axir men sizni sevaman.

Qodir: – (Xotinining yoniga kelib o'tiradi.So'ng u ham bir nuqtaga tikiladi, bir oz jimlik cho'kadi) Tushun, yoshlikdagi hoy-u havaslar o'tdi, iltimos, hozircha meni tinch qo'y.

Qodir nutqiga xos kommunikativ niyat (illokutiv funksiya) “ayoli bilan birga ketmaslik sababini ayolining orzu-umidlari deya ko'rsatib, aybni o'z yelkasidan olib tashlashga” qaratilgan bo'lib, undan, ma'lum harakat, fikr va his-tuyg'ularni talab etishdan iboratdir. Biror ifodani ma'lum kommunikativ maqsad bilan ifodalash illokutiv akt sanaladi.

Lokutiv aktda, asosan, so'zlovchi nutqiga xos talaffuz akti e'tiborga olinadi, bayon qilinayotgan axborot nazarda tutilmaydi. Illokutiv akt matn yoki nutqda so'zlovchi ichki niyatining aks etishidir. Shu sababdan bu nutqiy akt kommunikativ niyat atamasi bilan ham ataladi. Perlokutiv akt tushunchasi so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatning natija mazmunini anglatadi.

Xususan, R.R.Gelgardt, I.V.Chernigovalar o'z tadqiqotlarida badiiy asarlar mutolaa etish bilan bog'liq to'siqlarning muloqot samaradorligiga putur yetkazishini ta'kidlaydi. I.V.Chernigova nashriyotlar tomonidan taqdim etiladigan so'zboshi matnlari asar mazmunining kitobxon tomonidan idrok etilishiga ko'maklashishini

[1] Дейк. Т.А. ван. А.Вопросы прагматики текста. В кн. // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1978. – Вып. VIII: Лингвистика текста. – С.302.

qayd etadi. Demak, badiiy matnlarda ortiqchalik vositalari ko'proq fikrni izohlash, kengroq ma'lumot berish uchun qo'llanadi.

ADABIYOTLAR

1. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысль. – М., 1976. – С.47.
2. Дейк. Т.А. ван. А.Вопросы прагматики текста. В кн. // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1978. – Вып. VIII: Лингвистика текста. – С.302.
3. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри.

...дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 49 б.

1. Киселова Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. – Л., 1978. – С.100-101.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б.63.
3. Звегинцев В.П. Предложение и его отношение к языку и речи. – М.: Изд-во Московского университета, 1976. – С.210.

COGNITIVE NATURE OF PRECEDENT NAMES IN THE ENGLISH LANGUAGE

ZEBOXON SAIBNAZAROVNA MALLAYEVA, NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

Abstract. The present paper explores the cognitive essence of precedent names in the English language, emphasizing their role as mental and cultural constructs that embody collective knowledge and experience. Drawing on cognitive linguistics and cultural semiotics, the study investigates how precedent names proper names associated with well-known historical, literary, or cultural figures and events function as cognitive models that facilitate conceptualization, communication, and cultural identity. The research highlights that these names transcend their denotative meaning, acquiring connotative and metaphorical potential within discourse. The findings suggest that precedent names serve as powerful cognitive tools in meaning-making processes, linking language, thought, and culture.

Keywords: precedent name, cognition, conceptualization, cultural memory, linguistic worldview, metaphorization.

Language is not only a means of communication but also a repository of cultural and cognitive experience. Within the framework of cognitive linguistics, proper names are increasingly viewed as conceptual and cultural phenomena rather than mere designations of individual entities. One of the most significant manifestations of this phenomenon is the precedent name a linguistic unit that evokes shared cultural and historical knowledge among members of a linguistic community.

The term *precedent name* was first introduced by Russian linguist Y.N. Karaulov (1986) to denote proper names that possess cultural and associative significance for speakers. In the English linguistic and cultural context, precedent

names such as *Romeo*, *Einstein*, *Sherlock Holmes*, or *Waterloo* activate rich networks of meaning that go far beyond their literal referents. This paper examines the cognitive mechanisms underlying the interpretation of such names and their role in constructing the linguistic picture of the world.

The study is grounded in cognitive linguistics, which views language as an integral part of human cognition and as a reflection of conceptual structures. From this perspective, precedent names represent conceptual symbols mental signs that encapsulate complex knowledge about a person, event, or phenomenon.

According to Lakoff and Johnson's (1980) *Conceptual Metaphor Theory*, linguistic expressions often derive from underlying conceptual mappings. Precedent names, too,

participate in metaphorical reasoning. For example, in the expression *"He is a real Romeo"*, the proper name *Romeo* is metaphorically mapped onto the conceptual domain of "romantic behavior," encoding culturally shared knowledge derived from Shakespeare's *Romeo and Juliet*. Thus, the name functions as a cognitive shorthand, condensing a culturally familiar narrative into a single lexical item.

Precedent names operate on two interrelated levels: cognitive and cultural.

1. Cognitive level. On this level, precedent names trigger mental schemas or frames—structured sets of knowledge that help interpret situations. For instance, the name *Einstein* activates a frame of "intellectual genius," while *Waterloo* evokes the idea of "ultimate defeat." These frames guide comprehension and inference, allowing interlocutors to process meaning efficiently.
2. Cultural level. Precedent names encode cultural memory. They are linked to archetypes, myths, and collective experiences, serving as symbolic carriers of a nation's values and worldview. When English speakers use names such as *Scrooge* or *Pandora*, they draw on culturally entrenched narratives from literature and mythology that shape shared cognitive space.

Through this duality, precedent names contribute to the linguistic picture of the world the culturally specific way in which speakers conceptualize reality through language.

The interpretation of precedent names involves several cognitive mechanisms:

- Metaphorization: As in *"He met his Waterloo"*, the proper name is reinterpreted metaphorically, signifying personal failure rather than a historical battle.
- Metonymy: In *"Washington decided to intervene"*, the capital city stands metonymically for the U.S. government.
- Categorization and schema activation: Precedent names activate conceptual categories that shape perception, e.g., *"Don Juan"* → category of "seducer."
- Inference and association: Listeners draw on encyclopedic knowledge to interpret meaning. Without such background knowledge, the pragmatic and emotional impact of the name would be lost.

These mechanisms demonstrate that understanding precedent names requires not only linguistic competence but also cultural and cognitive awareness.

In discourse, precedent names perform several pragmatic functions:

- 1. Evaluative function: *"He is no Einstein"* conveys evaluation through comparison.
  2. Expressive function: Names like *"Judas"* express strong emotional or moral judgment.

3. Economy of expression: A single name encapsulates extensive meaning, enhancing communicative efficiency.
4. Identity function: Use of culturally familiar names reinforces group identity and shared worldview.

Hence, precedent names serve as semiotic bridges between individual cognition and collective cultural consciousness.

In contemporary English, precedent names are actively used in political rhetoric, media, and advertising. For instance, political headlines such as *"Another Vietnam for the U.S."* or *"The new Cinderella story"* rely on shared cultural scripts to shape public interpretation. In digital communication, precedent names are adapted and recontextualized—*"Dr. Google"*, *"Grammar Nazi"*, or *"Captain Obvious"*—demonstrating linguistic creativity and the dynamic nature of cognitive cultural knowledge.

This flexibility reveals that precedent names are cognitively productive units capable of generating new meanings while maintaining their cultural core.

The cognitive nature of precedent names lies in their ability to integrate linguistic, cultural, and conceptual information. They act as mental symbols that mediate between individual and collective cognition, enabling speakers to encode and decode complex meanings through culturally loaded linguistic signs.

By studying precedent names, linguists gain insight into how language structures cultural memory and how thought is shaped by shared knowledge. In the English language, precedent names exemplify the interdependence of language and cognition, proving that proper names are not arbitrary labels but powerful cognitive tools that preserve and transmit culture across generations.

REFERENCES

1. Karaulov, Y.N. (1986). *Russkaya yazykovaya lichnost' i precedentnye yavleniya*. Moscow: Nauka.
2. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
3. Wierzbicka, A. (1997). *Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese*. New York: Oxford University Press.
4. Langacker, R. W. (1987). *Foundations of Cognitive Grammar, Vol. 1: Theoretical Prerequisites*. Stanford University Press.
5. Gibbs, R. W. (1999). *Intentions in the Experience of Meaning*. Cambridge: Cambridge University Press.

FUZULIY IJODIGA MUNOSABAT: AN'ANA VA IZDOSHLIK

ELBEK O'ROL O'G'LI RO'ZIYEV, NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI SURXONDARYO KAMPUSI

Umumiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va ozarbayjon adabiy aloqalari, Muhammad Fuzuliyning sharq adabiyotida tutgan o'rni hamda Fuzuliy ijodining o'zbek adabiyotshunosligiga ta'siri haqida fikr yuritilgan. O'zbek mumtoz adabiyoti ijodkorlarining Fuzuliy ijodiga izdoshlik jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'z: mumtoz adabiyot, sharq adabiyoti, Fuzuliy, adabiy aloqalar, izdoshlik

Annotation. This article discusses Uzbek and Azerbaijani literary relations, the role of Muhammad Fuzuli in Eastern literature, and the influence of Fuzuli's work on Uzbek literary studies. Aspects of followership to Fuzuli's work by creators of Uzbek classic literature are analyzed.

Key words: classical literature, oriental literature, Fuzuli, literary relations, followership.

Qadim Sharq adabiyotida dunyo tamadduniga buyuk hissa qo'shgan, o'z asarlari bilan o'chmas iz qoldirgan ijodkorlar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Mumtoz sharq adabiyotida forsiy til hukumron bo'lgan bir paytda, turkiy tilning g'oyatda katta imkoniyatini ko'rsatib bergan buyuk mutaffakir Alisher Navoiy bo'lsa, undan so'ng bu adabiyotni yuqori ko'targan, an'analarni munosib davom ettirgan ijodkor Muhammad Fuzuliydir. Muhammad Fuzuliy ijodi umumturkiy adabiyotning bugunga qadar keng sarhadlarda yoyilishiga hamda qadrli va ardoqli bo'lishiga asos bo'lgan ustunlardandir. Turkiy tilda so'zlashuvchi kimsa yo'qki, uning nomini bilmagan, g'azallarini o'qimagan bo'lsa. Turkiy g'azalchilikda Fuzuliyning o'z o'rni bor. Fuzuliy ozarbayjon tilida she'rlar yozish bilan bir qatorda fors, arab tillarida ham asarlar yaratgan. U she'riyatga shunchaki qaramaydi, u bilim asosida she'r yaratilishini ta'kidlab shunday deydi: "Ilmsiz she'r asosi yo'q devor kabi o'lur va asossiz devor g'oyatda bee'tibor o'lur" [Fuzuliy,1968:6]. Fuzuliy ayniqsa, she'riy janrlar ichida g'azal janriga alohida ahamiyat qaratdi:

G'azal bildirar shoirning qudratin, G'azal orturar noziming shuhratin. G'azal de, ki mashhuri davron o'la O'qumoqda, yozmoqda oson o'la.

Fuzuliy she'riyatining qariyib besh asr davomida sevib o'qilishiga sabab ham uning ilmga asoslanganligi va barcha misralarning qalb harorati bilan yo'g'rilganligidadir. Uning g'azallari xalq ko'ngli va tiliga yaqin bo'lgan. Shuning uchun g'azallari barcha kitobxonlar qalbidan birdek joy egallagan.

Fuzuliy ijodini o‘rganish, unga izdoshlik o‘z davridan boshlangan. Qator tazkiralarda shoir ijodi haqida ma’lumotlar berib o‘tiladi. Shunday tazkiralardan biri Sultonmuhammad Noyi Mutrubi Samarqandiy (1559-1629) tomonidan tuzilgan

“Tazkirat ush-shuaro” taskirasidir. Mutrubiy XVI-XVIII asrlardayoq o‘zbek kitobxonlari orasida munosib shuhrat topgan Muhammad Sulaymon o‘g‘li Fuzuliyning hayoti, badiiy mahorati haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tishi bilan bir qatorda quyidagi misralarni ilova qiladi:

Bulbuli dil gulshani ruxsoring aylar orzu,

To‘tiyi jon la’li shakkar boring aylar orzu [Abdullayev, 1980:12].

Fuzuliy ozarbayjon adabiyoti bilan bir qatorda o‘zbek, fors, arab, hind adabiyotini ham o‘rgangan va sevib o‘qigan. Sharq adabiyotining buyuk namoyondalari, xususan, o‘zbek adabiyotidan Lutfiy, Atoiy, Navoiy ijodini zo‘r qiziqish bilan o‘rgangan. Navoiyni o‘ziga ustoz bilgan. Shoir “Layli va Majnun” dostonida shunday yozadi:

Turk arabu ajamda ayyom,

Har shoira vermishidi bir kom… O‘lmush yedi, Navoiy suxandon Manzuri shahan shohi Xuroson.

Fuzuliy Navoiyni ustoz sifatida bilgani kabi keyingi davr o‘zbek mumtoz adabiyoti ijodkorlari asarlarida Fuzuliy ijodiga izdoshlik, uning g‘azallariga yozilgan ko‘pgina muxammas va tatabbularni uchratamiz. XVIII asrdan boshlab o‘zbek mumtoz adabiyotiga Fuzuliydek ta’sir ko‘rsatgan ijodkor juda kamdir. Fuzuliyning o‘zbek mumtoz adabiyotiga ta’siri sabablarini T.Jalolov quyidagi xususiyatlarni ko‘rsatish orqali izohlaydi:

1)Fuzuliy tilining o‘zbek tiliga yaqinligi; 2)Fuzuliyning xushlafz she’rzabonligi;

3)Fuzuliy asarlarining barkamolligi [Fuzuliy, 1959:8]. Nafaqat, ushbu jihatlarning mavjudligi shuningdek, ijodiy tafakkur hamda qadriyat, an’analarning ham uyg‘unligi bu adabiy rishtalarni yanada mustahkam bog‘lagan. Shu jihatdan, izdoshlikning ayrim ijodkorlar ijodidagi shakllarini keltirib o‘tsak. XVI-XVII asrlarda yashab ijod etgan Axsaniy, Vafoiy, XVIII asrda Ravnaq, Nishotiy, Kironiy, Munis, shuningdek keyingi davr ijodkorlari G‘oziy, Ogahiy, Turdi, Mashrab, Uvaysiy, Muqimiy, Shavqiy, Furqat kabilarning ijodida Fuzuliyga izdoshlik holatlarini kuzatishimiz mumkin. Umuman olganda, Fuzuliy ijodi o‘zbek adabiyotida mavjud uch adabiy muhit: Buxoro, Xiva, Qo‘qon muhitiga ham o‘zining beqiyos ta’sirini ko‘rsatgan. O‘zbek she’riyatining juda ko‘p atoqli arboblari Fuzuliyni ishqiy g‘azallar yaratishda hassos san’atkor deb bilib, unga nazira bitganlar, g‘azallariga muxammaslar bog‘laganlar. XVIII asrda yetishib chiqqan ijodkorlardan biri

Polvonquli Ravnaq ham Fuzuliy lirik merosidan ilhomlangan, ta'lim olgan. Jumladan, uning Fuzuliy she'rlariga o'xshash:

Kelki boshingg'a do'nub nozingga qurbon o'layin,

Chashma jodui fusunzoringa qurbon o'layin [Abdullayev, 1980:172] misralarida buni yaqqol sezishimiz mumkin. G'azalning ham shaklan, ham ma'no jihatdan Fuzuliyning

Ey kamonabro', shahidi novaki mujgoningam,

Bo'lmisham fayzi nazar sandan, saning qurboningam…[Fuzuliy, 2022:137] deb boshlanuvchi g'azaliga hamohangdir. XVIII asrda yashagan o'zbek

adabiyotining yirik vakillaridan yana biri, mashhur "Husnu Dil" dostonining muallifi Muhammadniyoz Nishotiy ijodida ham Fuzuliyga izdoshlik holatlarini uchratamiz. Uning she'riyati leksikasi Fuzuliy asarlari tiliga juda yaqindir. Buni bir tomondan o'g'uz shevasi ta'siri, ikkinchi tomondan Fuzuliy ijodidan ta'sirlanish sifatida baholash mumkin. Shuni takidlashimiz o'rinliki, Nishotiy nafaqat Fuzuliy, umuman, sharq mumtoz adabiyotining mohir bilimdoni bo'lgan.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Buxoroda yashab ijod etgan, ijodkorlardan Mullaqurbon Joniy ijodida ham Fuzuliyga izdoshlikni anglash mumkin. Joniy Navoiy va Fuzuliy g'azallariga naziralar bog'laganida, taxmislar to'qiganida nafaqat she'rning vazni, qofiyasi, turoqlanishi jihatidan balki ma'no jihatidan ham yaqinlashishga intilgan. Fuzuliy:

Joniming gavhari ul la'li guharbora fido,

Umriming hosili ul shevayi raftori fido… [Fuzuliy, 2022:23]deb yozsa, Joniy unga hamohang ravishda:

Zavqiming vori o'shal toji sazovora fido, Shavqiming shuhrasi boshing uza zar tora fido, Ko'ngluming mahzani gul orazi gulnora fido, Joniming javhari ul la'li guharbora fido,

Umriming hosili ul shevai raftora fido …[Joniy, 2013] deya ustozining bu oshiqona so'zlariga jo'rovoz bo'ladi.

Fuzuliydan ilhom olib ijod qilgan ijodkorlardan yana biri Muhammadsharif Shavqiy Kattaqo'rg'oniydir. Shavqiy (1785-1871) she'riyatda ulug' Navoiyga qanchalik e'tiqod qo'ygan bo'lsa, Fuzuliyga ham shunchalik hurmat bilan qaragan. Hatto g'azallarinigina emas, 1841-yilda Buxoroda tartib bergan "Devon"ini, "Debochai devon va g'azaliyoti Shavqiy" sarlavhali avtobigrafik masnaviysini ham ozarbayjonlik ustodning tili va uslubiga yaqin qilib yaratgan:

Hijratdin o‘tib ming ikki yuz yil Yo‘qdin bu jahona kelmisham, bil. O‘ttizg‘a kirganda sayr yetib roh,

“Xatmi kutub” aylamishman, ey shoh , Toliblara xizmat ayladim cho‘x

Uyqu bila rohat aylamak yo‘q. [1, b.105]

Buxoro adabiy muhitining yirik vakili Turdi Farog‘iy ijodida ham Fuzuliy ijodining barakali ta’siri sezish mumkin. Uning

Fitnayu sho‘rhama rub ila maskun dutdi,

Xo‘plar masnadini sulfa bila dun dutdi…kabi misralari bilan boshlanuvchi g‘azalida Fuzuliy poeziyasiga xos so‘zlar (dun, dutdi, ko‘nglimi kabi)ni uchratamiz. Bu kabi so‘zlar g‘azalning ohagdorligi va jozibasini ko‘rsatib berishga xizmat qilgan, albatta. O‘zbek adabiyotining buyuk shoirlaridan biri Boborahim Mashrab (1640-1711) ijodida ham Fuzuliyga yondosh jihatlarni ko‘rishimiz mumkin. Mashrab buyuk so‘fiy shoir bo‘lishi bilan bir qatorda sharq mumtoz adabiyotining chuqur bilimdoni ham bo‘lgan. Mashrabning:

Ne savdolar bosha solding, bu savdolar tuganmasmu,

Ki band yetting ayog‘larni yana bandlar yozilmasmu? [Mashrab, 2022:256] baytlari bilan boshlanuvchi g‘azalini o‘qiganimizda beixtiyor Fuzuliyning mashhur “O‘sonmazmu” radifli g‘azali esga tushadi. Bu ikki g‘azal ham ma’no, ham poetik jihatdan o‘zaro hamohangdir.

Bu kabi misollarni o‘zbek adabiyoti tarixidan ko‘plab keltirib o‘tishimiz mumkin. Xorazm adabiy muhiti ijodkorlari Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiylar ijodini kuzatamizmi yoki Qo‘qon adabiy muhitida ijod qilgan ijodkorlar Amiriy, Uvaysiy, Nodira, Madalixon ijodiga nazar tashlaymizmi Fuzuliga ohangdoshlik, izdoshlik holatlari yaqqol namoyon bo‘laveradi. Fuzuliyga izdoshlik keyingi davr o‘zbek ijodkorlari ijodida ham uchraydi. Jumladan, XX asrda o‘zbek g‘azalchiligida munosib asarlar yaratgan shoir Erkin Vohidov “Fuzuliy haykali qoshida” she’rida shunday yozadi:

Oshiqlar uxlaydi saharga tomon Fuzuliy devonin boshiga qo‘yib… G‘azal ham bo‘lurmi shuncha dilrabo, Bunchalar serishva, bunchalar sernoz. Mening shoirligim yolg‘ondir, ammo, Fuzuliy she’riga oshiqligim rost.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o‘zbek xalqi qardosh ozarbayjon farzandi Fuzuliy ijodiga zo‘r qiziqish va katta hurmat bilan qarab kelgan hamda bu an’ana bugun ham davom etmoqda. Qadimdan ota-bobolarimiz navoiyxonlik, fuzuliyxonlik kechalarini uyushtirishib tonggacha g‘azallar o‘qishgani ayni haqiqat. Buyuk shoir Erkin Vohidovning: “Bizning ota-bobolarimiz Fuzuliy baytlarini ibtidoiy maktabdan yod olib,

ko'ngilga jo qilganlar", - deyishiga sabab ham shundandir. Fuzuliy o'z asrlarining ta'sir kuchi va taqdiri haqida o'z devoni devonchasida shunday yozgandi: "…mening har bir so'zim bir pahlavondir, ular yurish boshlaganda yer-u suvni batamom bosib oladi. (She'rlarim) qayerga borsa, u yerdan mol-mulk talab qilmaydi, hech kimga ozor bermaydi. Zamonning o'tishi mening so'zlarimga zarar yetkazib, paymol qila olmaydi" [Fuzuliy, 2009:8]. Bu so'zlarning nechog'li to'g'ri ekanligini bugun hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Fuzuliy. Asarlar. Ikki jildlik. Devon. – Toshkent: 1968.
2. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. -Toshkent: O'qituvchi, 1980.
3. Fuzuliy. Devon. – Toshkent: 1959. Nashga tayyorlovchilar: T.Jalolov, M.Muinzoda.
4. Fuzuliy. G'amzasin sevding ko'ngil. – Toshkent: 2009. Tuzuvchi, izohlar muallifi E.Ochilov.
5. "O'zbek adabiyoti tarixi" 5 tom, -T.:1980.
6. Muhammad Fuzuliy. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. Turkiy adabiyot durdonalari 100 jildlik. 58-jild. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi Ergash Ochilov.
7. Mulla Qurbon Joniy. Fuzuliy g'azaliga muxammas. https://n.ziyouz.com

BOLALAR NUTQIDAGI MULTIMODALLIK KOMPONENTLARI

AZIZA AKMALOVNA DAVLATOVA, NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasi o'qituvchisi

Nutqni multimodallik yondashuvi jihatidan o'rganish 1960-yillardan boshlangan. Multimodallik deganda muloqot jarayonida faqat so'zlardan emas, balki boshqa semiotik tizimlardan (masalan, imo–ishora, yuz ifodasi, ovoz ohangi, tana harakati, rasm, tovush, hatto predmetlar bilan o'zaro aloqa) ham foydalanishni anglatadi. Bolalar nutqida multimodallik alohida ahamiyatga ega, chunki ularning til o'rganish jarayoni tabiatan **ko'pkanalli** (ya'ni bir nechta sezgi kanallariga tayangan) tarzda kechadi. Nutqiy multimodallik doim so'zlashuv aktida kombinatsionlikni tashkil etadi, bunda so'zlashayotganda tana xususan qo'l harakatlari, yuz ishoralarini misol sifatida keltirib o'tishimiz mumkin. Bolalar nutqida multimodallik alohida ahamiyatga ega, chunki bola tilni o'zlashtirish jarayonida nafaqat so'zlarni, balki **tana harakatlari, yuz ifodasi, ovoz ohangi va kontekstual belgilarni** ham faol qo'llaydi. Bu esa til o'rganishning tabiiy, sensor va ijtimoiy asosini tashkil etadi.

Multimodallik yondashuviga dastavval tilshunos olimlardan Gunter Kress, Teo Van Liven multimodallikni o'rganishga hissa qo'shgan va multimodal tahlilni tushunish va rivojlantirish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni o'zida jamlagan kitoblar yozishgan[1].

Shu asosda mazkur tushuncha dastlab G. Kress va T. van Leeuwen tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular multimodallikni zamonaviy kommunikatsiyaning asosiy belgisi sifatida talqin qilganlar[2, 1-45]. Bolalar nutqini multimodallik asosida tadqiq etish bolalar nutqining bosqichma-bosqich davrlarda tadqiq etishni, bolalar nutqidagi nutqiy kamchiliklarni oldini olish hamda bartaraf etishda yordam beradi. Bu esa bolalar nutqi sohasida tadqiqot olib borish ahamiyati oshiradi hamda bugungi kunda diqqat markazida ekanligini ko‘rsatadi. Bunda bola tabiati multimodallik asosida shakllanib, nutqiy jihatni ham o‘zida birlashtirib boradi. Bunda bola dunyo haqidagi dastlabki kognitiv bilimlarini oshirib, bosqichma-bosqichlik asosida nutqida kombinatsionlikni tarkib rivojlantiradi.

Bolalar nutqida multimodal komponentlarga Leksik, grammatik, fonetik belgilar(manna – menga, tuyosh tulli – quyosh kuldi, man bora dok – men bormayman); Yuz ifodasi, ko‘z qarashi, mimika (Quvonch, ajablanish, xarxashalik); Qo‘l, tana harakatlari (Ko‘rsatish, siltash yoki urish, quchoqlash, qo‘l silkish); Ovoz ohangi (Yumshoqlik yoki buyruqlilik ohangidagi so‘zlar mama, nana, beeey, ola, va h.k); Masofa (Yaqin turish quchoqlash, silash— samimiyat, mamnunlik, uzoqlashish — norozilik, g‘azab) kabilarni keltirib o‘tishimiz mumkin.

S. Norris ta’kidlaganidek, multimodal muloqotda “**biror ma’no yagona kanal orqali emas, balki bir vaqtning o‘zida turli modallarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi**”. Multimodal ifoda usullari milliy madaniyat bilan chambarchas bog‘liqligini o‘zbek bolalari muloqotda **hurmat, uyat va ijtimoiy me’yorlarni** aks ettiruvchi tana harakatlari (bosh egish, qo‘lini ko‘ksi(qorni)ga qo‘yish) orqali fikrini bildirishini [3, 55-102] tadqiqotchi S.Hasanov o‘rgangan.

Bolalar muloqot bosqichlarini bosqichlarga ajratganda dastlabgi 6 oy bola tovush orqali emotsional muloqotga kirishadi. Yig‘lash, kulish, xirillash kabi tovushlar bolaning ichki holati va tashqi ta’sirga reaksiyasi sifatida paydo bo‘ladi. Bu vaqtda bola ona tilining ritmik va melodik xususiyatlariga moslashadi; ohangning baland pasligiga ko‘ra munosabat bildiradi kuladi yoki yig‘laydi va eshitish orqali nutqni akustik modellashtirishni boshlaydi. Bu borada *Halliday* bu bosqichni “protosemiotika” deb ataydi, ya’ni ma’nosiz tovushlar keyinchalik ijtimoiy ma’noga ega bo‘lishga tayyorlanadi[4, 256].

6 oydan 12 oygacha davrda bola ko‘z orqali muloqotga faol kirishadi. Ko‘z qarashi va yuz ifodasi ushbu davrda bolaning asosiy kommunikativ niyatini, munosabatini bildiradi. Ayniqsa, onaning yuz ifodasi esa bolaning emosional javobini shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Bolaning onasiga qarab kulishi (pozitiv javob sifatida)esa fikrimizga misoldir. Shuningdek, bola onasi va eng yaqin oila a’zolarini bu davrda taniydi, begonalarni farqlashni boshlaydi. *Trevarthen* bu jarayonni “intersubjectivity” deb ataydi — ya’ni ikki subyekt (ona va bola) o‘rtasida ko‘rish orqali hissiy sinxronlik yuzaga keladi[5, 316-342].

Bolalar 1-2 yosh oraligʻida muloqotda predmetlarga yoki harakatlarga ishora qilishni boshlaydi. Bu imo–ishoralar soʻzdan avvalgi til sifatida qaraladi. Masalan: bola qoʻlini choʻzishi “ber”, “koʻtar” maʼnosida; bosh chayqash “yoʻq”; qoʻl siltash “xayr” yoki “norozilik”, “hayrat” maʼnosida. Bu davrni ontolingvist olimlar “performativ imo–ishoralar” deb ataydi yaʼni bola harakat orqali ijtimoiy maʼno hosil qiladi[6, 205-226].

Nihoyat Verbal bosqichi (soʻz orqali muloqotga kirishish) - bu bosqichda bolalar 2–3 yoshda boʻladi va baʼzan verbal bosqichga bolalar individual jihatdan 1 yarim yoshdan oʻtadilar. Bola soʻzlardan foydalana boshlaydi, ammo ularni koʻpincha imo–ishora bilan birgalikda bu soʻzlarni ishlatadilar. Masalan, “menga ber” deganda qoʻlini uzatadi va “bey”, “be”, “manna”, “ma” tarzida soʻzlarni talaffuz qiladilar. Bu multimodal uygʻunlik semantik mustahkamlovchi mexanizm vazifasini bajaradi. *Vygotsky* taʼkidlaganidek, “soʻz — bu harakatning ichki rejasidir”, yaʼni harakat va nutq bir-biridan ajralmasdir[7, 45-88].

Proksemik komponent — bu masofaning joylashuvi orqali aloqadagi mazmunini bildiradi. 3–5 yoshli bolalar endilikda muloqotda ijtimoiy pozitsiyalarini ifodalaydi. Bola muloqot paytida masofaning joylashuvini anglay boshlaydi: kimga yaqin turish, kimdan uzoqlashish kerakligini qanday mazmun va munosabat ifodalashini biladi. Soʻzlovchiga masofa jihatidan yaqin turish ishonch, samimiyat, mamnunlik, doʻstlik mazmuni; Uzoqlashish bu begonalik, norozilikni ifodalaydi. *Edward Hall* bu holatni “proksemika” deb atab, uni madaniyatga xos fazoviy yoki masofaviy belgi tizimi sifatida izohlaydi[8, 77-99].

4–6 yoshda bolalar nutqida predmetli va kontekstual aloqa dominantlik qiladi. Bu bosqichda bola atrofdagi narsalar yordamida maʼno anglaydi va yaratadi. Bu davrda oʻyin multimodal muloqotning markaziga aylanadi. Masalan: oʻyinchoq telefon orqali “gaplashishi”; shprits yordamida “kasal” va “doktor” rolini oʻynash fikrimizga misol boʻladi. *Norris* bu jarayonni “multimodal meaning-

making”(multimodal maʼno yaratuvchi davr) [9, 56-84] deb ataydi — bola predmetlar orqali tilsiz semantik struktura yaratadi deya izohlaydi – u.

Oxirgi bosqichda bola oʻzi mustaqil tarzda kompleks muloqot jarayonini amalga oshiradi. Bu bosqich 6–7 yosh va undan keyingi davrni tashkil etadi. Bu bosqichda bola soʻz, harakat, ohang, mimika va masofaviy ifodani birgalikda ishlatadi. Hikoya qilish, dramatizatsiya yoki suhbat jarayonida multimodal vositalar uygʻun tizim sifatida muloqotda namoyon boʻladi. Ushbu bosqich bolaning nutqiy kompetensiyasi va ijtimoiy-intellektual darajasini koʻrsatadi. *Kress & van Leeuwen (2001)* fikricha, multimodal muloqotning maʼnosi tildan tashqari belgilar orqali ham yaratiladi, shuning uchun bola “faqat soʻz bilan emas, balki tanasi bilan ham gapiradi”[10, 1-45].

Keltirilgan ushbu bosqichlar bola nutqida multi modellik bosqichma-bosqich shakllanishi va uning tarkib topishidagi komponentlarni izohlaydi.

Multimodal nutqning oʻziga xos ahamiyati:

- til oʻrganish jarayonini tezlashtiradi;
- ijtimoiy muloqot malakasini oshiradi;
- bolaning emotsional intellektini rivojlantiradi;
- madaniy bilimlarni oʻzlashtirishga samarali yordam beradi;
- nutq va tafakkur oʻrtasidagi bogʻliqlikni rivojlantiradi.

Bolalar nutqidagi multimodallik — bu soʻz, harakat, mimika, ovoz va kontekst uygʻunligi orqali amalga oshadigan tabiiy kommunikativ jarayondir. U bolaning tilni oʻzlashtirish, muloqotga kirishish va madaniy qadriyatlarni anglashida asosiy rol oʻynaydi. Shu sababli multimodal yondashuv bolalar nutqini oʻrganishda zamonaviy tilshunoslikning muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. https://www.studysmarter.co.uk/explanations/english/key-concepts-in-language-and-linguistics/multimodality/ 28/04/2022
2. Kress, G., & van Leeuwen, T. (2001). *Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication*. London: Arnold. – P. 1-45. August 13, 2012
3. Hasanov, S. (2022). *Til va multimodallik: lingvokulturologik yondashuv*. Toshkent: Fan. – B.55-102.
4. Halliday, M. A. K. (1978). *Language as Social Semiotic*. London: Edward Arnold.

— P. 256.

1. Trevarthen, C. (1980). *The Foundations of Intersubjectivity*. In D. Olson (Ed.), *The Social Foundations of Language and Thought*. New York: Norton. — P. 316–342.
2. Bates, E., Camaioni, L., & Volterra, V. (1979). *The Acquisition of Performatives Prior to Speech*. *Merrill-Palmer Quarterly*, 25(3), 205–226.
3. Vygotsky, L. S. (1986). *Thought and Language*. Cambridge, MA: MIT Press. —

P. 45–88.

1. Hall, E. T. (1966). *The Hidden Dimension*. Garden City, NY: Doubleday. — pp. 77–99.

2. Norris, S. (2004). *Analyzing Multimodal Interaction: A Methodological Framework*. London: Routledge. — pp. 56–84.
3. Kress, G., & van Leeuwen, T. (2001). *Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication*. London: Arnold. — pp. 1–45.

SURXONDARYO DIALEKTAL MAQOLLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR

O'rolbek Jo'rayevich SAIDOV,

Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo kampusi Umumiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Nilufar QAHHOROVA,

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Surxondaryo hududida qo'llaniluvchi ba'zi dialektal maqollarning ma'no xususiyatlari ochiqlangan hamda ularning adabiy tilda qo'llanuvchi shakllari bilan qiyoslangan. Maqollarning tilshunoslikdagi o'rni ularning dialektal ma'nolari borasida mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, Jarqo'rg'on tumani aholisi nutqida faol qo'llaniladigan maqollar hamda iboralar maqolaga asos sifatida tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: xalq maqollari, semantik ma'no, ibora, dialektal leksika.

Maqollar xalq ma'naviy tafakkurining o'lmas namunasi sifatida, xalqning qadim tarixi, xo'jalik hayoti hamda ma'naviyati, olamni badiiy idrok etganligini ifodalovchi birliklar hisoblanadi. Shu tufayli u hanuz adabiyotshunoslik, tilshunoslikning asosiy obyekti bo'lib kelmoqda. Borliqdagi va tilimizdagi har bir hodisa kabi maqollar ham serqirra bo'lib, o'zining xususiyatlari bilan tilimizdagi turli birliklarga goh yaqinlashib, gohida ulardan uzoqlashib, alohidalikni tashkil etadi. Mana shuning uchun ham ular tilimizda va fanimizda o'ziga xos hodisa sifatida ajratiladi, maqol deb xususiy nom oladi [1; -B.17]. Maqollarni lingvistik jihatdan tadqiq etishda B.Jo'rayeva, P.Bakirov, I.Mirzaaliyev, M.Hamidov kabi filolog olimlarimizning xizmatlari benihoya kattadir [1,2,3,5]. Ushbu tadqiqotlarda maqollarning paremiologik birlik sifatida xususiyatlari hamda o'ziga xos jihatlari yoritib o'tilgan. Paremiologik birliklarning tarkibiy qismi ham o'ziga xosdir. Paremiologik birliklardan qofiya ko'proq ikki qismli maqollar tarkibida bo'ladi. Unga yondosh vosita takrorlardir. Ikki va undan ortiq qismli maqollarda ko'pincha tugallanayotgan qismda keladi: Adashmagan til, toyrilmagan tuyoq bo'lmas yoki oldingi qofiyalar bilan birga kelib, oxirida takror so'z qo'llanmaydi. Ijlajbersäŋ ultān bolär, siylajbersäŋ sultān. Ba'zi maqollar qurilmasida takrorlarning har ikkisi ham qatnashadi. Bunda takror ma'no kuchaytirish, ta'kidlash yoki yangi polisemantik tasvirni ifodalashga

xizmat qiladi: ki:ji:zni qāqï:lasäŋ čaŋ čï:γadi, (1) – oʻz maʼnoda; Keli:nni čuqï:lasaŋ gāp čï:γadi (2) – koʻchma maʼnosida [3; -B. 26].

Dialektal leksikada ham maqollar oʻziga xos tarzda oʻringa ega hisoblanadi. Chunki, aynan shu hududning oʻziga xos tarzdagi barqaror birikmalari maqollarda yuzaga chiqadi. Shu jihatdan, Surxondaryo hududida ham qoʻllanuvchi ayrim maqollar borki, bular faqat voha madaniy hayotiga mosdir. Mazkur maqol va

iboralarga alohida-alohida ahamiyat qaratilib, shevada hamda adabiy tilda taqqoslanib, har biriga oʻxshash va farqli jihatlariga ahamiyat qaratish ham gʻoyatda muhimdir.

Mazkur maqola Surxondaryo viloyati Jarqoʻrgʻon tumani shevalari asosida yaratilgan boʻlib, unda yillar davomida xalq oʻrtasida ogʻizdan-ogʻizga oʻtib, kelayotgan bir qancha maqollarning shevada aytilishi, hamda uning izohi adabiy tildagi talqinini koʻrib chiqamiz. Datlab hududning oʻsha mashhur iborasini esga olaylik “Jarqörğonnï jölida jetitä jïlon jolpäyib jotipti” iborasiga ahamiyat qaratsak. Bu iborada j harfi faol qatnashgan adabiy tilga oʻgiradigan boʻlsak Jarqoʻrgʻonning yoʻlida yettida ilon yalpayib yotibdi yaʼni bemalol bamaylixotir maʼnosida kelyapti. Yana shunday maqollardan biri chorvadorlar nutqida qoʻllanuvchi “Molli köŋling joriqda, molsiz köŋling xoriqdä” maqolidir. Maʼlumki, Surxon qoʻngʻirot urugʻlari chorvachilik bilan shugʻullanishgan. Shu jihatda “hayvon” leksemali maqollar nutqiy muloqotda faol qoʻllaniladi. Yuqoridagi maqolning maʼnosi ham moling, boyliging bor boʻlsa, koʻngling yorugʻ (jorïq), agar moling bor boʻlsa horiqmay-zoriqmay yashaysan birovga muhtojlik sezmaysan maʼnosida kelyapti. Chorvachilik bilan bogʻliq yana bir maqol “Qöradan čiqsayam, qozondan čiqmasin” maqoli. Mazkur maqol molingni shalpayganini koʻrdingmi, yashamasligiga shubha qilyapsan uni soʻy qozoningda pishsin bola-chaqang bilan yeysan maʼnosida kelyapti. Shevada faol qoʻllangan maqollardan yana biri “Bölärmonniŋ bolasi olti yoshda boş bölur, bömosmonning bolasi 60 yoshda yoş bölur”. Maʼnosi boʻladigan bola boshidan maʼlum bir ishni boshini tutgan, boʻlmaydiganni bolasi 60 yoshda ham yosh boʻlib biror nimani uddasidan chiqolmaydi. “Kelinning oyoğidan čöponniŋ täyoğidan” maqolida kelin kelgan uyga qut-baraka kelsa, kelinning qadami qutlugʻ kelsa, qoʻrasi toʻla qoʻy boʻladi, kelinning qadami qutlugʻ kelishi maʼnosida ifodalanayapdi, xudduki, choʻponga tayogʻi orqali baraka kirgani kabi.

“Elasaŋ ulton bölür, silaŋ sulton bölür” maqola ham dialektal maqol hisoblanib, yaxshi gap bilan, yaxshi amallar bilan har narsani izga solish mumkinligini ifodalab beradi. “Elamoq” feʼli bu yerda yaxshilab ishlov berish maʼnosida qoʻllanilib, terini ishlov qilishni nazarda tutadi. “Ulton” soʻzi esa sof qadimiy turkiy soʻz hisoblanib, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da “ulton” soʻzi “qoramol terisidan tayyorlangan, pishiq, qalin charm, tagcharm” maʼnosini ifodalagan. Yaʼni qayta-qayta ishlov berilsa teriga u ulton boʻladi, yosh bolaga ham yaxshi muomala qilsang u sulton boʻladi, degan maʼno mazkur

maqolda ochiqlangan. Shuningdek, xalqimizda qoʻllanuvchi “Yaxshi usta terini ulton qilur, yaxshi xotin erini sulton qilur” maqola ham shu maqolga mutanosib tarzda qoʻllaniladi.

Surxondaryo dialektal maqollari, ularning xususiyatlari masalasi tilshunos olimlar A. Omonturdiyev va B.Rahmonov tomonidan tuzilgan “Surxondaryo dialektal-etnografik maqollarining izohli lugʻati”da Surxondaryo vohasining oʻziga xos dialektal etnografik maqollari hududiy jihatdan jamlangan hamda ma’nosi, koʻchimlari izohlab chiqilgan. Chunonchi, mazkur lugʻatda ham Jarqoʻrgʻon tuman shevalarida uchrovchi bir qancha maqollar ham keltirilgan. “Eshak minganning oyogʻi tinmas, Koʻp xotinlining qulogʻi ”, “Ovul oymogʻi bilan, Boʻta toylogʻi bilan”, “Ogʻamda boʻlsa, yalayman, Oyamda (begonada) boʻlsa tilayman” [4; -B.

44-47] kabi maqollar lugʻatga kiritilgan boʻlib oʻzining sof dialektal ekanligi bilan ajralib turadi.

Umuman olganda maqollar xalq donoligi hamda hayotining ajralmas qismi sifatida, ogʻzaki ijod durdonasi boʻlib, asrdan asrlar oʻtib kelmoqda. Zero, maqollarning xalq hayoti bilan chambarchas bogʻliqligi ularning milliy oʻziga xosligini, ayni paytda, umumbashariy xarakterini belgilab beradi. Bu ikki jihat qadimgi turk xalq maqollarining tematikasida, voqelikni aks ettirish tarzida, badiiy-tasviriy vositalarida va nihoyat, tilda oʻz ifodasini topgan [5]. Zotan avlodlar almashinuvida til va madaniyat, tafakkur tarzi tamoyillarini yoritishda shevalarning ajralmas oʻrni mavjud. Ayniqsa oʻzbek leksikasi shevasi bilan paremalarni ham leksikografik jihatdan tadqiq etish nafaqat oʻzbek dialektologiyasi, balki amaliy leksikografiya, korpus lingvistikasi uchun ham gʻoyat muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2002. – 136 б. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол.фан. док. … дисс. автореф. – Самарқанд, 2019;
2. Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис док. филол.

наук. – Тошкент, 2007. – 286 с.

1. Xamidov M.A. Oʻzbek tili janubiy Surxondaryo oʻzbek shevalari barqaror birikmalarining lingvistik xususiyatlari: Filol.fan.boʻyicha fal.dok (Phd). … avtoref.– Toshkent, 2023.
2. A.Omonturdiyev, B.Rahmonov. Surxondaryo dialektal-etnografik maqollarining izohli lugʻati. -Toshkent: Ilm-ziyo Zakovat, 2019.

3. Mirzaaliyev I. M. Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi («Devonu lug'ati-t-turk» materiali misolida): Filol.fan.bo'yicha fal.dok (Phd). … avtoref.–Toshkent, 2020.

СЛОЖНОСОКРАЩЁННЫЕ СЛОВА КАК СРЕДСТВО ЯЗЫКОВОЙ ЭКОНОМИИ

БАХТИГУЛ ПАЙЗИЛЛОЕВНА РАХМОНОВА, ПРЕПОДАВАТЕЛЬ КАФЕДРЫ ФИЛОЛОГИИ

и обучения языкам Навоийского университета Инноваций

Введение. Принцип экономии - фундаментальная закономерность языка (Zipf, Martinet): коммуникативные системы минимизируют затраты при сохранении информативности. В русском языке одной из самых мощных реализаций этого принципа стала аббревиация: инициальные сокращения (*ООН, МИД, СМИ*), слоговые (*колхоз, вуз*), усечения и телескопии (*аэрофлот*, *роснано*, *финграмотность → финграм* в разговоре) [1, с. 11–19; 2, с. 5–12].

Типология сложносокращённых единиц. — Инициальные аббревиатуры (буквенные, звуковые): *СНГ, МГИМО, НАТО*; фонетически — либо послоговое чтение (*МИД*), либо буквенное (*СМИ*) [1, с. 41–52].

— **Слоговые и смешанные**: *колхоз, совхоз, Росфинмониторинг → Росфинмониторинг/Росфинмон* [2, с. 33–39]. — **Телескопии (blends)**: *биоинформатика, инфобез*; **усечения**: *универ, лаба, дистант*.

• **Графосемантические образования** (цифро-буквенные, дефисные):

5G-сеть, COVID-сертификат.

Грамматическая интеграция. Аббревиатуры подчиняются законам русской грамматики: — **Род и число.** *МИД* (м.р.), *ООН* (ж.р., как *организация*), *СМИ* (мн. ч. tantum) [1, с. 73–78].

- ◦ **Склонение.** Склоняются читаемые по звукам (*МИД — МИДа — МИДу*), как правило не склоняются буквенные (*СМИ, МЧС*), но возможны разговорные формы (*в Эрэфии* в просторечии) — важны стилистические пометы [2, с. 61–66]. — **Словообразовательная продуктивность.** Вторичные дериваты: *вузовский, гэсовский, мидовский, сммщик* — показатель включённости аббревиатур в морфологическую систему [1, с. 119–128].

Дискурсивные и когнитивные эффекты. — Экономия речевых усилий и темпа. Сокращение «материальной оболочки» знака ускоряет производство и восприятие речи при сохранении денотативного ядра [3, с. 187–194].

- ◦ **Стилистическая маркированность.** Аббревиатуры сигнализируют принадлежность к профессиональному сообществу (медицина: *КТ, МРТ*; IT: *CI/CD, API*), повышая когнитивную экономию «внутри цеха» и потенциально снижая понятность «вне цеха».
  ◦ **Амбигуизация и разрешение омонимии.** *ГИС* (геоинформационная система / государственная информационная система) требует контекстной дезамбигуации; нормы рекомендуют первое упоминание давать развернуто, далее — сокращенно [4, с. 214–219].

Нормативные аспекты и орфография.

Справочники (Розенталь) и «Русская грамматика 80» регламентируют:

- ◦ **написание прописными/строчными (ООН, СПИД, лазер),**
  ◦ **дефисные модели (COVID паспорт, ИТ отдел),**
  ◦ **кавычки при первом упоминании собственных аббревиатур,**
  ◦ **предпочтение полного наименования при первом появлении в официально деловом стиле [4, с. 226–235; 5, с. 512–519].**

Корпусные наблюдения (набросок). Увеличение частоты аббревиатур в новостном и деловом корпусах последних десятилетий коррелирует со взрывным ростом терминологии в науке, госуправлении и цифровой экономике; параллельно растёт число разговорных усечений в социальных сетях (эффект медиа-платформ и ограничений интерфейса) [2, с. 141–149].

Заключение. Сложносокращённые слова — не «ярлык», а адаптивный механизм языка, позволяющий оптимизировать плотность информации. Их

типология, грамматическая интеграция и стилистические свойства делают аббревиацию одной из ведущих тенденций современного словообразования; грамотное нормирование снижает риски непонимания и усиливает коммуникативную эффективность.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Земская Е.А. Русское словообразование: Учеб. пособие. М.: Флинта–Наука, 2010.

2. Крысин Л.П. Русское словообразование и современная лексика. М.: Языки славянской культуры, 2004.
3. Martinet A. Économie des changements phonétiques. Bern: Francke, 1955.
4. Розенталь Д.Э., Голуб И.Б., Теленкова М.А. Справочник по русскому языку: Правописание и стилистика. М.: Айрис-Пресс, 2019.
5. Русская грамматика. Т. 1–2. М.: Наука, 1980.

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ СТРУКТУРА И СЕМАНТИКА

ИНФИНИТИВНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ ОПТАТИВНОГО ХАРАКТЕРА В СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ РЕЧИ

Шохимордон Нуралиевич МОРДАЕВ,

преподаватель русского языка Сурхандарьинского кампуса Навоийского университета инноваций, аспирант АлтГУ НАЙН Александр Альбертович,

доктор педагогических наук, профессор, заведующий

кафедрой педагогики ФГБОУ ВО «УралГУФК», г. Челябинск.

Аннотация. В статье анализируются наиболее часто встречающиеся в русском языке оптативные типы инфинитивных предложений. Знание таких синтаксических структур необходимо не только для их понимания, но и для активного продуцирования в собственной речи. В качестве примеров приводятся инфинитивные предложения, извлеченные из художественных текстов, синтаксис которых отражает стихию разговорной речи, что особенно важно для занятий в иноязычной аудитории.

Ключевые слова: независимый инфинитив, языковой эквивалент, дательный субъекта, оттенок ирреальности.

К синтаксическим структурам, изучение которых вызывает наибольшие трудности у учащихся и студентов национальных групп, несомненно, можно отнести конструкции с независимым инфинитивом, так как в родном языке не всегда есть языковой эквивалент таким предложениям, а значит передать их содержание с помощью прямого пословного перевода не представляется возможным. Между тем, инфинитивные предложения очень характерны для русского языка в силу их особой эмоциональности и многообразия выражаемых ими модальных оценок. **Оптативные инфинитивные предложения** выражают устремлённость говорящего, чтобы стало реальным

какое-нибудь желательное состояние его самого или другого лица, чтобы совершилось или не совершилось какое-нибудь действие. Частные значения желательности многочисленны. Различают, например, собственное желание, то есть, желание без дополнительных оттенков, например: *Чаю бы выпить сейчас*. (М. Булгаков. Иван Васильевич, с. 293), *Мне бы военным служить* (Ф. М. Достоевский. Преступление и наказание, с.169); желание-просьбу, например: Сходить бы тебе к врачу; желание-утверждение, например: *Тебе бы в уголовном розыске служить*! (М. Булгаков. Иван Васильевич, с. 321).

«Предложения с формально выраженным значением желательности могут нести в себе частные значения желательности и способы их выражения. Соответственно с тем или иным значением организуются и ряды частиц. Так, в «Русской грамматике» выделяются следующие частные значения оптативных инфинитивных предложений: 1) **желаемость осуществимого**:

«Умереть бы!» - мелькало в его голове, а через мгновение то же слово сменялось другим: «Пожить бы!»; 2) **желаемость целесообразного:** Он молодой. Ему бы сеять пшеницу – плоть родной земли. Ему б вести по Енисею Серебряные корабли; 3) **желаемость единственного и необходимого:** Только б мне с тобою не расстаться. Остальное всё равно (Ахм.); 4) **нетерпеливого желания**: Поскорей бы вернуться домой!; 5) **Опасение (желаемость неосуществляемого**): Ну что бы ставни им отнять!; 6) **желаемость неосуществимого:** Ах, если бы всё это забыть. Вот бы мне начать теперь сначала, С плеч десятилетия стряхнув.

Оптативные инфинитивные предложения чаще всего встречаются в диалогической речи.

В современном русском языке существует две модели оптативных инфинитивных предложений: а) без дательного субъекта и б) с дательным субъекта: О, если бы не существовать! (Чехов. Три сестры, с.337). Мамаша, что бы такое особенное выкинуть (Чехов. Иванов, с.47):

«Откупиться бы ярким золотом, только раз, только раз вздохнуть! Приподняться бы над подушками, снова видеть широкий пруд» (Ахматова. Стихотворения разных лет, с. 19), Долго ли мне биться в огне, дальнего тайно кляня?.. (Анна Ахматова. Стихотворения разных лет, с.9), Пусть дороги гладки, - Мне не к кому идти! (Анна Ахматова. Стихотворения разных лет, с.26).

В отличие от оптативных предложений без дательного субъекта, конструкции с дательным субъектом выражают наличие у дательного субъекта некоторого желания: Тебе бы все душить да резать (Пушкин. Капитанская дочка, с.298). Вам

лишь бы план вовремя выполнить, а там хоть травушка не расти (Шолохов. Поднятая целина, с.420).

«Особенностью данных предложений, близких по семантике с предикатами *хочется, желательно*, в которых дательный субъекта получает функцию субъекта-носителя желания, является то, что они имеют коннотацию отрицательного отношения к называемому желанию, а поэтому дательный субъекта в них не выражается местоимением мне [1, с.241].

Вне этой оппозиции, пишет далее В.М. Брицын, в предложениях с дательным субъекта оппозиция значений целесообразности и конкретного желания менее отчетлива. Особенно слабо они противопоставлены в случаях первого лица дательного субъекта, однако и здесь можно наблюдать большую частотность значения желания при употреблении инфинитивов совершенного вида, выражающих результат действий и процессов, по сравнению со случаями, когда используется инфинитив несовершенного вида, которые обычно имеют процессуальное значение:

Кого бы мне из людей взять (Шолохов. Поднятая целина, с. 75).

В предложениях этого типа выражается сильное стремление говорящего осуществить определенное действие, которое часто осознается как невозможное или трудно осуществимое, как отмечает Г.А. Золотова, "при сопротивлении каких-то обстоятельств" . Эту сторону семантики оптативных предложений выражает наличие в них частицы *БЫ*, подчеркивающей оттенок ирреальности. Только бы вырваться мне от вас (Д. Мамин-Сибиряк, с. 53);

Широкое функционирование оптативных инфинитивных предложений является характерной особенностью русского языка.

Оптативные инфинитивные предложения констатируют желательность – нежелательность действия и употребляются в утвердительных и отрицательных предложениях. Они употребляются при выражении желания говорящего сделать что-либо или его желание, чтобы кто-то другой совершил определенное действие. По сути дела, желание так же наслаивается на необходимость совершения действия, как и приказ, повеление, причем, субъектом может быть и сам говорящий, и кто-либо другой. Выделяется это значение отдельно, поскольку оно имеет свои структурные особенности по сравнению с выражением просто необходимости. **Почти постоянной грамматической приметой** этих предложений является частица **«бы»:** Дядюшка, как **бы мне пообедать**… (Чехов. Палата № 6, с. 168)…..**Хоть бы** в конце жизни нам **не прятаться, не лгать** (Чехов. Чайка, с. 243). Благодаря сообщаемому этой частицей значению предположительности, многие из инфинитивных конструкций, выражающих желательность, имеют в то же

время семантический оттенок несбыточности или, по крайней мере, трудноисполнимости желаемого: О, если бы не существовать (Чехов, с. 337). Улететь бы вольною птицей от всех вас, от ваших сонных физиономий, от разговоров, забыть, что все вы существуете на свете…

(Чехов, Чайка, с.290).

В силу того же значения предположительности подобные предложения часто сближаются с вопросительными инфинитивными конструкциями: Как бы мне пообедать? (Чехов. Палата № 6, 165). Дядюшка, как бы мне пообедать… (Чехов. Палата № 6, 168). Куда бы мне его послать? (Толстой. Война и мир, 694).

В качестве модифицирующих средств, выражающих оптативную модальность, выступают частицы. Часто **частица бы** выступает в составе

сложных частиц хоть бы, если бы, только бы, лишь бы, вот бы, чтоб (чтобы), как бы не, не… бы, скорей бы (поскорей бы), лучше бы; во многих случаях нормально взаимозамещение частиц, а также их контаминация: если бы только, скорей бы только; что, если бы:

Оба они как будто долго бежали, утомились, все на них смеялось, вытерлось, и ничего им не нужно, **только бы лечь да отдохнуть** (Горький. Детство, с.149). **Хоть умереть бы**, что ли, такая вся тоска… (Горький. Детство, с.182). **Поступить бы ему** на службу, что ли… (Чехов. Чайка, с. 250). **Ты гляди, не помереть бы мне!** (Горький. Детство, с.53). **Забиться бы** куда-нибудь, залезть в какую-нибудь щель тараканом… (Замятин. Повести и рассказы, с.40).

Специфические частицы желательности *вот бы, хоть бы, лишь бы*

снимают возможность таких взаимозамен.

Значение желания может осложняться оттенком неуверенности в целесообразности совершения действия или в положительной реакции собеседника: А где же мясо-то? Ужинать бы; С дорожки подойти бы… (Л. Толстой). Кого ещё ждем? Начинать бы…

При выражении нежелания делать что-либо выступают глаголы несовершенного вида, причем, если это нежелание обращено в прошлое, то оно осознается как сожаление, что уже произошло нечто нежелательное:

Не опаздывать бы мне!= (Мне бы не опоздать)

Не писать бы мне этого письма.= (Мне бы не писать этого письма)

На значение «желаемости неосуществления» может «наслаиваться» такой семантический оттенок, как «опасение, боязнь» говорящего, что нечто нежелательное все же произойдет. При этом в инфинитиве обычно выступают глаголы непроизвольного действия – оно может произойти независимо от воли субъекта (опоздать, перепутать, разбить, потерять, забыть, споткнуться, простудиться, проговориться и т.п.). При этом частица **бы** часто употребляется в сочетании с **как:**

Не опоздать бы мне! = Как бы мне не опоздать!

Не простудиться бы ему! = Как бы ему не простудиться! Не проспать бы завтра! = Как бы не проспать завтра!

Выражение желания может осложняться оттенком сомнения, неуверенности в конструкциях с частицей **не,** где это не имеет реального негативного значения, например:

А не купить ли мне эту книгу? А может быть, не покупать? Не поехать ли мне за город? А может быть, не ездить?

Таким образом, в русском языке существует специальный синтаксический способ для выражения оптативной модальности – без модального слова. Это односоставные инфинитивные предложения, служащие для передачи различных модальных оттенков оптативной модальности.

Следовательно, оптативные инфинитивные односоставные предложения русского языка играют существенную роль в создании экспрессивности художественного текста. Этот вид односоставных

предложений имеет свою структуру и семантику и отличается от других структурно-семантических типов односоставных предложений.

Приведенный нами обзор фактического материала с очевидной наглядностью показывает, насколько разнообразны модальные оттенки, выражаемые инфинитивом с частицами бы, **хоть бы, если бы, если бы, только бы, лишь бы, вот бы, чтоб (чтобы), как бы не, скорей бы, не… бы, скорей бы (поскорей бы), лучше бы.**

ЛИТЕРАТУРА

1. Брицын В. М. Синтаксис и семантика инфинитива в современном русском языке. – Киев: Наукова думка, 1990. – 320 с.

2. Воинова Е.И. О соотношении инфинитивных и безличных предложений // Русский язык в школе. – 1958. – № 2. – С. 12-15.
3. Гришина Н.И. Место инфинитивных предложений в синтаксической системе современного русского языка: Автореф. дисс. канд. филологич. наук. – М.,1988. – 22 с.
4. Дручинина П.П. Какой синтаксис нужен школе? // Русский язык в школе. – 1992. – №1. – С. 38-42.
5. Золотова Г.А. Коммуникативные аспекты русского синтаксиса. – М.: Наука, 1982. – 368 с.
6. Русская грамматика. Т.2 (Под ред. Н.Ю. Шведовой). – М.: Наука, 1982. – 709с
7. Салимов Р.Д. Русские односоставные оптативные инфинитивные предложения и их эквиваленты в таджикском языке// Ганљинаи Сухан («Сокровищница слова»). Выпуск 4, часть 1. Душанбе: РТСУ / ТГИЯ 2008. - С. 67-74.

УЗБЕКСКАЯ ЛИТЕРАТУРА В МИРОВОМ КОНТЕКСТЕ

УМИДА ФАЙЗУЛЛАЕВНА САЪДУЛЛАЕВА, СТАРШИЙ ПРЕПОДАВАТЕЛЬ КАФЕДРЫ ФИЛОЛОГИИ

и обучение языкам Навоийского университета инноваций

Введение. Узбекская литература — один из ключевых субъектов культурного пространства Центральной Азии, чьё классическое ядро (Навои, Бабур) и модерная линия (Чулпон, Абдулла Кадыри, Айбек, Одил Якубов и др.) вписаны в глобальный литературный процесс. Сопоставительный взгляд позволяет показать, как локальные темы (память, справедливость, честь, любовь) обретают универсальность — через перевод, жанровые инновации и диалог традиций [1, с. 59–66; 2, с. 15–21].

Классическое наследие и универсалии. Поэтика Навои — это синтез персо-тюркских форм (газель, маснави) и гуманистической этики, где красота слова связана с совершенствованием личности и общества [1, с. 92–105].

«Хамса» формирует «энциклопедию» норм и ценностей, соотносимых с европейским ренессансным гуманизмом. «Бабур-наме» соединяет

мемуаристику, географию и этику правителя, задавая жанровую многослойность [3, с. 41–52].

Модернизация и джадидизм. Рубеж XIX–XX вв. принёс реформаторскую программу джадидов: школьные и литературные трансформации, реализм, психологизм, социальная проблематика. Абдулла Кадыри создал первый узбекский реалистический роман «Прошедшие дни», где национальная коллизия

раскрывается средствами европейской прозы [2, с. 137–144]. Чулпон переосмыслил романтическую поэтику в ключе трагической современности.

Перевод и межкультурные коммуникации. Русский и европейские переводы — главный канал рецепции узбекской литературы в мире. В XXI веке усилилась роль англоязычных переводов, фестивалей и премий. Так, роман Хамида Исмаилова *The Devil's Dance* стал заметным событием в международном книгоиздании, расширив круг читателей узбекской прозы [4, с. 88–93]. Перевод здесь — не просто перенос текста, а **пересборка культурных кодов**, требующая стратегий эквивалентности, пояснительной аннотации, сохранения национальной поэтики.

Темы и типология современности. Современная узбекская литература работает с темами памяти и травмы, миграции и идентичности, женского опыта и городских трансформаций; на уровне формы — с гибридными жанрами (роман-репортаж, документальная проза), поликодовостью (фото, хроника) и дигитальными форматами. Это приближает её к трендам мировой литературы, сохраняя собственную систему образов и ритмов.

Заключение. Узбекская литература движется в режиме «локальное → глобальное»: универсализация классического наследия через перевод и включение современных текстов в международные потоки. Стратегическая задача — поддержка переводимых проектов, корпусные инициативы и цифровые архивы, позволяющие расширить мировой читательский доступ.

ЛИТЕРАТУРА

1. Навои А. Хамса. Ташкент: Фан, 1983.
2. Ибрагимов И. История узбекской литературы. Ташкент: Фан, 1998.
3. Бабур З.М. Записки (Бабур-наме). Ташкент: Фан, 1992.
4. Ismailov H. The Devil's Dance. London: Tilted Axis Press, 2018.

SAYID HAYBATULLOHXO'JA XISLAT BAYoZLARINING ILMIY TAVSIFI

SHAHNOZA MUSTAFAKULOVNA RASULOVA (PHD) OYBEK MAHMUDJON O'G'LI BOYATOV (PHD) UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE O'QITUVCHILARI

Annotatsiya. Maqolada Toshkent adabiy muhiti namoyandalaridan biri Sayid Haybatullohxo'ja Xislat tomonidan tuzilgan va nashr ettirilgan "Armug'oni Xislat", "Hadyai Xislat", "Savg'oti Xislat", "Tuhfai Xislat" bayozlariga ilmiy tavsif

berildi. Bayozlarning mavzu ko'lami, janr xususiyatlari, tuzilishidagi o'ziga xos tamoyillar aniqlandi.

Kalit so'z va iboralar: tavsif**,** maqom, bayoz, toshbosma, noshir, muxammas, g'azal, muvashshah, manba, she'r, matn

Аннотатция. В статье дается научная характеристика очерков

«Армугони хислат», «Хадьяи хислат», «Савготи хислат» и «Тухфаи хислат», составленных и изданных одним из представителей ташкентской литературной среды Сайидом Хайбатуллахходжой Хислатом

Ключевые слова и фразы: описание, маком, баяз, литография, издатель, мухаммас, газал, мувашшах, источник, стихотворение, текст

Abstract. The article provides a scientific description of the essays "Armugoni Xislat", "Hadyai Xislat", "Savgoti Xislat", and "Tuhfai Xislat", compiled and published by Sayid Haybatullahkhodja Xislat, one of the representatives of the Tashkent literary environment. The scope of the essays, genre features, and specific principles in their structure were identified.

Key words and phrases: description, maqom, bayaz, lithograph, publisher, muhammas, ghazal, muvashshah, source, poem, text

Toshkent adabiy muhitida qalami charxlangan ijodkorlardan biri Sayid Haybatullohxo'ja Xislat(1880-1945)dir. Haybatullohxo'ja Karimbek Kamiyning shogirdlaridan biri bo'lib, ustozi vositasida Yusuf Saryomiy, Muhyi Xo'qandiy, Saidahmad Vasliy Samarqandiy, Asiriy Xo'jandiy kabi zamonasining etuk shoirlari bilan tanishadi. Xislatning tarjimai holi, adabiy faoliyati, ijodi haqida Mo'minjon Muhammadjonov Toshqinning "Toshkent shoirlarining tarjimai hollari" tazkirasida [3. 92-120], shoir avlodining davomchisi san'atshunos Muzaffar Asadullaev va adabiyotshunos To'xtamurod Zufarovlar tashabbusi bilan yaratilgan "Tarannum" risolasida mufassal ma'lumot berilgan [4.200].

Xislat ijod etgan davr – XX asr boshlarida matbaa ishlarining taraqqiy etishi natijasida qo'lyozma bayozlar bilan birga toshbosma usulda bayozlar chop ettirish rasm tusiga kirgan. Bu davrda nashr ettirilgan bayozlar uni tuzish va chop ettirishda faollik ko'rsatgan shaxslarning nomlari bilan atalgan. Haybatullohning dastlabki bayozi shu an'anaga mos holda, "Hadyai Xislat" nomi ostida 1910 yilda, so'ngra 1912 yilda "Armug'oni Xislat", 1914 yilda "Savg'oti Xislat" hamda "Tuhfai Xislat" bayozlari nashr yuzini ko'rgan.

Xislat bayozlarining qisqacha tavsifi tadqiqotchilar Ra'no Hojieva [6. 89], Bahri Abdullaeva [1.40]ning ilmiy maqolalarida bayon qilingan. Mazkur ishimizda shoir bayozlarining mukammal tavsifini berishga harakat qildik.

هدیه َخصَلت **"HADYaI XISLAT"** bayozi shoir tomonidan tuzilib nashr ettirilgan she'riy to'plam bo'lib, O'zR FA Sharqshunoslik instituti Asosiy fondida inventar 338, 341, 9602, 660 raqamlari ostida saqlanadi. To'plam 1910 yil Tashkentda G.Ya.Yakovlev matbaasida nashr etilgan. Muqovasi och sariq rangli qattiq kartondan.

Tuzuvchisi va noshiri: سید هیبت الله خواخه خصلت Sayid Haybatullohxo'ja Xislat. Kotibi: سراج الدین مخدوم Sirojiddin maxdum (Sidqiy Xondayliqiy).

O'lchovi: 21x13 sm. Hajmi: 24 sahifa.

Titul (unvon) sahifasiga gulli, naqshli jadval ishlangan. Unda quyidagi yozuvlar bitilgan:

هدیه خصلت

بسعی خراجات بیلا ملا سید هیبت الله خوجه متخنص خصلت بن سید عاریفخواجه ایشان تاشکندی

اولاد حضرت شیخ زین الدین اتا نَوَّرَمرْقَد ُه جامعیدین بی رخصت چاپ قیلماق ممنوع دور

Basa'yi xarajot bila Sayid Haybatullohxo'ja mutaxallusi Xislat bin Sayid Orifxo'ja eshon Toshkandiy avlodi hazrat Shayx Zayniddin ato navvara marqadahu jam'idin beruxsat chop qilmoq mamnu'dur.

در مطبع یکولوف طبع شد Dar matba'i Yakuvluf tab' shud.

Boshi: ایتای عرضیم ایشیتینک اهل دهنش Oxiri: صاد اصغر لفظ هدیهِ همدم خصلتغه ضم

Bayoz sahifasidagi she'rlar jadval (matn ramkasi) ichida va jadval tashqarisi – hoshiyada qiyalatib, nasta'liq xati bilan ko'chirilgan.

Matnlar sahifalarga ikki ustun hamda qiya holda joylashtirilgan. 2-sahifaning past qismida bayoz kotibi va nomi alohida qayd etilgan:

مصرع لکاتیبی سراج الدین مخدوم هدیهِ خصلت اولدی بیل مونکا نام

Misra kotibi Sirojiddin maxdum, "Hadyai Xislat" o'ldi bil munga nom.

Toshbosmaning har sahifasidagi jadval hoshiyasining yuqori qismida هدیه َتصویر بٓا خصَلت جوزی برینچی – "Hadyai Xislat" birinchi juzi botasvir" jumlalari keltirilgan. Bu jumlalar toshbosmaning har sahifasida takrorlangan. Bayozning e'lon, ya'ni xotima qismida جوزی بیرینچی – "Birinchi juzi", هم تیزده نشر

Alloh insha o'lung'usidur nashr tezda "Ham – اولونغوسیدورانشا هاللّٰ تعالی ایکینچی جوزی

ikkinchi juzi” jumlalari uchraydi. Bundan anglashiladiki, Xislat bayozning ikkinchi juzini ham nashrga tayyorlash niyatida boʻlgan.

Bayoz oʻz davrining mashhur san’atkorlaridan biri Hamdamxon Haydaraliev(1887-1922)ga bagʻishlab yaratilgan. Toʻplamning 4,6,8,10,12,15,23 sahifalarida boshiga salla kiyib, qoʻlida gul tutgan oʻspirin –Hamdamxonning surati joylangan.

She’riy toʻplamning ilk sahifasida Xislat qalamiga mansub 22 bayt (44) misrali masnaviy oʻrin olgan. Unda bayozning yaratilishi haqida soʻz boradi. Tshplamdagi she’rlar soni 19 ta boʻlib, ular همدمخان Hamdamxon, کمی Kamiy, ذلولی Zululiy, محی Muhyi, وصلی Vasliy hamda خصلت Xislat qalamiga mansub gʻazal va muxammaslardan iborat.

Bayozning she’riy boshlanmasidan keyingi asosiy matndagi 4-16-sahifalarda Hamdamxonning yuqorida tilga olingan 35 bandli “Noz oʻzgachayu sitam boʻlakcha” she’ri oʻrin olgan. 16-17-sahifalarda ushbu she’rga hamohang tarzda yozilgan Kamiy qalamiga mansub 7 bandli “Hijroningiz ichra gʻam boʻlakcha”, 17-23-betlarda esa Zululiy Namangoniyning “Sendin menga dardu gʻam boʻlakcha” satrlari bilan boshlanadigan muxammaslari keltirilgan.

Toʻplamdagi she’rlar mazmuni koʻproq Hamdamxonning tavsifu tavsifiga bagʻishlangan. Karimbek Kamiyning “Hamdamxon”, Vasliy Samarqandiyning “Surating” radifli gʻazallar shular jumlasidandir. Xislatning “Hajr oʻtigʻa aylagon olamni soʻzon ikkimiz”, Hama olamgʻa jono suratingni” misralari bilan boshlangan gʻazallarida muvashshah san’atini qoʻllab, Hamdamxon ismini pinhon qilgan.

Kichik she’riy toʻplamda Xislat qalamiga mansub 6ta – 4 gʻazal va 2 muxammas oʻrin olgan.

“Hadyai Xislat” bayozi hajman kichik boʻlsa-da, keyinroq yaratiladigan mumtoz adabiyotimizning noyob manbalaridan biri – **“Armugʻoni Xislat”** she’riy toʻplamining yaralishiga asos boʻlib xizmat qilgan.

ارمغان خصلت “ARMUGʻONI XISLAT” bayozi OʻzR FA Sharqshunoslik instituti Asosiy fondida inventar 320, 4063, 12555, 13002, 13860, 13861, 18681 raqamlari ostida saqlanadi. Bayoz Toshkentda (1329) 1912 yilda Gʻulom Hasan Orifjonov matbaasida chop etilgan. Hajmi: 240 sahifa. Oʻlchovi: 23x14

Muqovasi qattiq qizil kartondan ishlangan.

Tuzuvchisi va noshiri:سید هیبت الله خواجه خصلت Sayid Haybatullohxoʻja Xislat. Kotibi: سراج الدین مخدوم Sirojiddin maxdum.

Bayoz o'z davrining mashhur hofizi Mulla To'ychi Toshmuhammedov (1868-1943) ning tashabbusi va homiyligida nashr etilgan.

اول خلیل الله نی بول Boshi: حمدو ثنالاریکی ثری برله سما اهلی تیلیدین کیلغولوق دو ر کون یاد ایتیتOxiri:

She'riy to'plamning har sahifalariga naqshli jadvallar ishlangan bo'lib, ularga zarhal berilgan. Matnlar ikki ustunga olingan va nastaliq xatida qiya holatda joylashtirilgan.

Kitobning daslabki unvon varag'ida quyidagi yozuvlar bitilgan:

ارمغان خصلت

نایابغه ملا تویچیخان حافظکیم اهلی عالمغه

والمنهٔ اوشبوزمان سعادت توامانده بو نسخه

الحمدولالله

مشهوردور انینک بزملارده یوز مینک ترانه لار برلا اوقویدورکان غزل لارینی آهنک و مقامی برله یازیلیب نام قویولدی

Alhamdulillah val minna ushbu zamon saodatu omonda bu nusxai noyobg'a Mullo To'ychixon hofizkim ahli olamg'a mashhurdur. Aning bazmlarda yuz ming taronalar birla o'qiydurgon g'azallarini ohang va maqomi birla yozilib qo'yuldi. قیلینماس چاپ ایجازت بی صاحبیدین اوشنونی Ushbuni sohibidin beijozat chob qilinmas.

Bayozning 239 sahifasida To'ychi hofizning surati chop qilingan. Bu suratning yuqori qismida bayoz kotibi – Shavkat Iskandariyning forscha fardi, undan quyiroqda shu she'rning tarjimasi berilgan:

Bu surat Mulla To'ychi suratidur, Tamom olamni tutgan shuhratidur.

Haybatulloh Xislat sohibi devon bo'lmasa-da, "Armug'oni Xislat" bayozi xalq orasida "Devoni Xislat" nomi bilan mashhur bo'lganligi ma'lum. Bayozning 9-sahifasigacha Xislatning bayozga yozgan muqaddimasi o'rin olgan.

"Armug'oni Xislat" bayozidan نوای Navoiy, بیدل Bedil, Hofiz, لطفی Lutfiy, سعدیSa'diy, سیدا Saido,قصاب Qassob, امیری Amiriy, عظیم Azim, اهدی Ahdiy, کامل خوارزمیKomil Xorazmiy, فقیری Faqiriy, توره اکملخان Akmalxonto'ra, زاکری Zokiriy,

امیرخواجهAmirxo'ja, تجلی Tajalliy, سریامی یوسف Yusuf Saryomiy, شهیدی Shahidiy, قاری Qoriy, ضمیری Zamiriy, اندجانی پریمقاری Pirimqori, ناظم Nozim, خسرو Xisrav, مقیمیMuqimiy, ناقص Noqis, زوقی Zavqiy, وصلی Vasliy, فرقت Furqat, حلمی Hilmiy, مسکینMiskin, شوکت Shavkat, خوقندی تایب Toyib Xo'qandiy, کمی Kamiy, وجدی Vajdiy,

حاذق Hoziq, ديوانه Devona, غياثى G‘iyosiy, مخلص Muxlis, قلى خضرت Hazratqul, الدين شمس Shamsiddin, تاشكندى غلامى G‘ulomiy Toshkandiy, تاشكندى مونس Munis

Toshkandiy, بيمى Biymiy, تاشكندى ساقى Soqiy Toshkandiy, الدين صلاح Salohidin,

اسيرىAsiriy, ملهم Mulham, اهو Ohu, غضنفر G‘azanfar, رضاى اندجانى Rizoyi Andijoniy hamda خصلت Xislat ijodidan namunalar keltirilgan. Janr tarkibi, asosan, g‘azal va muxammaslardan iborat, ular o‘zbek va fors-tojik tillarida bitilgan.

Xislat she’riy merosining katta qismi mana shu bayozdan o‘rin olgan. Unda shoirning 25 ta she’ri mavjud – 2 ta to‘rtlik, 14 ta g‘azal, 8 ta muxammas, 1 ta marsiya.

Bayozdagi she’rlarning barchasi O‘rta Osiyoda ma’lum va mashhur bo‘lgan To‘ychi hofiz Toshmuhammedov (1868-1943) tomonidan ijro etilgan. To‘plamning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sahifalarda keltirilgan she’r matnlaridan avval uning qaysi maqom turida kuylanishi qayd etilgan.

Masalan: Miskin qalamiga mansub she’r “Chorgoh” maqomida [2.21]:

چاركاه

اى خاص قرب محرم اسرار كبريا اى مفخرعرب و عجم تاج انبيا

Haybatulloh Xislatning quyidagi she’ri “Taronai dugoh”da kuylanishi matn sarlavhasida keltirib o‘tilgan [2.23]:

ترانهِ دوكاه از خصلت هجرينكده بس اولدورمه انديشهِ فردا قيل كيل امدى منكه جانا وصلينكنى مهيا قيل

“Armug‘oni Xislat”dagi she’rlarning miqdor jihatdan ko‘pi – 16 tasi “dugoh” maqomida; “bayot” kuyida – 12ta, “chorgoh”, “yakkaxonlik”da – 7, “xo‘qandcha”da – 6, “nolish”, “tarannum”, “girya” , “navo” maqomida – 4, “nasrullo”, “ushshoq”, “debocha” “ashula”da – 3, “gulyor”, “dilxirosh”da kuylarida 1 tadan she’r matnlari joylashtirilgan.

Adabiyotshunos va musiqashunoslar uchun muhim sanalgan Xislat “Armug‘on”i ko‘plab tadqiqotlar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Haybatullohning o‘z davrida ham mashhur bo‘lgan yana bir she’riy to‘plami **خصلت سوغات “SAVG‘OTI XISLAT”** O‘zR FA Sharqshunoslik instituti Asosiy fondida 347, 348 raqamlari ostida saqlanadi. Bayoz 1914 (1333) yil Toshkentda O.A.Porsev matbaasida chop etilgan.

Hajmi: 128 sahifa. O‘lchovi: 13x8 sm.

Tuzuvchisi: سيد هيبت الله خواجه خصلت Sayid Haybatullohxo‘ja Xislat.

Kotibi: شاشی محمد رضا بن احمد میرزا قاری Qori Mirzo Ahmad bin Rizo Muhammad Shoshiy. Mullo Zafar ibn Shukur Muhammad maxdum bayozning nashr etilishiga homiylik qilgan.

خداوندیکی ایلار ابرو دودیدین شرر پیدا Boshi:

خدایم آنی یتقوزسون مراده Oxiri:

Bayoz muqovasi malla rangli kartondan ishlangan. Matnlar chiroyli nasta’liq xatida ikki ustunga qiya holatda ko‘chirilgan. Sahifalardagi matnlar uchun bezak sifatida turli xil: qizil, jigarrang, to‘q ko‘k, qora, yashil ranglardan foydalanilgan.

To‘plamning hajmi ixcham, ko‘rinishi yon daftarchani eslatadi. Bizningcha, bayozning cho‘ntakda olib yurishga qulayligi jihatidan yon daftarcha shaklida bo‘lganligi ehtimoldan holi emas. Dastlabki sahifasi (titul, unvon varag‘i) jadvali gulli naqshlar bilan bezatilgan. Nasta’liq xatida, ikki ustun shaklida yozilgan. Matnlar bezak sifatida har sahifaga alohida: qizil, jigarrang, ko‘k, qora, yashil kabi siyohlarda ko‘chirilgan.

Ushbu sahifasida hadisdan iqtibos o‘rin olgan:

اِنَّ مِن ال هِشعرِ لَحِكمَةً و اِنَّ مِن البَيَانِ لَسِحرًا

(Inna min ash-she’ri lahikmatan va inna minal bayani lasehron).

Mazkur hadis sahih hisoblanib, Imom al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” (“Odoblar xazinasi”)ning 669-tartib raqamida keltirilgan.

Sahifaning o‘rtasida hadis matnidan so‘ng quyidagi jumlalar o‘rin olgan:

الحمد لله و المنه کی این کتاب شیرین خطاب در این زمان نیکو نشان اعنی مسمی بی سَوغَات خصْلَت با احتمام تام سید هیبت الله خواجه تخلص خصلت بن سید عارفخواجه اشان اولاد حضرت شیخ زین الدین

اتا

“Alhamdulillahul val-minna (Hamd va minnatdorlik Allohgadir) in kitob shirin xitob dar in zamon neku nishon, a’ni musammama ba Savg‘oti Xislat ba ehtimomi tom Haybatullohxo‘ja taxallusi Xislat bin Said Orifxo‘ja eshon avlodi hazrat shayx Zayniddin ato”

درَ تاشَقند طبع َکردید Dar Toshqand tab’ kardid.

Bayozda she’r matnidan avval o‘quvchilarga izoh va mavzu bilan tanishtirish maqsadida sarlavhalar qo‘yilgan:*“Pirimqori Andijoniyning janob Xislat eshong‘a Andijondandan yuborg‘on g‘azallaridur”, “Bu musaddas qorabuloqliq Abdulxay maxdum*

mutaxallusi ba Roiq Hoji Muhammad domla o'g'lini janob hazrat imom Nurulloh marqada sha'nlarida aytgan tab'i nazmidur", "Janob Pirimqori Andijoniyning Xislat eshong'a muloqot bo'lg'onlaridagi maktubi muhabbat maktublaridur", "Mavlono Pisandiy Samarqandiydin Janobi mir Maqsud oqsoqol do'ffifurush Toshkandiyg'a xitob" tarzida.

To'plamdan she'rlari o'rin olgan shoirlar, asosan, Xislatning qadrdonlari, hamfikr-hammaslaklaridir. "Savg'oti Xislat" bayoziga jami 21 ta shoir: محير Muhayyir, اندجانى پيريمقارى Pirimqori Andijoniy, رايق Roiq, خايب Xoib, سمرقندى فكرى Fikriy Samarqandiy, خجندى اسيرى Asiriy Xo'jandiy, خندقلقى صدقى Sidqiy Xandaqliqiy, نمنكانى ضلولى Zululiy Namangoniy, سمرقندى وصلى Vasliy Samarqandiy, بخارى لطفى Lutfiy Buxoriy, پسندى Pisandiy, حاجى ميرزا يعقوب Hoji Mirzo Yoqub, مير مقصود Mir Maqsud, مشرب Mashrab, كامل خوارزمى Komil Xorazmiy, سيد اكملخان تورهSayid Akmalxon to'ra, نمنكانى فضلى Fazliy Namangoniy, مقيمى Muqimiy, محمد زاكر مخدم عفتى Muhammad Zokir maxdum Iffatiy, تاشكندى ميرزا احمد قارىMirza Ahmad Qori Toshkandiy va Xislatning g'azal, muxammas, musaddas, fard kabi lirik janrdagi she'rlari jamlangan. Bayozdagi she'rlar soni 64 ta. Ulardan

g'azal 45 ta, muxammas 12 ta, fard 2 ta, musaddas, mustazod, murabba, qasida, marsiya janrlariga oid she'rlar bittadan o'rin olgan.

Haybatulloh tomonidan tuzilgan yana bir she'riy to'plam **خصلت تحفه "TUHFAI XISLAT"** O'zRFA ShI Asosiy fondida inv. 665,3980, 9603, 20386 raqamlari ostida saqlanadi. Bayoz 1914 yil Toshkentda G'ulom Hasan Orifjonov matbaasida chop etilgan.

Hajmi: 28 sahifa. O'lchovi: 23x13 sm.

Tuzuvchisi: سيد هيبت الله خواخه خصلت Sayid Haybatullohxo'ja Xislat.

Kotibi: قارى ميرزا احمد بن رضا محمد شاشى Qori Mirzo Ahmad bin Rizo Muhammad Shoshiy. Nashr etilishiga homiylik qilgan shaxs Mullo Zafar bin Shukur Muhammad maxdum.

"Tuhfai Xislat" hajmi ixcham, 24 sahifadan iborat. Dastlabki (titul) sahifasi gulli naqshli jadval bilan bezatilgan. To'rtburchak ichida quyidagi matn joylangan:

ءِآرعَشُّلا نِاسَلِ يف اهَضُعَبَ و ءِايَبِنالَا بِولقُ يفِ اهَضُعبَ رًارَساَ يلاعَتَ لِلِهِ نَّاِ مالسه لا هِيلعَ يبنَّلا لَاقَ

Ushbu sahifada bayoz nashrida ehtimom ko'rsatuvchi shaxs, matbaa nomi ham qayd etilgan:

الحمدُلله كى اين كتاب شيرين خطاب در اين زمان نيكو نشان اعنى مسمى به باحتمام عمدة التجارملا زفر بن شوكور محمد صاحب مرحوم تاجركتب

Alhamdulillahki in kitob shirin xitob, dar in zamon neku nishon, a’ni musammama ba ehtimom umdat at-tujjor Mullo Zafar bin Shukur Muhammad sohibi marhum tojiri kitob.

حَ هقِ طَبعيِ ناشِرِغه عايد دُر بيرِنجيِ طَبعِ

Haqqi tab’i noshirig‘a oiddur

تاشكَندَدَ غُلَامي مطتبَعَسِدَ چَاپ اوُلدِى

Toshkand G‘ulomiya matbaasida chop o‘ldi.

“Tuhfai Xislat”dan o‘z zamonasining mashhur shoirlarining she’rlari o‘rin olgan. Buni shoir bayozning ilk sahifasidagi quyidagi satrlar bilan izohlaydi:

Budur go‘yo oshiqlarni joni, Saro po nozaninlarni bayoni.

Muni sizlarg‘a qildim tuhfa do‘stlar, Yozib har shoiri mashhurdin ash’or.

Tuhfai Xislat” bayozidan 10 ta shoir: پيريمقارى اندجانى Pirimqori Andijoniy, تشكندى كمى Kamiy Toshkandiy, خجندى اسيرى Asiriy Xo‘jandiy, سمرقندى صلى Vasliy Samarqandiy, تركستانى غربتى G‘urbatiy Turkistoniy, فكرى Fikriy, حايب Xoib, محير خوقندى Muhayyir Ho‘qandiy, ناقص Noqis hamda خصلت Xislatning ijodidan namunalar keltirilgan. Jami she’rlar soni 23 ta: 14 ta g‘azal, 8 ta muxammas, 1ta marsiya. Noqis qalamiga mansub bitta g‘azal fors-tojik tilda, qolgan barchasi o‘zbek tilida yozilgan.

To‘plamda Bedilning mashhur baytiga sharh sifatida yozilgan g‘azallar tartib bilan joylashtirilgan. Bu haqda “Tuhfai Xislat”ni tabdil nashrini amalga oshirgan adabiyotshunos Urfon Otajon bayozning so‘zboshisida shunday yozadi: “Bayozda

shoirlarning duch kelgan asarlari jamlanmay, balki chuqur mulohaza bilan tartib berilib, turli dunyoqarashdagi, turli badiiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘quvchilarning did va talablari hisobga olingan. Masalan, unda Bedilning: Bedastu poyon az asar navmid nest,

Intizori dom oxir mekashad naxchirro, –

(Qo‘l-oyoqsizlar ham bir narsadan noumid emaslar,

Domning intizorligi oxiri ovni ilintiradi) mashhur bayti asosida yozilgan to‘rtta falsafiy ruhdagi murakkab g‘azal Kamiy, Vasliy, Asiriy va G‘urbatiylar tomonidan Xislatning iltimosiga ko‘ra shu bayoz uchun maxsus yozilganga o‘xshaydi. Chunki ularning ikkitasining hoshiyasida “Xislat eshonga xitob” deb yozib qo‘yilgan. Bu g‘azallar

shoirlarning o‘zaro mushoaralari sifatida bedilxonlikning bir turi bo‘lib, ularning yuksak iqtidorini namoyon etadi [3.4].

ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva B. Toshbosma bayozlarning ilmiy tavsifi // Adabiy meros. – Toshkent: 1989, №4 (50). 37-44 b.
2. Armug‘oni Xislat. Bayoz. Toshbosma. O‘zbekiston FA ShI. Asosiy fondi. Inv.№4063. – Toshkent: G‘ulom Hasan Orifjonov, 1912. – 240 b.
3. Mo‘minjon Muhammadjonov Toshqin. Toshkent shoirlarining tarjimai hollari. Tazkira. Qo‘lyozma. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. II kitob. – 92-120 b.
4. Tuhfai Xislat (Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi: Urfon Otajon). – Toshkent: Meros, 1992. – 64 b.
5. Xislat. Tarannum (Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi mualliflari: M. Asadullaev, T. Zufarov). – Toshkent: Merius, 2009. – 200 b.
6. Hojieva R. Toshbosma bayozlar o‘zbek adabiyotini o‘rganishda muhim manba // Adabiy meros. – Toshkent:1980. №1 (13) 87-95 b.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ

ДИЛШОДА КАМОЛОВНА ШАРИПОВА, ПРЕПОДАВАТЕЛЬ КАФЕДРЫ ФИЛОЛОГИИ

и обучение языкам Навоийского университета инноваций

Введение. Современная лингвистика — полицентровая система, где сосуществуют и взаимодействуют формальные, функциональные и антропоцентрические подходы. Смена исследовательских приоритетов от

«языка как системы» к «языку как деятельности» породила многопарадигмальность, усилив междисциплинарность и прикладной потенциал [1, с. 23–31; 2, с. 5–14].

Формально-структурная и генеративная парадигмы. Классический структурализм (Соссюр, Блумфилд, Пражская школа) заложил инструментарий для описания фонологии, морфологии, синтаксиса и семантики как взаимосвязанных уровней [1, с. 45–67]. Генеративизм (Хомский) перенёс фокус к врождённой компетенции и правилам порождения,

предложив формальные модели синтаксиса, от *Standard Theory* до *Minimalist Program* [2, с. 57–94]. Достоинство — объяснительная сила в моделировании грамматической продуктивности; ограничения — недостаточная чувствительность к дискурсу и варьированию.

Функционально-коммуникативная парадигма.

Системно-функциональная лингвистика (Хэллидей) рассматривает язык как ресурс значений, структурированный тремя метафункциями (идеационной, интерперсональной, текстовой) [3, с. 29–46]. Прагматика (Грайс, Серль), теория речевых актов и импликатур показывают, как значение

«делается» в употреблении. Социолингвистика (Лабов) вводит вариацию, стиль и социальные стратификации, показывая, что «норма» — динамична [4, с. 101–118].

Когнитивная лингвистика. Лэнгакер, Лакофф, Филлмор и др. трактуют язык как окно в мышление: концептуальная метафора, фреймы и прототипы объясняют категоризацию и переносы смысла [5, с. 37–62; 6, с. 89–110]. Важный сдвиг — от абстрактных правил к **схемам знания** и опыту пользования (usage-based). Это делает языкознание центральным партнером когнитивных наук.

Корпусная, компьютерная и нейролингвистика.

Цифровые корпуса, распределённые представления и методы NLP изменили эмпирическую базу исследований: от частотных профилей до синтаксических деревьев с миллионами предложений. Нейролингвистика (ERP/fMRI) связывает уровни языка с нейрокоррелятами, проверяя гипотезы о онтогенезе и онлайн-обработке [4, с. 211–234; 7, с. 15–27].

Методы и дизайн исследований. Совмещаются качественные и количественные подходы: корпусная выборка + эксперименты (прайминг, суждения о грамматичности) + моделирование (байесовские и нейросетевые модели). Репликабельность обеспечивается открытыми корпусами и кодом (open science) [7, с. 63–74].

Прикладной выход. — **Образование:** от грамматической нормы к формированию коммуникативной и медийной грамотности.

- **Технологии:** машинный перевод, речевые интерфейсы, извлечение информации.
- **Социальная сфера:** языковая политика, планирование статуса/корпуса, сохранение языков.
- **Юрислингвистика и медицинская лингвистика:** экспертиза текстов, афазия, дислексия.

Заключение. Многопарадигмальность — сильная сторона современной лингвистики: формальные модели обеспечивают строгость, функциональные

— реалистичность, когнитивные — объяснение связи языка и мышления. Их синтез задаёт перспективы развития дисциплины.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики. М.: Прогресс, 2000.
2. Хомский Н. Аспекты теории синтаксиса. М.: Аспект-Пресс, 2002.
3. Halliday M.A.K., Matthiessen C. An Introduction to Functional Grammar. London: Routledge, 2014.
4. Labov W. Principles of Linguistic Change. Oxford: Blackwell, 1994.
5. Langacker R. Foundations of Cognitive Grammar. Stanford: SUP, 1987.
6. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: UCP, 2003.
7. Gries S. Th. Statistics for Linguistics with R. Berlin: Mouton, 2013.

«MUHABBAT» QISSASIDA QAHRAMONLAR TAQDIRI

OLIM JO'RAYEV,

Buxoro

Annotatsiya. «So'zda ruh bor», deydilar. Abdulla Qahhorning «Muhabbat» qissasi muqaddas inson qalbi, undagi oliy tuyg'u - muhabbatni tarannum etadi. Bu asarning nomlanishidayoq zohir bo'lgan. Maqolada "Muhabbat" qissasi va undagi qarama-qarshiliklar haqidamfikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Badiiy obraz, konflikt, qissa, tashbeh, murosasizlik, to'qima

obraz.

Аннотация. «В словах есть душа», – говорят они. Рассказ Абдуллы

Каххора «Мухаббат» воспевает священное человеческое сердце, высшее чувство в нём – любовь. Это видно из названия произведения. В статье рассматривается рассказ «Мухаббат» и противоречия, заложенные в нём.

Ключевые слова. Художественный образ, конфликт, сюжет, аллегория, нетерпимость, сотканный образ.

Abstract. "There is a soul in words," they say. Abdulla Qahhor's story "Muhabbat" glorifies the sacred human heart, the highest feeling in it - love. This is evident from the title of the work. The article discusses the story "Muhabbat" and the contradictions in it.

Keywords. Artistic image, conflict, story, allegory, intolerance, woven image.

Inson qalbini tushunish - ulkan jasorat. Bu uchun esa ba’zan butun dunyoga, jamiyatga, urf-odatlarga qarshi borishga toʻgʻri keladi. Bunday qarshilik, murosasizlik har kimning ham qoʻlidan kelmaydi. Oʻzbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Qahhor oʻzining serqirra ijodi, chuqur ma’no kasb etgan asarlari bilan xalqimiz ma’naviyatiga beqiyos hissa qoʻshgan adibdir. Uning hikoya, roman va pyesalarida insoniy fazilatlar, ijtimoiy adolatsizlik, yolgʻon va riyokorlikka qarshi keskin murosasizlik ruhi hukm suradi. Qahhor ijodining asosiy mohiyatlaridan biri — haqiqatparvarlik va insoniyatning axloqiy pokligi yoʻlida murosasizlikdir. Qahhor satira va yumorni oʻtkir qurol sifatida qoʻllaydi. U kulgi orqali jamiyatdagi illatlarni tanqid qiladi, ammo bu kulgi orqasida jiddiy, ogʻriqli haqiqat yotadi. Shuning uchun ham Qahhor kulgisi “achchiq kulgi”dir. Bu — murosasiz kulgi, u insonni oʻylashga, oʻzini tahlil qilishga majbur etadi. Adibning til va uslubi sodda, xalqona boʻlsa-da, mazmun jihatidan teran. Har bir obraz orqali

u hayotiy saboq beradi: kimki haqiqatdan yuz oʻgirsa, u baribir magʻlub boʻladi. Qahhor uchun murosasizlik — bu nafaqat ijtimoiy hodisalarga, balki insonning ichki sustkashligiga qarshi ham kurash edi. U oʻz oʻquvchisidan ham shunday jasoratni kutgan.

“Muhabbat” qissasida turmushi buzilib, eridan ajralgan, «it tekkan» - Muhxayyo va uylanmagan yoshgina yigit - Anvarjonlarning pok sevgisi hikoya qilinadi. Ikki yosh haqida mahalla-kuyda mish-mishlar tarqalagan. Yana Anvarjonning ammasi har xil janjallar chiqarib yuribdi. Yoshlarni tushunadigan kim bor? Muhayyoning onasi Muborakxonim nuqul qizi va erini koyiydi. Anvar - yetim. Ammo Muhayyoning otasi bor. Ha, Hakimjon ularni tushunadi, qizini tushunadi.

«Qaldirgʻoch bolasini uchirma qilganda boʻynidan tishlab uchirmaydi», - deydi Hakimjon. Demak, hamma narsani Muhayyoning oʻziga qoʻyib berish kerak. Shunda Muborakxonim erini e’tiborsizlikda ayblaydi. Bu e’tiborsizlik emas, inson qalbini tushunish edi: «…Men olamni koʻrganman, olamga oʻt qoʻygan, olamni goʻdakday bagʻriga bosib, halokatdan qutqargan, bitta odamning qalbidan tortib butun olamni dahshatga solgan voqealarni koʻrganman. Bularni koʻrib, ehtimol, koʻzim qamashgandir, shuning uchun sizni dahshatga solgan narsa menga oʻyinchoq boʻlib koʻrinar!… Qiz olmagan yigit, yigitga tegmagan qiz… nainki Inson insonga shu koʻz bilan qarasa? Qiz, yigit… insonning oʻzi qaerda qoldi?» Turmush qurgan qizga uylanishga Anvar andisha kilishi kerak edi. Ammo u andisha qilmadi. Anvarning toʻgʻri ish qilganini ta’kidlab, «Bu andisha bizning taomilimiz! Bu odamlarni xoʻrlaydigan bundan ham yomonroq taomillarimiz ozmi?», deydi institut yoshlar tashkiloti raisi Rahimjon. Toʻgʻri-da, ba’zan taomillar, urf-odatlar inson erkiga, baxtiga toʻsqinlik qiladi. Shunday panjaralar oʻrtasida qolgan Anvar qochish uchun uchar avtomobil ixtiro qilishlarini aytadi. Uningcha, bu ixtiro nafaqat qochish, balki oʻsha «Odamni xoʻrlaydigan, odamning nafasini boʻgʻadigan urf-odatlarimizni bombardimon qilish uchun kerak» edi. Anvar, Muhayyo, Hakimjon,

Rahimjon boshliq bir guruh yoshlar turli gap-soʻzlar, adolatsizliklar va urf-odatlarga qarshi turdilar. Bu qarshilik inson uchun, uning qalbi uchun edi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Abdulla Qahhor ijodi — bu haqiqat, adolat va vijdon yoʻlidagi murosasizlik maktabidir. U insonni oʻylashga, oʻzini tarbiyalashga, jamiyatdagi noxolisliklarga qarshi chiqishga chorlaydi. Qahhor uchun adabiyot — bu faqat san'at emas, balki axloqiy mas'uliyat, jamiyatni tozalash vositasi edi. Shu bois u yozgan har bir satrda qat'iyat, jasorat va haqiqatga sadoqat mujassam.

ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.2008.
2. Qosimov U. Adabiy-estetik tafakkur tadriji: an'anaviylik, vorisiylik, oʻziga xoslik Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Togʻay Murod ijodi misolida.
3. Qoʻchqorova A.Qahhor istiqlol adabiyotshunosligi ko`zgusida (monografiya). – Toshkent: Akademnashr, 2018.

TOʻRTINChI ShOʻBA: ChET TILLARINI OʻQITIShDA ZAMONAVIY FILOLOGIK TADQIQOTLAR VA INNOVATSION AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

BIOLOGIYA FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMNI TAShKIL ETISh TIZIMINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA

TAKOMILLAShTIRISh

Aziz Saidmuratovich ILYASOV,

b.f.d, Navoiy innovatsiyalar universiteti profeesori Lola Sirojovna SADILLOYEVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti katta oʻqituvchisi Farogʻat Islomovna KAMOLOVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti katta oʻqituvchisi

Hozirgi kunda har bir oʻqituvchi, xususan, boʻlajak biologiya oʻqituvchisi, raqamli muhitda ishlash, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish koʻnikmalariga ega boʻlishi zarur. Bu jarayon raqamli kompetensiyani shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bu borada "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash; ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. G.V.Sharopova [2022].

Oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanlarini o‘qitishda axborot texnologiya vositalaridan foydalanish nazariyasi va amaliyoti, biologiyani o‘qitishda elektron ta’lim resurslardan, virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi, talabalarning biologiyadan mustaqil ta’limini tashkil etishda elektron o‘quv vositalardan foydalanish mexanizmiga oid tadqiqotlar G.C.Ergasheva [2018] U.B.Baxodirova [2020] lar tomonidan olib borilgan. Natijada “Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarning tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi” orqali tizimli-faollik yondashuvini amalga oshirishga asoslangan shaxsga yo‘naltirilgan, rivojlantiruvchi, muammoli ta’lim hamda raqamli texnologiyalar orqali mustaqil faol o‘quv-qidiruv va tadqiqot faoliyati uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratish imkoniyatini beradi. D.T.Yaxshiboyeva [2022].

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining “Biologiya” fanidan mustaqil ta’limini va mustaqil ishini tashkil etish tizimini raqamli texnologiyalar yordamida takomillashtirish maqsadi qilib belgilangan. Bunda quyidagi tuzilmadan foydalanishni tavsiya etamiz (jadval).

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini “Biologiya” fanidan mustaqil ta’limini tashkil etish

Professor-o‘qituvchi

Mustaqil t’alimni tashkil

Bo‘lajak biologiya

Asosiy Mustaqil ta'limni maqsadi

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish

ta’limning demokratik mohiyatini oshirish; mustaqil ta’lim olish; fanga oid o‘quv ma’lumotlarni mustaqil ravishda topish

Talabalarning mustaqil ishi topshiriqlarni tanlash mezonlari

Fanni mustaqil

Kogniti



Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishdagi samaradorlik ko'rsatkichlari va darajalari

Talabalarning mustaqil ish faoliyati bosqichlari

1-bosqich.

Motivatsiyasini

Global tarmoqdan mavzuga oid ma'lumotlarni to'plash

2-bosqich. Ijodiy

qobiliyatini oshirish

2-bosqich. Kompyuterning amaliy

dasturlari yordamida topshiriqlarni

3-bosqich. Kognitiv fikrlashini rivojlantirish

3-bosqich. Mobil texnologiyalar yordamida topshiriqlarni bajarish

4-bosqich. Tadqiqotchilik ko‘nikmalarini

4-bosqich. Laboratoriya ishlarini olib boorish: virtual laboratoriyalar va laboratoriya xonalar

Mustaqil ishlarni tashkil etish vositalari: Ta’lim muhitlari

Mustaqil ish sifatini nazorat qilish: o'z-o'zini nazorat qilish, o'zaro nazorat, o'qituvchi nazorati

Mustaqil ish natijalarini baholash: fanlar mazmuni bo'yicha bilim,

ko'nikma, malakalar. Mustaqil ishlash qobiliyati. Amalga oshirilgan

NATIJA

Taklif etilayotga tuzilma bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining “Biologiya” fanidan mustaqil ta’limini tashkil etishga qaratilgan bo‘lib, bunda kongitiv yondashuvdan foydalanish tavsiya etilgan.

O‘quv jarayoniga kognitiv yondashuv, eng avvalo, o‘quvchi-talabaning aqliy tajribasiga asoslangan tafakkurni maqsadli va izchil rivojlanishi bilan bog‘liq tushunchadir. Shuningdek, kognitiv yondashuv mantiqiy harakatlar, muammolarni mustaqil qo‘yish va hal qilishga qaratilgan bo‘lib, quyidagilarga imkon beradi.

1. Muammoni mustaqil ravishda aniqlash va shakllantirish, maqsad, vazifalarni belgilash, kerakli ma’lumotlarni topish, muammoning yechimini izlash.
2. Atamalardan ongli ravishda foydalanish. 3.Muayyan shartlarga asoslanib, qo‘yilgan masalasini yechishning eng samarali usulini tanlash.

Izlanishlarimiz tahliliga ko‘ra, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining biologiyaga oid ijodiy qobiliyatini oshirishda, ularning mustaqil o‘quv faoliyatida raqamli texnologiyalardan, jumladan kompyuterning amaliy dasturlaridan foydalanish lozim degan xulasaga kelindi. Shu bois, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy fanlardan biri hisoblangan, ya’ni “Biologiya” fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlarini kompyuterning amaliy dasturlaridan foydalanishni tavsiya etamiz. Bunda biologiya fanidan mustaqil

ta'limni tashkil etish tizimini raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Shuday qilib, olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biri biologiya fanini o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etish tizimini raqamli texnologiyalar yordamida takomillashtirishdir. Raqamli platformalar, onlayn resurslar, virtual laboratoriyalar va interaktiv dasturlar yordamida talabalarning o'quv faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi hamda ilmiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

Shuningdek, bunday yondashuv biologiya fanini o'zlashtirish samaradorligini oshiradi, talabalarning o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi va ularni raqamli kompetensiyaga ega bo'lgan zamonaviy mutaxassislar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali ta'lim jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etish, o'quv jarayonini masofadan boshqarish va nazorat qilish imkoniyati yaratiladi.

Umuman olganda, ta'lim sifatini oshirish, innovatsion fikrlaydigan, ilmiy salohiyatli – va zamonaviy axborot muhitida samarali faoliyat yurita oladigan biologiya fanida mustaqil ta'lim tizimini raqamli texnologiyalar yordamida takomillashtirish pedagog kadrlarni tayyorlashning muhim garovidir.

ADABIYOTLAR

1. Sharapova G.B. Immunologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resuruslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish (pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida)//Pedagogika fanlarf bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. -Toshkent, 2022.-159 b.
2. Yaxshiboyeva D.T. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish (biotexnologiya fani

misolida) // Pedagogika fanlarf bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. -Toshkent, 2022.- 144 b.

1. Baxodirova U.B. Mikrobiologiya fanini o'qitishda virtual ta'lim texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish (Pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida) // Pedagogika fanlarf bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. -Qarshi, 2020. – 156 b.
2. Ergasheva G.S. Biologiya ta'limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.-Toshkent, 2018. – 56 b.

СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНТЕРЕСА СТУДЕНТОВ К ОБУЧЕНИЮ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Ф.Б.МАРДОНОВА,

док. филос. (PhD), и.о.проф.

кафедры филологии и обучения языкам

Аннотация: В статье рассматриваются инновационные подходы и технологии, способствующие повышению интереса студентов к обучению русскому языку. Также отмечается важность интеграции современных технологий в образовательный процесс для повышения мотивации студентов и улучшения качества их обучения. Представлены практические примеры успешного применения этих технологий в обучении русскому языку, а также их влияние на вовлеченность и результаты обучающихся.

Ключевые слова: инновационные технологии**,** мобильные приложения, искусственный интеллект, геймификация**,** мультимедийные проекты, обучение русскому языку**,** повышение мотивации**,** студенческая аудитория.

Изучение русского языка для студентов — это не только необходимый элемент образовательной программы, но и важный инструмент для профессиональной карьеры, личностного роста и коммуникации в глобальном мире. Однако многие студенты сталкиваются с проблемой недостаточной мотивации, когда учебный процесс становится рутинным и однообразным. Русский язык, несмотря на свою красоту и богатство, может показаться сложным и трудным для усвоения, особенно если студенты не видят непосредственной практической ценности в его изучении.

Студенты часто теряют интерес к учебе, если материал преподносится исключительно через теорию и традиционные методы. Сложная грамматика, большое количество исключений и теоретических правил могут привести к снижению мотивации, что, в свою очередь, затрудняет процесс овладения языком. Изучение русского языка для студентов — важная часть образовательного процесса, которая открывает новые возможности как в личностном, так и в профессиональном плане. Однако многие студенты сталкиваются с проблемами, которые могут существенно снизить их мотивацию и интерес к обучению. Русский язык известен своей сложной

грамматикой, огромным числом исключений, а также трудностью усвоения правил произношения и употребления падежей.

В целях достижения эффективности при обучении русскому языку необходимо предложить приемлемые способы и методы повышения интереса студентов к обучению русскому языку, выявить необходимые методы, которые могут сделать учебный процесс более увлекательным и ориентированным на практическое использование языка. Мы рассмотрим как традиционные, так и инновационные подходы, которые способны стимулировать мотивацию и поддерживать интерес на всех этапах обучения.

Чтобы повысить интерес студентов и сделать процесс обучения русскому языку более эффективным и увлекательным приведём несколько примеров.

1. Мобильные приложения для изучения языка. Мобильные приложения — это онлайн-платформы, предлагающие обучение русскому языку через интерактивные задания, которые используются для изучения лексики, грамматики, произношения и других аспектов языка. Мобильные приложения позволяют интегрировать обучение в повседневную жизнь студента. [3, 97] Студенты могут заниматься в любое удобное время — в перерывах, в транспорте, даже на ходу. К примеру, «игровой подход». В таких приложениях есть система уровней, очков и наград, что мотивирует студентов не останавливаться на достигнутом. «Легкость освоения». Задания чаще всего простые и короткие, что помогает быстрее усваивать материал и не перегружать память. «Удобство». Можно учить язык «по дороге», что делает обучение непрерывным и связанным с реальной жизнью. Студенты могут выбирать короткие и занимательные уроки, в которых они будут тренировать основные навыки языка — от базовых слов до сложных грамматических конструкций. При этом каждый выполненный урок вознаграждается виртуальными баллами.

Искусственный интеллект для персонализированного обучения. Искусственный интеллект используется для создания персонализированных обучающих маршрутов, которые адаптируются под уровень знаний каждого студента. Платформы, использующие искусственный интеллект, могут отслеживать успехи студентов, анализировать их ошибки и предлагать индивидуальные рекомендации по улучшению. [2, 67]

Искусственный интеллект позволяет преподавателям и платформам создавать адаптивные курсы, которые соответствуют индивидуальным потребностям студента. Он может анализировать прогресс, исправлять ошибки и предлагать дополнительные задания на основе того, что ученик уже знает или с чем у него возникают трудности. Искусственный интеллект позволяет создать обучение, соответствующее индивидуальным потребностям, интересам и способностям студента. «Мгновенная обратная связь». Студенты получают

подробные объяснения своих ошибок сразу после выполнения задания. «Динамичность обучения». Курс адаптируется к

каждому студенту, а значит, он будет двигаться в темпе, удобном для учащегося.

Онлайн-курсы с элементами геймификации и сообщества. [1, 75] Онлайн-курсы с элементами геймификации используют элементы игры — например, очки, уровни, награды и челленджи — для мотивации студентов. Также такие курсы часто предлагают функциональность для общения с преподавателями и другими студентами через форумы или чаты. Использование геймификации делает процесс обучения увлекательным и мотивирует студентов не останавливаться на достигнутом. Взаимодействие в рамках онлайн-сообщества помогает студентам обмениваться опытом, участвовать в обсуждениях, а также получать поддержку от сверстников и преподавателей. «Мотивация через соревнования». Курсы с элементами геймификации дают студентам возможность соревноваться друг с другом, что стимулирует их к активному обучению. «Поддержка сообщества». Форумы и чаты позволяют общаться, обмениваться идеями и получать советы от коллег, что развивает навыки общения. «Реальная оценка». Оценка за задания и достижение определённых уровней создают ощущение успеха. «Платформы для создания мультимедийных проектов». [4, 104] Создание мультимедийных проектов на русском языке позволяет студентам развивать не только языковые навыки, но и креативные способности. Они учат язык через создание контента, что помогает лучше закрепить лексику и грамматику, а также развивает визуальное восприятие. «Креативный подход к обучению». Студенты могут создавать собственные проекты, что помогает им развивать не только языковые, но и творческие способности. «Практическое применение языка». Создавая презентации или видеоролики, студенты используют язык в реальных ситуациях. «Обратная связь». [5, 30] Проекты можно показывать одногруппникам и преподавателю для получения обратной связи. Студенты могут создать видео о своём родном городе, используя русский язык, что помогает развить как письменные, так и разговорные навыки.

Таким образом, данные технологии не только делают процесс обучения более динамичным и интересным, но и позволяют студентам почувствовать реальную ценность изучаемого материала, предоставляя им возможность применить знания в реальных или приближённых к реальным ситуациях.

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Ермакова Т. В. «Геймификация в обучении: теоретические аспекты и практика применения в образовательных учреждениях». СПб.: Издательство СПбГУ. 2017.
2. Камышев В.В. «Современные технологии обучения иностранным языкам в условиях цифровизации образования». М.: Издательство "Наука". 2018
3. Левина Т.В. «Использование мобильных приложений для изучения иностранных языков». М.: Издательство "Высшая школа". 2020.
4. Николаева Н. И. «Инновации в обучении языкам: от традиционных методов к технологиям XXI века». М.: Логос. 2019.
5. Романова О.Г. «Методика обучения русскому языку как иностранному: современные тенденции и технологии». М.: Издательство "Русский язык". 2021.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYA FANINI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA 3D MODELINING AFZALLIGI

Aziz Saidmuratovich ILYASOV,

b.f.d, Navoiy innovatsiyalar universiteti profeesori Lola Sirojovna SADILLOYEVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti katta o‘qituvchisi Farog‘at Islomovna KAMOLOVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti katta o‘qituvchisi

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini takomillashuvi hamda o‘quvchilarning kompyuter texnologiyalariga bo‘lgan qiziqishi oshishi tufayli umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fanlarni, jumladan biologiya fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda va o‘quvchilarning darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etishda uch o‘lchovli o‘quv vositalarni joriy etish zaruriyati mavjudligini anglatadi. Bunday vaziyatda o‘qituvchi mashg‘ulotlarni tashkil etishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish taqozo etadi [1].

Shu bois, biologiya fani o‘qituvchilari doimiy ravishda o‘zi ustida ishlash oraqli o‘quvchilarning faolligi oshirib borishni talab etadi [2]. Agar o‘qituvchi “Biologiya” darslari davomida o‘quvchilarning faoliyatini bevosita nazorat qilsa va aloqada bo‘lsa, fanni mustaqil ravishda o‘rganish madaniyatini shakllantirish imkoniyatiga erishish mumkin.

Shuning uchun, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining “Biologiya” fanidan dars va darsdan tashqari o‘quv foaliyatida motivatsiyasini, qiziqishini, ijodiy qobiliyatini

oshirishga va kreativ fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvni ishlab chiqish lozim. Bu esa o'z navbatida "Biologiya" fanini axborot texnologiyalari vositalari, xususan uch o'lchovli o'quv vositalardan foydalanib tashkil etishni taqozo etadi [3]. Shu maqsadda tadqiqot doirasida "Biologiya" fanini o'qitish va o'quvchilarning darsdan tashqari o'quv faoliyatini tashkil etish modeli ishlab chiqildi (1-jadval). Taklif etilayotgan model tashkiliy, faoliyat va nazorat bloklaridan iborat. Tashkiliy qismida umumiy o'rta ta'lim maktablarida 9-sinf biologiya fanining o'qitish samaradorligini oshirishda uch o'lchovli o'quv vositalardan foydalanish vazifa sifatida keltirilgan.

1-jadval

Motivatsion-qiymatli

Yakka va jamoa bo‘lib amalga oshirish

Tadqiqot doirasida yaratilgan bio-3d.uz axborot ta’lim muhiti va mahalliy hamda xorijiy ta’lim portallari

Vositalar: uch o‘lchovli virtual stendlar, videodarslar, laboratoriyalar, ko‘rgazmali qurollar, izohli lug‘atlar.

Ta’lim texnologiyalari: muammoli, web-kvest.

Rivojlantiruvchi

Standart testlar

Baholash mezonlari

Natija – 9-sing biologiya faning o‘qitish samaradorligi oshadi

A’lo

Kognitiv-operatsion

Yaxshi

Qoniqarli

Tashkiliy-mazmunli

To‘garak

Uy sharoitida

Turli tadbirlar

PISA testlar

Darsdan tashqari

O‘qitish shakllari

Dars

Darajalar

Qoniqarsiz

FAOLIYAT BLOKI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biologiya faning o‘qitish samaradorligini oshirish modeli

TASHKILIY BLOK

MAQSAD – 9-sinf o’quvchilarining «Biologiya» fanidan kompetensiyalarini shakllantirish

VAZIFA – 9-sinf biologiya faning uch o‘lchovli o‘quv vositalar yordamida tashkil etish

Kompetensiyaviy yondashuv

Ta’limiy

Tarbiyaviy

Amalga oshirish

ketma ketligi

1. Motivatsiyasini oshirish; 2. Tasovvurini hosil qilish; 3. Mantiqiy fikrlashini shakllantirish; 4. Ijodiy qobiliyatini oshirish; 5. Kompetensiyalarini shakllantirish.

Shaxsiy-refleksiv

Faoliyat qismida kompetensiyaviy yondashuv asosida umumiy o‘rta ta’lim makatablarida 9-sinf biologiya fanini o‘qitish va o‘quvchilarning darsdan tashqari

NAZORAT BLOKI

o‘quv faoliyatini tashkil etish nazarda tutilgan. Chunki kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta’lim oluvchining kasbiy va shaxsiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini oshirishga hamda ma’lum bir vaziyatda o‘zining imkoniyatlarini yetarlicha baholashdan iborat [9].

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ustuvor yoʻnalishini E.F.Zeyerning quyidagilardan iboratligini taʼkidlaydi: oʻrganish; oʻzini-oʻzi anglash; oʻz taqdirini mustaqil belgilash; individuallikni rivojlantirish [4].

A.G.Bermusning fikriga koʻra, kompetensiyaga asoslangan yondashuv kompetensiyalarni «kesishgan, qoʻshimcha va metasubjetli tuzilmalar, anʼanaviy bilimlarni ham, har xil umumlashtirilgan intellektual, ijodiy, mafkuraviy, uslubiy, muloqot va boshqa koʻnikmalarni birlashtiradi» [5].

Y.I.Kuzminov, O.N.Griban larning taʼkidlashicha, taʼlim trayektoriyalarini individuallashtirish va oʻquvchilarning mustaqilligini oshirish uchun kompetensiyaga asoslangan taʼlimni joriy etish lozim. Ularning fikricha bu yondashuvda faqat bilimga yoʻnaltirilgan komponent bilan chegaralanib qolmaydigan, balki oʻqituvchi amalda foydalanadigan maʼlum koʻnikmalarni egallashni nazarda tutadigan taʼlim mazmunini nazarda tutadi. Ularning fikricha, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, birinchi navbatda, maʼlumotga ega boʻlishni emas, balki har xil, shu jumladan, yangi vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qobiliyatini ilgari suradi [6,7].

Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning muhim xususiyatlari protsessuallik va amaliyotga yoʻnaltirilganlikdan iborat. Protsessuallik shuni anglatadiki, kompetensiyaga asoslangan yondashuv bilimlarni oʻqituvchidan oʻquvchiga yetkazish emas, balki oʻquvchining assimilyatsiya qilish faoliyatiga qoʻshish va ijtimoiy-madaniy tajribani yanada takomillashtirishga qaratilgan. Amaliyotga yoʻnaltirish – bu oʻquvchining kundalik amaliyotida toʻgʻridan-toʻgʻri qoʻllashga yoʻnaltirish asosida real hayotga tayyorlashni nazarda tutadi. Shuningdek, oʻquvchining qobiliyat va malakalarini rivojlantirishga, oʻzini-oʻzi anglashga yoʻnaltirishga, berilgan topshiriqlarni bajarish orqali qiziqish, moyillik va qobiliyatni toʻliq hisobga olishga imkon beradi [8].

Keltirilgan tahliliy maʼlumotlar asosida aytish mumkinki, umumiy oʻrta taʼlim maktablarida biologiya fanini kompetensiyaviy yondashuvli oʻqitish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun tadqiqot doirasida ushbu gʻoya ilgari surilmoqda.

Bunda, yaʼni 9-sinf biologiya fanining kompetensiyaviy yondashuv asosida oʻqitishda uch oʻlchovli virtual stendlar, videodarslar, laboratoriyalar, koʻrgazmali qurollar, izohli lugʻatlar muhim pedagogik dasturiy vosita boʻlib xizmat qiladi. Shuning uchun ushbu oʻquv vositalarni oʻzida mujassamlashtirgan, global tarmoqning bio-3d.uz manzilida axborot taʼlim muhiti ishlab chiqildi.

Shundaya qilib, 9-sinf oʻquvchilarining taʼlim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan modeldan foydalanish taklif etiladi. Bunda biologiya taʼlim va tarbiya jarayoni zamonaviy taʼlim texnologiyalari asosida tashkil etilib,

bo‘quvchilarning mantiqiy, algoritmik, kreativ, kognitiv fikrlashini rivojlantirishga va kompetensiyalarini shakllantirishga erishiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biologiya fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda tadqiqot davomida taklif etilayotgan modeldan foydalanish taklif etiladi. O‘quvchilarga biologiya fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda va o‘quvchilarning darsdan tashqari o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishda didaktik ta’minotni takomillashtirish zarurati mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Shu maqsadda tadqiqot doirasida axborot ta’lim muhiti ishlab chiqildi va unga uch o‘lchovli o‘quv vositalar shakllantirildi. Ushbu axborot ta’lim muhiti o‘quvchilarning biologiya faniga bo‘lgan qiziqishini oshirishga va mustaqil ravishda tabiiy jarayon va

hodisalarni o‘rgatishga mo‘ljallangaligi bilan samarali hisoblanadi.

O‘quvchilarning biologiya faniga oid motivatsiyasini oshirishda, kreativ, kognitiv fikrlashini rivojlantirishda hamda kompetensiyalarini shakllantirishda mavzularni xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uch o‘lchovli o‘quv vositalardan foydalanish lozim.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 9-sinf biologiya darslarini tashkil etishda uch o‘lchovli o‘quv vositalardan foydalanish metodikasi takomillashtirildi.

O‘quvchilarning darsdan tashqari o‘quv faoliyatida biologiya fanini o‘rgatishda tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan tuzilmadan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda o‘quvchilarga biologiya fanini o‘rgatishda nafaqat uch o‘lchovli o‘quv vositalardan foydalanishni, balki turli darajadagi uch o‘lchovli o‘quv vositalarni ishlab chiqish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Karsenti T., Simon Collin S. Une étude sur les apports des ordinateurs portables au primaire et au secondaire [Электронный ресурс]. – URL: https://halshs.archives-ouvertes.fr/edutice-00676148/document.
2. Karsenti T., Fievez A. L`iPad à l’école: usages, avantages et défis [Электронный ресурс]. – URL: http://karsenti.ca/ipad/pdf/ rapport_iPad_Karsenti-Fievez_FR.pdf.
3. Крылова Т.И. Средства современных информационно-коммуникационных технологий в организации домашней работы по биологии // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – *Москва, 2010. – 18 с.*
4. Хуторской А.В. Современная дидактика //Учебное пособие. 2-е издание, переработанное. – М.: Высшая школа, 2007. – 639 с.

5. Zakirova F., Muxammadxanov U., Sharipov Sh. va boshqalar. Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi //Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2010. – 64 b.
6. Зеер.Э.Ф. Понятийно-терминологическое обеспечение компетентностного подхода в профессиональном образовании //Понятийный аппарат педагогики и образования. – М: Владос, 2007. – 592 с.
7. Shodiyev H.R. Uzluksiz ta'lim tizimida geografiyani o'qitishda axborot ta'lim muhitidan foydalanish metodikasini takomillashtirish //Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Navoiy – 2024. – 274 b
8. Шегай И.Н. Использование технологии 3D-моделирования как фактор развития внеурочной проектной деятельности школьников. Специальность

13.00.02 – теория и методика обучения и воспитания (информатизация

образования) Научный доклад об основных результатах научно-квалификационной работы Москва – 2019. – 23 с.

1. Sharapova G.V. Immunologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish (pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida) // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diccertatsiya. – Toshkent, 2022. – 159 b.

GAMIFIKATSIYA ASOSIDA ChET TILLARINI O'QITIShDA TALABALARNING O'QUV FAOLLIGINI OShIRISh (KAHOOT PLATFORMASI MISOLIDA)

N.N.BERDIQULOVA,

Navoiy innovatsiyalar Universiteti Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kafedrasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tillarini o'qitishda innovatsion axborot texnologiyalaridan, xususan, **Kahoot** platformasidan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'yin asosida o'qitish (**gamifikatsiya**) usuli orqali talabalar bilimini faollashtirish, motivatsiyani oshirish hamda interaktiv ta'lim muhitini yaratish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, Kahoot dasturining til o'rganishdagi amaliy afzalliklari, uni dars jarayoniga integratsiya qilish bosqichlari va o'qituvchi hamda talaba o'rtasidagi muloqotni jonlantirishdagi o'rni tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: chet tili o'qitish, Kahoot, gamifikatsiya, interaktiv ta'lim, axborot texnologiyalari, raqamli ta'lim muhiti.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qitish jarayonini raqamlashtirish va interaktiv vositalardan foydalanish dolzarb masalaga aylangan. Chet tillarini o'rganish sohasida

innovatsion yondashuvlardan biri bu — **gamifikatsiya**, ya'ni o'yin elementlarini ta'lim jarayoniga kiritishdir [1].

Kahoot platformasi o'qituvchilarga darslarni o'yin shaklida tashkil etish, test va savol-javoblarni jonli muhitda o'tkazish imkonini beradi. Bu esa talabalarni faol ishtirok etishga, raqobat muhitida bilimini sinovdan o'tkazishga va yangi so'z hamda grammatik tuzilmalarni mustahkamlashga yordam beradi.[4]

Asosiy qism

Kahoot — bu onlayn test yaratish va o'tkazish tizimi bo'lib, o'qituvchi "quiz", "survey" yoki "discussion" shaklida topshiriqlarni yaratadi. Talabalar esa smartfon yoki kompyuter orqali kirib, real vaqt rejimida javob berishadi.



(1-rasm. Kahoot platformasining umumiy ko'rinishi.)

Platformaning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- O'quvchilarning raqobatbardoshligi va motivatsiyasini oshiradi;
- Tezkor fikrlash va reaktsiya tezligini rivojlantiradi;
- Baholash jarayonini avtomatlashtiradi;
- Darsni jonli, qiziqarli va o'yin tusida o'tkazish imkonini beradi[5].

Chet tili o'qitish jarayonida Kahootdan foydalanish bosqichlari

1. **Tayyorlov bosqichi** – o'qituvchi mavzuga oid savollarni yaratadi (masalan, grammatika, lug'at, talaffuz bo'yicha).
2. **O'yin bosqichi** – talabalar real vaqt rejimida javob beradi, natijalar darhol ekranda aks etadi.

(2-rasm. O'yin bosqichi.)

1. **Tahlil bosqichi** – o'qituvchi javoblarni tahlil qiladi, xatolar ustida ishlaydi va yakuniy xulosalar chiqaradi.

All (11) Need help (2) Didn't finish (2)

Nickname	Rank	Correct answers
Sevara	1	70%
Ezoza	2	60%
Annji	3	60%
Gulhayo	4	50%
Nozima	5	50%
Durdona	6	50%
Mashhura	7	50%

(3-rasm. Natijaning umumiy ko'rinishi)

Kahoot platformasidan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

- ◦ Talabalar dars jarayonida faol ishtirok etadi, passiv o'quvchi qolmaydi;
  ◦ O'yin shakli motivatsiyani oshiradi va raqobatni kuchaytiradi;
  ◦ Natijalar darhol ko'rinadi, bu esa o'qituvchi uchun baholashni yengillashtiradi;
  ◦ Til amaliyotini rivojlantiradi, ayniqsa leksik va grammatik mashqlar uchun samarali.

Tajriba natijalari

Tajriba sifatida ikki guruh talabalarga test o'tkazilgan: biri an'anaviy usulda, ikkinchisi esa Kahoot platformasi yordamida. Natijada Kahootdan foydalangan

guruhning oʻzlashtirish darajasi oʻrtacha **20–25%** yuqori boʻlgani kuzatilgan. Bu platforma oʻquvchilarning e'tiborini jalb qilish, tez fikrlash va birgalikda ishlash koʻnikmalarini kuchaytirganini koʻrsatadi.

Kahoot platformasi — chet tillarini oʻqitishda oʻyin elementlarini joriy etish orqali ta'lim jarayonini samarali, interaktiv va motivatsion qilish imkonini beruvchi zamonaviy vositadir. U oʻquvchilarning bilim darajasini baholash, faol ishtirokni ragʻbatlantirish va kommunikativ koʻnikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, zamonaviy chet tillarini oʻqitish metodikasida Kahoot kabi interaktiv axborot texnologiyalaridan foydalanish oʻqituvchi va talabalar uchun katta imkoniyatlar yaratadi hamda raqamli ta'lim sifatini oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Charos Nazarova — "Gamifikatsiya usuli chet tilini oʻrganish motivatsiyasini oshirish vositasi sifatida" nashr qilingan: 2024 .
2. Mahliyo Ilhomovna Bahodirova — "Zamonaviy texnologiyalar yordamida chet tillarni oʻqitishning innovatsion usullari" nashr qilingan: 2025 .
3. Munisa Qurbonaliyeva & S. Yoʻldosheva — "Yosh chet tili oʻrganuvchilarini ajoyib usullar bilan samarali oʻqitish" nashr qilingan: 2022 .
4. Gulbaev N. A., Martsinkovskaya A. V. "Kahoot – oʻquv platformasi haqida". Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2024, Vol. 2 No. 3, 310-314.
5. Kasimova Yulduz Malikovna. "Kahoot texnologiyasi ta'limda: samaradorligi va ustunliklari". AcademiaOne (Open Herald: Periodical of Methodical Research), 2024.

EUPHEMISTIC LANGUAGE AND CULTURAL EXPRESSION IN OYBEK'S NAVOIY

GULNORA ABDUGʻANIYEVNA MAVLONOVA, TEACHER AT NAVOI INNOVATIONS UNIVERSITY

Oybek's historical novel *Navoiy* (1944) is one of the foundational works of Uzbek literature in the Soviet period. The novel is a fictionalized biography of the 15th-century statesman, poet, and Sufi scholar Alisher Navoiy, exploring the intellectual and political landscape of the Timurid Empire through poetic and reflective language. One of the most remarkable stylistic features of the text is its rich use of euphemisms — rhetorical devices that soften or indirectly refer to taboo or distressing topics such as death, illness, emotional suffering, and disgrace.This article proposes a linguistic and aesthetic study of euphemisms in *Navoiy*, focusing

on their cultural, semantic, and stylistic functions within the Uzbek literary context. Euphemisms in the novel do more than soften harsh realities; they embody values of dignity, emotional restraint, and spiritual eloquence characteristic of both Alisher Navoiy's time and Oybek's own artistic vision.

The research answers three key questions:

1. What semantic types of euphemisms are used in the novel?
2. How do euphemisms contribute to the character development, narrative tone, and historical authenticity of the work?
3. What do euphemisms reveal about the linguistic ethics and cultural codes of the Central Asian literary tradition?

Theoretical Background: What Is a Euphemism?

A **euphemism** is "a mild or indirect term used in place of one considered too harsh, blunt, or unpleasant" [3, p. 11]. Euphemisms have multiple functions:

- ◦ Politeness (avoiding social offense)
  ◦ Emotional protection (softening painful content)
  ◦ Aesthetics (enhancing literary beauty)
  ◦ Cultural preservation (reflecting religious or moral beliefs)

Allan & Burridge (1991) describe euphemism as a necessary linguistic practice found in all cultures, especially where religious, social, or psychological sensitivity exists. In literature, euphemisms become a tool for constructing tone, conveying emotion, and creating cultural atmosphere.

In Uzbek classical and modern prose, euphemism is especially common regarding:

- Death and afterlife
- Illness and aging
- Love and emotional states
- Fate, shame, or misfortune
- Social taboos or private matters

Oybek's novel *Navoiy* reflects this tradition through gentle, poetic phrasing that aligns with Navoiy's cultural and spiritual values.

Euphemisms in Oybek’s Navoiy: Linguistic Analysis

Below are 15 examples of euphemisms found in the novel, with Uzbek excerpts, English equivalents, and analysis of their function.

1. “Koʻzi yumuq ketdilar” — He departed with closed eyes “Amirkoja koʻzi yumuq ketdilar.”

“Amirkhoja departed with closed eyes.”[1, p. 202]

1. “Umrlari yetdi” — His time had come

“Umrlari yetganda, saroy ahli chuqur qaygʻuga botdi.”

“When his time had passed, the court fell into deep sorrow.”[1, p. 201]

Avoids direct mention of death (“oʻldi”) in favor of a religiously grounded phrase implying divine destiny.

1. “Oʻlim yengil keldi” — Death came lightly “Shohbekka ham oʻlim yengil keldi.”

“Death came gently to Shahbek.” [1, p. 218]

Softens the burden of mortality, highlighting peaceful acceptance.

1. “Yotib qoldilar” — Took to bed (became ill) “U zotning dardlari kuchayib, yotib qoldilar.”

“His ailments grew stronger, and he took to bed.”[1, p. 157]

Instead of “juda ogʻir kasal boʻldi” (fell seriously ill), the euphemism protects the dignity of the person mentioned.

1. “Koʻngli vayron boʻldi” — Her heart was shattered “Dilshod begimning koʻngli vayron boʻldi.”

“Lady Dilshod’s heart was shattered.”[2, p. 277]

Euphemistic metaphor for “she suffered deeply,” but with heightened aesthetic sensitivity.

1. “Qalbiga sovuq tushdi” — A chill fell into his heart “Navoiy bu xabarni eshitgach, qalbiga sovuq tushdi.”

"Upon hearing the news, a chill fell upon Navoiy's heart." [2, p. 243] Highlights shock and emotional disturbance while using poetic imagery.

1. "Baxti qaro bo'ldi" — His fate turned dark "Uning baxti qaro bo'ldi, yo'li tusiq bo'ldi."

"His fate turned dark; his path was blocked." [2, p. 249]

A culturally loaded euphemism for tragic destiny, failure, or disgrace.

1. "O'z yo'liga ketdi" — He went on his way (passed away or left quietly) "Qari usta o'z yo'liga ketdi, hammaga izzat ko'rsatib."

"The old master went on his way, after showing respect to all." [1, p. 142]

A farewell expression used for someone who died or stepped away quietly from society.

1. "O'zi bilan olib ketdi" — Took it with him (to the grave) "U kunlaru tunni o'zi bilan olib ketdi."

"He took those days and nights with him."[2, p. 263] Means the person died with a secret or memory unshared.

1. "El ichidan yitdi" — He disappeared from the people "U kishi el ichidan yitdilar."

"He vanished from among the people." [1, p. 229]

A graceful way to imply death, exile, or social disappearance.

1. "Qadam qo'ymas edi" — Would not set foot (a polite refusal) "Bunday joyga davlatmand odam qadam qo'ymas edi."

"A man of rank would not set foot in such a place."[4, p. 76] Dismisses negativity without harshness.

1. "Gapni aylantirib keldi" — He circled around the matter "Amakim gapni aylantirib keltirdilar."

"My uncle circled around the issue." [4, p. 92]

A euphemism for indirect speech or hesitation — a valued trait in polite rhetoric.

1. "Ko'nglidan o'tdi" — It passed through his heart (he wished) "Ko'nglidan o'tdi: balki, baxt nasib qilsa..."

"It passed through his heart: perhaps, if fate allowed..." [2, p. 154] Instead of "he wanted," this euphemism adds modesty and sincerity.

1. "Yuzini yerga qaratdi" — He lowered his face (fell into shame)

"Xoinning yuzini yerga qaratdilar."

"They brought the traitor's face to the ground."[4, p. 119]

Subtle way of expressing public disgrace without stating it directly.

1. "Yuragi zang bosdi" — His heart rusted (lost hope) "Necha yillar o'tdi, yuragi zang bosdi."

"Years passed, and his heart gathered rust."[2, p. 311] An emotional euphemism for despair or spiritual decay. **Cultural and Stylistic Significance**

The euphemisms in Navoiy reflect not only the character and setting of the narrative but also timeless principles of Uzbek ethics:Respect for the dead: Death is rarely expressed directly; phrases like "ko'zi yumuq ketdi" or "umri yetdi" reflect faith in divine will.Emotional restraint: Sorrow or trauma is expressed symbolically ("ko'ngli vayron bo'ldi").Preference for metaphoric cognition: Euphemisms become part of poetic folklore and contribute to the imagery of the text. Orality and modesty in communication: Many euphemisms derive from traditional speech patterns. Thus, Oybek writes not merely with historical accuracy but with cultural reverence — forming a bridge between medieval court culture and 20th-century Uzbek prose.

Oybek's skillful use of euphemisms in Navoiy enriches the linguistic fabric of the novel while preserving the moral, spiritual, and cultural sensitivities of the historical era it depicts. Euphemisms in the narrative soften direct references to painful events, uphold the dignity of characters, and engage readers through metaphor and subtle emotional depth. As this study has shown, euphemism is not only a linguistic strategy but also an aesthetic and ethical one — shaping the reader's engagement with the text and revealing cultural layers of meaning. This analysis may be extended by comparing euphemism use across other Uzbek novels or examining how euphemisms evolve in contemporary Uzbek prose.

REFERENCES

1. Oybek. Navoiy. Translated by I.M. Tukhtasinov & O.M. Muminov. Tashkent, 2016.
2. Oybek. Navoi: A Historical Novel. Translated by H. Khodzhiakhmedov. Tashkent, 2019.

3. Allan, K., Burridge, K. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. New York, 1991.
4. Qosimov, B. O'zbek Badiiy Tilida Evfemizmlar. Tashkent, 2006.
5. Karimov, A. Oybek: Hayoti va Ijodi. Tashkent, 1982.
6. Alisher Navoiy. Hayrat ul-Abror. Tashkent, 1968.
7. Sharipov, S. Til va Tafakkurda Evfemik Hodisalar. Tashkent, 2011.
8. Rehman, S. "Euphemisms across Cultures." Journal of Cross-Cultural Linguistics, 2018.
9. Fishman, J. Language and Symbolic Power. Cambridge, 1989.
10. Mukhtorova, D. Tarixiy Nasrda Badiiy Tasvir. Tashkent, 2015.

FLIPPED-TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

MATLUBA MAHMUD QIZI TOJIYEVA,

Navoiy innovatsiyalar universiteti ingliz tili o'qituvchisi, Navoiy davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

Yuqori sinf o'quvchilarida ingliz tilida gapirish (speaking) ko'nikmasini rivojlantirish hozirgi zamon ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biridir. Gapirish chet tili kompetensiyasining asosiy komponenti sifatida o'quvchining muloqotga kirishish, fikrni aniq ifodalash va real vaziyatda nutqiy faoliyat yurita olish qobiliyatini belgilaydi (Harmer, 2007). Shu bois, zamonaviy pedagogika o'qitishning an'anaviy, passiv modellaridan faol va o'quvchi ishtirokiga asoslangan texnologiyalarga o'tishni talab qilmoqda (Kharisova, 2019).

So'nggi yillarda bu borada **Flipped Classroom (teskari sinf)** texnologiyasi eng samarali yondashuvlardan biri sifatida tan olingan. Bergmann va Sams (2012) bu modelni "ta'lim jarayonini o'quvchining shaxsiy faol ishtirokiga o'tkazuvchi inqilobiy tizim" sifatida ta'riflaydi. Unga ko'ra, nazariy bilimlar darsdan oldin onlayn formatda o'zlashtiriladi, dars vaqti esa muloqot, muhokama va amaliy mashg'ulotlar uchun ajratiladi. Bunday yondashuv o'quvchining mustaqil o'rganish mas'uliyatini kuchaytirib, sinf vaqtini og'zaki muloqot faoliyatiga yo'naltiradi (Abduqodirov, 2021; Maqsudov, 2020).

Flipped ta'lim modeli ayniqsa **gapirish kompetensiyasini rivojlantirishda** samarali natija beradi, chunki u o'quvchilarni faol ishtirok etishga, o'z fikrini erkin ifodalashga, va o'rganilgan so'z boyligini amaliy nutqda qo'llashga majbur qiladi. Shukurov va G'aniyev (2019)ning tadqiqotida qayd etilishicha, flipped darslarda o'quvchilarning nutq faolligi va dars davomida ingliz tilida muloqot qilish chastotasi ikki

baravar oshgan. Bunda video-lektsiyalar, guruhli rolli o‘yinlar, interaktiv topshiriqlar va muhokama mashg‘ulotlari muhim o‘rin tutadi.

Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar ham bu xulosani tasdiqlaydi. Kim va Jeong (2014) Koreya o‘quvchilari bilan o‘tkazgan tajribasida flipped learning modeli o‘quvchilarning gapirishdagi **ravonlik (fluency)** va **grammatik to‘g‘rilik (accuracy)** ko‘rsatkichlarini an’anaviy metodga nisbatan yuqori darajada yaxshilaganini ko‘rsatgan. Xuddi shuningdek, Jang va Hwang (2018) flipped classroom texnologiyasi o‘quvchilarning **interaktiv nutq faoliyati**ni, ya’ni savol-javob, fikr almashish, hamkorlikdagi yechim izlash kabi kommunikativ jarayonlarni faollashtirganini ta’kidlaydi.

O‘zbekiston olimlari ham bu yondashuvning amaliy ahamiyatiga e’tibor qaratmoqda. Abduqodirov (2021) flipped modelni “ta’lim jarayonida o‘quvchining shaxsiy faolligini, ijodiy fikrlashini va o‘z-o‘zini boshqarish malakasini kuchaytiruvchi mexanizm” sifatida baholaydi. Maqsudov (2020) esa flipped metodika orqali ingliz tili darslarini interaktiv tarzda tashkil etish, o‘yin elementlarini qo‘shish va mustaqil video-tahlillar asosida og‘zaki nutqni rivojlantirish yo‘llarini amaliy jihatdan asoslagan.

Til o‘rganishda motivatsiya ham muhim omil sanaladi. Kharisova (2019) innovatsion texnologiyalar motivatsiyani rag‘batlantiruvchi omil sifatida xizmat qilishini qayd etib, flipped model aynan shu jihati bilan o‘quvchilarni o‘z-o‘zini o‘rganishga undashini ta’kidlaydi. Serrano va Muñoz (2020)ning Ispaniyada o‘tkazilgan tadqiqotlari esa flipped classroom texnologiyasi **og‘zaki muloqot jarayonini tabiiylashtirishga**, ya’ni o‘quvchilarni real hayotiy nutq holatlariga tayyorlashga yordam berishini isbotlagan.

Bundan tashqari, Iskandarova va Muminbayeva (2025) maktab yoshidagi bolalarda ingliz tilida gapirish ko‘nikmasini shakllantirishga bag‘ishlangan ishlarida interaktiv metodlar, o‘yinli topshiriqlar va **til muhitini yaratish** orqali o‘quvchilarda tabiiy muloqot sharoitini vujudga keltirish samarali ekanini ta’kidlashgan, 176-180. Ushbu g‘oya flipped darslar konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi, chunki unda ham o‘quvchilar real hayotga yaqin kommunikativ faoliyatga jalb etiladi.

Demak, Flipped Classroom texnologiyasi asosida yuqori sinf o‘quvchilarining gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish mazmuni quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Oldindan mustaqil tayyorlanish bosqichi** – o‘quvchilar video, audio yoki matnli materiallar orqali yangi mavzuni o‘rganadilar (Bergmann & Sams, 2012).
2. **Sinfdagi interaktiv bosqich** – o‘quvchilar juftlikda yoki guruhda fikr almashadi, rolli o‘yinlar va munozaralarda qatnashadi (Shukurov & G‘aniyev, 2019).
3. **Refleksiya va tahlil bosqichi** – o‘quvchilar o‘z chiqishlarini tahlil qiladi, o‘qituvchi esa mulohaza (feedback) beradi va xatolar ustida ishlaydi (Abduqodirov, 2021).

ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov, A. (2021). *Flipped Classroom: O'qitishda yangi yondashuv*. Toshkent.
2. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day. Washington D.C.
3. Kharisova, F. (2019). Innovatsion texnologiyalar va ta'limda ularning roli. Toshkent.
4. Maqsudov, O. (2020). Ta'limda interaktiv texnologiyalar va flipped classroom metodikasining ahamiyati. Toshkent.
5. Shukurov, B., & Ganiev, R. (2019). Flipped classroom metodikasining ta'lim jarayonidagi o'rni, 56–64-betlar.
6. Jang, S. H., & Hwang, G. J. (2018). Effects of the flipped classroom model on students' learning outcomes.
7. Kim, M. K., & Jeong, S. W. (2014). Flipped learning for English language learners, 835–857-betlar.
8. Serrano, J. A., & Muñoz, M. (2020). Flipped classroom for promoting English language learning.

ChET TILLARINI O'QITIShDA ZAMONAVIY FILOLOGIK TADQIQOTLAR VA INNOVATSION AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

AKBARJON ODILJON O'G'LI OZOTOV,

Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tillarini o'qitish jarayonida zamonaviy filologik tadqiqotlar va innovatsion axborot texnologiyalarining o'zaro integratsiyasi tahlil qilingan. Tadqiqotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning ta'lim jarayoniga ta'siri, til o'qitish samaradorligini oshirishdagi roli hamda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, filologik tadqiqotlarda chet tilini o'qitishda interfaol va multimediya vositalaridan foydalanish metodik jihatdan asoslab berilgan. Maqola yakunida AKT vositalarini samarali qo'llash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: filologik tadqiqot, innovatsion texnologiya, chet tili, nutq kompetensiyasi, interfaol metodika.

Bugungi globallashuv davrida chet tillarini o'qitish ta'lim tizimining ajralmas va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chet tilini o'rganish nafaqat lingvistik bilimlarni egallash, balki til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglash, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish, shuningdek raqamli muhitda samarali ta'lim olish va berish ko'nikmalarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi natijasida til o'qitish jarayoni

yangi bosqichga koʻtarildi. Ushbu texnologiyalar ta'lim jarayoniga chuqur integratsiyalashib, oʻqitishning samaradorligini oshirish, oʻquvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish va mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish kabi ijobiy natijalarga sabab boʻlmoqda. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, AKTdan foydalanish geografik yoki ekologik sharoitdan qat'i nazar, chet tilini oʻrganish jarayonida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Ushbu maqolada biz quyidagi masalalarni tahlil qilamiz:

1. Zamonaviy filologik tadqiqotlar nuqtayi nazaridan chet tilini oʻqitish jarayonida shakllanayotgan asosiy tendensiyalar;
2. Innovatsion axborot texnologiyalarining chet tillarini oʻqitish metodologiyasiga integratsiyasi;
3. Ushbu jarayonning amaliy jihatlari va dolzarb muammolari.

Maqolaning asosiy maqsadi – filologik tadqiqotlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini uygʻunlashtirish orqali chet tillarini oʻqitish jarayonini modernizatsiya qilish, hamda ushbu yoʻnalishda ilmiy-nazariy yondashuvlarni takomillashtirishdan iborat. Chet tilini oʻqitish metodologiyasi tarixan turli yondoshuvlarni oʻz ichiga olgan boʻlib, ular orasida grammatik–tarjima va kommunikativ metodlar uzoq vaqt davomida asosiy oʻrin egallab kelgan. An'anaviy grammatik-translation yondoshuvida asosiy e'tibor til strukturasi, qoidalar va tarjima koʻnikmalarini shakllantirishga qaratilgan boʻlsa, kommunikativ

yondoshuvda oʻquvchining real muloqotda tilni faol qoʻllay olishi ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Soʻnggi yillarda esa ta'lim jarayonida talaba markazli yondoshuv va interfaol metodlar tobora koʻproq ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy til oʻqitish metodikasi oʻquvchining passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanishini ta'minlashga qaratilgan. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, onlayn manbalar, multimedia vositalari, mobil ilovalar, web-questlar hamda loyiha asosidagi oʻqitish kabi innovatsion texnologiyalar chet tilini oʻrganish jarayonida oʻquvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va ularning til oʻrganishga boʻlgan motivatsiyasini oshiradi. Filologik yoʻnalishdagi tadqiqotlar bu borada bir qator qiziqarli natijalarni koʻrsatgan. Masalan, AKT asosida tashkil etilgan ta'lim guruhlarida talabalarning til bilish darajasi (proficiency) an'anaviy oʻqitish usullariga qaraganda sezilarli darajada yuqori boʻlgani aniqlangan. Shu yoʻnalishdagi bir tadqiqotda Cohen's d =

1.05 koʻrsatkichi qayd etilib, bu oʻrtacha ta'sir darajasidan ancha yuqori natija sifatida e'tirof etilgan [1, 134-b.]. Shuningdek, AKT va CLIL (Content and Language Integrated Learning) kabi integratsiyalangan yondoshuvlarning maktab bosqichida chet tilini oʻrganish samaradorligini oshirishi ham ilmiy asosda isbotlangan (MDPI). Boshqa tomondan, chet tilini samarali oʻqitishda oʻqituvchilarning raqamli koʻnikmalari va

texnologiyalarni qoʻllashga tayyorligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. DOAJ nashrida e'lon qilingan maqolada ta'kidlanishicha, raqamli texnologiyalarni faol qoʻllaydigan yosh oʻqituvchilar talabalarda til oʻrganishga boʻlgan qiziqishni oshiradi, oʻquv jarayonini esa yanada interfaol va dinamik qiladi [2, 81-b.]. Umuman olganda, zamonaviy filologik tadqiqotlar chet tilini oʻqitishda texnologik vositalar bilan boyitilgan interfaol metodlarning samaradorligini tasdiqlamoqda. Shu bilan birga, bu yondoshuvlarning muvaffaqiyatli qoʻllanilishi uchun oʻqituvchilarning yetarli tayyorgarligi, ta'lim muassasalarida texnologik infratuzilmaning rivojlanganligi va metodik qoʻllab-quvvatlash tizimi zarurligi ham aniqlangan. Aks holda, innovatsion metodlarning amaliy samarasini toʻliq namoyon etish qiyinlashadi [3, 66-b.]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) chet tilini oʻqitish jarayonida didaktik imkoniyatlarni kengaytirib, oʻquv faoliyatini interfaol, moslashuvchan va samarali qiladi. AKT yordamida oʻqituvchi har bir talabaga individual yondashishi, ularning ehtiyoj va qobiliyatiga mos topshiriqlarni taqdim etishi, shuningdek real til muhitiga yaqin sharoit yaratishi mumkin.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, internet-resurslardan foydalanish talabalar qiziqishini oshirib, ularni amaliy muloqotga faolroq jalb etadi. Chet tilini oʻqitishda AKTning eng muhim vositalariga multimedia, onlayn platformalar, mobil ilovalar va interfaol metodlar kiradi. Multimedia resurslari darsni jonlantirib, talabalarning motivatsiyasini oshiradi [4, 169-b.]. Oʻzbekistonda esa "podkastlar, TED-ma'ruzalar, onlayn resurslar va mobil ilovalar" ta'lim jarayonida keng qoʻllanilmoqda. Shuningdek, loyiha asosidagi oʻqitish va web-questlar talabalarni mustaqil izlanishga undaydi. AKT integratsiyasining asosiy afzalliklari – talaba markazli yondoshuv, real til muhiti bilan yaqinlik, hamda til oʻrganishga motivatsiyaning oshishidir. Masalan, bir universitet tajribasida AKT joriy etilgach, talabalar oʻrtasida muloqotga kirish darajasi va tilga qiziqish sezilarli oshgani qayd

etilgan (DOAJ) [5, 62-b.]. Shu bilan birga, AKTdan foydalanish ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda: oʻqituvchilarning texnologik tayyorgarligi yetarli emasligi, texnik infratuzilmaning cheklanganligi va resurslarga teng kirish imkoniyatining yoʻqligi (MDPI) [6, 89-b.]. Filologik tadqiqotlar natijalariga koʻra, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish nafaqat texnik, balki metodik va lingvistik yondoshuvni ham takomillashtiradi. Masalan, multimedia texnologiyalari tilni oʻrganishda vizual va audio komponentlarni birlashtirib, muloqot va tushunish jarayonini chuqurlashtiradi. AKTga asoslangan treninglar talabalarning til kompetensiyasini oshirib, an'anaviy oʻqitish natijalariga nisbatan yaxshiroq koʻrsatkichlarni namoyon etgan. Amaliy tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, innovatsion texnologiyalar kichik guruhlar va maxsus kurslarda yuqori natijalar beradi, biroq keng miqyosda joriy etish uchun oʻqituvchilarning malakasi va texnik infratuzilmaning rivojlanganligi muhim omil sanaladi [7, 62-b.]. Shu bois, ta'lim jarayonida texnologiyani qoʻllash bilan bir qatorda metodik qoʻllab-quvvatlash tizimlari ham ishlab chiqilishi lozim. Oʻzbekistonda AKT asosida chet tilini oʻqitish boʻyicha qator

ishlanmalar mavjud. Mobil ilovalar, podkastlar va onlayn resurslardan foydalanish talabalar faolligini oshirib, motivatsiyani kuchaytirayotgani aniqlangan.[8] Biroq muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun bir necha shartlar zarur:

- ◦ o'qituvchilar uchun muntazam raqamli malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
  ◦ ta'lim muassasalarida barqaror internet va texnik infratuzilmani yaratish;
  ◦ texnologiyalarni metodik maqsadga muvofiq qo'llash;
  ◦ onlayn muloqot, audio-video materiallar, virtual suhbatlar kabi vositalardan foydalanib real til muhiti yaratish. Shuningdek, talabalarning mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish uchun interaktiv topshiriqlar, mobil yordamchi dasturlar va onlayn platformalarni rivojlantirish muhim [9, 102-b.]. Shu bilan birga, mavjud muammolar – o'qituvchilarning texnologik tayyorgarligi, resurslar tanqisligi va budjet cheklovlari – hal etilishi uchun davlat va ta'lim muassasalari hamkorligida raqamli infratuzilmaga sarmoya kiritish lozim.

Xulosa qilib aytganda, AKT va innovatsion texnologiyalar chet tilini o'qitishda motivatsiya, faollik va kommunikativ kompetensiyani oshiruvchi kuchli vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ammo bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun metodik, tashkiliy va texnik asoslar yetarli darajada mustahkamlanishi zarur [10, 60-b.]. Ushbu maqola orqali ko'rildi-ki: filologik tadqiqotlar chet tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini bir necha jihatdan tasdiqlagan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari til o'qitish jarayonini interfaol, individualizatsiyalangan va motivatsiyaviy jihatdan boy qilib beradi. Shu bilan birga, texnologiyalarning to'liq foydasi faqat metodik jihatdan to'g'ri integratsiya qilinganida va zarur sharoitlar yaratilganida yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR

1. Alonso, M., & Gutiérrez, R. (2023). Integration of ICT in Foreign Language Education: Challenges and Opportunities. Education Sciences, 13(1), 73. MDPI. https://www.mdpi.com/2227-7102/13/1/73.
2. Rahimova, N. (2024). Innovative Technologies in Learning Foreign Languages: Methodological Approaches and Results. International Scientific Journal of Education and Linguistics (ISJEL). https://isg-journal.com/isjel/article/view/891.
3. Chen, L., & Park, J. (2023). ICT-Based English Learning and Teacher Readiness: An Empirical Study. Frontiers in Language Studies, 5(2), 45–59. Bilpub Group. https://journals.bilpubgroup.com/index.php/fls/article/view/8822.
4. Klimenko, O., & Sydorenko, A. (2022). Digital Competence of Language Teachers in the Context of ICT Implementation. DOAJ Open Access Journal. https://doaj.org/article/68535d2f2a9a4cd69282958854b52d4a.

5. Yusupova, D. (2023). Axborot texnologiyalarining chet tillarini oʻqitishdagi oʻrni. FLL Scientific Journal, 4(5), 22–29. JDPU. https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/fll/article/view/895.
6. Petrova, L. (2016). Innovative Technologies in Learning: Pedagogical Analysis. Scientific Conference Proceedings, 18, 155–160. https://scientific-conference.com/images/PDF/2016/18/innovative-technologies-in-learning.pdf.
7. Abdullayeva, S. (2024). Chet tillarini oʻqitishda AKTdan foydalanish imkoniyatlari. Open Science Uzbekistan Journal, 12(4), 65-72. https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5367.
8. Nasriddinova, M. (2024). Multimedia vositalari orqali chet tilini oʻqitish samaradorligi. Global Education Journal (GEJ), 9(2), 31-38. https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/296.
9. Kurbanova, Z., & Tursunov, B. (2023). Filologik tadqiqotlarda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish. International Conference on Education and Research (INTERONCONF). https://interonconf.org/index.php/ger/article/view/10534.
10. Nguyen, H. T. (2023). Digital Language Learning and Pedagogical Challenges: A Systematic Review. LingCure Journal, 7(1), 58–75. https://lingcure.org/index.php/journal/article/view/1327.

OʻSMIRLARDA MILLIY IDENTIVLIKNI SHAKLLANTIRISHDA BADIIY ADABIYOTLARNING OʻRNI

MALIKA LUTFULLO QIZI QAHHAROVA, NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

Annotatsiya: Ushbu maqolada oʻsmirlarda milliy identivlik rivojlanishi millatga xos boʻlgan fazilatlarni shakllantirish, milliy iftixor, milliy gʻurur paydo boʻlishiga koʻmaklashishda badiiy adabiyotlarning beqiyos oʻrni yozuvchilarning asarlari orqali tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: oʻsmirlik davri, milliy identivlik, badiiy adabiyot, milliy qadriyat, vatanparvarlik, tarbiya, madaniy meros.

Jonajon Oʻzbekistonimizda soʻnggi yillarda har bir mamlakatimiz a’zosi barcha sohalarda boʻlayotgan oʻzgarishlarni his qilmoqda shu vatanning a’zosi

sifatida bu oʻzgarishlar bizga faxr, iftixor va gʻurur tuygʻusini beradi. Ayniqsa bu kabi oʻzgarishlarning yorqin namoyondasi sifatida yurtimizda kitobxonlikka boʻlgan e’tiborni alohida ta’kidlashimiz zarur. Hozirgi kunda hech qaysi yurtda bu kabi millatni kitobga boʻlgan muhabbatini oshirish borasida bunday keng tarmoqli va tizimli ishlar kam. Bu islohotlarni rahnamosi sifatida Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichni xizmatlari beqiyosdir. Yurtboshimizning quyidagi qarori bu boradagi ishlar uchun dastlabki qadam boʻldi. “..Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh

qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari mamlakatda amalga oshirilayotgan oʻzgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos boʻlishi zarur. Shu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish boʻyicha konstitutsiyaviy huquqlarini, shu jumladan milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand boʻlishini taʼminlaydigan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari koʻrsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda" [1.1b]. Shuning bilan birga har bir insonning ichki dunyosini boyishida ruhiy barqarorlikka erishishda badiiy adabiyotlarning oʻrni beqiyos hisoblanadi. Chunki badiiy asar nafaqat ichki his-kechinmalarini balki xarakter xususiyatlarini -da oʻzgartra olishi va maqsad qoʻyishda olgʻa intilish uchun kuch topishda koʻmakchi boʻla oladi.

Ayniqsa inson shaxs sifatida shakllanishida birin ketin yosh davrlarning oʻrni va ahamiyati bilvosita va bevosita taʼsir koʻrsata boradi. Koʻpchilikda ogʻir va hatto oila aʼzolarini-da oʻylantiradigan davr bu oʻsmirlik yoki xalqimiz tilida aytganda oʻtish davridir. Aslida oʻsmirlik davri globallashuv jarayonlari bilan bogʻliq boʻladi. Chunki globallashuv davri bu davrni yanada jadallashishi uchun xizmat qiladi. Masalan oʻsmirlik davri bundan bir necha yil oldin ancha sodir boʻlllllllh kechroq yaʼni 15-16 yoshda sodir boʻlgan boʻlsa, Bugungi kelib 11 yoshdayoq sodir bolalar bu davrni boshdan oʻtkazmoqdalar. Globallashuv, raqamli madaniyat va ommaviy axborot vositalarining kundan-kunga kengayishi yoshlarning dunyoqarashi va oʻzligini anglash jarayoniga kuchli taʼsir koʻrsatmoqda. Shu jarayonda milliy identivlikni shakllantirish masalasi taʼlim tizimining eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. Oʻsmirlik davrida bu jarayon faol kechadi, chunki aynan shu yosh davrda shaxs oʻzligini anglashi va jamiyat, millat va madaniyat bilan bogʻlashni boshlaydi. Jamiyat aʼzolari bilan esa keng muloqot oʻrnatish uchun harakat qiladi. Oʻsmirlar milliy oʻzligini anglashda faqat nazariy tushunchalarga emas, balki his-tuygʻular orqali oʻz xalqining tarixiy xotirasi va maʼnaviy qadriyatlarini his etishga muhtoj boʻladilar. Shu nuqtada badiiy adabiyot ulkan tarbiyaviy va maʼnaviy kuchga ega boʻladi.

Milliy identivlik — bu insonning oʻzini maʼlum millat, madaniyat va tarixiy qadriyatlar tizimiga mansub deb bilishi, shu asosda oʻz "men"ini anglashidir. Oʻsmirlik yoshida shaxsning ijtimoiy identivligi, dunyoqarashi, qadriyat tizimi shakllanadi. Shu bois, bu davrda yoshlarning milliy oʻzligini toʻgʻri yoʻnaltirish,

ularni milliy qadriyatlarga tayangan holda tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik jihatdan oʻsmirlar oʻzlariga oʻxshash, lekin ideal fazilatli obrazlarga taqlid qilish orqali oʻz shaxsini shakllantiradi. Demak, ular oʻqigan badiiy asarlardagi qahramonlar milliy identivlikning shakllanishida bevosita model vazifasini bajaradi. Badiiy adabiyot — milliy oʻzlikni his etish maktabi deb ayta olamiz. Badiiy adabiyot oʻsmir qalbiga hissiy va maʼnaviy taʼsir koʻrsatadi. Asar orqali yosh kitobxon oʻz xalqining tarixi, madaniyati, urf-

odatlari, til boyligi va iymon-e'tiqodi bilan tanishadi. O'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy va uning O'tkan kunlar asari bu badiiy adabiyotchiligimiz tarixidagi shunday asarki, nafaqat o'tgan asr kitobxonlari balki hozirgi davr kitobxonlari ham sevib o'qiydigan asar dir. A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida milliy o'zlik, ma'naviy uyg'onish va Vatan taqdiri uchun mas'uliyat g'oyasi kuchli ifoda etilgan. O'smir o'quvchi bu asarda ikki inson o'rtasidagi sevgini emas ijtimoiy hayotimizning turli jihatlarini ota-ona, ota- farzand va shu bilan bir qatorda kishilar o'rtasidagi mehr-oqibat, vatanparvarlik bilan bir qatorda yomon qabih niyatli kishilarning zalolatga uchrashi, ilmsizlikning salbiy oqibatlari ko'rsatib berilgan. Otabek siymosida milliy g'urur, halollik, vatanparvarlikni his qiladi. Mashhur adibimiz Tohir Malikning ushbu asar haqida yozganlarida shunday ta'rif beradi "Yoki Otabek Hasanaliga ish buyurishdan avval "tuzukmisiz ota" deb hol ahvol so'raydi.

- Ba'zi ishlarni buyursam …
- Buyuringiz, o'g'lim.
- Rahmat ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi
- Xo'p, begim…"

Shu qisqa savol-javobda odobning oliy cho'qqisi ko'ringan. Otabek Hasanaliga ota deb murojaat qiladi. U "o'g'lim" deb javob berdi. Otabek ish buyurganda esa "begim" dedi. Bu yerda faqat Otabekning lutfi emas. Hasanalining odobi, ziyrakligi, fahmi aks etgan. Yoki "bu kimingiz bo'ladi" degan savolga Otabek darrov javob bermaydi. "Hasanalining hujradan uzoqlatib so'ngra javob berdi"- qulimiz.

Otabek bu savolga to'g'ridan-to'g'ri shunday deganida Hasanali ranjimas edi. Chunki u qulligini "Xo'p begim" deyishining o'ziyoq bunga dalil, Otabek islomiy odob egasi bo'lgani uchun ham Hasanalini hujradan uzoqlatib aytdi bu gapni" [2.381b]. Ko'rinib turibdiki, inson hayotida kamtarlik, xushfe'llik va shu kabi yuksak fe'l-atvorlarning o'rni beqiyosligi ko'rsatib berilgan. Millatimizga xos bo'lgan qadriyatlar, urf-odatlar ko'rsatib berilgan eng nodir asardir.

Milliy identivlik g'oyasi aks etgan asarlardan biri O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridir. Bu asarda oila, mehr-oqibat, insoniylik va xalqona qadriyatlar o'smir ongida milliy tarbiya poydevorini mustahkamlaydi. Oddiy o'zbek ayolining sabr-u matonati farzandlarga bo'lgan mehr-u muhabbati e'tirof etilgan. "O'ris bolasining oyisi" nomi bilan boshlangan qismida xalqning boshqa xalq vakillariga bo'lgan munosabati o'zbek xalqining bolajonligi aks etgan. Dunyoning ishlari aslida yozuvchi tomonidan yozilgan bo'lsa ham yozuvchi e'tirof etgandek "..Dunyodagi hamma onalar farzandiga bo'lgan munosabat bobida bir-biriga juda o'xshaydi" [3].

Albatta, badiiy adabiyotimizda nafaqat o'smirlar o'qib xulosa qilishi uchu zarur bo'lgan asarlar bilan bir qatorda aynan shu davrdagi o'smirlar uchun yozilgan didaktik

asarlar ham juda ko‘p kitobxon o‘smirlarimiz va ularning ota-onalari yillar davomida bu asarlarni o‘qib o‘zlaridagi savollarga javob topib va tarbiya usullarida qo‘llab kelmoqda. Aynan o‘smirlar uchun yozilgan “Tohir Malikning “Umidimiz yulduzlariga asaridir. Adib asarni o‘smir bilan suhbat tariqasida bayon qilgan. Muqaddima qismida “Umidimiz yulduzlari, o‘smirlik olamiga o‘tganingizda, ehtimol, sizning ongingizda ham shunday fikrlar uyg‘ongandir. Lekin dildagini tilga ko‘chirishga uyalgandirsiz. Turli uchrashuvlarda katta yoshdagilar o‘smirlar va yoshlarni tanqid qilib ulardan noliydilar. Men esam ajablanaman: biz nima uchun sizlarni yomonlashimiz kerak? Agar siz yomon bo‘lsangiz, demak, avval bosh da biz yomon ekanmiz. Chunki siz bizning farzandlarimizsiz. Sizlarni biz tarbiya qildik. To‘g‘ri, o‘smirlik olamiga qadam qo‘yganingizda xatti-harakatingizda jiddiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Injiqroq, qaysarroq bo‘lib qolasiz. Dars tayyorlagingiz ham kelmay qoladi. Zerikarli ishlarni bajarishga toqatingiz yetmaydi. Hatto asabiyroq bo‘lib qolasiz. Ba’zan uyda baqirib ham yuborishingiz mumkin. Ota- onangizning bu holatingizni to‘g‘ri tushunishlarini istardim. Bu holatingiz yomon tarbiyaning boshlanishi emas, balki tabiiy jarayondir. O‘smirlikdagi illat bo‘lib ko‘ringan holatlar asta o‘nglanadi. Ota-onangiz bir masalani muhokama qilayotganlarida o‘z fikringizni bildirsangiz, “Sen hali yosh bolasan, bunaqaga aqling yetmaydi, aralashma”, deb qayirib tashlaydilarmi? Agar bir ishni noto‘g‘ri bajarsangiz “Kap-katta bo‘lib qolding-ku, shuni eplamaysanmi?” deb tanbeh berganlarida «Qaysi biri to‘g‘ri: yosh bolamanmi yo kap-kattamanmi?” deb ajablanishingiz o‘rinli. Lekin ota-onangizdan qattiq ranjimang, ularga o‘chakishmang. Ular sizni yomon yo‘lga kirib qolishingizdan cho‘chiganlari uchun ham doimo nazorat qiladilar, tanbeh beraveradilar. Odamning umr yo‘li uzun. Bir odamning yo‘li ikkinchisiga o‘xshamaydi. Hatto aka-ukalar, opa-singillarnikida o‘xshashlik yo‘q. Umr yo‘li, xoh uzun, xoh qisqa bo‘lsin, silliq, atrofi gulzor, chiroyli emas. Toshli yo‘llar, tikonli yo‘llardan ba’zan yalang oyoq yurishga to‘g‘ri keladi. Bu azobga ko‘pincha odamning o‘zi sababchi bo‘ladi. Umr yo‘lida bitta burilish nuqtasi mavjuddir. Qaysi yo‘lga burilishga hatto bir quvonchli yoki noxush voqea turtki bo‘lishi mumkin” [4]. Shunday qilib, asar o‘quvchini milliy tarix va madaniyatni his etishga, o‘zligini anglashga undaydi. Adabiyot ta’limida milliy identivlikni shakllantirish yo‘llari sifatida biz tahlillarni ko‘rib chiqish uchun adabiyotchiligimiz tarixida juda ko‘p adabiyotlarni ko‘rib chiqishimiz mumkin. O‘smirlar bilan ishlovchi adabiyot o‘qituvchisining asosiy vazifasi — asar matnini shunchaki tahlil qilish emas, balki uni milliy ruhda o‘rganishdir. Buning uchun quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- Milliy obrazlar tahlili: qahramonlarning xatti-harakatlarini milliy qadriyatlar bilan bog‘lab tahlil qilish.
- Muqoyasa usuli: milliy va xorijiy asarlardagi o‘xshash g‘oyalarni solishtirib, o‘zligimizni his etish.
- Ijodiy faoliyat: o‘smirlarni milliy mavzularda insho, esse, dramatik ko‘rinishlar yozishga jalb etish.

- Madaniy integratsiya: asarlarni xalq og'zaki ijodi, tarixiy voqealar, milliy bayramlar bilan bog'lash.

Bu usullar orqali o'smirlar adabiyotdan zavq olish bilan birga, o'z millatiga mansubligini faxr bilan his qiladi. O'smirlik — hissiy barqarorlik hali shakllanmagan, lekin idealga intilish kuchli davrdir. Shu sababli badiiy asar o'smirning ichki dunyosini boyitadi, ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi. Qahramonlarning jasorati, sadoqati, halolligi o'smirning shaxsiy "men"ini mustahkamlashga yordam beradi. Adabiyot orqali o'smir o'zining milliy ildizlarini his etadi, xalqining o'tmishini faxr bilan qabul qiladi va o'zini shu madaniyatning davomchisi deb biladi. Badiiy adabiyot o'smir shaxsida milliy identivlikni shakllantirishning eng kuchli vositalaridan biridir. U yosh avlodni milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va madaniy meros bilan tanishtiribgina qolmay, ularni o'zligini anglashga, xalqining ruhi va madaniyatiga hurmat bilan qarashga o'rgatadi. Shuning uchun ham adabiyot darslari o'smirlarning tafakkurini rivojlantirish bilan birga, ularning milliy identivligini mustahkamlashga yo'naltirilgan holda tashkil etilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romani. https://n.ziyouz.com/
2. O'tkir Hoshimov "Dunyoning ishlari" Nurli Dunyo nashriyoti. Toshkent 2024.
3. Umidimiz yulduzlariga: «Odamiylik mulki»ga doir suhbatlar / Tohir Malik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 784 b

BEShINChI ShO'BA: TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTIDA MILLIYLIK VA UNIVERSALLIK MUAMMOLARI

К ВОПРОСУ О КОНЪЮНКЦИОНАЛИЗАЦИИ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

ФЕРУЗА РУЗИКУЛОВНА ЖУМАЕВА, КАНДИДАТ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК, ДОЦЕНТ

Завкафедрой русского языка и литературы Навоийский государственный университет Республика Узбекистан, город Навои

Аннотация: цель статьи заключается в рассмотрении непродуктивного типа транспозиции – конъюнкционализации в русском языке. В русском языке в разряд союзов переходят существительные, наречия, частицы, междометия. В исследуемом языке производные союзы наречного происхождения часто употребляемы. При транспозиции меняются семантические, морфологические и синтаксические свойства конъюнкционализованных слов.

Ключевые слова: конъюнкционализация, союз, производный союз, транспозиция, переход, часть речи.

Annotation: the purpose of the article is to consider the unproductive type of transposition – conjunctionalization in the russian language. In Russian, nouns, adverbs, particles, and verb forms are classified as conjunctions. In the language under study, adverbial conjunctions are frequently used. During transposition, the semantic, morphological and syntactic properties of conjunctional words change.

Key words: conjunctionalization, conjunction, derivative conjunction, transposition, transition, part of speech.

Служебные лексемы (предлоги, союзы, частицы) способны не только транспонироваться в знаменательные, но и образовываться посредством конверсии на основе последних. В данной статье мы рассмотрим конъюнкционализацию.

К продуктивным переходным процессам в области частей речи относятся субстантивация, адъективация, адвербиализация, предикативизация, препозиционализация и интеръективация. К непродуктивным – нумерализация, прономинализация, вербализация, конъюнкционализация, модаляция и партикуляция.

Конъюнкционализация – это словообразование путём перехода различных частей речи в союзы. [2, с. 468] Конъюнкционализация относится к переходным явлениям, в результате которых слова теряют наборы

дифференциальных признаков одной части речи и приобретают свойства другой.

Вопросы конъюнкционализации рассмотрены в трудах Ш.А. Солиходжаевой, Н.Т. Лыковой, А.Б. Пардаева, А.Ю. Голубевой, А.К. Карпова и др.

Конъюнкционализация и её процесс отличаются от всех других разновидностей процесса транспозиции тем, что при функционировании субстантивации, адъективации, адвербиализации, прономинализации и вербализации переход слов из одной части речи в другую осуществляется в рамках знаменательных частей речи, т.е. самостоятельные (знаменательные) слова одной знаменательной части речи превращаются в слова другой знаменательной части речи. При конъюнкционализации слова определённой знаменательной части речи превращаются в служебные слова.

Следует отметить также, что конъюнкционализация – непрерывный процесс, происходящий в современном русском языке.

